Bo'yin limfa tugunlrini palpatsiya qilish texnikasi.



Buyrakni palpatsiya qilish

texnikasi.



Jag' osti limfa tugunlrini palpatsiya qilish

texnikasi.



Qorinni yuzaki palpatsiyasi



- a)Buyrakni palapatsiya qilish texnikasi;
- b) Chambar ichakni palapatsiya qilish texnikasi;



Qorinni yuzaki palpatsiya qilish texnikasi



O'ng yonbosh sohasini palpatsiya qilish texnikasi;




Sigmasimon ichakni yonbosh sohasini palpatsiya qilish texnikasi;



Chayqalish simptomini aniqlash texnikasi (atsit suyuqligini aniqlash);



(Chayqalish simptomini aniqlash texnikasi (atsit suyuqligini aniqlash);)




Meyo-Robson usulida meda osti bezini palpatsiya qilish nuqtalari;




Qorinni bimanual palpatsiya qilish

texnikasi;



To'g'ri ichakni

palpatsiya qilish texnikasi (ichki palpatsiya);



palpatsiya);

To'g'ri ichakni palpatsiya qilish texnikasi (ichki



Prostata bezini palpatsiya qilish texnikasi (ichki palpatsiya);



Pulsni palpatsiya qilish texnikasi;



O'pkani ko'krak qafasini old tomonidan palpatsiya qilish texnikasi

Пальпация грудной клетки с передней поверхности



O'pkani ko'krak qafasini old pastki yon tomonidan
palpatsiya qilish texnikasi

Пальпация грудной клетки с передней нижней боковой поверхности



O'pkani ko'krak qafasini qo'ltiq osti pastki qismlarini
palpatsiya qilish texnikasi

Пальпация грудной клетки с нижней подмышечной области



O'pkani ko'krak qafasini orqa tomondan kuraklar orasidan
palpatsiya qilish texnikasi

Пальпация грудной клетки с задней поверхности межлопаточной области



O'pkani yuqori bo'lagini ko'krak qafasini orqa tomondan
palpatsiya qilish texnikasi

Пальпация грудной клетки с задней поверхности верхней доли легкого







О'pkani kurak osti sohasini ko'krak qafasini orqa tomondan palpatsiya qilish texnikasi

Пальпация грудной клетки с задней поверхности ниже лопаточной области

Проекция долей легких на грудную клетку

Обозначения:

- 1 — правая верхняя доля;
- 2 — правая средняя доля;
- 3 — правая нижняя доля;
- 4 — левая верхняя доля;
- 5 — левая нижняя доля;
- IV, V, VI — ребра;
- T₃, T₁₀, T₁₂ — позвонки.





**Рене
Лаэннек**


■ Лишь в 1819 году французский клиницист Лаэннек обратился к методу аускультации, разработал и применил его в обследовании больных.

Впервые метод аускультации введен медицинский практику в 1819 году со стороны Французского клинициста Рене Лаэннека




О'рқани ко'рак қарғасини орқа томонидан ешитиш тартиби

Техника аускультации легких с задней поверхности грудной клетки



О'pkani ko'krak qafasini orqa tomonidan eshitish nuqtalari

Аускультативные точки легких с задней поверхности грудной клетки



О'pkani ko'krak qafasini old tomonidan eshitish nuqtalari

Аускультативные точки легких с передней поверхности грудной клетки






О'pkani eshitish tartibi ko'krak qafasining old va orqa tomonidan

Порядок выслушивания легких с передней поверхности грудной клетки

Проекция грудной клетки на поверхность туловища

- 1 - надключичная ямка
- 2 - яремная ямка
- 3 - ребра
- 4 - реберная дуга
- 5 - мечевидный отросток
- 6 - край грудино-ключично-сосцевидной мышцы
- 7 - трапециевидная мышца
- 8 - ключица
- 9 - клювовидный отросток лопатки
- 10 - грудино-ключичный сустав
- 11 - рукоятка грудины
- 12 - тело грудины
- 13 - хрящи ребер
- 14 - VII, VIII, IX, X ребра





ТОЧКИ АУСКУЛЬТАЦИИ СЕРДЦА





Рис. 1. Локализация везикулярного (нормального) дыхания и физиологического бронхиального дыхания на передней части грудной клетки здорового пациента (J. Gleade) [6]




О'pkani yuqori bo'lagini (Krenig maydoni) ko'krak qafasini old tomonidan eshitish nuqtalari

Порядок выслушивания верхней доли легкого с передней поверхности грудной клетки



О'pkani yuqori bo'lagini ko'krak qafasini orqa tomonidan eshitish nuqtalari


Порядок выслушивания верхней доли легкого с задней поверхности грудной клетки



Qovurg'alar oralig'i bo'yicha fonendoskopni qo'yish


nuqtalari

Места выставления фонендоскопа по межреберным промежуткам



O'pka segmentlarini ko'krak qafasida joylashish o'rni old tomondan

Место расположения сегментов легкого в грудном клетке с передней поверхности грудной клетки



О'рка segmentlarini

ko'krak qafasida joylashish o'rni yon tomondan

Место расположения сегментов легкого в грудном клетке с боковой поверхности грудной клетки



О'rkani yuqori bo'lagini ko'krak qafasini orqa

tomonidan eshitish nuqtalari

Порядок выслушивания верхней доли легкого с задней поверхности грудной клетки



О'pkani yuqori bo'lagini ko'krak qafasini orqa tomonidan

eshitish nuqtalari

Порядок выслушивания верхней доли легкого с задней поверхности грудной Клетки



Homilani yurak urishini eshirish tartibi

Порядок выслушивания сердца плода



Homilani yurak

urishini eshirish tartibi

Порядок выслушивания сердца плода

Начните с аускультации верхушек легких, двигаясь из стороны в сторону и сравнения по мере приближения к основе.

Если вы услышите осмысленный дыхательный шум, выслушайте несколько других близлежащих мест и попытайтесь оценить масштабы и характер.

• Для оценки задней грудной стенки, попросите пациента держать обе руки скрещенными перед его / ее грудью, если это возможно.



• Важно, чтобы вы всегда сравнивали то, что вы слышите с противоположной стороной.

MyShared




О'pkani old tomondan **A** va orqa tomonda **B**

eshitish nuqtalari


Точки выслушивания легкого с передней поверхности грудной клетки **A** и с задней поверхности легких **B**. Для выслушивания задней поверхности легких руки скрещивает и прижмает к груди, при этом лопатки отодвигается наружу и хорошо выслушивается легких.

Аускультация легких в норме




• Аускультация легких проводят по определенному плану: стетоскоп или фонендоскоп ставят в строго симметричных точках правой и левой половины грудной клетки.

Рис. 50. Точки и порядок аускультации легких. А – передняя, Б – подмышечная, В – задняя, Г – задняя, нижняя части грудной клетки.



О'pkани eshitish tartibi hamda eshitish nuqtalari old tomondan 1, qo'ltiq osti sohasini 2 va orqa tomondan 3-4.


Точки и порядок аускультации легкого с передней поверхности 1, точки выслушивания подмышечной области 2 и с задней поверхности грудной клетки 3-4.



O'pkani orqa tomondan auskultatsiya

qilish ketma-ketligi

Последовательность аускультации легких сзади



O'pkani o'ng yon tomondan **a** va chap yon tomondan auskultatsiya qilish ketma-ketligi

b

Последовательность аускультации боковых поверхностей легких справа **a** и слева **b**

ТОЧКИ АУСКУЛЬТАЦИИ ЛЕГКИХ

ОСНОВНЫЕ ТОЧКИ

Спереди:

- 1) над веревками (верхняя доля);
- 2) в I, II, III межреберья по средне-ключичной линии (средняя доля);
- 3) в ямках Мэдвеллса (верхняя доля);
- 4) над средней долей в IV и V межреберьях по средне-ключичной линии справа (средняя доля).

С боков:

- 1) по срединной аксиллярной линии – II-IV межреберья (верхняя доля);
- 2) по передним аксиллярным линиям – V м/р (справа – средняя доля; слева – верхняя), VI м/р (нижняя доля);
- 3) по задним аксиллярным линиям – VI-VII м/р (нижняя доля).

Сзади:

- 1) над веревками (верхняя доля);
- 2) в межлопаточных пространствах (нижняя доля);
- 3) под углами лопаток в VI, VII, IX межреберьях (нижняя доля).

Дополнительными местами выслушивания являются симметричные места над кончиками крыльев легких и над краями средней вырезки.




О'pkani orqa tomondan perkussiya qilish tartibi, ketma-ketligi va plessimetryr barmoqni joylashtirish o'rni


Порядок и последовательность перкуссии легких сзади и места выставления палец пlessиметра при перкуссии










© Can Stock Photo






















Алвеола ва капилярда

газлар алмашинуви




O'pka tuberkulyozi

Туберкулез легкий





O'pka emfizemasi

Эмфизема легкий




О'рка sarkoidozi

Саркоидоз легкий




О'рка abtseeswi

Абцесс легкий




О'рка abtseeswi


Абцесс легкий



Bemorda rentgenografiyada bronxit tasvirlangan.




O'zak oldi pnevmoniyasi




Chap o'pka atelektazi pnevmoniya bilan asorotlarga.






Ushbu soya o'choqli pnevmoniyaning belgisi.
«Фокус» инфильтрации прямой признак очаговой пневмонии




6 Segmentdagi pnevmoniyaning rentgenologik belgisi

Прикорневая локализация




Долбоверова Анна 5.5.54

Bulakli (Dolevaya) pnevmoniya.




Rentgen tasvirda ikki tomonlama **slivnoy** pnevmoniya tasvirlangan




Rentgen tasvirda gripdan keyingi interstitsial pnevmoniya tasvirlangan. Ushbu bemorning anamnezida gripp aniqlandi. Kasallikning 7 kunida bemorning tana harorati 40° S, quruq yo'tal bezovta qiladi va kuchli nafas yetishmovchiligi bilan namoyon bo'ldi. Auskultatsiyada xryllashlar eshitiladi.




Rentgen tasvirda o'pka shishi tasvirlangan



Toksik upka shishi. Kasallikning uchinchi kuni. Bemorda kuruk yutal bor.




Bemorda to'satdan ko'krak qafasining chap tomonida og'riq paydo bo'lib, hansirash, qon tupurish bezovta qilib, tana harorati 38° S gacha ko'tarildi. Anamnezida 2 hafta oldin kichik chanoqda operativ muolaja o'tkazgan. Ushbu surat kasallikning ikkinchi kunida olingan. Kasalxona ichi pnevmoniyasi.



Ikki tomonlama pnevmoniya.




Kardiogen o'pka shishi.



Interstitsial pnevmoniya

Интерстициальные пневмонии

II. Бронхоэктаз




Bronxografiya tekshirish

usuli. Bronxoektaz.



Bronxogramma. Rentgen tasvirda chap o'pkaning pastki bo'lagi qopsimon bronxoektazi tasvirlangan (rentgenogramma yon tomondan tushirilgan tasvir).



Bronxoektaz.




Bronxoektaz




O'ng o'pka o'zagi oldi abtsessi





Bullyoz emfizema



Bullyoz emfizema

3. Amaliy mashg'ulot materiallari

Amaliy mashg'ulot №1

Kirish. Ichki tibbiyotning rivojlanish tarixi. Ichki kasalliklar propedevtikasi fani. Maqsadi, vazifalari. Vrachlik deontologiyasi asoslari. Maslahat berish ko'nikmalari.

1. Amaliy mashg'ulot o'qitish moduli.

Mashg'ulot vaqti – 4 soat	Studentlar soni: 10 dan 12 gacha
Mashg'ulot formasi	Amaliy mashg'ulot
Amaliy mashg'ulot rejasi	1. Ichki kasalliklar propedevtikasi faninig vazifasi kasallarni. Tekshirish tartibi. Tibbiyot deontologiyasi haqida tushuncha. Kasallik bayonnomasi sxemasi, bemorlarni klinik tekshirish metodlari: so'rab-surishtirish, ko'zdan kechirish, palpatsiya, perkussiya, auskultatsiya. Bemorning shikoyatlari: asosiy, 2 – darajali. Hozirgi kasallik tarixi, hayot anamnezi..
Amaliy mashg'ulot maqsadi:	Studentlarga ichki kasalliklar propedevtikasi faninig vazifasi, bemorlarni tekshirish tartibi, tibbiyot deontologiyasi haqida tushuncha hosil qilish.
O'qitish uslubi	So'rov. Bemorlarni dmonstratsiya qilish, interaktiv o'qitish uslubi, amaliy ko'nikma.
O'qitish formasi	Kichik podgruppalarida.
O'qitish jihozlari	O'quv qo'llanma, amaliy mashg'ulotlar mundarijasi, proektor, kompyuter.
O'qitish holati	Metodik jihozlangan auditoriya.
Monitoring va baholash	Og'zaki kontrol: savol-javob, testlar, muammoli masala.

1.2. . Amaliy mashg'ulot texnologik kartasi

Ish bosqichlari va vaqti.	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorlov bosqichi	<ol style="list-style-type: none"> 1. Auditoriya tozaligini nazorat qiladi 2. Talabalarni mashg'ulotga tayyorgarligini tekshiradi 3. Davomatni nazorat qiladi 	
1. O'quv mashg'ulotiga kirish bosqichi (10 daqiqa)	<ol style="list-style-type: none"> 1. Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash. 2. Kirish ma'ruzasi uchun taqdimot silaydalarini tayyorlash 3. Fanni o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini ishlab chiqish 	
2 – asosiy bosqich (160 daqiqa)	<ol style="list-style-type: none"> 1. Talabalarni kichik guruhlariga bo'lib, mavzu bo'yicha savollarni beradi. 2. Ko'rgazmali plakatlardan foydalanadi 3. Slaydalar, multimedialardan foydalanadi 4. Davolash ishlarini olib boradi 5. Mavzular asosida berilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi, faol ishtirokchi talabalarni rag'batlantiradi va umumiy baholaydi 	<p>Kichik guruhlariga bo'linadilar Tomosha qiladilar</p> <p>qatnashadilar Tinglaydilar va savollarga javob beradilar</p>
1-yakuniy bosqich	<ol style="list-style-type: none"> 1. Yakunlovchi xulosa qiladi 2. Mustaqil ish beradi 	<p>Tinglaydi Yozib oladi</p>

(10 daqiqa)	3. Uyga vazifa beradi	Yozib oladi
-------------	-----------------------	-------------

3.Talabalarining nazariy bilimlarini baholash:

A)Frontal usuli:

- 1.Amaliy tibbiyotning asosiy vazifasi nima?
- 2.Kasallik nima?
- 3.Kasallikning qanday sabablarini bilasiz?
- 4.Diagnostika va diagnoz nima?
- 5.Dientologiya nima?
- 6.Qanday tibbiyot hujjatlarini bilasiz va ular qachon to'ldiriladi?
7. Simptom nima?
- 8.qanday simptomlarni bilasiz?
- 9.Qaysi shikoyatlar asosiy va qaysi shikoyatlar qo'shimcha shikoyatlarga kiradi?
- 10.Kasallikning rivojlanishi so'rab-surishtirishda nimani aniqlash kerak?
- 11.Bemorning hayot tarixi qaysi punktlari o'z ichiga oladi?
- 12.Allergologik anamnez qaysi maqsadda olinadi?
- 13.Palpatsiya usuli nima?
14. Palpatsiya usulining diagnostik ahamiyati?
- 15.Perkussiya usuli nima?
- 16.Perkussiya usulining diagnostik ahamiyati?
- 17.Auskultatsiya usuliga tushuncha berish?
- 18.Auskultatsiyaning diagnostik ahamiyati?

“Miya shturmi” usuli

Asosiy qoidalari:

- G'oya paydo bo'lishiga halaqit beruvchi kamchiliklarni aytmaslik
 - G'oyalar va fikrning yuksakligi, chunki g'oya qanchalik noodatiy bo'lsa, shunchalar u yaxshi
 - Ko'p takliflarni qabul qilish
 - G'oyalar kombinatsiyasi va ularning rivojlanishi
 - Fikrni argumentatsiyasiz lo'nda qilib taqdim etish
 - Gruppani ikkiga bo'lish: fikr generatorlari va fikrni analiz qiluvchilarga
- Bu usul g'oya va fikrlarni argumentatsiyalashni, o'zining shaxsiy fikrini, har qanday holatlarda optimal yechim topishga sharoit yaratadi.

Shifokorlik va bemor munosabati.

Tibbiyot deontologiyasi shifokorlarning burchi va odobi haqidagi fan bo'lib, shifokorlar, talabalar hamda kichik tibbiyot xodimlarning xatti-harakatini belgilaydigan mafkuraviy va ma'naviy dasturamaldir.

Mazkur risolada biz deontologiyaning ma'lum bir jabhasi bo'lmish «shifokor va bemor munosabatlari» haqida so'z yuritamiz.

Tibbiyot deontologiyasi shifokordan avvalo insoniy fazilatlarga ega bo'lishni taqozo etadi. Bu fazilatlar bilimdonlik, odamiylik, jasorat, mehr-shavqat, xush-muomalalik, halollik, pokizalik, insoflilik, sofdillik, ziyraklik, hozirjavoblik, bosiqlik, kamtarlik, izlanuvchanlik, andishalikda ko'rinadi.

Bemor kasalxonada o'z yaqinlari va do'stlaridan uzoqda, ko'pincha, o'zini yolg'iz his etadi, yangi sharoitga moslashishi qiyin bo'ladi, shuning uchun ham shifokor kasallarga e'tibor bilan qarab, g'amxo'rlik ko'rsatishi darkor. Bemorni, ko'pincha, bo'limda uchraydigan kamchiliklar: davo muolajalarini o'z vaqtida bajarilmaganligi, bemorxonalarining sovuqligi, ovqatning kechikib kelganligi va

h.k. asabiy holatga olib kelib, o'zaro munosabatlarni chigallashtiradi. Bu esa davvo natijasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu muammolar yechimida shifokorlikning tutgan o'rni, vazifasi beqiyosdir.

Tibbiyot olamida vujudga kelgan ko'pgina muammolarning hal qilinishi shifokorning vijdoniga, axloqiy madaniyatiga va ma'naviyatiga bog'liq.

«Ma'naviyat» insonga nihoyatda zarur omil bo'lib, bu uning qalb ko'zgidir. Aynan shifokorlar ma'naviyatli, yuqori madaniyatli bo'lmoqlari zarur, chunki ular doimo el orasidadirlar. Ma'lumki, kishi ma'naviyatining asosi bilimdir. Yuksak bilim va malakaga ega bo'lgan o'quvli shifokor o'ta intizomli bo'lib, boshqalarga ham har ish, har yumushda ibratli bo'lsalar yarashadi. Ba'zilar muammolarni joyiga qo'yib: «Amakijon, yaxshi uxlab turdingizmi? Kayfiyatlar yaxshimi? Ertalabki dorilarni iste'mol qilib oldingizmi? Kechagidan ko'ra ancha tetiksiz, xudo xohlasa, yaqinda otday bo'lib ketasiz», – deb yupatadi. Bu iliq so'zlardan kasalning chiroyi ochiladi. Ba'zi shifokor esa hali ham yotibsizmi? Qo'l-yuzni yuvdingizmi? Bunday qilsangiz dorining unumi bo'lmaydi», – deb qo'pollik qiladi. Bu albatta bemor ruhiyatiga yomon ta'sir qiladi. O'z bemoriga munosabat ham shu bo'ldimi? Qani oddiy ma'naviyat? Qani oddiy odob, intizom tushunchasi? Ba'zan butun bir davvo maskanida qator hamshira bo'lgan holda birorta shifokor tomirga igna bilan tushish mahoratini bilmaydi. Gohida o'n to'rt joyingga igna qadab «tomiringiz qochib ketyapti» deb bahona qiladi. Bu esa asabga tegadi.

Yo deydik, bemorga huqna (klizma) qilish zarur bo'lib qoldi. Darhol «Vazelinizing bormi?» – deb so'raydi. Yo'q desa, chala yuvilgan rezina idishni suvga bir chayib, ishni bajarishaveradi. Bu to'g'ri emas. Shifokor, albatta kerakli narsalarni avvaldan tayyorlab qo'yishi lozim.

Ayrim shifokorlarda diagnostika haqida tushuncha yo'q. Ko'pincha u «Bemor yomon bo'lib qoldi» degan iborani ishlatadi. Shuningdek, hatto zuluk solishni ham bilmaydi. Nahotki bilim yurti talabalari o'qish, o'rganish davomida tomirga tushish, zuluk solishni o'rganib olmasa. Bizning nazarimizda, musiqaga yoshdan tanlanganidek, shifokorlik, hamshiralik ishiga ham, ko'rik-tanlov orqali, alohida mehribon, e'tiborli, insonparvar odamlarni o'qishga olish zarur. «Bu yerda matematikasi yo'q ekan, kiraveray», – deydigan xudbin, o'ziga ortiqcha bino qo'ygan odamlar tibbiyotga yaroqsizdirlar.

Bizningcha, Talabalar faqat shifokor aytgan ishni xotirjamgina, loqaydgina bajarishi to'g'ri emas. Talabalar – oddiy ijrochi emas. U o'z shifokori yonida, garchi birovga buyurmasa, ham yana bir shifokorga aylanishi zarur. U tibbiyot jabhasida millatimizning obro'si va madaniyatini ko'taruvchi va ayni chog'da o'ta mas'ul shaxsdir.

Jahondagi yirik davlatlar qatoridan joy olgan, aholisining yarmidan ko'pini o'quv yoshidagi bolalar va yoshlar tashkil qiladigan O'zbekiston, albatta, a'lo darajada ishlaydigan talabalar «qo'shin»iga ega bo'lishi zarur. Bu «lashkar» xalq sog'ligi uchun olib boriladigan sabr-toqat va izchillikni talab qiluvchi jabhalarda asosiy kuchdir. Bir narsani ko'zda tutaylik: bemor vrachni kuniga faqat bir necha daqiqagina ko'radi, talabalar esa tun-u kun doimo yonma-yon. talabalar vrach ko'rsatmalariga amal qilgan holda bemorning sog'lig'ini tiklashga harakat qiladi. Kasalxonada ish qizib turganda ham, hamma ishlar tugallanib, davolovchilar uy-uylariga ketganlarida, zim-ziyo qorong'ilik tushganda ham bemorning oldida hamroh, va hamdard bo'lib qoluvchi inson yakka-yu yagona talabadir.

Talaba so'zining o'zi nihoyatda chuqur mazmunga ega. Talaba bir onadan sut emgan, degani. Demak, u har birimiz uchun tug'ishgan opa va singil. Gap shunda-ki, Talaba ayni vaqtda tibbiyotning rasmiy vakilasi. U vrach bilan bemorni bog'lab turuvchi va shu sababli dardini to'g'ri aniqlab, zarur dori-darmonlarni belgilashi mumkin. Lekin bu ko'rsatmalarning qay tarzda ijro etilishi va binobarin, samarasi talabaga bog'liq. Xo'sh, talaba bemor bilan qanday so'zlashgani ma'qul: uzoqmi yoki qisqa? Kasal bilan so'zlashish vaqti ko'pgina omillarga bog'liq bo'lib, talabadan juda nozik, o'ziga xos me'yorni talab etadi. Suhbat davomiyligi va mazmuni bemorning ahvoli, uning madaniyat darajasi, fe'l-atvor xususiyatlariga bevosita bog'liqdir. Shunga ko'ra, bemor bilan suhbatlashayotganda, talaba me'yorni bilishi, kasalning suhbatdan qanday ta'sirlanayotganini sinchkovlik bilan kuzata olishi kerak. Barcha tushuntirishlar lo'nda, aniq, qat'iy, bemorlar uchun mutlaqo tushunarli bo'lmog'i lozim. Yoqimli va shirin so'z bilan murojaat

qilishda, samimiy tabassumda hamshiraning o'z bemorlariga g'amxo'rliги va diqqat-e'tibori ifodalanadi. Biroq talabaning diqqat-e'tibori va samimiyligi xufiyona tarzda bo'lmasligi, hamshira bemorning o'rtadagi yaqinlik munosabatlarini suiste'mol qilishiga yo'l qo'ymasligi va shunga muvofiq o'zining xatti-harakatlarini tartibga solishi va bemorning xulq-atvorini kuzatib borishi kerak. Bemor bilan suhbatda uning kechinmalarini yengillashtirishga intilish belgilangan dori-darmonlarga qaraganda yaxshiroq shifobaxsh ta'sir ko'rsatadi hamda bemor tomonidan katta minnatdorchilikka sazovor bo'ladi. Bemorni diqqat bilan tinglay olish kasal haqida zarur ma'lumotga ega bo'lishda yordam beradi. Talaba ishga kelgani zahoti o'zining barcha bemorlaridan xabar olishi va ish kuni yakunida hech bo'lmaganida juda qisqa muddatga barcha bemorlarining xonasiga kirib chiqishi ayni muddao bo'lar edi. Bu bemor ruhiyatiga bag'oyat ijobiy ta'sir ko'rsatadi: bemorlar o'zlarini bir necha soat davomida talabaning uzluksiz kuzatuv ostida sezadilar, talaba ana shu vaqt ichida o'zlariga xizmat ko'rsatishiga, uning juda ham ziyrak ekanligiga, kun davomida xastalardan bir necha marotaba xabar olishiga ishonch hosil qiladilar.

Erta bilan bemorlar yotadigan xonalarga qilingan tashrif 5-10 daqiqa davom etsa-da, bu ular uchun naqadar katta ahamiyatga ega.

Tibbiyotda shunday bir ibora bor: «Yaxshi parvarishlangan bemor». Bunda bemorlarning yaxshi jismoniy, gigiyenik parvarishigina (yaxshi ovqatlantirish, joylashtirish, xona havosini o'zgartirish, kiyim-kechak va to'shak anjomlarining tozaligi va h.k.) emas, avvalo mohirlik bilan olib borilgan «ruhiy parvarish»: bemorga to'g'ri ma'lumot berilgani, ruhiy ahvoli yaxshiligi, asta-sekin tiklanayotganligi, talaba bilan yaxshi munosabatda ekanligi tushuniladi. Ish kunining boshi va oxirida talabalarning palatalariga qisqa muddatli tashrifi davolash muassasalarida «iliq ruhiy iqlimning» yaratilishiga asos bo'ladi.

Talaba bemor bilan o'zaro munosabatda bo'lar ekan, kasalning shaxsiy xususiyatlarini, kasallik keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan asabiy ta'sirlanishini, madaniyat darajasini hisobga olishi va albatta shifokor sirini oshkor qilmasligi kerak. Shifokor siri deganda, asosan bemor to'g'risidagi ma'lumotlar (bu ma'lumotlarni asosan bemorning o'zidan olinadi), kasallikning noxush kechishi, psixologik (inson ruhiga) ziyon yetkazuvchi tashxis tushuniladi. Tibbiyot xodimining faoliya-tida ko'pincha shunday hollar bo'ladiki, shifokor siri «aldash» bilan bog'liq, uni «muqaddas yolg'on» deb ataladi. Masalan, kasalligi o'limga olib boradigan bemorga uning kasalligi og'ir ekanligini gapirmaslik kerak. O'limi aniq bo'lgan bemorlarga ular sog'ayib ketishiga umid bildirib aytilgan so'zlar ularga tasalli beradi. Kasallikning tarzi va uning qanday tugashi haqidagi ma'lumotlarnigina emas, shu bilan birga, bemorlarning xufiyona hayoti haqidagi ma'lumotlarni ham oshkor qilib bo'lmaydi, chunki bu hol ularga qo'shimcha azob-uqubat keltirishi va shifokor, hamshiraga bo'lgan ishonchga putur yetkazishi mumkin.

Tibbiyot talabasi bemorga uning haqiqiy tashxisini ma'lum qilishi yoki qilmasligi haqida fikr yuritishi zarur. Agar talaba bemorga tashxisni bildirishga qaror qilsa, uning bosqichi, asoratlarini yengil shaklda, bemorni asta-sekin tayyorlagan holda bosqichma-bosqich aytishni o'ylab ko'rishi kerak. Tabiiyki, bemorga hamma narsani gapirib bo'lmaydi, lekin ziyoli, tushunadigan kishi bilan «sukut saqlash» yoki ikkilanish, foydadan ko'ra ko'proq zarar keltiradi.

Bir qator kasalliklarda, jumladan, zararli o'smalari bo'lgan xastalarga tashxis ma'lum qilinmaydi, onkologiya shifoxonasiga kelgan kasal o'zidagi shishning «yomon» yoki «yaxshi» ekanligini aniqlash iztirobini boshdan kechiradi va tabiiyki, buni vrachdan yoki talabadan so'rab bilishga harakat qiladi. Onkologik kasallikka uchragan bemorlar psixikasi juda nozik va ta'sirchan bo'ladi, bu hol, ayniqsa, kasallikning yaqinlashib kelayotgan oqibatini his qilganda namoyon bo'ladi. Bunday sharoitda talaba ning baland ovoz chiqarib gaplashishi, qah-qaha bilan kulishi bemorni ruhiy muvozanatdan chiqarib yuborishi mumkin. Bemorlarga tashxis, davolash, kasallikning asoratlari va qaytalashlari oldini olish bilan bog'liq bo'lgan ko'pgina ma'lumotlar bildiriladi, o'z-o'zidan yordam berish yo'llari ko'rsatilib, maxsus eslatmalar bilan ta'minlanadi. Masalan, oddiy misol - qandli diabet kasalligini mohiyatini talaba

faqatgina tushuntirmay, balki - diabetga qarshi parhez, in'ektsiyalarni bajarish texnikasini o'rgatishi, turli xil insulinlar va ichiladigan dorilarning xossalari, komadan oldingi holat belgilari va boshqalar haqida ma'lumot berishi kerak. Shu tariqa tushuntirishlar infarktdan keyingi kardioskleroz, xafaqon kasalligi, aritmiyalar, oshqozon-ichak yara kasalligi va boshqa xastaliklari bo'lgan bemorlar uchun zarurdir.

Talabaning o'lim ehtimoli bo'lgan og'ir bemor to'shagi yonidagi xatti-harakatlari tibbiyot deontologiyasining muhim va mushkul masalasi bo'lib kelmoqda. Masalan, bemorga o'lim ehtimolini ma'lum qilish yoki qilmaslik, masalasi, agar bu haqda bildirib qo'ymaslik kerak bo'lsa, uni qaysi sharoitda va qay tarzda amalga oshirishdadir. Barcha zamonlarda bu masala muqarrar ravishda manfiy yechimga ega bo'lgan. Buning uchun bir qator keskin asoslar va fikrlar mavjud. Bemorga mutlaqo najotsiz oxir-oqibat to'g'risidagi achchiq haqiqatni ma'lum qilish - bu avvalo uning hayotidagi eng muhim narsa - umidini tortib olish, oxirgi kunlari va soatlarini zimiston tunga, tubsiz qora jarlikka tushishga aylantirishdir. Bunday hollarda hamshira bemor ko'ngliga sog'ayib ketish umidini solishi va unda kasallikka qarshilik ko'rsatish hissiyotini uyg'otishi zarur.

Talaba bilan bemor o'rtasidagi munosabatning yana bir muhim tomoni bemorga tayinlangan individual tartib, parhez, dori-darmonlar bilan davolanishi rejalarini tushuntirish va to'g'ri tashkil etishdan iborat.

X asrning taniqli olimi Ali Ibn Abbos Ahvaziy o'zining «Shifokorlar uchun o'gitlar» asarida yozganidek, bemorlarni davolash jarayoniga e'tibor berish va davo uchun faqatgina dorilarni emas, balki to'g'ri ovqatlanishni ham qo'llashga harakat qilish zarur. Bemorlarga xavfli dorilarni buyurish, shuningdek, ularni u yoki bu xastalikni davolayotganda bemorlar orasida targib etish mumkin emas. Faqatgina tartib va ma'lum dorilarni qabul qilish, parhez to'g'risida batafsil, qat'iy va ishonтира oladigan darajadagi ko'rsatmalarning o'zigina emas, balki qayta aloqani ham nazorat qilish zarurdir.

Deontologiyada «yatrogeniya» tushunchasi bor. Bu vrachning yoki talabaning farosatsizligi, nojo'ya ko'rsatmalari, qo'pol xatti-harakatlari, bilimsizligi va loqaydligi, bir so'z bilan aytganda, tibbiyot xodimining aybi bilan paydo bo'lishi mumkin bo'lgan yana bir kasallikdir. Bu buyuk tib allomasi Suqrotning «Rgemum non nosege», ya'ni «Bemorga eng avvalo zarar keltirma» degan deontologik naqlning buzilishi oqibatidir. Bunday kasallik bugungi kunda uchraydigan xastaliklarning taxminan 10 foizini tashkil qiladi. Bu shifokorlar va hamshiralalar orasida hali ham o'z deontologik burchini to'la tushunib yetmaydiganlar borligidan darak beradi. Shuningdek, egrotogeniyalar, ya'ni bir xasta kishiga boshqa bir bemor so'zining salbiy ta'siri ham mavjud. Shifoxonalarda ko'pincha ba'zi bir bemorlarning o'z xonasidagi xasta qo'shnisiga ma'lum darajadagi ta'siri sezilib, u ruhiy tanglikni, xavotirni keltirib chiqaradi. Bunday holatni, o'z fikricha tibbiyot xodimlaridan ham chuqurroq bilimga ega bo'lgan, «azaliy» bemorlar keltirib chiqarishlari mumkin. Ular, kasalxonaga kelgach, bemorlarga maslahat va tavsiyalar beradilar. Aksariyat hollarda o'z tinglovchilarini ruhiy tushkunlik holatiga olib keluvchi qayg'uli va mash'um «oldindan aytish fikrlari» bilan o'rtoqlashadilar. Bu kabi egrotogeniyalarning oldini olishda aynan talabaning bo'lim tartibi, bemorlarning ma'lum majburiyatlari, intizomi va bir-birlari bilan o'zaro munosabatlari haqida to'liq va monand axborot berishi, muntazam ravishda o'tkaziladigan suhbat va xabarlar katta ahamiyatga ega. Bu o'rinda bemorga tanbeh berish uslubi singari xususiy masala to'g'risida to'xtalib o'tish ham foydadan holi emas. Tanbeh berish zaruriyati, ko'pchilik hollarda bemor shifoxona rejimi, intizomi, bo'lim tartibini buzganda yuzaga keladi.

Talaba bunday hollarda bemor bilan juda ravshan, tushunarli, aniq, ishonтира gaplashishi kerak. Bu suhbatning faqat natijasigina muhimdir: bemor tanbehni to'g'ri tushunishi va talaba saboqlarini to'liq qabul qilishi lozim. Shu bilan birga, bunday suhbat bemorning ahvoliga hech ham yomon ta'sir qilmasligi darkor. Bemor talaba bilan ilgaridek mehribon va yaqin munosabatda ekanini, yotsirash yoki ziddiyat vujudga kelmaganini sezishi zarur.

Shu tariqa, yuqori deontologik kuchga ega bo'lish, xususan, bemorlar bilan munosabatda uquvli bo'lish talaba faoliyatidagi zaruriy ko'nikmadir.

Compliance – shifokor va bemor oʻrtasidagi doʻstona munosabatni oʻrnatilishi. Bemor ahvolining yaxshilanishi shifokor bergan maslahatlarga rioya qilishi hammuhim oʻrin tutadi. Kasalxonadan chiqqan bemor ayniqsa surunkali tashxislar bilan maʼlum muddat uyda davom ettirishi lozim. Agar vrach va bemor oʻrtasida “compliance” oʻrnatilmagan boʻlsa, bemor shifokor bergan tavsiyalarni bajarmaydi, bu esa kasallikning kechishini ogʻirlashtirishi mumkin. Bu oʻz navbatida iqtisodiy – moliyaviy muammolarga olib keladi.

Baholash mezonlari №1

Mavzuning nomi	Ball	Baho	Talabanning bilim darajasi
Ichki kasalliklar propedevtikasi fanining vazifasi kasallarni. Tekshirish tartibi. Tibbiyot deontologiyasi haqida tushuncha. Kasallik bayonnomasi sxemasi, bemorlarni klinik tekshirish metodlari: soʻrab-surishtirish, koʻzdan kechirish, palpatsiya, perkussiya, auskultatsiya. Bemorning shikoyatlari: asosiy, 2 – darajali. Hozirgi kasallik tarixi, hayot anamnezi	86-100	Aʼlo	Xulosa va qaror qabul qila oladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, amalda qoʻllay oladi, mohiyatini tushuntiradi, biladi, aytib bera oladi, tasavvurga ega.
	71-85	Yaxshi	Mustaqil mushohada yuritadi, amalda qoʻllay oladi, mohiyatini tushuntiradi, biladi, aytib bera oladi, tasavvurga ega.
	55-70	Qoni qarli	Mohiyatini tushuntiradi, biladi, aytib bera oladi, tasavvurga ega.
	0-54	Qoni qarsiz	Tasavvurga ega emas, bilmaydi.

Mustaqil ish. Tibbiyot deontologiyasi. Evtanaziya muammolari yatrogeniya

Uyga vazifa. 2.

Amaliy mashgʻulot №2

Bemorlarni umumiy koʻzdan kechirish: umumiy holati, es hushi, vaziyati, tana tuzilishi. Bemorni tana qismlari boʻyicha koʻzdan kechirish: bosh, yuz, boʻyin, teri qoplamlari, suyak-mushaklari, boʻgʻimlari.

1. Amaliy mashgʻulot oʻqitish moduli.

Mashgʻulot vaqti – 4 soat	Studentlar soni: 10 dan 12 gacha
Mashgʻulot formasi	Amaliy mashgʻulot
Amaliy mashgʻulot rejasi	1 Bemorni alohida soʻrab-surishtirish. Talabalarning bemorlar bilan alohida ishlashi, shikoyatlar yigʻindisi va kasallik hamda hayot anamnezi. Bemorlarni umumiy koʻzdan kechi-rish (bemorning umumiy ahvoli, es-hushining holati, tana tuzilishi). Umumiy koʻzdan kechirish qoidalari, bemorni umumiy tekshirish. Tana qismlari

	bo'yicha ko'zdan kechirish: bosh, yuz, bo'yin, qo'l-oyuqlar, teri qoplamlari. Isitma. Harorat o'zgarishlari. Antropometriya. Antropometrik formula. Kasallik tashxisida antropometriya ahamiyati.
Amaliy mashg'ulot maqsadi:	Talabalarga bemorlar bilan alohida ishlashni, shikoyatlar yig'indisi va kasallik hamda hayot anamnezi tuzishni va bemorlarni umumiy ko'zdan kechirishni o'rgatish..
O'qitish uslubi	So'rov. Bemorlarni dmonstratsiya qilish, interaktiv o'qitish uslubi, amaliy ko'nikma.
O'qitish formasi	Kichik podgruppalarida.
O'qitish jihozlari	O'quv qo'llanma, amaliy mashg'ulotlar mundarijasi, proektor, kompyuter.
O'qitish holati	Metodik jihozlangan auditoriya.
Monitoring va baholash	Og'zaki control: savol-javob, testlar, muammoli masala.

1.2. . Amaliy mashg'ulot texnologik kartasi

Ish bosqichlari va vaqti.	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorlov bosqichi	4. Auditoriya tozaligini nazorat qiladi 5. Talabalarni mashg'ulotga tayyorgarligini tekshiradi 6. Davomatni nazorat qiladi	
1. O'quv mashg'ulotiga kirish bosqichi (10 daqiqa)	1.Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash. 2.Kirish ma'ruzasi uchun taqdimot silaydalarini tayyorlash 3. Fanni o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini ishlab chiqish	
2 – asosiy bosqich (160 daqiqa)	1. Talabalarni kichik guruhlariga bo'lib, mavzu bo'yicha savollarni beradi. 2. Ko'rgazmali plakatlardan foydalanadi 3. Slaydalar, multimedialardan foydalanadi 4. Davolash ishlarini olib boradi 5. Mavzular asosida berilgan ma'lumotlarni umumlantiradi va xulosalaydi, faol ishtirokchi talabalarni rag'batlantiradi va umumiy baholaydi	Kichik guruhlariga bo'linadilar Tomosha qiladilar Qatnashadilar Tinglaydilar va savollarga javob beradilar
1-yakuniy bosqich (10 daqiqa)	1. Yakunlovchi xulosa qiladi 2. Mustaqil ish beradi 3. Uyga vazifa beradi	Tinglaydi Yozib oladi Yozib oladi

3.Talabalarining nazariy bilimlarini baholash:

A)Frontal usuli:

1. Bemorlarni alohida so'rab surishtirishning ahamiyati.
2. Anamnesis morbi to'g'risida tushuncha
3. Anamnesis vitae to'g'risida tushuncha
4. inspektio nima?
5. Asosiy va qo'shimcha tekshirish usullari
6. Umumiy ko'zdan kechirish texnikasi.
7. Es-hush turlarini aytib berish
8. Stupor holatiga baho bering

9. Sopor holatiga baho bering
10. Koma holatiga baho bering
11. Bemor holatidagi qanday o'zgarishlarni bilasiz?
12. Aktiv holat nima?
13. Passiv holat nima?
14. Majburiy holatlar to'g'risida tushuncha bering
15. Tana tuzilishi deganda nimani tushunasiz?
16. Astenik tipga tavsif bering
17. Giperstenik tipga tavsif bering
18. Normostenik tipga tavsif bering
19. YUZ tuzilishi va qiyofasining diagnostik ahamiyati
20. "Korvizor usuli"ga tavsif bering
21. SHoshinqiradigan Yuzga tavsif bering.
22. Fasiyes febriliga tavsif bering
23. Endokrin kasalliklarida Yuz tuzilishi va qiyofaning o'zgarishi
24. "Parkinson maska"si va "sardonik kulgi"ga tavsif bering
25. Fasiyes Gippakratika nima?
26. og'iz bo'shlig'ini ko'zdan kechirishda nimalarga e'tibor beriladi.
27. Ko'z ,qovoq,qorachig' o'zgarishining diagnostik ahamiyati
28. Terini ko'zdan kechirganda nimalarga e'tibor beriladi
29. Ko'zdan kechirishda teri osti yog' qavatida qandayo'zgarishlarni ko'rish mumkin
30. Ko'zdan kechirishda mushaklar va bo'g'imlarda qanday o'zgarishlarni ko'rish mumkin
31. Limfa tugunlari normada va patologiyada
32. termometriya koidalarini aytib bering
33. termometriya koidalarini aytib bering
34. Tana xaroratini "isitma varaqasi"ga qanday belgilaysiz?
35. Isitmaning turlari
36. Isitma davrlari klinikasi
37. Asosiy isitma turlarini chizing
38. Atropometrik nima? O'tkazish qoidalari.
39. Atropometrik indeksleri,turlarini izohlang

"Stol o'rtasida ruchka" usuli

Butun gruppaga savol beriladi (masalan, qandli diabet simptomlari, beta-blokator gruppasiga mansub dori darmonlar, YuIK moyillik omillari). Har bir talaba o'z javobini varaqqa yozib oladi va hamsoyasiga yuboradi, ruchkani esa stol o'rtasiga qo'yadi.

O'qituvchi gruppaga ishini kontrol qiladi va umumiy variantni daftoriga yozib oladi.

Bemorlarni umumiy va mahalliy ko'zdan kechirish.

Bemorning umumiy ko'zdan kechirish turli xil kasalliklar tashxisi uchun juda muhim hisoblanadi. Bemor bilan suhbatlashish vaqtida siz bir qator o'zgarishlarni ko'zdan kechirishingiz zarur. Umumiy kuzatishlarga bemor bilan suhbat va uni umumiy ko'rigi kiradi. Obyektiv ma'lumotlarga bemorni umumiy ko'zdan kechirish ya'ni teri qoplamlari, shilliq qavatlar, teri osti yog' kletkachasi, mushak, bo'g'im va suyak tizimlari holatini baholash kiradi. Bemor holatini baholash bilan birga patologik o'zgarishlar yoki depressiya borligini ham inobatga olishingiz zarur bo'ladi.

Bemorning yuz tuzilishi, so'zlashishiga ham e'tibor qaratmoq lozim. Etnik kelib chiqishiga qarab bemorning yuz rangini hamda gavda tuzilishini kuzatishingiz kerak. Mazkur ko'rik orqali siz ko'pgina ma'lumotlarga ega bo'lasiz. Ko'rik jarayonida xona haroratining tana haroratiga yaqin bo'lishi, tibbiyot xodimi va bemorning qulay vaziyatni egallashi lozimdir. Shunga ko'ra bemor ko'rigi vizual baholanadi.

Bemorni umumiy ko'rik vaqtida badanining biror bir qismi nazardan chetda qolmasligi uchun yaxshilab ko'rikdan o'tkazganingizga ishonch hosil qilishingiz kerak. Odam organizmining tuzilishi barcha tizimlar bo'yicha tekshiriladi.

Qanday tekshirish usullaridan foydalanilmasin quyidagilarni bilishingiz kerakdir: rang ko'satkichlari, hid bilish, o'lchov, simmetriya va harakat (yoki uning mavjudsizligi) va boshqalar. Bemorning ahvolini baholashda uning holatini qay darajada ekanligini aniqlab olish shart, masalan, ko'zlarning holati, ko'krak qafasi va gavdaning tuzilishi ko'zdan kechiriladi. Bulardan tashqari bemorga to'g'ri va aniq tashxis qo'yish uchun muhim bo'lgan boshqa belgilarga ham e'tibor qaratish lozim. Demak bemorni quyidagi reja asosida tekshiruvdan o'tkazamiz:

Bemorning es-hushini aniqlash. Bemorning es-hushi saqlangan yoki xiralashgan bo'lishi mumkin.

1.Stupor (stupor). Mazkur holatda bemor atrofidagilarga befarq, savollarga noaniq, kechroq va qiyinchiliklar bilan javob beradi.

2.Sopor holati (sopor). Bunday holatda bemor uyqu holatida bo'ladi. Uni uyqudan uyg'otib suhbatlashish mumkin, keyinchalik bemor yana o'z holatiga qaytadi.

3.Koma holati (coma). Bunda bemorning barcha reflekslari yo'qoladi. Ahvoli og'irlashadi. Qattiq uyqu holatiga ketadi. Koma quyidagi kasalliklar (qandli diabet, buyrak kasalliklari, miya qon aylanishlarining izdan chiqishi, o'tkir infeksiyon kasalliklar, jigar kasalliklari, miyaga qon quyulishi, miya shikastlanishi, narkotik moddalar ta'siri alkogolizm, morfin, veronal va boshqa narsalar bilan zaharlanishi, malyariya, meningit, tutqanoq va hokazo)da tez rivojlanadi. Komatoz holatni juda ham og'ir kasallik oqibati sifatida ko'rish mumkin.

Yuqorida keltirilgan kasalliklarda bemorning haddan tashqari vajohatliligi, es-hushining noaniqligi sababli atrofidagilarga zarar keltirish holatlari kuzatiladi.

Bemorning holati. Bemorning quyidagi holatini kuzatish mumkin:

1.Faol holat - mazkur holatda bemor yotgan joyida o'z holatini o'zgartirishi mumkin va erkin mustaqil ravishda o'zi yura oladi.

2.Passiv (sust) holat- qachonki bemor joyida qimirlamay yotadi va tevarak atrofiga e'tiborsiz bo'ladi va o'zgalor yordamiga muhtoj bo'ladi .

3.Majburiy holat - bemorning ahvolini yengillashtiruvchi holat. Majburiy holat turli xil bo'lishi mumkin. Masalan, yurak qon-tomir xastaliklarida chalingan bemorlar o'ng tomonda yotishni va ortopnoe holati (bemor o'tirgan holatda oyoqlari pastga tushirilgan) ni ma'qul ko'radilar.

Majburiy holatga - boshqa kasalliklar (bronxial astma, bronxoektaz, plevrit, yallig'lanish, peritonit, appenditsit va hokazo) bilan xastalangan bemorlar misol bo'la oladi. Bronxial astma xastaligiga chalingan bemorlar odatda o'z joylarida yotmaydilar, aksincha stulda qo'llari bilan tizzani ushlab tong ottiradilar. Bunday holatda nafasni yordamchi mushaklari nafas aktida ishtirok etadi va bemorning ahvolini oz bo'lsa-da yengillashadi.

Ba'zi bir kasalliklar (o'tkir peritonit, appenditsit) da qorin qismida qattiq og'riqlar paydo bo'lsa, oyoqni ikki qatlab chalqancha yotiladi.

Oshqozon osti bezi raki , diafragmal plevrit, umurtqa sili xastaliklarida bemor ko'pincha yotishni ma'qul ko'radi. Bunday holat qorindagi og'riq hissini sekinlashtiradi.

Oshqozon yara (yazva) kasalligida qorin qismini qo'llar bilan bosib turish kerak, shunda og'riq asta- sekin pasayadi.

Meningitda esa bemor majburan yonboshlab yotib, ikki oyog'ini qatlab, boshini orqaga tashlab yotadi. Ko'p hollarda mana shunday majburiy holatlar shifokorga kasallikni aniqlashga yordam beradi.

Konstitutsiya-funktional va morfologik belgilar yig'indisi bo'lib, tug'ma yoki orttirilgan tabiatga egadir. Odam konstitutsiyasi bo'yicha M.V. Chernorutskiy tomonidan taklif qilingan tasnif qabul qilingan. Unga ko'ra uch xil konstitutsiya tipi farq qilinadi: normostenik, astenik va giperstenik.

Konstitutsiyani bilish ichki kasalliklarni aniqlanishida yordam beradi. Masalan: gipersteniklarda modda almashinuvi pasaygan bo'lib, ko'pincha ularda semirish, o't-tosh, buyrak-tosh, gipertoniya, ateroskleroz kasalliklari rivojlanadi. Asteniklarda esa modda almashinuvi kuchaygan bo'lib, ularda ko'pincha o'pka kasalliklari, ichki a'zolarining pastga siljishi (splanxnoptoz) kuzatiladi.

Shuning uchun reja asosida sog'lomlashtirish-profilaktika chora-tadbirlarini ko'rish katta ahamiyatga egadir (mehnatni, dam olishni, ovqatlanishni to'g'ri tashkil qilish, badantarbiya va sport bilan shug'ullanish va h.k.). Bemorning semizligi yoki ozg'inligi, teri osti yog' qatlami rivojlanishi ko'zdan kechirilib va paypaslash orqali aniqlanadi. Teri osti yog' qavati qorin sohasida, qovurg'a pastida me'yorda taxminan 2 sm ga teng.

Tana vaznini o'lchash. Bemorni maxsus tibbiy tarozida vazni o'lchanadi. Ertalab nahorda oddiy kiyimda va siydik pufagi to'ldirilmagan holda gavda vaznini o'lchash maqsadga muvofiq bo'ladi. Bemorni vaznini o'lchasdan oldin tarozi sozligini tekshirib, yo'nalish toshchalarini 0 holatiga keltirib o'lchashni boshlanadi. Odatda bunday o'lchamlar haftada bir yoki ikki marta o'tkaziladi.

Har bir bemorning holatini baholash talabalarning asosiy vazifasi bo'lib hisoblanadi.

Bemorga nisbatan talabdan juda ko'p narsalar talab qilinadi: bemorning kelib chiqishi, kasallik tarixi, umumiy ahvoli, kasallik va hayot anamnezi, boshqa ma'lumotlar va hokazo. Mazkur ma'lumotlar asosida bemorning keyingi davolanish jarayoni olib boriladi va kuzatilib boriladi.

Bemorning fizikal va psixoiqtimoiy muammolarini aniqlash va ularni yig'ishning eng asosiy yo'nalish bo'lib hisoblanadi. Bemor holatini baholash asosan talabaning amaliy ko'nikmalariga bog'liqdir. Suhbatlashish, bemorning umumiy holatini tekshirish, maslahatlar bemorning umumiy holatini baholash me'zoniga kiradi.

Bemorni umumiy tekshirish vaqtida klinik topilmalardan keng foydalaniladi. Shular jumlasiga, palpatsiya perkussiya va auskultatsiya tekshirish usullari kiradi. Bularning hammasi talaba uchun ma'lumotlar bazasi bo'lib hisoblanadi. Keyinchalik esa ma'lumotlar yig'indisi klinik tashxis va shifokor tavsiyalari uchun asos bo'lib qoladi.

Bemorni davolashda talabdan fizikal baholashning har xil yo'nalishlari talab etiladi. Bemor holatini ketma-ket va har tomonlama baholashni amalga oshirish uchun tizimlashtirilgan usul yordam beradi. Hamshira o'zining ish tajribasi va amaliy ko'nikmalari asosida fizikal baholash asoslarini yanada kengaytirilgan holda puxta o'zlashtirishi mumkin.

Umumiy ma'lumot yig'ish usullari: suhbatlashish, umumiy ko'zdan kechirish, bemorning fizikal holati, tibbiy mutaxassislar tavsiyalari, adabiyotlar ro'yxati, palpatsiya, auskultatsiya va perkussiya fizikal baholashning asosini tashkil etadi. Shuningdek, bemor haqidagi ma'lumotlar manbaiga: kasallik varaqasi (tarixi),– bemorning hozirgi va avvalgi holati haqidagi ma'lumot, yozma ma'lumot – tibbiy mutaxassislar tavsiyalari va tashxislari, muammolarni yechish, davolash usullari va bemor haqida uning do'stlari va oila a'zolariga berilgan ma'lumotlar kiradi.

Bemor haqida ma'lumot to'plashning aniq bir usuli mavjud emas. Qaysi usuldan foydalanishdan qat'iy nazar hamshira to'liq fizikal tekshirishni amalga oshirishi lozim.

Ma'lumotlar yig'ilishiga talab bir xil, lekin ularni bajarilish usullari har xil bo'lishi mumkin. Usullarning bir – biridan farqlanishi bemorning holatiga bog'liq. Talaba o'zini yagona usulini ishlab chiqmoqchi bo'lsa, u holda mavjud bo'lgan usullar bilan tanishishi, ularni o'zaro taqqoslashishi va olingan ma'lumotlarni tizimlashtirishni o'rganishi shart.

O'zaro suhbatlashish (so'rov) -bemor bilan suhbat qurish. Bu paytda talaba bemorga tegishli muammolar haqida ma'lumot yig'adi va bu mutaxassisga kelajakda bemor bilan qanday munosabatda bo'lishga so'zsiz yordam beradi. Bemor bilan birinchi uchrashuvda o'zaro birlik, talabaga nisbatan ishonch paydo bo'lishi ular orasidagi munosabatni mustahkamlanib borishiga poydevor yaratadi. Talabaning so'zlashuv odobi, muomalasi, e'tiborli bo'lishi, shirin so'zlashuvi bemorga ishonch hosil

qildirib uni rom etishi lozim. Bemorning o'zi haqidagi yig'ilgan ma'lumot – sub'yektiv ma'lumot bo'lib hisoblanadi.

Agar bemor fizik yoki psixoemotsional o'zgarishlar tufayli suhbatlashish jarayonida qatnasha olmasa, u holda uning oila a'zolarini yoki do'stlarini jalb etish zarur.

Talaba ilk savollar orqali bemorning holati qay darajada ekanligini aniqlab olishi mumkin. Mazkur so'rov orqali allergik yoki surunkali kasalliklar (uzluksiz davom etayotgan yoki vaqti-vaqti bilan qo'zg'aladigan xastaliklar) aniqlanadi. Bir qator savollar mavjudki, ularga berilgan javobga qarab, bemorning joriy holati va kasallik turi aniqlanadi. Talaba bemorga quyidagi savollar bilan murojaat qilishi mumkin:

- O'z so'zingiz bilan sizni nima bezovta qilishini aytib bering;
- Shuning uchun ham siz bizga murojaat etdingizmi?;
- Bu muammo sizni avval ham bezovta qilganmi?
- Sizning ahvolingizga nima ta'sir qila olishi mumkin?
- Qaysi holatda ahvolingiz yaxshilanadi?
- Oila a'zolaringiz bunga qanday qarashadi?
- Oilangiz sog'lig'ingiz haqida g'amxo'rlik qiladimi?
- Sizingcha biz, ya'ni tibbiyot xodimlari sizga nima bilan yordam berishimiz mumkin?

Talabalik ishida anamnez yig'ish – bemor bilan bo'lgan o'zaro suhbatni hujjatlashtirishdir.

Hujjatlashtirishning qaysi ko'rinishidan foydalanishdan qat'iy nazar siz bemordagi kasallik belgilari haqida ma'lumot to'plashingiz darkor. talaba quyidagi keltirilgan savollar orqali bemorda kechadigan dardlarni baholashi mumkin:

- Dard kechishi haqida : « qayeringiz og'riydi?»
- Dardning boshlanishi va davom etishi haqida: « Qachon dard paydo bo'ldi?» , « Qachondan beri davom etib kelmoq-da?»
- Dardning kuchayishini yoki kamayishini aniqlash: « 0 dan 5 ballgacha tizimda baholasak, sizningcha dardingiz qan-day jadallikda?»
- Tashqi muhitning ta'siri : «Qaysi hollarda dard kucha-yadi?, og'riqni pasaytirish uchun nimalar yordam beradi?»
- «Bu dard sizga qay darajada ta'sir etadi?, ya'ni u yoki bu ishni bajara olasizmi?»
- «Siz o'z dardingizni qanday baholay olasiz?, bu dard ha-yot uchun xavflimi?»

Kerakli ma'lumotga ega bo'lish uchun, barcha savollarni berish shart emas. Ba'zan bir savolga bir necha javob olish mumkin. Suhbatlashish jarayoni bemorning holatiga qarab kechadi. Agar bemor og'ir ahvolda bo'lsa, bir yoki ikki kerakli (aniq) savollarning o'zi kifoya. talaba bilan bo'lgan suhbat davomida bemor o'zini yengil his etmasa, bu dialog samarasiz bo'lib qoladi. Shuni bilish lozimki, «talaba haqiqati» bu bemorga sog'lig'iga ijobiy foyda keltiradigan bo'lishi lozim, aks holda bu haqiqat o'zining ahamiyatini yo'qotadi. Bemor bilan bo'ladigan suhbat bu – konstruktiv ijodiy- xarakterga ega bo'lishi kerak. Bizning fikrimizcha ushbu suhbat bir-biriga uzviy bog'liq bo'lgan sahna asariga o'xshaydi. Birinchi qismi bu subyektiv tomoni bo'lib, unda bosh rolni ijro etuvchi bemor bo'lib hisoblanadi. Ammo talaba bu rol ijrosini boshqara olishi kerak, aks holda bu suhbat monologga aylanib, kutilgan natijani bermasligi mumkin. Ikkinchi qismi bu obyektiv tomoni bo'lib, unda talaba asosiy rolni ijro etadi. U ushbu jarayon davomida fizikal tekshirish usullarini keng qo'llab, atroflicha ma'lumotga ega bo'lishga harakat qilishi lozim.

Bemorni bevosita ko'zdan kechirish

Bemorni tekshirish ikki usulda amalga oshiriladi. 1. Fizikaviy usul. Bu hech qanday asbob ishlatmasdan tekshirish usuli hisoblanadi. 2. Laboratoriya – asboblardan tekshirish usuli. Bu usul fan va texnika rivojlangan keyingi o'n yil ichida juda keng tarqaldi. Laboratoriya va asboblardan yordamida tekshirish muvaffaqiyatli bo'lishiga qaramasdan kasallikni o'rganishda ilgariidek bevosita fizikaviy tekshirish usuli asosiy usul bo'lib qolmog'i kerak. Laboratoriya va asboblardan tekshirish usuli faqat

yordamchi ahamiyatga ega bo'lishi kerak. Birinchi – ko'zdan kechirish usuli odatda so'rashdan so'ng o'tkaziladi. Ko'zdan kechirish anamnez yig'ish davrida ham davom etadi. Shuni aytish kerakki, ba'zan bemorni bir bor ko'rishning o'ziyoq kasallikni aniqlash imkonini berish.

Ko'rish juda oddiy tekshirish usuli bo'lishiga qaramasdan, ko'zdan kechirishda to'g'ri ma'lumot olish uchun ma'lumot shart – sharoitiga rioya qilish zarur:

1. Ko'rish iloji boricha kunduzi – tabiiy yorug'likda o'tkazilishi kerak, chunki sun'iy, jumladan elektr nuri ba'zi belgilarni xirillastirib qo'yadi. Ko'pincha u teri rangini, ba'zi bir toshmalarni aniqlay olmay qolishimizga sabab bo'ladi. Tabiiy yorug'likda tananing shakli, terining rangi, toshmalar, yondan yoritilganda a'zolarning harakati, tebranishi ko'rinadi.
2. Ko'zdan kechirishda dastlab bemor beligacha tekshiriladi, so'ngra uning orqasi, qo'l – oyoqlari, qorni va hokazolar ko'zdan kechiriladi.
3. Ko'rish o'tkazilayotgan xona harorati o'rtacha bo'lishi kerak, chunki past yoki yuqori haroratda bemorning terisida ma'lum o'zgarishlar paydo bo'lishi (oqarishi, ko'karib ketishi, marmarsimon rangga kirishi yoki aksincha qizarishi, terlash va hokazolar) kuzatilishi mumkin.
4. Ko'rish tartib bilan bemorni boshidan – oyoq to'la – to'kis ko'zdan kechirish orqali amalga oshiriladi.

Ko'rishda birinchi navbatda bemorning umumiy ahvoli, es – hushi, vaziyati, yuz qiyofasi, terisining rangi, bo'y – basti, gavda tuzilishiga ahamiyat beriladi. Bemorning umumiy ahvoli qoniqarli, o'rtacha og'ir, nihoyatda og'ir, agonal (o'lim talvasasida) bo'lishi mumkin.

Bemorning vaziyati faol, sust (passiv) va noiloj bo'lishi mumkin. Sog'lom odamning vaziyati faol bo'ladi, u og'riq va noxushlik sezishiga qaramasdan vaziyatini o'zgartira oladi. Bemorning faol vaziyatda bo'lishi uning kasalligiga nisbatan biror – bir narsani bildirmaydi, ammo bu uning es-hushi saqlanganligidan hamda muskullarini ruhiy nazorat qila olishligidan dalolat beradi. Ba'zan uzoq vaqt to'shakda yotib qolgan bemor umrini oxirigacha es-hushini saqlagan holda va faol vaziyatda bo'lishi (masalan, xavfli o'sma yoki rakda) va aksincha ba'zida unchalik og'ir bo'lmagan funksional kasalliklarda (hushdan ketish, isteriyada) bemorning vaziyati vaqtincha sust bo'lishi mumkin. Sust vaziyat bemor uchun ko'pincha noqulaylik tug'diradi: bosh pastga osiltirib qo'yilganda yoki oyoqlar tagiga bukilganda (bu ko'pincha umumiy darmonsizlikda, to'satdan ko'p qon yo'qotganda yoki hushdan ketganda) kuzatiladi va u bemorning ahvoli og'irligini ko'rsatadi, lekin qisqa muddatli hushdan ketishda ham vaqtincha sust vaziyat kuzatiladi. Sust vaziyat og'ir o'tkir yuqumli kasalliklar (toshmali, qaytalama, ich terlamalarda, milliard o'pka sili, bezgak va boshqalar) da kuzatiladi.

Noilojlik vaziyati – kasallikning biron-bir xususiyati majbur qilganda bemor oladigan holat hisoblanadi. Bunda bemor o'z xohishiga ko'ra o'z vaziyatini o'zgartirishi mumkin, lekin og'riqning kuchayishi natijasida dastlabki holatga qaytishi uning ahvolini yaxshilaydi, og'riq azoblari kamayadi. Bunday vaziyatga turli sabablar olib kelishi mumkin, lekin birinchi o'rinda og'riq va hansirash turadi.

Noilojlik vaziyatining turlari ko'p, shulardan eng ko'p uchraydigan qotib turish holatidir. Bu holat yurak sanchig'I huruj qilganda kuzatiladi. Bunda to'satdan yurak sohasida kuchli og'riq bo'lib, o'lim vahimasida huruj muddatini oyoqda o'tkazadilar. Xuddi oyoq tomirlari tortishishida bo'lganidek, almashinuvchi oqsoqlikda yurib ketayotgan bemor to'satdan to'xtaydi va tomir tortishishi tugaguncha qimirlamasdan turadi. Noiloj o'tirish (ortopnoe)vaziyati kuchli hansirashga uchragan bemorlarda uchraydi. Bemor oyoqlarini tushurgan holada o'tiradi va qo'lari bilan karavot yoki kreslo (kursi) chetiga tayanadi, yelka kamarini mustahkamlaydi. Bu vaqtda nafas olishda yordamchi nafas muskullari ishtirok etadi, natijada hansirash kamayadi. Noiloj yonboshlab yotish holati nafas a'zolari plevra bilan birgalikda shikastlanganda (zotiljam, plevrit, qovurg'alar sinishi), yurak kasalligi bilan og'rigan bemorlarda kuzatiladi. Noiloj orqa bilan yotish holati qorincha kuchli og'riq bo'lganda (peritonit, o'tkir ko'richak, oshqozon va 12 barmoq ichak yarasi teshilganda) kuzatiladi. Bunda ko'pincha kasalning oyoqlari tizzasidan bukilgan bo'ladi.

Orqa bilan deyarli qimirlamay yotish vaziyati bodning bo'g'inli faol turida kuzatiladi. "So'roq belgisi", "miltiq tepkisi", "akillayotgan it", vaziyatlari – boshni orqaga tashlab, oyoqlarini tizza bo'g'inidan bukib qoringa keltirib va yonboshlab yotish serebrospinal meningitga xos.

Opistotonus vaziyatiga orqadagi uzun muskullarning uzoq vaqt tetanik qisqarishi sabab bo'ladi, buning oqibatida bemorning tanasi yoyga o'xshab egiladi, natijada bemor karavotga ikki yoki uch nuqtasi bilan tegib yotadi – ensasi va tovonni yoki ensasi, chanog'i va tovonni bilan. Qorin bilan yotish vaziyati me'da osti bezining o'smasi oqibatida kelib chiqqan kuchli og'riq vaqtida, me'da va 12 barmoq ichakning orqa devorida yara bo'lganda va ba'zi boshqa holatlarda (quymichdagi yotoq yaralarda) kuzatiladi. Tizza – tirsak vaziyati ekssudativ perikarditda, ba'zan qorinda og'riq bo'lganda – "Muhammad Qavmining nomoz o'qiyotgandagi holati" kuzatiladi. Noilojlik vaziyatining turlari kinofilmlar, slaydalar va jadvallar orqalinamoyish qilinadi. Bemorning bo'y-basti to'g'ri va noto'g'ri (qiyshiq) bo'lishi mumkin (umurtqa pog'onasining, to'sh suyagining, qovurg'alarning qiyshiq, qo'l-oyoqlarning qiyshiq, kaltaligi va hokazolar).

Gavda tuzilishi (konstitutsiyasi) – funksional va morfologik belgilar yig'indisi bo'lib, tug'ma va ortirilgan tabiatga ega. Odam konstitutsiyasini ta'riflash uchun juda ko'p tasniflar taklif qilingan. Ulardan eng ko'p tarqalgani va manzur bo'lgani taniqli olim, ko'zga ko'ringan terapevt M.V. Chernorutskiy tomonidan taklif qilingan tasnif bo'lib hisoblanadi. Bu tasnifga ko'ra normostenik, astenik, giperstenik konstitutsiyalar farq qilinadi.

Tana tuzilishi har tomonlama yetuk bo'lgan odam normostenik konstitutsiyasiga kiradi. Bo'y uzunligining ustunligi, xushbichimligi, ixchamligi, yengilligi, lekin umumiy rivojlanishning nimjonligi astenik konstitutsiyasiga xosdir. Astenik konstitutsiyasigagi kishilarning bo'yi ko'pincha o'rtachadan baland, qo'l-oyoqlari gavdaga nisbatan uzun, ko'krak qafasi qorindan ustun bo'ladi.

Giperstenik konstitutsiyaning morfologik belgilari: eniga rivojlangan, ulkan, og'ir, to'la va tuzilishi pishiq bo'ladi. odatda giperstenik konstitutsiyadagi odamlarning bo'yi o'rtacha yoki undan pastroq, gavdasi nisbatan ustun, oyoq-qo'llari kalta, qorin ko'krak qafasidan, eni bo'yidan ustun bo'ladi. Tananing tashqi tuzilishi uning ichki tuzilishiga ma'lum ma'noda, ya'ni a'zolarining kattaligi, joylashishi va hokzolariga mos keladi. Demak, tananing tashqi tuzilishiga qarab ichki tuzilishi o'ziga xosligini oldindan ko'rish mumkin. Ichki a'zolar ichida o'pka asteniklarda nisbatan katta bo'ladi, qolgan hamma a'zolar – yurak, jigar, ichak, me'da osti bezi, buyrak, qorataloq gipersteniklarda katta bo'ladi. Ichki kasalliklar klinikasi konstitutsional tuzilishni bilish kasalliklarni to'g'ri aniqlashga birmuncha yordam beradi.

Bir xil sharoitda har xil tuzilishdagi odamlar, agar ular kasal bo'lsalarko'pincha har xil kasallik bilan kasallanadilar. Masalan, gipersteniklarda ko'pincha asteniklarga nisbatan almashinish jarayoni pasaygan bo'lib, ularda modda almashinish kasalliklari rivojlanadi. Jumladan, semirish, o't-tosh kasalligi, buyrak-tosh kasalligi ateroskleroz, gipertoniya kasalligi.

Asteniklarda almashinish jarayoni tezlashgan bo'lib, ularda ko'pincha o'pka kasalligi, boylam va qorin pardasining kuchsizligi natijasida ichki organlarning osilib pastga siljishi (splanxnoptoz) kuzatiladi. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, kasallik ma'lum noqulay tashqi sharoitda rivojlanadi. Shunday ekan, reja asosida sog'lomlashtirish – profilaktika chora – tadbirlarini ko'rish katta ahamiyatga ega.

Bu yerda teri osti yog' qavati odatda taxminan 2 sm gat eng. Teri osti yog' qavatining qalinligiga qarab semizlikni, ozib ketishni, haddan tashqari ozib ketishlik (kaxeksiya) ni aniqlaymiz.

Bo'zarish vaqtinchalik (kuchli emotsiya, qo'rqish, hayajonlanish, kuchli og'riq) va doimiy (kamqonlikda, buyrak kasalliklarida, aorta qopqog'ining nuqsonida) bo'lishi mumkin.

Qizarish ham vaqtinchalik yoki doimiy, tarqalgan yoki chegaralangan bo'ladi. Vaqtinchalik qizarish fiziologik hodisa bo'lib, asabning qo'zg'alishi, g'azablanish, uyalish, issiqlab ketish natijasida ro'y beradi. Harorat ko'tarilganda ro'y beradigan qizarish patologik hodisa hisoblanadi. Ba'zan harorat

ko'tarilganda rang o'chishi ham mumkin (bod, sepsis, yiringli jarayonlar vaqtida). Gipertoniya kasalligida qizarish yuzda bo'lmay ko'proq bo'yinda bo'ladi.

Ko'karish doimo patologik holat bo'lib, u quyidagi hollarda paydo bo'ladi: 1) gaz almashinuvi buzilishi bilan kechadigan nafas a'zolari kasalliklarida; 2) qonning tomirlarda oqishi buzilishi bilan kechadigan yurak-tomir sistemasi kasalliklarida; 3) qon zaharlanganda.

Ko'karish odatda ko'pincha do'ng joylarda, labda, burun ichida, quloq suprasida, tizzada kuzatiladi, ba'zan yurakdan ancha uzoqda – barmoqlarda, tirnoqlarda (akrosianoz) uchraydi.

Sarg'ayish (ikterus) turlicha bo'lishi mumkin: bilinear – bilinmas kechadigan ba'zan sarg'ayish tabiatini va uning qachon paydo bo'lganligani aniqlash mumkin. Sariqlik uzoq vaqt kechkanda yashil tus oladi, mexanik sariqlik qichishish bilan davom etadi va terida tirnoq izlari qoladi. Sariqlik yumshoq tanglayda va oqida yaqqol ko'rinadi. Qonda karotin pigmenti ko'payib ketganda qo'l kafti va oyoq panjalarida ro'y beradigan sarg'ayishni va dori ichgandagi sarg'ayishni haqiqiy sariqlikdan farq qilish kerak. Bu vaqtda ko'z oqi sarg'aymaydi.

Bug'doy rang tus faqat bronza yoki Addison kasalligida kuzatiladi (buyrak usti bezining funksiyasi pasayganda yuz qora dog'aga o'xshash tusga kiradi yoki lunj shiliq pardasida, milkda siyohrang dog'lar paydo bo'ladi). Terida yana sepkil va xollarni ko'rish mumkin, ular tashxisni ahamiyatga ega emas. Yuz, peshona va lunjdagi qoramtir va jigarrang dog'lar (xloazma) ko'proq homilador ayollarda uchraydi, ular jigar va ichakning surunkali kasalliklarida ham kuzatiladi. Qorinning o'rta chizig'I, emchak so'rchig'i atrofining qorayishi ko'pincha xomiladorlikda kuzatiladi.

Pigment yo'qolishi bilan bog'liq o'zgarishlar ham uchraydi. Bu vaqtda terida pigmentsiz sohalar paydo bo'lib, ular kattaligi va shakli jihatidan har xil bo'ladi. Atrofi pigmentli soha bilan chegaralanadi. Ular ko'pincha simmetrik joylashadi. Bu dog'lar barqaror, hech qanday subyektivta'sirlanish va funksional buzilishga olib kelmaydi.

O'rta Osiyoda ishlovchi vrachlar bunday kasallar va uning atrofidagi kishilar bilan uchrashganda pes kasalligining yuqmasligi, zararsizligi haqida tushuntirish ishlari olib borishlari kerak, chunki ba'zi bir odamlar bu kasallikni og'ir, davolab bo'lmaydigan moxov kasalligi bilan almashtiradilar va ular bunday bemorlar bilan muloqot qilmaslikka harakat qiladilar. Terining butunlay pigmentsizlanishi (albinizm) juda kam uchraydi. Teridagi toshmalar, ularning joylashish tabiati, paydo bo'lish va hokazolar katta tashxisiy ahamiyatga ega. Toshmaning asosiy elementlari sariq dog' (masula), tuguncha (papula), pufakcha (vesicula), qavariq (urtica), eritema (erythem), qon quyilishi (petechia) va hokazo bo'lib hisoblanadi. Qator yuqumli kasalliklar toshma toshishi bilan kechadi: qizamiq, qizilcha, skarlatina, suvchechak, chinchechak, ich terlama, toshmali terlama, paratiflar. Ba'zan toshmalar ichki a'zo kasalliklarida ham kuzatiladi.

Ko'rish va paypaslash orqali terining egiluvchanligi aniqlanadi. Patologik holatlarda terining tarangligi birmuncha o'zgaradi. Limfoleykozda, limfogranulematozda, limfosarkomada va ikkilamchi zahmda limfa tugunlarini kattalashishi kuzatiladi. Darajasiga, og'riq borligiga, kichrayishiga, tirishishiga diqqatni jalb qilamiz.

Suyak skeletlari: umurqa pog'onasi, ko'krak qafasi, bosh suyagi, qo'l-oyoqlardagi nuqsonlar ko'rish orqali aniqlanadi. Bunday o'zgarishlar ko'pincha endokrin kasalliklarda, akromegaliya, xondrodistrofiya, infaltizm, axta, raxit, sil kasalligi bor bemorlarda kuzatiladi.

Yuz – dil oynasi deydi xalqimiz. Yuzning ko'rinishi benorning ichki kechinmalarini aks ettirib turadi.

Masalan, ichki kasalliklarda quyidagi o'zgarishlar kuzatiladi: isitmalash, lab qurishi, terining qizarishi va hokazo. Ular rang – barang ko'rinishda bo'lishi mumkin. O'pkaning krupoz yallig'lanishida ko'pincha yuzning bir tomoni qizaradi, burun va lab atroflariga uchuq toshadi, burun qanotlari nafas olishda qatnashadi va bemor g'amgin ko'rinadi.

Buyrak kasalliklarda benorning yuzi tushunib bo'lmaydigan darajada o'zgaradi, u xunuklashib, yuqori va pastki qovoqlari salqib ketadi.

Aorta qopqoqlarida nuqson bo'lganda yuz oqaradi.

Tiklanish qobiliyati yo'qolgan yurakning ikki tavaqali qopqog'i yetishmovchiligida "mitral" yuz kuzatiladi, bunda quloq va burun uchlari, lab ko'kimtir – binafsha rangida bo'lib, lunjlarda ko'kimtir – dog' paydo bo'ladi.

Qorvizor yuzi – surunkali yurak yetishmovchiligiga xos bo'lib, bemor og'zini yarim ochib xuddi havoni tutayotgandek harakat qiladi. Yuzlari sarg'ish, bo'zraygan, ko'kimtir tusda bo'liadi, yoshli ko'zlari nursiz ko'rinadi.

Nevrasteniklarda "horg'in" yuz kuzatiladi.

Bazedov kasalligida yuz harakatlarga boy bo'ladi, bemorning ko'zlari yaltirab, chaqchayib turadi, unda g'azablanish yoki qo'rqish ifodasini kuzatish mumkin.

Miksedema kasalligida yuz esi pastlarniki kabi so'lg'in, ko'zlar qisilgan, ko'pincha ma'nosiz nigohli bo'ladi. Yuz oqarib lunjlar bo'yalgan kabi qizil bo'ladi.

Akromegaliya kasalligida yuz, burun, lablar, qosh usti ravoqlari haddan tashqari kattalashadi va tish oralig'I kengayib, pastki jag' oldinga bo'rtib chiqadi. Issenko – Qushing sindromiga yuz oysimon bo'lib, ayollarda ko'pincha soqol – mo'ylov o'sib chiqadi.

Axta odamning yuzi soqol – mo'ylov bo'lmasdan mayday sepkillar bo'ladi (burushgan olmani eslatadi).

Gippograt yuzida ko'zlar ichiga botgan, burun o'tkirlashgan, teri ko'kimtir, peshonani sovuq ter bosib turadi. Bu holat ko'pincha qorin pardasining o'tkir tarqalgan yallig'lanishida, o'lim talvasasidagi bemorda kuzatiladi.

Parkinsonizmdan azob chekkan bemorda yuz harakatsiz (mimikasiz) bo'ladi.

Shersimon yuz moxov kasalligida uchraydi. Bunda burun kataklari kengayib, qosh ustidagi va ko'z ostidagi terilar tugunsimon qalinlashadi, qoshning chekka qismlari to'kilib ketadi.

Insult kasalligida va pereferik nervlar shikastlanganda nosimmetrik yuz kuzatiladi.

Bemorni yuzini ko'rgan vaqtimizda bir qancha ko'z sinamalarini aniqlashimiz mumkin. Masalan, ko'zlarning chaqchayib turishi (exophtalmus) – tireotoksik buqoqda ko'zning ichga botishi (enophtalmus) – gipotireozda hamda ushbu kasallikda Grefe, Shtelvag, Mebius, Gorner sinamalarini ko'rishimiz mumkin.

Muammoli masalalar.

1-masala. Antropometriya (anthropos – odam, metron – o'lchov) – odamning gavda tuzilishini, ya'ni bo'yi, ko'krak aylnasi va gavda og'irligini aniqlash usulidir. Antropometrik ko'rsatkichlar orqali tashxis uchun muhim ma'lumotlar olish mumkin.

Bemorning bo'yi maxsus bo'y o'lchagich bilan o'lchanadi. U santimetrlarga bo'lingan tik taxta va unga birlashtirilgan siljib yuruvchi gorizontal o'rnatilgan kichik taxtachadan iborat. Bo'y o'lchanayotganda kishi o'lchagich tagidagi taxtachaga orqasi bilan turadi. Bunda gavdasining uch joyi: tovon, dumba va ko'krak taxtaga tegib turishi va tashqi eshituv yo'lining ustki chegarasi ko'zning tashqi burchgi bilan bir gorizontal chiziqda turishi kerak. Shundan keyin o'lchagichning siljivchi taxtachasi bosh ustiga tushiriladi va uning qaysi son ustida turgani belgilanadi.

Ko'krak qafasining aylanasi santimetrli tasma bilan osoyishta nafas olinib chiqarilgan, qo'llar pastga tushirilgan vaqtida o'lchanadi. O'lchov lentasi orqa tomondan ko'krakning burchagi ustidan, old tomondan esa VI qovurg'aning ustidan o'tishi kerak. Ko'krak aylanasidan tashqari uning old-orqa va ko'ndalang diametrlari sirkul yordamida o'lchanadi.

Bemorlar shifoxonaga kelganlarida va u yerdan davolanib chiqib ketayotganlarida ularning vazni o'lchanadi. Bemor vazni kiyimsiz kiyimsiz holda erta bilan nonushta qilmasdan, bemor qovug'ini bo'shatgandan keyin o'lchanadi. O'lchash uchun oddiy yuk tarozidan foydalaniladi. Tortilgandagi natija kasallik tarixidagi harorat varag'iga yozib qo'yiladi.

Benorning og'irligi me'yoridaligini bilish uchun uning santimetrda ifodalangan bo'y uzunligidan 100 ni ayiriladi. Masalan, bo'yi 180 sm – 100=80 kg. Demak, bo'yi 180 sm bo'lgan kishining og'irligi 80 kg bo'lishi kerak. Bundan 2 -3 kg ko'p yoki kamligi katta ahamiyatga ega emas. Kishining yoshi ortib borgan sari uning og'irligi ham ortda boradi. Masalan, 60 yashar bo'yi 180 sm bo'lgan odamning og'irligi 90-95 kg bo'lsa ham norma hisolanadi. Yetarlicha oqatlanmaslik, yuqumli jarayonlar, intoksikatsiyalar, iste'mol qilingan ovqatning singmasligi (ich ketish,qusish), endokrin a'zolar faoliyatining buzilishi (Bazedov kasalligi), xavfli o'smalar, asab kasalliklari va boshqalar tufayli bemorning og'irligi kamayib ketadi. Og'irlikning oshib ketishi esa quyidagi hollarda, ya'ni ko'p ovqat yeyish, moddalar almashinuvi va ichki sekretiya bezlari faoliyatining buzilishi, shishlar paydo bo'lishi, tanadagi bo'shliqlarga suv yig'ilishi va boshqalar sababli kuzatiladi. Aniqlangan antropometrik ko'rsatkichlar asosida bir necha amaliy ahamiyatga ega bo'lgan indekslar hisoblab chiqariladi.

1. Bo'y – og'irlik kuchi – gavda tuzilishining mutanosibligini ko'rsatadi. Buni aniqlash uchun kilogrammlar bilan ifodalangan gavda og'irligini 100 ga ko'paytirib, santimetrlar bilan ifodalangan bo'y uzunligiga bo'linadi.

$$M \cdot 100$$

Uning formulasi

P

M – gavda og'irligi.

P – bo'y uzunligi.

Normada bu nisbatan 37-40 ga teng bo'ladi. Agar u ortib ketsa, bemorning me'yoridan ortiq tana og'irligiga ega ekanligidan, kamayib ketsa, ozg'inligidan dalolat beradi. Lekin bu ko'rsatkich hamisha shartli bo'lib, unga baho berishga bo'shqa klinik belgilarga ham e'tibor berish kerak.

2. Bo'y va ko'krak aylanasining mutanosiblik indeksi quyidagi formula asosida aniqlanadi: **P • 100**, bunda O – ko'krak qafasining aylanasini.

O

Bu ko'rsatkich normada 50-55 ga teng bo'ladi. 50 dan kam indeka ko'krak qafasining torligini, 55 dan ortig'I esa ko'krak qafasining kengligini ko'rsatadi.

3. Pine indeksi – yuqoridagi barcha ko'rsatkichlar orasida o'zaro mutanosiblik darajasini ko'rsatadi: $P = (O + M)$. Normada u 20 atrofida bo'ladi. bu ko'rsatkichning ortiq yoki kamligi mutanosiblikning buzilishidan dalolat beradi.

2- masala: tekshirish usullari orasida termometriya, ya'ni tana haroratini o'lchash alohida o'rin tutadi. Tana haroratining o'zgarishi ko'pincha kasallikning dastlabki belgilaridan hisoblanadi. Sog'lom odam harorati 36-36,8⁰ C atrofida bo'ladi. kun davomida harorat juda kam o'zgarib, 0,3 -0,5⁰C, ba'zan 1⁰C ni tashkil qiladi, chunki organizmda issiqlik paydo bo'lish va chiqarilish darajasi boshqarilib turadi. Odatda, sog' odamda jismoniy mehnatdan, to'yib ovqat yegandan so'ng, juda issiq xonada, kuchli hayajonlanganda harorat bir oz ko'tarilib,uyqudan keyin bir oz oasayadi. Agar harorat 37 – 38⁰C atrofida bo'lsa, subfebril isitma, 38-39⁰ bo'lsa, o'rtacha isitma, 39⁰ dan yuqori bo'lsa, baland isitma deyiladi. bemor juda holsizlanganda, surunkali intoksikatsiyalarda harorat pasayishi (gipotermiya) mumkin (36⁰C dan kam).

Harorat ko'tarilishi bemorning ahvoliga ta'sir qiladi. Bemor bo'shshadi, og'zi quriydi, ajratilgan siydikning miqdori ancha kamayadi, ozib ketadi. Harora 1⁰C ga ko'tarilsa,puls taxminan 8 -10 taga ko'payadi, faqat ba'zi kasaliklarda (meningit, ich terlama) puls haroratning ko'tarilishidan orqada qoladi. Harorat 1⁰C ga ko'tarilganda nafas olish ham minutiga 4-5 martaga ko'payadi. Agar harorat ko'tarilsa, qaltirash paydo bo'ladi. Bunday sezgi teri tomirlarining birdan qisqarishidan yuzaga keladi. Bemor qaltiraganda terining rangi oqaradi, tirnoqlar ko'karadi va teri usti o'rdak terisiga o'xshab ketadi.

Mavzuning nomi	Ball	Baho	Talabanning bilim darajasi
----------------	------	------	----------------------------

Bemorni alohida soʻrab-surishtirish. Talabalarning bemorlar bilan alohida ishlashi, shikoyatlar yigʻindisi va kasallik hamda hayot anamnezi. Bemorlarni umumiy koʻzdan kechirish (bemorning umumiy ahvoli, es-hushining holati, tana tuzilishi). Umumiy koʻzdan kechirish qoidalari, bemorni umumiy tekshirish	86-100	Aʻlo	Xulosa va qaror qabul qila oladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, amalda qoʻllay oladi, mohiyatini tushuntiradi, biladi, aytib bera oladi, tasavvurga ega.
	71-85	Yaxshi	Mustaqil mushohada yuritadi, amalda qoʻllay oladi, mohiyatini tushuntiradi, biladi, aytib bera oladi, tasavvurga ega.
	55-70	Qoni qarli	Mohiyatini tushuntiradi, biladi, aytib bera oladi, tasavvurga ega.
	0-54	Qoni qarsiz	Tasavvurga ega emas, bilmaydi.

Baholash mezonlari №2

Uyga vazifa 3. Mustaqil ish.

Amaliy mashgʻulot №3

Antropometriya. Termometriya. Laborator va instrumental tekshiruvlar haqida umumiy tushuncha. Zamonaviy laborator va instrumental tekshiruv usullarining ahamiyati.

1. Amaliy mashgʻulot oʻqitish moduli.

Mashgʻulot vaqti – 4 soat	Studentlar soni: 10 dan 12 gacha
Mashgʻulot formasi	Amaliy mashgʻulot
Amaliy mashgʻulot rejasi	Palpatsiya va perkussiya tekshirish usuli sifatida. Qalqonsimon bez va limfatik tugunlar palpatsiyasi. Klinik tekshirish sifatida palpatsiya va perkussiyaning qoʻllanilishi. Palpatsiya va perkussiya rivojlanish tarixi, texnikasi, usullari, diagnostik ahamiyati. Perkutor tovush xarakteristikasi.
Amaliy mashgʻulot maqsadi:	Talabalarga palpatsiya va perkussiya usullarini oʻrgatish. Qalqonsimon bez va limfatik tugunlar palpatsiyasini oʻrgatish.
Oʻqitish uslubi	Soʻrov. Bemorlarni dmonstratsiya qilish, interaktiv oʻqitish uslubi, amaliy koʻnikma.
Oʻqitish formasi	Kichik podgruppalarida.
Oʻqitish jihozlari	Oʻquv qoʻllanma, amaliy mashgʻulotlar mundarijasi, proektor, kompyuter.
Oʻqitish holati	Metodik jihozlangan auditoriya.
Monitoring va baholash	Ogʻzaki kontrol: savol-javob, testlar, muammoli masala.

1.2. Amaliy mashgʻulot texnologik kartasi

Ish bosqichlari va vaqti.	Taʼlim beruvchi	Taʼlim oluvchilar
Tayyorlov bosqichi	7. Auditoriya tozaligini nazorat qiladi 8. Talabalarni mashgʻulotga tayyorgarligini tekshiradi 9. Davomatni nazorat qiladi	
1. Oʻquv mashgʻulotiga kirish	1. Mavzu boʻyicha oʻquv mazmunini tayyorlash. 2. Kirish maʼruzasi uchun taqdimot silaydalarini tayyorlash 3. Fanni yrganishda foydalaniladigan adabiyotlar roʻyxatini	

bosqichi (10 daqiqa)	ishlab chiqish	
2 – asosiy bosqich (160 daqiqa)	1. Talabalarni kichik guruhlariga bo'lib, mavzu bo'yicha savollarni beradi. 2. Ko'rgazmali plakatlardan foydalanadi 3. Slaydalar, multimedialardan foydalanadi 4. Davolash ishlarini olib boradi 5. Mavzular asosida berilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi, faol ishtirokchi talabalarni rag'batlantiradi va umumiy baholaydi	Kichik guruhlariga bo'linadilar Tomosha qiladilar qatnashadilar Tinglaydilar va savollarga javob beradilar
1- yakuniy bosqich (10 daqiqa)	1. Yakunlovchi xulosa qiladi 2. Mustaqil ish beradi 3. Uyga vazifa beradi	Tinglaydi Yozib oladi Yozib oladi

3. Talabalarning nazariy bilimlarini baholash:

A) Frontal usuli:

1. Palpatsiya nima?
2. Palpatsiya turlari.
3. Perkussiya nima?
4. Perkussiya turlari
5. Palpatsiyaning rivojlanish tarixi
6. YUzaki palpatsiyaning diagnostik ahamiyati
7. CHuqur palpatsiyaning diagnostik ahamiyati
8. Perkussiyaning rivojlanish tarixi
9. Perkussiya texnikasi
10. Monomanual perkussiya usullari
11. Bimanual perkussiya usullari
12. Perkutor tovushning xarakteristikasi
13. Qalqonsimon bezni palpatsiya qilish texnikasi
14. Qalqonsimon bezni palpatsiyaning diagnostik ahamiyati
15. Limfa tugunlarini palpatsiya qilish texnikasi
16. Limfa tugunlarini palpatsiyaning diagnostik ahamiyati

“Uch pog’onalı intervyu” usuli

Har bir gruppada uchta talaba tanlab olinib, ular orasida “vrach”, “bemor” va “ekspert-UASh” rollari bo’linib beriladi. Bemor rolini tanlagan talabaga anonimno diagnozi aytiladi, va u shu diagnozga taaluqli shikoyatlar bildiradi, vrach diagnoz qo’yadi, ekspert UASh shiloyatlar va diagnoz mutanosubligini tekshiradi. Har bir guruh 10-15 daqiqa davomida konsultatsiya qilinadi, ekspert vrach faoliyatini 3 punk bo’yicha tekshiradi:

1. Nima to’g’ri qilindi
2. Nima noto’g’ri qilindi
3. Qanday qilish kerak

Guruh konsultatsiyasi xulosasini ekspert xulosasi bilan taqqoslaydilar.

Boshqa xil turi: talabalar ekspert rovida poliklinikada, haqiqiy konsultatsiyada ishtirok etib, butun guruh bilan analiz qilinadi.

Yuz qiyofasi. Yuz qiyofasini ko’zdan kechirish turli kasalliklarni aniqlashda yordam beradi. Yuzga qarab kasallik og’irligi (o’tkirligi) ni aniqlash mumkin. Bularga o’tkir peritonit, uremiya va boshqa o’tkir kasalliklarni misol qila olamiz. Bemor qattiq shamollab qolsa, ko’zlari o’tirib, yuzda shish va ter paydo bo’ladi. Yuzning bu ko’rinishini birinchi bo’lib tibbiyot asoschisi Gippokrat aniqlagan va bu- facies Hippokratica – shishgan, dokaday oqargan deb nom bergan.

Buyrak kasalligida (nefrit, nefroz) yuz va qovoqlar shishadi, bunda yuz qiyofasi facies nefriticus deyiladi. Yurak xuruji, yurakning tug’ma yoki orttirilgan nuqsonlarida ham yuz turli xil o’zgarishlarga duch kelishi mumkin, ya’ni lab burchaklarining ko’karishi (akrotsianoz) illatlari yuzga keladi. Mitral klapan yetishmovchiligi va stenozida ham yuzda o’ziga xos o’zgarishlar kuzatiladi. Bunday holat facies mitralis deb nom olgan. Aortal klapan yetishmovchiligida yuz sal oqaradi. Cho’zilgan septik endokardit holatida esa yuz sariq rangli tus oladi - «cafe au lait» (sut va qahva rangida).

Silda esa «habitus phtizicus»-oriqlagan, rangsiz yuz, uzun-uzun kipriklar bo’ladi.

Endokrin xastalıkları (Bazedov kasalligi, miksedema, akromegaliya va hokazo)da bemorning yuz qiyofasida bir necha o’zgarishlar kuzatiladi. Ayniqsa, gipertireoz kasalligida Bazedov yuzi (facies Basedovica) ya’ni ko’zlar kattalashgan, chaqchaygan, qo’rquv hissi va qovoqlarning dag’allashishi namoyon bo’ladi. Qalqonsimon bez funksional yetishmovchiligi (miksedema) oqibatida yuzlar shishgan, aylana shaklda va befarqlik belgisi namoyon bo’ladi.

Gipofiz bezining oldingi qismi eozinofil adenoma xastaligida yonoq suyaklarini qizarishi va kattalashishi, burun, jag’, qovoq, lab, tilning keskin kattalashishi kuzatilishi mumkin. Burun chetlari bo’rtib chiqishi, keskin qizargan yuz, burun va lablar chetida toshma (herpes) toshishi, sariqlik belgisi o’pka yallig’lanishini anglatadi. Shuningdek toshmalar badanda va tana a’zolarida ham uchrashi mumkin, masalan, turli xil infeksiyalarda: maleriya, qaytalangan tif, serebrospinal meningitda kuzatiladi. Gerpes virusi ishtirokida paydo bo’ladi va nerv tarmoqlari herpes zoster bo’ylab tarqaladi.

Burun. Burun, yonoq suyaklari, jag’larning keskin kattalashuvi akromegaliyaga xosdir. Burun suyagi old devorini ichkariga kirishi (egarsimon burun), turli xil shikastlanishlarda kuzatiladi. Bundan tashqari, tug’ma zaxm kasalligi natijasidir. Mazkur kasallikda burun suyaklarining nekrozi rivojlanadi. Doimo qizargan burun aroqxo’rlik belgisidir. Burun qonashi esa yurak tomir xastaliklaridan dalolat beradi. Shuningdek, Osler, gipertoniya, yurak-qon-tomir tizimi xastalıkları va qon kasallıkları (leykoz, Verlgof kasalligi, trombotsitopatiyalar), Singa, surunkali gepatit, septik kasallıklar, uremiya, va boshqa holatlarda uchrashishi mumkin. Miyaga qon

quyilishida va uch tarmoqli nerv tolalarining yallig'lanishida burun burmasini bir tomonlama silliqlashishi kuzatiladi.

Og'iz. Og'iz bo'shlig'i orqali til, tish va milklardagi o'zgarishlarni o'rganish mumkin bo'ladi. Milklarning shishishi va qonashiga, o'tkir leykoz va simob bilan zaharlanganda yuzaga keladi. Qo'rg'oshin bilan surunkali zaharlanishda asosan milklarda qoramtir chiziqlarni kuzatish mumkin.

Turli xil infektsiyalar va og'iz bo'shlig'idagi badbo'y hidlar stomatit xastaligidan darak beradi. Milklardagi to'q rangli chiziq, og'iz bo'shlig'idagi tangasimon dog'lar Addison-Birmer kasalligining belgisi hisoblanadi. Tilning qurishi har xil infektsiyalarda, o'tkir peritonit va turli kasalliklarda uchrashi mumkin. Tilni ko'zdan kechirish orqali bemorning umumiy ahvolini baholash mumkin. Tilning juda quruqligi katta – katta tilimlar (yoriqlar) paydo bo'lishiga olib keladi. Shuningdek, tilning qonashi va to'q rangli bo'lishi uremiyaning og'ir formasida yaqqol nomoyon bo'ladi. Ba'zi hollarda tilning ustki qismi tekislanib yumshaydi. Bu simptom Addison-Birmer kasalligiga xosdir. Tilning uchi og'rishi va kuyishish hissi paydo bo'lishi axiliya xastaligining alomatidir.

Ba'zida til qizg'ish rangda bo'ladi. Tilning bunday tus olishi B₁₂ vitaminining yetishmasligi sababidir. Bolalarning o'tkir yuqumli kasalliklarida til to'q qirmizi rangda bo'ladi. Qorin tifi kasalligida tilning ustki yuzasi to'q rangda, uchi esa qip–qizil rangda bo'ladi. Akromegaliyada til o'z o'lchamlariga nisbatan kattalashadi. Jigar serrozida til qip-qizil tus(malina tili)ga kiradi. Atrofik gastritda til surg'ichlari yassilanadi.

Sezgi a'zolari. Odam tashqi muhitdagi turli xil ta'sirlarni har xil sezgi a'zolari orqali qabul qiladi va tashqi muhitga shular yordamida moslashadi.

Shuning uchun ko'zlarni ko'zdan kechirish muhim ahamiyat kasb etadi. Yuz qiyofasining ko'rigi paytida ko'ruv organlarining holati (ko'z olmasi, ko'zning yordamchi hosilalari)ga e'tibor qaratish lozim. Bazedov kasalligining asosiy belgilaridan biri ko'zning bo'rtib chiqishi, chaqchayganligi (ikki tomonlama ekzoftalm) kuzatiladi. Bir tomonlama ekzoftalm – ko'z olmasiga qonning quyilishi, turli xil shishlar, yallig'lanish jarayonlari va o'smalarda uchrashi mumkin.

Miksedema, peritonit, agoniya esa ko'z gavharining o'tirib qolishi kuzatiladi. Shoh va to'r pardasining sariq rangda bo'lishi hepatit, o't pufagi va yo'llari tosh kasalligi, o'sma kasalligi, shuningdek, oshqozon osti bezi xavfli va xavfsiz o'sma xastaliklaridan darak beradi. Ko'z gavhariga e'tibor berganda albatta uning o'lchami, holati, yorug'likka bo'lgan javob reaksiyasini inobatga olish zarur. Morfin, opiy, turli xildagi giyohvand moddalar bilan zaharlanganda ko'z gavharining torayishini kuzatishimiz mumkin.

Ko'z soqqasini qisqarishi rivojlanayotgan paralich holatida uchraydi, shuningdek, organizmga pilokarpin, rezerpin tomizilganda ham ko'z qorachig'i mushaklari qisqaradi.

Miyaga qonning quyilishi, komatoz holati va atropin dorilari bilan zaharlanganda ko'z qorachig'i kengayadi. Ko'z gavharlarining bir xil bo'lishi katta diagnostik ahamiyatga egadir. Ko'z gavharlari hajmining har xil bo'lishi markaziy nerv tizimining ish faoliyati buzilganligi haqida dalolat beradi.

Teri. Teri qoplamini ko'zdan kechirganda birinchi navbatda terining ustki qismiga va uning ostida joylashgan barcha qatlamlariga e'tibor qaratish lozim. Teri ustki qismining rangparligi kamqonlik kasalligida, o'tkir va surunkali qon yo'qotishlar (jarohatlanish oqibatida ko'p qon yo'qotish, turli xil yara kasalliklarida, ginekologik qon yo'qotish va homilaning rivojlanmasligi), qon aylanish tizimi kasalligi (xloroz, Addison-Birmer kamqonligi, leykozlar, gemolitik kamqonlik, Verlgof kasalligi)da surunkali va og'ir kechadigan infeksiya kasalliklar, sepsislar, malyariya, endokarditlar, zaharlanish va boshqa kasalliklarda uchrashi mumkin. Shuningdek, terining rangparligi gemoglobinning normadan pasayishi oqibatidan ham kelib chiqadi.

Rangparlik ba'zan buyrak xastaliklariga chalingan bemorlarda, qo'rquv, qusish, gipertoniya, behushlik holati, shuningdek qon aylanishining yetishmovchiligi (aortani quyi qismining siqilishi, aorta klapanlarining yetishmovchiligi) holatlarida kuzatiladi. Kollaps va peritonitda ham rangparlik kuzatiladi. To'satdan boshlangan rangparlik bemorning ko'p qon yo'qotganligidan dalolat beradi. Odatda mazkur bemorlarda teri ustki qismining rangparligi bosh aylanishi, behushlik holatlari, pulsning tezlashuvi, arterial bosimning pasayishi holatlari paydo bo'ladi. Bulardan tashqari rangparlik ayrim bemorlarda o'tkir hepatitning rivojlanishi oqibatida ham kelib chiqadi.

Yurak qon- tomir tizimining yetishmovchiligi oqibatida arteriya qonlarini yurak bosimi bilan harakatga keltirmasa, O₂ bilan to'yinmasdan arteriya kapilyarlari o'pka arteriyalariga aylanmasdan yana yurakka boradi. Bu jarayon venoz qonida gemoglobinning qayta tiklanishiga sabab bo'ladi va lablar burchagida sianoz holatlarining paydo bo'lishiga olib keladi. Mazkur holat periferik sianoz deb nomlanadi.

Nafas olish organlarining kasalliklari (emfizema, pnevmoskleroz va boshqa nafas organlarining yallig'lanishlari) ga gazsimon zaharli moddalar sabab bo'lishi mumkin. O'tkir sianoz tug'ma yurak parogida, o'pka arteriyalari sklerozida, emboliyada, o'pka emfizemasida uchrashishi mumkin. Ba'zida to'sh suyagi dastasi sohasidagi teri sariq rangli tus olishi, qonda bilirubinning oshib ketishidan darak beradi. Ushbu holat sariqlik (icterus) deb nomlanadi. Giperbilirubinemiya simptomining davomiyligiga va rivojlanishiga qarab teri rangi o'zgaradi: ochiqlimon rangidan – to'q sariq rangigacha kirishi mumkin bo'ladi.

Pigmentatsiyalarning joylashuvi bir xil kechmaydi. Avval og'iz bo'shlig'i (yumshoq tanglay, tilchaosti, shilliq qavati) bo'yaladi, keyinchalik esa yuz burmalari, burun va yuz atroflari, kaftlar, tovonlar bo'yaladi. Bu tus asta sekinlik bilan butun tanaga tarqaladi (subicterus).

Terining to'q rangli tus olishi uzoq muddat davomida (argirosis), mishyak (mishyakli melanoz) ning iste'mol qilinishi tufayli yuzaga kelishi mumkin bo'ladi.

Ayollar ko'krak sohasi terisining rangini o'zgarishi, shuningdek qorinda oq chiziqning paydo bo'lishi homiladorlikdan darakdir. Ko'rikda depigmentatsiya oq tanachalar (vitili-go), yoki kichik-kichik dog'chalar (Leucoderma) ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Terini ko'zdan kechirish katta diagnostik ahamiyatga ega. Unda rangli toshmalar bo'lishi, qon quyilishi, yaralar, chandiqlar, soch qoplamasining buzilishi hamda tirnoqlar patologiyasiga ahamiyat beriladi. Bundan tashqari, paypaslash orqali terining quruqligi, namligi, cho'ziluvchanlik darajalarini aniqlanadi. Uning rangi pigment miqdoriga, qalinligiga va qon bilan to'lishiga bog'liqdir. Teri rangining quyidagi o'zgarishlari farq qilinadi: oqarishi (bo'zarishi), qizarishi, ko'karishi, sarg'ayishi, yer rangida bo'lishi mumkun.

Terining oqarishi vaqtinchalik funksional (kuchli og'riq, hayajon, qo'rqish va h.k.tufayli) yoki doimiy (kamqonlik, buyrak kasalligi, aorta nuqsoni va h.k.tufayli) bo'lishi mumkin.

Qizarish ham fiziologik (uyalganda, g'azablanganda, tashqi harorat ta'sirida) va patologik (Vakez kasalligi, gipertoniya, is gazi bilan, atropin, amilnitrit, afyun moddalaridan zaharlanishlar va h.k.) holatlarida bo'lishi mumkin.

Ko'karish doimo patologik holat bo'lib u gaz almashinuvi buzilishi bilan kechadigan o'pka kasalliklarida, yurak-qon tomirlari kasalliklarida (qonning dimlanishi hisobiga), zaharlanganda vujudga keladi. Ko'karish ko'pincha do'ng joylar (burun uchi, quloq suprasi, labda) periferiya (barmoqlarda, tirnoqlar)da (akrotsianoz) ko'rinadi. Sarg'ayish har xil tusda ko'rinishi mumkin: och sariqlikdan (sub'ikterik), to'q, sariqlikkacha. Sariqlik ko'p davom etganda yashilroq tusga kiradi. Sariqlik ko'zning oqida va tanglayning shilliq qavatida kuchliroq namoyon bo'ladi. Qonda karotin pigmenti ko'payib ketganda (tomat, sabzi ko'p iste'mol qilinganda) yoki ayrim dorilarni ichganda qo'l kafti, oyoq panjalari, teri sarg'ayib ketadi. U haqiqiy sariqlikdan farq qilib, unda ko'zning oq qavati va tanglayning shilliq qavati sarg'aymaydi, buyrak usti bezi yetishmovchiligi terida bronza

rangiga o'xshash dog'lar paydo bo'lishi tarzida yuzaga chiqadi, pigment kamayishi yoki yo'qolishi natijasida terida oq dog'lar paydo bo'ladi. Ular har xil kattalikka ega va ko'pincha simmetrik bo'lib organizmda hech qanday funksional buzilishlarga olib kelmaydi. Turli xildagi dog'lar (makula), tuguncha (papula), pufakcha (vesicula), qavariq (urtica), eritema (erythema), teridagi nuqtali qon talashlari (petixiya) toshmaning asosiy shakliy ko'rinishlari bo'lib hisoblanadi. Qator yuqumli kasalliklar, shu jumladan, qizamiq, qizilcha, suvchechak, ichterlamada badanda toshmalarning toshib ketishi bilan kechadi. Ichki kasalliklarda uchuq toshishi (krupoz pnevmoniya, gripp), allergiyalarda har xil toshmalar bo'lishi mumkin. Teridagi chandiqlar (chechakdan keyingi chandiqlar, zaxmdagi chandiqlar, Itsengo - Kushing sindromidagi chandiqlar, operatsiyadan keyingi chandiqlar va h.k.) ham ma'lum diagnostik ahamiyatga egadir. Terining quruqligi yoki namligiga ham e'tibor beriladi. Terining quruqligi organizm suvsizlanganda, ichburug'da, qusishda, miksedomada, qandli diabetda, surunkali nefritda kuzatiladi. Teri namligini ortishi va terlash isitma bilan kechadigan yuqumli kasalliklarda (gripp, qora oqsoq kasalligi, sil, sepsis) hamda revmatizm, Bazedov kasalligida ko'proq xos bo'ladi. Sochni ko'zdan kechirishda uning o'sishiga, tabiatiga, holatiga ahamiyat beramiz. U ichki sekretiya bezlari kasalliklari diagnostikasida asosiy belgilardan biri bo'lib hisoblanadi. Barmoqlarning va tirnoqlarning o'ziga xos o'zgarishi (nog'ora cho'pisimon barmoq, soat oynasisimon tirnoq) uzoq davom etgan yiringli kasalliklarda kuzatiladi. Bundan tashqari, ko'zdan kechirishda shishlarga ahamiyat beriladi. Ular mahalliy yoki butun tana bo'ylab (anasarka) tarqalgan bo'lishi mumkin. Shishlar paydo bo'lganda to'qima va a'zolarning hajmlari kattalashadi, ularning tashqi ko'rinishi o'zgaradi. Limfa tugunlarini ko'zdan kechirishda ularning kattalashganligini ko'rish mumkin.

Baholash mezonlari №3

Mavzuning nomi	Ball	Baho	Talabning bilim darajasi
Palpatsiya va perkussiya tekshirish usuli sifatida. Qalqonsimon bez va limfatik tugunlar palpatsiyasi. Klinik tekshirish sifatida palpatsiya va perkussiyaning qo'llanilishi. Palpatsiya va perkussiya rivojlanish tarixi, texnikasi, usullari, diagnostik ahamiyati. Perkutor tovush xarakteristikasi.	86-100	A'lo	Xulosa va qaror qabul qila oladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, amalda qo'llay oladi, mohiyatini tushuntiradi, biladi, aytib bera oladi, tasavvurga ega.
	71-85	Yaxshi	Mustaqil mushohada yuritadi, amalda qo'llay oladi, mohiyatini tushuntiradi, biladi, aytib bera oladi, tasavvurga ega.
	55-70	Qoni qarli	Mohiyatini tushuntiradi, biladi, aytib bera oladi, tasavvurga ega.
	0-54	Qoni qarsiz	Tasavvurga ega emas, bilmaydi.

Uyga vazifa 4, mustaqil ish

Amaliy mashg'ulot №4

Nafas tizimi a'zolarini klinik tekshirish usullari. so'rab-surishtirish, umumiy ko'ruv, ko'krak qafasini ko'zdan kechirish. Ko'krak qafasi palpatsiyasi, maqsadi va vazifalari, bajarilishi, diagnostic ahamiyati.

1. Amaliy mashg'ulot o'qitish moduli.

Mashg'ulot vaqti – 4 soat	Studentlar soni: 10 dan 12 gacha
Mashg'ulot formasi	Amaliy mashg'ulot
Amaliy mashg'ulot rejasi	Nafas organlari kasalliklari bilan bemorlarni tekshirish usul-lari: so'rab-surishtirish, ko'krak qafasini ko'zdan kechirish, palpatsiya. O'pka perkussiyasi, qiyosiy perkussiya.
Amaliy mashg'ulot maqsadi:	Talabalarni nafas organlari kasalliklari bilan bemorlarni tekshirish usullarini o'rgatish.
O'qitish uslubi	So'rov. Bemorlarni dmonstratsiya qilish, interaktiv o'qitish uslubi, amaliy ko'nikma.
O'qitish formasi	Kichik podgruppalarida.
O'qitish jihozlari	O'quv qo'llanma, amaliy mashg'ulotlar mundariyasi, proektor, kompyuter.
O'qitish holati	Metodik jihozlangan auditoriya.
Monitoring va baholash	Og'zaki kontrol: savol-javob, testlar, muammoli masala.

1.2. Amaliy mashg'ulot texnologik kartasi

Ish bosqichlari va vaqti.	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorlov bosqichi	<ol style="list-style-type: none">1. Auditoriya tozaligini nazorat qiladi2. Talabalarni mashg'ulotga tayyorgarligini tekshiradi3. Davomatni nazorat qiladi	
1. O'quv mashg'ulotiga kirish bosqichi (10 daqiqa)	<ol style="list-style-type: none">1.Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash.2.Kirish ma'ruzasi uchun taqdimot silaydalarini tayyorlash3. Fanni o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini ishlab chiqish	
2 – asosiy bosqich (160 daqiqa)	<ol style="list-style-type: none">1. Talabalarni kichik guruhlariga bo'lib, mavzu bo'yicha savollarni beradi.2. Ko'rgazmali plakatlardan foydalanadi3. Slaydalar, multimedialardan foydalanadi4. Davolash ishlarini olib boradi5. Mavzular asosida berilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi, faol ishtirokchi talabalarni rahbatlantiradi va umumiy baholaydi	Kichik guruhlariga bo'linadilar Tomosha hiladilar qatnashadilar Tinglaydilar va savollarga javob beradilar
1-yakuniy bosqich (10 daqiqa)	<ol style="list-style-type: none">1. Yakunlovchi xulosa qiladi2. Mustaqil ish beradi3. Uyga vazifa beradi	Tinglaydi Yozib oladi Yozib oladi

3.Talabalarning nazariy bilimlarini baholash:

A)Frontal usuli:

- 1.Nafas organlari bilan kasallangan bemorlarning asosiy va qo'shimcha shikoyatlari
- 2.Hansirash nima,mexanizmi
- 3.Yo'tal, hosil bo'lish mexanizmi
- 4.Nafas organlari kasalliklarida yo'tal xarakteristikasi
- 5.Qon tupurish nima,xarakteristikasi
- 6.Ko'krak qafasidagi og'riqlarini differentsial tashxisi
- 7.nafas a'zolari kasalliklari umumiy ko'zdan kechirish
- 8.nafas a'zolari kasalliklarning alohida so'rab surishtirishning ahamiyati
- 9.Normal ko'krak qafasi nima
- 10.Emfizimatoz ko'krak qafasi nima?
- 11.Paralitik ko'krak qafasi tavsif bering
- 12.Raxitik ko'krak qafasi nima
- 13.Voronkasimon ko'krak qafasiga xarakteristika bering
- 14.Qayiqsimon ko'krak qafasi nima
- 15.Qaysi xollarda perkutor tovush to'mtoq eshitiladi
- 16.Qaysi xollarda perkutor tovush timpanik bo'ladi
- 17.Qaysi xollarda perkutor tovush qutichasimon bo'ladi

“Akademik polemika” usuli

Gruppa ikki guruhga bo'linadi, har biriga vaziyatli masala topshiriladi, masalan, “konsultatsiya shifokor-bemor”. Har bir guruhda 1-2 talabalar konsultatsiya yaxshi tomonlarini yozib oladilar – “advokatlar”, boshqa 2 ta talaba konsultatsiyaning manfiy tomonlarini yozib oladi – “prokurorlar”. Advokatlar va prokurorlar xulosalari butun guruh bilan tahlil qilinadi.

Nafas a'zolari kasalligi bor bemorlarni tekshirishda uni ko'zdan kechirishga alohida e'tibor berish lozim. Umumiy ko'zdan kechirishda bemorning vaziyatiga (yarim yotgan holatda), ko'kargan, uchuq toshgan – toshmaganligiga, limfa tuguni kattalashishiga, bartmoqlarining holatiga ahamiyat beriladi. Ko'krak qafasining shakli va nafas olishdagi faolligi aniqlanadi.

Ko'krak qafasi normada bo'lsa uning hamma chiziqlari gormonik va simmetrik joylashadi, ayniqsa, bu normostenik konstitutsiyada yaqqol ko'zga tashlanadi. Astenik va gipersitenik ko'krak qafasi qarama – qarshi xususiyatlari bilan ifodalanadi.

Patologik sharoitda qisqargan, kengaygan,bochkasimon (emfizematoz) ko'krak qafasi kuzatiladi, xuddi maksimal nafas olgan holatdagidek gipersitenikka o'xshash ko'krak qafasining hamma qirralari bo'rtib chiqadi. Bu holat bronxial bo'g'ilash hurujida, surunkali emfizemada kuzatiladi, bunda nafas chiqarish qiyinlashadi, o'pkaning elastikligikamayadi. Qarama – qarshi shakli – falajlangan ko'krak qafasi (xuddi chuqur nafas chiqargandagidek cho'zilgan, yassilangan shakli) haddan tashqari ozib ketgan astenik konstitutsiyadagi kasalliklarda uchraydi. Ayniqsa o'pka silida nafas olish qiyinlashadi,skeletning tug'ma yoki ortirilgan o'zgarishi ko'krak qafasi shakliga ta'sir qilishi mumkin.

Voronkasimon (cuqurchali) ko'krak qafasi (tug'ma anomaliya) – etikdo'z ko'krak qafasi deyiladi.

Bolalikda raxit kasalligini boshdan kechirishnatijasida ko'krak qafasining shakli o'zgarib “tovuq ko'krak qafasi” shakliga kiradi. Bu raxitik shakl deyiladi. Umurtqaning qiyshayishi ham (kifoz, skolioz, lordoz) ko'krak qafasi shaklini o'zgarishga olib keladi.

Diqqatni ko'krak qafasining shakliga – yapaloqligiga, bo'rtib chiqqanga o'xshash asimmetrik o'zgarishlariga qaratamiz. Nafas harakatini kuzata turib nafas turini, uning faolligini, tezligi, chuqurligini, meyoridan chetga chiqqanligini belgilash mumkin. Odatda 1 daqiqada 16 – 18 marta nafas olinadi, nafas olish nafas chiqarishdan qisqa bo'ladi. Nafas olish ayollarda va yoshlarda ko'proq ko'krak yoki quvurg'alar orqali, katta yoshdagi erkaklarda esa qorin yoki diafragma orqali amalgam oshiriladi. Patologik holatlarda nafas olish tez yoki sekin bo'lishi mumkin (Cheyn – stoks, Biota, Qusmaulcha nafas olishlar).

Paypaslash

Ko'krak qafasining tekshirishda undagi tashqi o'zgarishlarga ahamiyat beriladi. Ko'krak qafasi ichidagi a'zolar esa ularning tashqi yuza proyeksiyasiga nisbatan o'zgariladi. Shuning uchun albatta tashqi klinik topografiyani bilishimiz zarur. Bunday topografiya qator tabiiy nuqtalar va sun'iy chiziqlar orqali hosil qilinadi.

Tabiiy belgi punktlari. Suyak belgilari:

1. O'mrov suyagi (clavisula).
2. Qovurg'alar (costae), ayniqsa I, II, III oxirgi chin qovurg'a, XI erkin qovurg'a va qovurg'a ayollari.
3. To'sh suyagi (sternum), uning dastasi (manubrium), tanasi (corpus) va xanjarsimon o'sig'I (prosessus xiphoideus).
4. Dastasi – tanasi birikkan joyi – Lyudovik burchagi (angulus Ludowici) bu qovurg'alarni sanashda boshlang'ich joy hisoblanib, u II qovurg'aning to'sh suyagiga birikkan joyiga to'g'ri keladi.
5. Umurtqaning suyak o'simalari, ayniqsa VII bo'yin o'simtasi tez paypaslanadi.
6. Ko'krak (scapula) ayniqsa uning qirrasini (spina scapulae) va burchagini (angulus scapulae).

Chuqurcha va boshqa belgilash sohalari

1. O'mrovning yuqori chuqurchasi (fossae supraclavicularis).
2. O'mrovning pastki chuqurchasi (fossae intraclavicularis).
3. Bo'yinturuq osti chuqurchasi, to'sh suyagi dastasining yuqori qismi (fossae suljugularis).
4. Qo'ltiq osti chuqurchasi (fossae axillaris).
5. Kurakning yuqori sohasi (regio supraclavicularis).
6. Kurakning pastki sohasi (regio intraclavicularis).
7. Kuraklararo bo'shliq (spatium intraclavicularis).

Tabiiy belgilash sohalaridan, nuqta va chiziqlardan tashqari, yaxshi mo'ljal qilish maqsadida tana yuzasi sun'iy tik tushgan chiziqlar bilan bo'linadi.

Quyidagi tik chiziqlar tafovut qilinadi:

1. Oldingi o'rta chiziq, to'sh suyagining o'rtasidan o'tadi (linea sternalis media).
2. To'sh suyagi chiziqlari chap va o'ng – to'sh suyagining ikki qirg'og'idan o'tadi (1. sternalis dextra et sinistra).
3. To'sh suyagi yaqinidagi chiziq - to'sh suyagi bilan o'rta o'mrov suyagi chizig'I o'rtasidan o'tadi (1. parasternalis dextra et sinistra).
4. O'rta o'mrov chizig'I - o'mrov suyaklarining o'rtasidan boshlanadi (1. medioclavicularis).
5. Oldingi qo'ltiq osti chizig'I – qo'ltiq osti chuqurchasining oldingi chetidan o'tadi (1. axillaris anterior).
6. O'rta qo'ltiq osti chizig'I – qo'ltiq osti chuqurchasi o'rtasidan o'tadi (1. axillaris media).
7. Orqa qo'ltiq osti chizig'I – qo'ltiq osti chuqurchasining orqa chetidan o'tadi (1. axillaris posterior).

8. Kurak chiziqlari – kurakning pastki burchagidan o'tadi (1. scapularis).
9. Umurtqa oldi chiziqlari - kurak va orqa o'rta chiziq o'rtasida joylashgan (1. paravertebralis).
10. Orqa o'rta chiziq yoki umurtqa chizig'I – umurtqalarning suyak o'simtalari ustidan o'tadi (1. vertebralis).

Paypaslash quyidagilarni aniqlashga:

1. Ko'krak qafasining kattaligi, shakli o'zgarishi haqidagi ko'zdan kechirishga olingan ma'lumotlarni tasdiqlash.
2. Ko'krak qafasining ba'zi joylardagi tarangligi va og'riqni aniqlash.
3. Ovoz titrashini aniqlashga imkon beradi.

Taranglikni paypaslash orqali hamma sohada aniqlash mumkin. Oqatda ko'krak qafasining ikkala yarmi baravar cho'ziluvchanlikka ega bo'ib, yosh ortda borashi bilan u kamayadi.

Patologik holatlarda cho'ziluvchanlikning o'zgarishini aniqlash mumkin.

Paypaslash orqali yuzaki va chuqur joylashgan og'riqni farqlash mumkin. Yuzaki og'riqni qovurg'alararo nerv shikastlanganda (qo'ltiq osti chizig'ida, to'sh suyagining nerv tolalari chiqish joyida), qovurg'alararo muskul shikastlanganda (og'riq butun muskul bo'ylab seziladi va nafas olish bilan bog'liq bo'ladi), qovurg'alar singanda va darz ketganda paydo bo'ladi. Nevralgiyada og'riq kasallangan tomonga yonganda kuchayadi. Quruq plevritda sog' tomonga engashganda og'riq kuchayadi. Ko'krak qafasini yon tomonda siqqanda, taxtakachlaganda plevral og'riq yo'qoladi.

Paypaslash ovoz titrashini aniqlashda ayniqsa ko'p qo'llaniladi va muhim ahamiyatga ega. Bu sezgi vrach qo'lini bemorning ko'krak qafasiga qo'yganda bemor baland ovozda "r" harfi so'zlarni aytganda ovoz tebranishi ko'krak qafasi orqali qo'lga beriladi. Ovoz boylamining tebranishi havo bilan bronxlarga, bronxiolalarga va ko'krak qafasiga beriladi. Normada erkaklarda ayollarga nisbatan kuchliroq bo'ladi. Yo'g'on ovozli ayollarda va bolalarda umuman sezilmaydi.

Ko'krak qafasining yuqori qismida, ayniqsa o'ng tomonda tebranish kuchliroq, chunki Bronx qisqa bo'lib, halqumdan tovush tebranishini o'tkazishga yaxshi sharoit yaratadi. Chap tomonda va pastki qismida tovush tebranishi kuchsizroq bo'ladi. Bunday holatni tovush tebranishi aniqlashda hisobga olish kerak. O'pka to'qimasining zichligi oshganda tebranish kuchayadi, chunki zich to'qima tovushni yaxshi o'tkazadi (o'pkaning krupoz yallig'lanishida, sil, ekssudativ plevritda). Tovush tebranishining susayishi holsiz kasallarda tovushning pasayishi hisobiga, tovush bog'lami shikastlanganda, plevral bo'shliqda havo yoki suyuqlik to'planganda, Bronx to'silib qolganda, ko'krak qafasi qalinlashganda (shish, teri osti yog' qatlami ko'payganda) ro'y beradi. Paypaslashda ba'zan plevraning dag'al ishqalanish shovqinini va past xirillash tovushini aniqlash mumkin.

Tukillatish

Bu usulning asosida tovush, ya'ni aniq fizik hodisa yotadi. Tovush, bu borliqning to'liq holatida tarqladigan tebranish harakatidir. Turli jismlarning tebranish harakati bir xil emas, ular jismning cho'ziluvchanlik xususiyatiga bo'g'liq. Muvozanatdan chiqqan jismning tebranishi tebranish kengligiga, tezligiga va davomligiga ega.

Tovush ma'lum tezlikda hosil bo'ladi. Bizning qulog'imiz tebranish tezligi 1 daqiqada 16 dan 38000 (gs) gacha bo'lgan tovushlarni qabul qiladi. Tebranish qancha tez bo'lsa, tovush shuncha baland, u qancha sekin bo'lsa, tovush shuncha past eshutiladi. Tovush kuchini tebranish kengligianiqlaydi. Bir xil kuch bilan urganda devori cho'ziluvchan, havoli a'zolarida baland tovush vujudga keladi, masalan, o'pka, me'da va boshqa a'zolarida. Zich a'zolarida esa, masalan, jigar, yurak tukillatish bilan muvozanatdan chiqarilganda kichik kenglikdagi tebranishni beradi yoki past tovush beradi. Tovushning davomligiga tebranish harakatining uzoq har xil bo'ladi.

Shunday qilib, tovushning davomligi va sekin so'nishi, o'pkaning tukillatish va qisqa tovush hamda uning tez so'nishi havosiz a'zo va to'qimalarni tukillatish orqali hosil qilinadi.

Odamning tanasi turlicha xususiyatga ega bo'lgan a'zoldan tuzilganligi uchun, har xil joylarni tukillatish bir – biridan kengligi, tezligi davomligi bilan farq qiluvchi har xil tovushlarni vujudga keltiriladi. Bu ayniqsa ko'krak qafasiga tegishli, unda havoli (o'pka) va havosiz zich a'zolar (jigar, yurak) bor.

Agar tukillatishda bir xil bo'lsa, tovushning o'zgarishi tukillayotgan tana zarrachalariga bog'liq bo'ladi.

Shunday qilib, havoning kam yoki ko'pligi va zichlik darajasi qarab biz tana qismlarining fizik holatini aniqlash mumkin. Tukillatish usuli Gippograt (Buqrot) davridan boshlab qo'llanib kelinadi. Bu usul orqali qorinda yig'ilgan suyuqlik (atsit) uning damlanishdan (meteorizm) farqlanganlar.

Keyinchalik bu usul butunlay esdan chiqarilib, bir necha asrlar davomida qo'llanilmay kelgan. Tukillatish usulini birinchi marta Vena vrachi Auyenbugger qo'llagan (1761). Bu usul "Ko'krak qafasini tukillatish asosida yashirin ko'krak kasalliklarini aniqlashga imkon beruvchi yangi kashfiyot" traktatida yozilgan. Auyenbugger o'ng qo'l barmoqlarini birlashtirib yarim bukkan holda bevosita ko'krak qafasiga urib tukillatish usulini qo'llagan.

Fransuz klinitsisti Korvizor traktatni fransuz tiliga tarjima qilgan va uni shaxsiy tekshirishlar bilan to'ldirilgan. Bu keyinchalik vrachlarning kundalik ishiga aylanib qolgan. Bu usul keyinchalik turli yo'llar bilan ishlatila boshlandi. Masalan, maxsus metal plastinka plessmetrni ko'krak qafasiga qo'yib barmoq bilan tukillatish, bolg'achani plessmetrga urib yoki barmoqni barmoqqa tukillatish. Oxirgi modifikatsiya qilingan usul (1935) rus klinitsisti G.S. Sokolskiy tomonidan taklif qilingan bo'lib, u keng tarqaldi. Tukillatish usulini ishlab chiqishda ko'pgina taniqli klinitsistlar (S. P. Botkin, G.A. Zaxarin, M. G. Kurlov, N. P. Obratsov va boshqalar) qatnashdilar. Tukillatish usuli bevosita va bilvosita usullarga farqlanadi. Bevosita tukillatish bir yoki bir nechta barmoqni kasalning tanasiga urib bajariladi, hozirgi vaqtda u juda kam qo'llaniladi. Bevosita tukillatishning yana bir turi Obratsov usuli bo'lib, u chertish usulidir. Bunda o'ng qo'l ko'rsatkich barmog'ining yumshoq uchi o'rta barmoqdan sirg'antirilib tukillatiladi. Bilvosita usulda tukillatganda tanaga emas, balki tanaga zich qo'yilgan plessmetrga uriladi. Bu vaqtda tovush baland va tiniq eshitiladi. Hozirgi vaqtda eng ko'p qo'llaniladigan va oddiy usul barmoqni barmoqqa urish hisoblanadi. U qator afzalliklarga ega, bunda vrach asbobga bog'liq bo'lmaydi, barmoq - plessmetrni tananing har qanday yuzasiga o'ng'ay joylashtirish mumkin, bunda akustik ma'lumot sezish bilan birga qo'shib olib boriladi.

Plessimetr – chap qo'lning ko'rsatkich yoki o'rta barmog'I qimirlatmasdan zich qo'yiladi. Bog'acha o'ng qo'lning ko'rsatkich yoki o'rta barmog'I birinchi bo'g'inlari oralig'ida bukiladi. Boshqa barmoqlar ularga tegmaydi. Yuzaga barmoqni tik, qisqa urish kerak. Bu bilan urishning kuchli bo'lishiga va yuzaga qaraganda ko'proq chuqurlikka tarqalishiga erishiladi.

Tovushni to'g'ri baholash uchun 1 emas 2 – 3 marta bir xil kuch bilan, bir xil or'liqda kirish kerak. Lekin urish 2 – 3 martadan ortiq bo'lmasligi kerak, chunki eshitish bo'g'iq bo'lib qoladi.

Chuqur, kuchli, baland va yuzaki kuchsiz va past tukillatishlar farq qilinadi. Chuqur tukillatishda tukillatish tovushi 7 sm gacha chuqurlikka tarqaladi, yuzaki 4 – 6 sm, yuzaki tukillatish chuqurlikkacha, yuzasi esa 3 – 4 sm ga teng bo'ladi. Shikastlangan qismining kattaligi va chuqurligiga qarab birin – ketin chuqur va yuzaki tukillatishlar qo'llaniladi. A'zo yuzaki joylashgan va kam jarohatlangan bo'lsa, uning chegarasini aniqlash uchun kuchsiz (yuzaki) tukillatishni qo'llash foydali bo'ladi. Va aksincha, chuqur joylashgan katta shikastlanishda tovushni taqqoslash maqsadida kuchli (chuqur) tukillatishni qo'llash yaxshiroq. Sekin tukillatish juda sust yoki Goldsheyderning chegara yoki pog'ona tukillatishi bo'lib hisoblanadi. Bunda plessimetr – barmoq to'liq qo'yilmasdan, balki bukilgan bo'g'inning uchi tana yuzasi tegib turadi, urish 1 – oraliqning boshiga to'g'ri keladi va bu Plesh bo'yicha barmoq plessimetr vaziyati deyiladi. Juda sekin tukillatishda tovush uni sezish bo'sag'asigacha pasaygan bo'lib, havosiz tana qismlarini

tukillatganda mutlaqo tovush eshitilmaydi. Havo bir a'zolariga o'tganimizda esa juda past tovush eshitiladi.

Tukillatish solishtirma va topografik tukillatishga farqlanadi.

Solishtirma tukillatishda simmetrik qismlar bir xil sharoitda solishtiriladi. Bular bir xil kuch bilan urish, barmoq plessimetrni bir xil vaziyatda va bir xil kuch bilan bosish, nafasni bir xil fazada ushlash va boshqalar orqali aniqlanadi. Solishtirma tukillatishda ancha kuchli va baland tukillatish qo'llaniladi, tushunarli hollarda ham kuchli, ham kuchsiz, ham o'rtacha, ham juda kuchsiz tukillatish orqali sinab ko'riladi. U holda tukillatish tovushining o'zgarishi haqida aniq ma'lumot olinadi.

Keyin hollarda oldin o'ng, keyin chap va aksincha tukillatish mumkin. Shunda shubhaga o'rin qolmaydi.

Baholash mezonlari №4

Mavzuning nomi	Ball	Baho	Talabning bilim darajasi
Nafas organlari kasalliklari bilan tekshirish usullari: so'rab-surishtirish, ko'krak qafasini ko'zdan kechirish, palpatsiya. O'pka perkussiyasi, qiyosiy perkussiya.	86-100	A'lo	Xulosa va qaror qabul qila oladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, amalda qo'llay oladi, mohiyatini tushuntiradi, biladi, aytib bera oladi, tasavvurga ega.
	71-85	Yaxshi	Mustaqil mushohada yuritadi, amalda qo'llay oladi, mohiyatini tushuntiradi, biladi, aytib bera oladi, tasavvurga ega.
	55-70	Qoni qarli	Mohiyatini tushuntiradi, biladi, aytib bera oladi, tasavvurga ega.
	0-54	Qoni qarsiz	Tasavvurga ega emas, bilmaydi.

Uyga vazifa 5, mustaqil ish

Amaliy mashg'ulot №5

Nafas tizimi a'zolarini fizikal tekshirish usullari: o'pka perkussiyasi, qoidalari va bajarilishi. Solishtirma perkussiya. Topografik perkussiya, perkutor tovush va o'pka chegaralarining norma va patologiyada xususiyatlari.

1. Amaliy mashg'ulot o'qitish moduli.

Mashg'ulot vaqti – 4 soat	Studentlar soni: 10 dan 12 gacha
Mashg'ulot formasi	Amaliy mashg'ulot
Amaliy mashg'ulot rejasi	Sog'lom va nafas a'zolari bilan kasallangan bemorlarni topografik perkussiyasi. Auskultatsiya – ob'ektiv tekshirish usuli sifatida. Auskultatsiya texnikasi va qoidalari. O'pka auskultatsiyasi: asosiy nafas shovqinlari (vezikulyar, bronxial).
Amaliy mashg'ulot maqsadi:	Talabalarga o'pka perkussiyasi va auskultatsiyasini o'rgatish .
O'qitish uslubi	So'rov. Bemorlarni dmonstratsiya qilish, interaktiv o'qitish uslubi, amaliy ko'nikma.

O'qitish formasi	Kichik podgruppalarida.
O'qitish jihozlari	O'quv qo'llanma, amaliy mashg'ulotlar mundariyasi, proektor, kompyuter.
O'qitish holati	Metodik jihozlangan auditoriya.
Monitoring va baholash	Og'zaki kontrol: savol-javob, testlar, muammoli masala.

1.2. Amaliy mashg'ulot texnologik kartasi

Ish bosqichlari va vaqti.	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorlov bosqichi	10. Auditoriya tozaligini nazorat qiladi 11. Talabalarni mashg'ulotga tayyorgarligini tekshiradi 12. Davomatni nazorat qiladi	
1.O'quv mashg'ulotiga kirish bosqichi (10 daqiqa)	1.Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash. 2.Kirish ma'ruzasi uchun taqdimot slaydalarini tayyorlash 3. Fanni o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini ishlab chiqish	
2– asosiy bosqich (160 daqiqa)	1. Talabalarni kichik guruhlarga bo'lib, mavzu bo'yicha savollarni beradi. 2. Ko'rgazmali plakatlardan foydalanadi 3. Slaydalar, multimedialardan foydalanadi 4. Davolash ishlarini olib boradi 5. Mavzular asosida berilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi, faol ishtirokchi talabalarni rahbatlantiradi va umumiy baholaydi	Kichik guruhlarga bo'linadilar Tomosha qiladilar qatnashadilar Tinglaydilar va savollarga javob beradilar
1-yakuniy bosqich (10 daqiqa)	1. Yakunlovchi xulosa qiladi 2. Mustaqil ish beradi 3. Uyga vazifa beradi	Tinglaydi Yozib oladi Yozib oladi

3. Talabalarning nazariy bilimlarini baholash:

A)Frontal usuli:

1. Qaysi maqsadda topografik pu\erkussiya qilinadi
2. O'pka Yuqori chegarasini aniqlash texnikasi
3. Krening maydoni nimani baholaydi
4. O'pka pastki chegarasini aniqlash usullari
5. O'pka pastki chegarasini aniqlash usullarini ko'rsating
6. Auskultatsiya usuli va texnikasi
7. Normal nafas shovqinlarini sanab bering
8. Vezikulyar nafasning hosil bo'lish mexanizmi
9. Vezikulyar nafasning fiziologik susayishi
10. Vezikulyar nafasning patologik susayishi
11. Vezikulyar nafasning fiziologik kuchayishi
12. Vezikulyar nafasning patologik kuchayishi
13. Bronxial nafas qanday hosil bo'ladi
14. Bronxial nafas eshitish texnikasi
15. Patologik Bronxial nafas to'g'risida tushuncha
16. Amforik nafas nima

17. Metallik va stenotik nafas nima

18. Vezikulobronxial nafas to'g'risida tushuncha bering?

“Uch pog'onali intervyu” usuli

Har bir gruppada uchta talaba tanlab olinib, ular orasida “vrach”, “bemor” va “ekspert-UASh” rollari bo'linib beriladi. Bemor rolini tanlagan talabaga anonimno diagnozi aytiladi, va u shu diagnozga taaluqli shikoyatlar bildiradi, vrach diagnoz qo'yadi, ekspert UASh shikoyatlar va diagnoz mutanosubligini tekshiradi. Har bir guruh 10-15 daqiqa davomida konsultatsiya qilinadi, ekspert vrach faoliyatini 3 punk bo'yicha tekshiradi:

4. Nima to'g'ri qilindi

5. Nima noto'g'ri qilindi

6. Qanday qilish kerak

Guruh konsultatsiyasi xulosasini ekspert xulosasi bilan taqqoslaydilar.

Boshqa xil turi: talabalar ekspert rovida poliklinikada, haqiqiy konsultatsiyada ishtirok etib, butun guruh bilan analiz qilinadi.

Nafas a'zolari to'g'risidagi hamma auskultativ ma'lumotlar asosiy va qo'shimcha nafas shovqinlariga bo'linadi. Asosiy nafas shovqinlariga vezikulyar, bronxial nafas tiplari kiradi. Qo'shimcha nafas shovqinlariga xirillashlar, krepatitsiya, plevraning ishqalanish shovqini kiradi.

O'pkani eshitish stetoskop, fonendoskop (auskultatsiya vositali) yordamida yoki bevosita quloq (bevosita auskultatsiya) bilan eshitiladi. Auskultatsiyaning turlari va bajarilish qoidasi haqida qo'llanmaning umumiy qismida ma'lumotlar keltirilgan.

Eshitish paytida bemorni vaziyati xuddi perkutor tekshirish usuli holatidagidek bo'ladi. Orqa tomondan eshitish uchun bemorning qo'llari old tomonda yig'ilgan holda ko'krakka qo'yilishi kerak. Shunda kuraklar orasi ochilib, eshitilish sohasi kengayadi. Agar og'ir ahvoldagi bemorlarni vaziyati o'zgartmaydigan bo'lsa, ularni yonbosh tomonga o'girib eshitiladi, agar buning imkoni bo'lmasa fonendoskopni bemorning tagiga quyib eshitiladi. Kamquvvat bemorlarni tik yoki o'tirgan vaziyatda eshitganda bosh aylanishi kuzatiladi. Talabaning vaziyati eshitib ko'rish uchun qulay bo'lishi lozim (bemorning vaziyatini hisobga olgan holda). O'pkadagi patologik jarayonlarni aniqlash uchun qiyosiy perkussiya usulini samarali o'tkazish lozim, ya'ni ko'krak qafasining simmetrik joylari eshitilib ko'riladi va aniq tartibdagi eshitish joylariga amal qilinadi.

Eshitish tartibi. O'pkani eshitishni old tomondan, o'pkaning cho'qqisidan, tovushlar ikkala tomondan taqqoslanadi, keyin fonendoskopni pastqi qismga qo'yiladi.

Keyinchalik qo'ltiq osti va kurak usti, osti, orasi sohalari qiyosiy auskultatsiya qilinadi.

Nafas olganda hosil bo'ladigan tovushlarni eshitishda ularning xarakteriga, kuchiga, o'rniga, nafas fazasiga munosabatiga, ya'ni tovushlar nafas olish yoki chiqarish paytida eshitilishiga ahamiyat beriladi. Olingan ma'lumotlar katta amaliy ahamiyatga ega bo'lib hisoblanadi.

O'pkaning topografik tukillatish. Topografik tukillatishda o'pkaning yuqori va pastki chegaralari, Krening maydoni va o'pka pastki qirralarining harakatlanishi aniqlanadi.

O'pkaning yuqori chegarasini aniqlash. Topografik tukillatishda plessimetr barmoq qidirilayotgan chegaraga yondosh (parallel) qo'yiladi va barmoqning tashqi qirrasidan aniqlanadi.

O'pkaning yuqori chegarasida aniqlash uchun plessimetr barmoq o'mrov suyagiga yondosh qo'yiladi va o'rtasidan yuqoriga va birmuncha ichkariga qarab bo'g'iqroq tovushgacha tukillatiladi. Sog'lom odamlarda o'pkaning uchi o'mrov suyagidan 3 – 4 sm yuqoriga bo'ladi. O'pkaning yuqori chegarasi orqaddan, xuddi shunday pastdan yuqoriga va ichkariga qarab aniqlanadi, plessimetr – barmoq kurak suyagi yuqori qirrasining o'rtasida yondosh qo'yiladi va

bo'g'iqroq tovush hosil bo'lguncha tukillatiladi. Me'yorida bo'lgan o'pkaning yuqori chegarasi orqadan VII bo'yin umurtqasining uchiga mos keladi.

O'pkaning o'ng uchi chap ichiga qaraganda pastroq joylashgan. O'pka uchining kengligi yoki Krening maydoni aniqlanadi. Buning uchun plessimetr barmoq trapetsiyasimon muskulning oldingi qirrasiga, o'pka uchining o'rtasiga tik qo'yilib shu yerdan ichkari va yuqoridagi bo'g'iqroq tovushgacha tukillatiladi. Bunda kengligi 5 – 6 sm (3 dan 8 sm gacha) bo'lgan tiniq o'pka tovushi yo'li hosil bo'ladi. O'pka uchini tukillatilganda sekin yoki juda sekin tukillatishni qo'llash maslahat beriladi va urish sagittal bo'lishi kerak.

Tukillatishda yuqori chegaraning o'zgarishini aniqlash mumkin, kengayishi va yuqoriga ko'tarilishi va o'pka emfizemasida, past turishi burishuvchi jarayonlarda, yopishib qolganda aniqlanadi.

O'pkaning pastki chegarasini aniqlash. O'pkaning yuqori chegarasini aniqlash unchalik qiyin emas, uni - o'ng tomondagi o'pka chegarasini aniqlashdan boshlash osonroq bo'ladi. Buning uchun tukillatish yuqoridan pastga qarab hamma shartli chiziqlar bo'yicha olib boriladi. Chap o'pkaning pastki chegarasi aniqlanganda yurakning joylashishi hisobga olinadi, bu yerda o'pka o'yiqlik hosil qilib va IV qovurg'a yuqorisida to'sh suyagidan gorizontaal chiziq hosil qilib chapga qarab ketadi hamda to'sh suyagiga yaqin chiziqda IV qovurg'a kesib o'tadi va o'rta o'mrov chizig'I bo'yicha VI qovurg'agacha pastga qarab tik tushadi.

O'pkaning me'yordagi pastki chegarasi:

<i>O'ng tomon</i>	<i>Chap tomon</i>
To'sh suyagi oldi chizig'I – V qovurg'a oralig'i	
O'rta o'mrov suyagi chizig'I – VI qovurg'a	
Old qo'ltiq osti chizig'I – VII qovurg'a	VII qovurg'a
O'rta qo'ltiq osti chizig'I – VIII qovurg'a	VIII qovurg'a
Orqa qo'ltiq osti chizig'I – IX qovurg'a	IX qovurg'a
Kurak chizig'I – X qovurg'a	X qovurg'a
Umurtqa oldi chizig'I – XI ko'krak umurtqasi	XI ko'krak
umurtqasi	
o'simtasi to'g'risida	o'simtasi
to'g'risida	

To'sh suyagi old chizig'Iga yurak, qo'ltiq osti old chizig'iga me'da yaqin bo'lganligi sababli ba'zi bir mualliflar (V. Vasilenko) shu chiziqlar bo'yicha chap o'pkaning pastki chegarasini aniqlamaydilar. O'pka pastki chegarasining joylashishi odamning gavda tuzilishi hamda boshqa sabablarga ko'ra turlicha o'zgarishi mumkin.

Asteniklarda o'pkaning pastki chegarasi normosteniklarga nisbatan bir qovurg'a pastroq bo'ladi, gipersteniklarda aksincha, bir qovurg'a yuqori bo'ladi. Homiladior ayollarda o'pkaning chegarasi yuqoriga siljiydi. Patologik holatlarda o'pkaning pastki chegarasi yuqoriga yoki pastga siljishi, u 2 taraflama yoki bir taraflama bo'lishi mumkin.

O'pka pastki chegarasining pastga siljishi quyidagi holatlarda kuzatiladi:

1. O'pka hajmi kattalashganda (o'pka emfizemasi, bronxial astma hurujida).
2. Qorin devoir bo'shashganda, ichki a'zolar pastga siljiganda (vitseroptoz) va ko'krak – qorin muskul to'siq pardasi pastga siljiganda.

Pastki chegaraning bir tomonlama siljishi o'pkaning vicar emfizemasi rivojlanganda, o'pka nafas olishda qatnashishdan orqada qolganda (ekssudativ plevrit, pnevmotoraks, gidrotaks va boshqalar) kuzatiladi.

O'pka pastki chegarasining ikki tomonlama yuqoriga siljishi qorin bo'shlig'ining bosimi ortib ketib, ko'krak – qorin muskul parda to'sig'I yuqori turganda kuzatiladi (keskin semirish, qorin dam bo'lishi, astsit, katta shish va hokazo). O'pka pastki chegarasining bir tomonlama yuqori joylashishi o'pkaning burishish (fibroz) jarayonida yoki plevra (yopishqoq plevrit) hamda plevra bo'shlig'ida suyuqlik yig'ilganda (kasal tomonda) kuzatiladi.

O'pka qirrasini harakatini aniqlash. O'pka qirrasini harakatini aniqlash o'pka pastki chegarasini to'g'ri aniqlashga imkon beradi. Buning uchun o'pkaning pastki chegarasi aniqlangandan so'ng bemordan chuqur nafas olib, uni ushlab turish so'raladi va yana boshqatdan chegara aniqlanadi, so'ngra shu holat chuqur nafas chiqarish orqali bajariladi. O'pka pastki qirrasining harakatlanishi pastga 3 – 4 sm va yuqoriga ham shunchani tashkil qilsa me'yor hisoblanadi.

Eng ko'p harakatlanish kurak va qo'ltiq osti chiziqlarida aniqlanadi, chunki bu yerda plevra sinusi katta bo'ladi. O'pka qirrasining faol harakatlanishidan tashqari, yana uning vaziyatga bog'liq harakatlanishi farq qilinadi. Tik vaziyatdan yotiq vaziyatga o'tganda o'pkaning pastki chegarasi taxminan 2 sm pastga siljiydi, yonboshlagan vaziyatda esa o'pkaning pastki qirrasini erkin tomonga (pasatga) 3 – 4 sm siljiydi.

Og'ir yotgan bemorlarni tekshirganda o'pka qirrasining bu sust harakatini esda tutish kerak.

Patologiyada o'pka pastki qirrasining harakati, o'pka to'qimasining elastikligi susayadi. Bu asosan o'pka emfizemasida, o'pka dimlanishida, uning infiltrativ yallig'lanishida kuzatiladi. O'pka harakatining kamayishi plevra bo'shlig'ining hajmi kichrayganda (sinuslarning) plevritda yoki plevra pardalari yopishib qolganda ham kuzatiladi.

O'pka bo'lagi chegarasini mo'tadil sharoitda aniqlash mumkin emas. Patologik hollatlarda o'pkaning ayrim bo'laklari har xil tovush berishi mumkin (krupoz yallig'lanish, absess). Shu orqali biz kasallikni bir – biridan farq qilamiz.

O'pkani solishtirma tukillatish. O'pkani solishtirma tukillatish fizik, ya'ni anatomik holatini aniqlash imkonini beradi. Bunda tukillatish mutlaqo bir xil sharoitda, qat'iy aniq chegaralariga o'tkazilishi kerak. Bunda goh kuchsiz (yuzaki), goh kuchli (chuqur) tukillatishni qo'llash maqsadga muvofiq. Kuchsiz tukillatishda o'pkadagi chuqur joylashgan o'zgarishlar va aksincha kuchli tukillatishda – yuzaki joylashgan o'choqlar topilmasligi mumkin.

Solishtirma tukillatish quyidagi tartibda olib boriladi: o'pkaning uchi, oldingi yuzasi – qovurg'alar oralig'I tukillatiladi, yonbosh yuzasi (bemor qo'lini ko'tarib boshining ensa qismiga qo'yishi kerak) va orqa yuzasi. Orqa tomondan tukillatish kurak usti qismidan boshlanadi, plessimetr – barmoq gorizontol holda qo'yiladi, kuraklar o'rtasini tukillatganda esa barmoq tik qo'yiladi. Kurak burchagining pastki tomonini tukillatish qovurg'alarga yondosh holda bajariladi, bunda barmoq gorizontol holda qo'yiladi.

Solishtirma tukillatishda quyidagi alohida holatlarga ahamiyat berish kerak:

1. O'pkaning o'ng uchidan chiqadigan tovush chapiga nisbatan birmuncha bo'g'iqroq bo'ladi. Bunga sabab yelka muskuli yaxshi rivojlanganligi va o'ng o'pka uchi chuqurroq joylashganligidir.
2. Yurak yaqin joylashganligi sababli chap tomondagi II – III qovurg'a oralig'idagi tovush birmuncha qisqa bo'ladi.
3. Chap va o'ng qo'ltiq osti qismida ham farq bor: jigar yaqin joylashganligi uchun o'ng tomondagi tovush bo'g'iqroq, me'daga yaqin joylashganligi sababli chap tomondagi tovush timpanik turga yaqin.
4. Havoli o'pka to'qimasining qalinligiga qarab o'pkaning yuqori qismidagi tovush pastki qismidagiga qaraganda qisqaroq va pastroq bo'ladi.

O'pka tovushning patologik sharoitga qarab o'zgarishi. Patologik hollatlarda o'pka tovushi turlicha o'zgarishi mumkin. Ko'pincha tukillatganda tiniq o'pka tovushi bo'g'iq eshitiladi:

1. O'pka to'qimasida havo kamayib zichligi ortganda.

2. O'pkada biror havosiz to'qima hosil bo'lganda.

3. O'pka va ko'krak qafasi orasidagi bo'shliq – plevral bo'shliq suyuqlik bilan to'lganda yoki u yerda zich muhim bo'lganda.

Yallig'lanish jarayonlarida o'pka to'qimasida havo kamayishi kuzatiladi.

O'pkaning krupoz, o'choqli yallig'lanishda, sil infiltratida o'sma natijasida Bronx to'silib qolganda (bunda havo so'rilib o'pka to'qimasi havosiz bo'lib qoladi), o'pka infarktida, o'pkada chandiqlar bo'lganda (pnevmoskleroz, silda) va hokazo.

Tukillatganda o'pkada suyuqlik borligi, o'pka suyuqlik miqdori 400 – 500 ml yetganda, chapda esa oldinroq, Traube bo'shlig'I to'lishi bilan aniqlanadi. Tukillatganda shkastlanishning xususiyati ham aniqlanadi. Masalan, yallig'lanish jarayonlarida (ekssudativ pleuritda) bo'g'iq tovushning yuqori chegarasi Damuazo egri chizig'ini hosil qiladi va u bemor vaziyatini o'zgartirganda o'zgarmaydi, suyuqlik va havo bir vaqtda to'plangan bo'lsa balandlik o'zgaradi. Plevrit natijasida plevra pardasi qalinlashganda hamda plevradan hosil bo'luvchi o'smada bo'g'iq yoki bo'g'iqroq tovush aniqlanishi mumkin.

Bo'g'iq tovush hosil bo'lishi ko'krak qafasi devorining o'zgarishiga bog'liq bo'lishi mumkin: semirganda, ko'krak bezi haddan tashqari rivojlanganda, shish paydo bo'lganda.

Bo'g'iq tovushning tarqalishi, shakli va kattaligi kasallikning xususiyatiga bog'liq bo'ladi. Shikastlanish o'chog'I katta va chuqur bo'lsa, bo'g'iq tovush jadal va keng maydoni egallaydi, kichik o'choqda bo'g'iq tovush kamroq jadalikda bo'lib, kichik maydoni egallaydi. Yallig'lanish o'chog'ining eng kichik o'lchami 3 – 4 sm. U yuzaki joylashgan bo'lsa va ko'krak qafasining qalinligi me'yorida bo'lsa, kasallikni tukillatish bilan aniqlash mumkin deb hisoblanadi.

Quyidagi hollarda o'pkada timpanik tovush aniqlanadi:

1). O'pkada nonormal havoli bo'shliq hosil bo'lganda.

2). Plevra bo'shlig'iga havo yoki gaz to'planganda.

Agar o'pkada hosil bo'lgan bo'shliq o'pka to'qimasining buzilishi yoki parchalanishi (yiring, qon va hokazo to'planishi) natijasida bo'lsa, bo'g'iq tovush aniqlanadi, agar bo'shab havo bilan to'lsa, u holda timpanik tovush aniqlanadi, bu absessda, gangrenada, katta bronxoektazlarda, kovakli silda va boshqalarda kuzatiladi. Agar bo'shliq qisman havo, qisman boshqa narsalar bilan to'lgan bo'lsa, bu holda bo'g'iq tovushning gorizontal pasat – balandligini aniqlash mumkin bo'ladi, u bemor vaziyatini o'zgartirganda o'zgaradi. Bunda Gergard fenomeni deyiladi.

Bo'g'iq timpanik tovush o'pka yallig'lanishining boshlang'ich bosqichida, ya'ni o'pka katachalarida ekssudat yig'ila boshlab havo miqdori kamayganda aniqlanishi mumkin. Bu tovush ekssudat so'rila boshlayotganda ham eshitiladi.

Shuningdek ekssudatli pleuritda ham o'pkaning suyuqlikdan yuqori joylashgan qismi tukillatilganda bo'g'iq tovush aniqlanadi. Chunki plevra bo'shlig'ida to'plangan suyuqlik o'pkaning shu qismini siqb turadi, uning havosi va cho'ziluvchanligi kamayadi. Shunga o'xshash hodisa compressor atelektazda ham kuzatiladi, bunda bronxlar ochiq bo'lib, o'pka to'qimasi siqilgan bo'ladi (masalan, o'smalarda).

O'pkani eshitish (auskultatsiya)

Auskultatsiya usuli yordamida organizmda hosil bo'ladigan tabiiy tovushlar eshitiladi. Bu usuldan qadim zamonlardayoq foydalanganlar. Gretsiyada birinchi bo'lib Buqrot auskultatsiya usulidan foydalangan. U nafas sistemasidagi qator xirillashlarni aniqlagan. Buqrot xirillashlarni qaynab turgan sirka tovushiga o'xshatgan. U gidropnevmotoroksda kuzatiladigan o'ziga xos "Gippograt shapillash shovqini"ni yozgan. Biroq, eshitish usuli amaliy tibbiyotda mashhur frnsuz klinitsisti Rene Laenek kashfiyotidan so'ng kiritilgan.

1819 yilda R. Laenekning "O'pka va yurak kasalliklarini vositali eshitishdan qo'llanma" nomli kitobi bosib chiqarildi. Dastlab u karnayga o'xshatib o'ralgan daftardan foydalangan, so'ngra

silindrsimon trubkadan foydalangan, keyinchalik tekshiruv asboblari takomillashib hozirgi stetoskop yaratildi.

Rossiyada auskultatsiya usuli juda tez yoyildi. Undan (S. Botkin, G. Zaxarin, Obrazssovlar birinchilar qatorida foydalanganlar).

Qattiq va egiluvchan stetoskopning ham qator o'ziga xos afzalliklari va kamchiliklari bor. Jumladan, qattiq stetoskopda tovushning xususiyati kam o'zgaradi, qo'shimcha shovqinlari kam eshitiladi, lekin vrach va bemor uchun bir oz noqulay.

Egiluvchan stetoskop vrach uchun ham, bemor uchun ham qulay, u tovushni bir muncha kuchaytiradi, ammo shu bilan birga qo'shimcha shovqinlar eshitilishiga imkon beradi, u yuqori tovushga nisbatan past tovushni yaxshi o'tkazadi.

Auskultatsiyada asosiysi eshitishni bilish va uni to'g'ri baholashdir.

Auskultatsiya usuli usuli juda oddiy bo'lishi bilan birga ma'lum sharoitlarga rioya qilishni talab qiladi.

1. Xonada tinchlik va osoyishtalik bo'lishi.
2. Bemor yarim yechingan bo'lishi kerak, chunki qo'shimcha shovqinlar eshitilishi mumkin.
3. Xona harorati o'rtacha bo'lishi kerak.
4. Ko'krakdagi junlar hameshitilish o'zgarish kiritishi mumkin, ular o'sib ketgan bo'lsa, ho'llash yoki qirib tashlash kerak.
5. Bemor va vrach bir – biriga qulay vaziyatga turishi kerak.
6. Iloji boricha bir xil stetoskopdan foydalanish zarur.
7. Diqqat – e'tiborni faqat bemorni eshitishga qaratish lozim.
8. Bemorning nafas olishi va nafas chiqarishini oxirigacha eshitish zarur.

O'pkani eshitganda shovqinning xususiyatiga, kuchiga, joylashishiga, tarqalishiga, nafas davrlariga e'tibor berish lozim. Eshitish tartibi taxminan tukillatishga o'xshash, old tomonda o'pka uchidan qo'ltiq osti chuqurchasigacha (bemorning qo'li boshda turishi kerak), orqa tomonda kurakning usti, o'rtasi va osti yuzalari eshitiladi.

Eshitish smetrik qismlarda bajarilib, bir – biri bilan solishtiriladi. Og'ir yotgan bemorlarda ularni charchatib qo'ymaslik uchun tez mo'ljalli eshitish usuli qo'llaniladi.;

Nafas olishda o'z – o'zidan hosil bo'ladigan asosiy nafas shovqinlari o'zining xususiyatiga ko'ra 2 xil bo'lishi mumkin: vezikulyar va bronxial nafas.

Bronxial nafas. Eshitishda oldinda – to'sh suyagining yuqori qismida, bo'yinning pastki qismida, xalqum va kekirdak ustida, orqada esa VII bo'yin umurtqasidan to III – IV ko'krak umurtqasigacha, o'zining xususiyatiga ko'ra nafas chiqarganda "X" harfini talaffuz qilgandagi kabi nafas shovqini eshitiladi, shu bilan birga nafas chiqarish baland, uzoqroq va dag'alroq bo'ladi.

Nafas hosil bo'lish mexanizmi: havo ovoz yorug'idan – halqum va kekirdakdan o'tayotganda uning aylanma harakati vujudga keladi, bu nafas olishda ovoz bog'lamlari ustida, nafas chiqarishda esa uning ostida hosil bo'ladi. Nafas chiqarayotgan ovoz yorug'I ancha kichrayishi sababli tovush ancha uzoq, dag'al va qattiq eshitiladi.

Nafas olish faol jarayon bo'lganligi uchun nafas chiqarishga nisbatan tezroq bo'ladi. Bunday nafasga laringotraxeal (hosil bo'lish mexanizmiga qarab) yoki bronxial nafas deyiladi.

Vezikulyar nafas. Ko'krak qafasining qolgan qismlarida boshqa xususiyatli shovqin eshitiladi. Bunda yumshoq, puflovchi, "F" harfini talaffuz qilayotgandagi kabi shovqin (payoladagi choyni sovutayotgandagi shovqin) eshitiladi.

Bu tovush bronxial shovqinga qarama – qarshi o'laroq nafas olishda uzoqroq va kuchliroq eshitiladi.

Vezikulyar nafasning hosil bo'lish mexanizmi: u o'pka parenximasi alveolarida hosil bo'ladi. Nafas olishda alveola havo bilan to'lib uning devor to'g'rilanadi, natijada undagi elastic elementlar

tebranishi tufayli alveolyar hosil bo'ladi. Alveolalar muntazam ravishda to'lib borganligi uchun juda ko'p tovushlarning ma'lum miqdordagi yig'indisi vujudga keladi va natijada tovush eshitiladi. Nafas chiqarishda alveola devorlarining tebranishi tez so'nadi. Vezikulyar nafasning kuchi sog'lom odamlarda bir xil bo'lmasligi mumkin. U ko'krak devoir to'qimasining qalinligiga, nafas harakatining kuchi va qator boshqa omillarga bog'liq. Shuningdek u yoshga, jinsga va odamning jussasiga bog'liq bo'ladi. 12 – 14 yoshgacha bo'lgan bolalarda vezikulyar nafas birmuncha kuchliroq, aniq eshitiladi. Bu ko'krak devorining yupqaligi va bronxlarning nisbatan torligi natijasidir. O'smirlarda vezikulyar nafas kattalarga nisbatan birmuncha kuchliroq eshitiladi.

Ayollarda vezikulyar nafas erkaklarga nisbatan ancha kuchli. Asteniklarda vezikulyar nafas gipersteniklarga nisbatan kuchliroq eshitiladi. Bir odamning o'zida o'pkaning har xil qismlarida vezikulyar nafas turlicha eshitiladi. Ba'zan o'ng o'pka uchida vezikulyar va bronxial nafas o'rtasida bronxovezikulyar yoki aralash nafas eshitiladi. Eshitganda, tukillatganda va paypaslaganda bu farqni esda tutish kerak. Agar eshitganda chap tomondan nafas kuchliroq, tukillatganda bo'g'iqroq va paypaslashda ovoz titrash kuchi kuchliroq bo'lsa, bu patologiya belgisi bo'lib hisoblanadi.

Vezikulyar nafas kuchayganda va susaygan bo'lishi mumkin. Vezikulyar nafasning kuchayishi quyidagi hollarda kuzatiladi: chuqur nafas olganda o'pka ventilyatsiyasi kuchayganda, jismoniy harakatdan so'ng, harorat ko'tarilganda, mayda bronxlarning yallig'lanishi natijasida torayishi (bronxit) yoki qisilishi (bronxial astma) oqibatida va hokazo.

Vezikulyar nafasning kuchayishi 2 tomonlama yoki bir tomonlama bo'lishi mumkin. Masalan, sog'lom tomonda nafasning kompensator (qoplami) kuchayishi qarama – qarshi tomonda o'pkani butunlay yoki qisman nafas olishda qatnashmayotgani belgisidir.

Kuchayish nafas olishning ikkala davriga, ya'ni nafas olish va chiqarishga yoki uning bitta davriga, ko'pincha chiqarishga taaluqli bo'lishi mumkin. Nafas chiqarishning kuchayishi ko'pincha uning uzayishi bilan ham ifodalanadi. O'pka to'qimasining cho'ziluvchanligi kamayganda yoki mayda bronxlar qisilib nafas chiqarish qiyinlashganda (bronxit, bronxial astma) vezikulyar nafasning uzayishi kuzatiladi. Bu vaqtda uzaygan nafas chiqarish o'pkaning hamma yuzasiga eshitiladi. Agar bu o'zgaragan nafas chegaralangan qismda eshitilsa, unda yallig'lanish jarayoni kichik qismda ekanligidan dalolat beradi. Masalan, sil kasalligida o'pkaning chap cho'qqisi shikastlanishi. Mabodo nafasning ikkala davrida nafas olish va chiqarish kuchaygan bo'lsa, bunday nafas dag'al nafas deyiladi, xususiyatiga ko'ra u ancha dag'al bo'ladi, bir tekisda bo'lmaydi. Bu bronx va bronxiola devorlarining kuchli shishishi natijasida bo'shlig'ining noto'g'ri qisilishida yoki o'pka to'qimasining zichlanish o'chog'inormal qismlari bilan almashinib kelganida (bronxopnevmoniya) eshitiladi.

Bronxial nafas. Fiziologik sharoitda kekirdakning yuqori qismida va halqum ustida bronxial nafas eshitiladi. Eshitish maydoni ba intensivligi asteniklarda gipersteniklarga nisbatan ko'proq bo'lib, bu ularning anatomik xususiyatlari bilan bog'langan. Agar bronxial nafas bu qismlardan boshqa joyga eshitilsa, u patologik holat bo'lib, o'pka to'qimasi zichlanganligini bildiradi. O'pka to'qimasining zichlanishiga sabab infiltratsiya hosil bo'lishi, o'pkaning qon bilan to'lishi (infarkt), o'pkaning bosilishi ekssudativ plevrit va o'smalardir.

Shikastlangan sohaning katta – kichikligiga qarab nafas ham o'zgaradi. Agar shikastlangan sohaning diametri 2 – 3 sm bo'lsa u yuzaki joylashsa uni aniqlash mumkin bo'ladi.

Bronxial nafas patologik bo'shliqlar ustida ham eshitiladi. Masalan, o'pka to'qimasini chiriganda (sil kavernasi, absess, qorason) yoki bronx bo'shliqlari kengayganda (bronxoektaziya). Zotiljam o'chog'I bir – biri bilan qo'shilib ketganda ham bronxial nafas eshitiladi.

Agar bronxial nafas o'pka to'qimasining ezilishi hisobiga kelib chiqqan bo'lsa, u kuchsiz, uzoqdan eshitilayotgandek bo'ladi. Bunday nafas ekssudativ plevritda kuzatilishi mumkin. Ekssudativ

plevritda bronxial nafas ko'pincha bo'g'iqroq, umurtqaga yaqin joyda, o'pka to'qimasining suyuqlikdan ezilgan qismida eshitiladi.

Amforik nafas katta kavernalar – bronxoektazlar ustida eshitiladi. Bu tovushni bo'sh grafinga yoki shishaga puflab hosil qilingan tovushga o'xshatish mumkin. Yana metalga urgandek tovush farqlanadi. U amforik nafasdan balandligi va jarangdorligi bilan farq qiladi. Bunday nafas silliq va tarang devorli, Bronx bilan tutashgan, havo bilan to'lgan katta kavernalar ustida eshitiladi. Ochiq pnevmotorakslarda plevra bo'shlig'I atrofdagi havo bilan tutashgan bo'lsa va havo katta bosim ostida bo'lmasa shunday tovush eshitiladi.

Nafas keskin susaygan bo'lsa va bunda nafas shovqinlari xususiyatini aniqlash imkoni bo'lmasa, bu holda aniq bo'lmagan nafas deyiladi. U o'ta madorsizlangan bemorlarda kuzatiladi, quruq plevritda nafas harakati chegaralangan, og'riq eng ko'p joyda eshitiladi.

Baholash mezonlari №5

Mavzuning nomi	Ball	Baho	Talabning bilim darajasi
Sog'lom va nafas a'zolari bilan kasallangan bemorlarni topografik perkussiyasi. Auskultatsiya – ob'ektiv tekshirish usuli sifatida.	86-100	A'lo	Xulosa va qaror qabul qila oladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, amalda qo'llay oladi, mohiyatini tushuntiradi, biladi, aytib bera oladi, tasavvurga ega.
Auskultatsiya texnikasi va qoidalari. O'pka auskultatsiyasi: asosiy nafas shovqinlari (vezikulyar, bronxial).	71-85	Yaxshi	Mustaqil mushohada yuritadi, amalda qo'llay oladi, mohiyatini tushuntiradi, biladi, aytib bera oladi, tasavvurga ega.
	55-70	Qoni qarli	Mohiyatini tushuntiradi, biladi, aytib bera oladi, tasavvurga ega.
	0-54	Qoni qarsiz	Tasavvurga ega emas, bilmaydi.

Uyga vazifa 6, mustaqil ish

Amaliy mashg'ulot №6

O'pka auskul'tasiyasi. Texnika va qoidalari. Asosiy (bronxial va vezikulyar) va qo'shimcha (xirillash, krepitasiya, plevra ishqalanish shovqini) nafas shovqinlari. Zamonaviy tekshirish usullari. Rentgenologik tekshiruv usullari: bronxoskopiya, bronxografiya, tomografiya. O'pkani funksional tekshiruv usullari: spirometriya, spiroografiya, pnevmatometriya. Balg'amni tekshirish.

1. Amaliy mashg'ulot o'qitish moduli.

Mashg'ulot vaqti – 4 soat	Studentlar soni: 10 dan 12 gacha
Mashg'ulot formasi	Amaliy mashg'ulot
Amaliy mashg'ulot rejasi	O'pka auskultatsiyasi: qo'shimcha nafas shovqinlari (quruq va nam xirillashlar, krepitatsiya va plevra ishqalanish shov-qini). Diagnostik ahamiyati. Bronxofoniya. Nafas organlari bilan kasallangan bemorlarni funksional-instrumental tekshirish usullari: spirometriya, pnevmotometriya, oksigemo-terapiya. O'pkalarni

	rentgenologik tekshirish metodlari, bronxoskopiya, bronxografiya, tomografiya. Diagnostik ahamiyati.
Amaliy mashg'ulot maqsadi:	Talabalarga qo'shimcha nafas shovqinlari (quruq va nam xirillashlar, krepitatsiya va plevra ishqalanish shov-qini) haqida tushuncha hosil qilish. Nafas organlari bilan kasallangan bemorlarni funktsional-instrumental tekshi-rish usullari bilan tanishtirish.
O'qitish uslubi	So'rov. Bemorlarni dmonstratsiya qilish, interaktiv o'qitish uslubi, amaliy ko'nikma.
O'qitish formasi	Kichik podgruppalarida.
O'qitish jihozlari	O'quv qo'llanma, amaliy mashg'ulotlar mundarijasi, proektor, kompyuter.
O'qitish holati	Metodik jihozlangan auditoriya.
Monitoring va baholash	Og'zaki kontrol: savol-javob, testlar, muammoli masala.

1.2. Amaliy mashg'ulot texnologik kartasi

Ish bosqichlari va vaqti.	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorlov bosqichi	13. Auditoriya tozaligini nazorat qiladi 14. Talabalarni mashg'ulotga tayyorgarligini tekshiradi 15. Davomatni nazorat qiladi	
1. O'quv mashg'ulotiga kirish bosqichi (10 daqiqa)	1. Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash. 2. Kirish ma'ruzasi uchun taqdimot silaydalarini tayyorlash 3. Fanni o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini ishlab chiqish	
2 – asosiy bosqich (160 daqiqa)	1. Talabalarni kichik guruhlariga bo'lib, mavzu bo'yicha savollarni beradi. 2. Ko'rgazmali plakatlardan foydalanadi 3. Slaydalar, multimedialardan foydalanadi 4. Davolash ishlarini olib boradi 5. Mavzular asosida berilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi, faol ishtirokchi talabalarni rahbatlantiradi va umumiy baholaydi	Kichik guruhlariga b'linadilar Tomosha qiladilar qatnashadilar Tinglaydilar va savollarga javob beradilar
1-yakuniy bosqich (10 daqiqa)	1. Yakunlovchi xulosa qiladi 2. Mustaqil ish beradi 3. Uyga vazifa beradi	Tinglaydi Yozib oladi Yozib oladi

3. Talabalarning nazariy bilimlarini baholash:

A) Frontal usuli:

1. Qanday patologik nafas shovqinlarini bilasiz
2. Quruq xirillashning xosil bo'lishi va xarakteri
3. Nam xirillashning xosil bo'lishi va xarakteri
4. Krepitatsiyaning xosil bo'lish mexanizmi
5. Mayda pufakchali nam xirillashlar bilan krepitatsiyaning farqi
6. Qaysi patologik hollarda plevraning ishqalanish shovqini Yuzaga keladi

7. Plevroperikardial shovqin nima
8. Quruq va nam xirillashning diagnostik ahamiyati
9. Krepitatsiya va plevranning ishqalanish shovqinining diagnostik ahamiyati
10. Bronxofoniya nima
11. Qanday hollarda bronxofoniya kuchayadi, diagnostik ahamiyati
12. Qanday hollarda bronxofoniya susayadi, diagnostik ahamiyati
13. Spirometriya nima
14. Pnevnotahometriya tug'risida tushuncha bering
15. Oksigenoterapiya tug'risida tushuncha bering
16. O'pkalarni rengenografiyasi va rengenoskopiyasi
17. Bronxoskopiya va bronxografiyaning diagnostik ahamiyati
18. O'pkalar tomografiyasining diagnostik ahamiyati

“Ari uyasi” usuli

Bu usulda muammo butun guruh bilan yoki ikkita kichik guruhla bilan tahlil qilinadi. Beriladigan vazifa butun guruh uhun bir, yoki ikkita guruhga har xil vazifalar berilishi mumkin. 10 -15 daqiqa ichida guruh ishtirokchilari vazifa yechimini tahlil qilib, bir birlariga doklad qiladilar. Ular ichidan eng yaxshi variant tanlab olinadi.

Nafas a'zolari to'g'risidagi hamma auskultativ ma'lumotlar asosiy va qo'shimcha nafas shovqinlariga bo'linadi. Asosiy nafas shovqinlariga vezikulyar, bronxial va boshqa nafas tiplari kiradi. Qo'shimcha nafas shovqinlariga xirillashlar, krepitatsiya, plevranning ishqalanish shovqini kiradi.

O'pkani eshitish stetoskop, fonendoskop (auskultatsiya vositali) yordamida yoki bevosita quloq (bevosita auskul-tatsiya) bilan eshitiladi. Auskultatsiyaning turlari va bajarilish qoidasi haqida qo'llanmaning umumiy qismida ma'lumotlar keltirilgan.

Eshitish paytida bemorni vaziyati xuddi perkutor tekshirish usuli holatidagidek bo'ladi. Orqa tomondan eshitish uchun bemorning qo'llari old tomonda yig'ilgan holda ko'krakka qo'yilishi kerak. Shunda kuraklar orasi ochilib, eshitilish sohasi kengayadi. Agar og'ir ahvoldagi bemorlarni vaziyati o'zgaraydigan bo'lsa, ularni yonbosh tomonga o'girib eshitiladi, agar buning imkoni bo'lmasa fonendoskopni bemorning tagiga quyib eshitiladi. Kamquvvat bemorlarni tik yoki o'tirgan vaziyatda eshitganda bosh aylanishi kuzatiladi. Talabning vaziyati eshitib ko'rish uchun qulay bo'lishi lozim (bemorning vaziyatini hisobga olgan holda). O'pkadagi patologik jarayonlarni aniqlash uchun qiyosiy perkussiya usulini samarali o'tkazish lozim, ya'ni ko'krak qafasining simmetrik joylari eshitilib ko'riladi va aniq tartibdagi eshitish joylariga amal qilinadi.

Eshitish tartibi. O'pkani eshitishni old tomondan, o'pkaning cho'qqisidan, tovushlar ikkala tomondan taqqoslanadi, keyin fonendoskopni pastqi qismga qo'yiladi.

Keyinchalik qo'ltiq osti va kurak usti, osti, orasi sohalari qiyosiy auskultatsiya qilinadi.

Nafas olganda hosil bo'ladigan tovushlarni eshitishda ularning xarakteriga, kuchiga, o'rniga, nafas fazasiga munosabatiga, ya'ni tovushlar nafas olish yoki chiqarish paytida eshitilishiga ahamiyat beriladi. Olingan ma'lumotlar katta amaliy ahamiyatga ega bo'lib hisoblanadi.

Boshqa tibbiyot mutaxassislari bilan maslahatlashish.

Bemor haqida boshqa tibbiyot xodimlaridan navbatchilik ish paytida axborot olish usuli bo'lib, yozuvlarni va kartalarni ko'zdan kechirish yoki kasallik tarixini o'rganish, shuningdek og'zaki axborot olish hisoblanadi. Bemorni kartochkasi yoki kasallik tarixi bilan tashxislash lozim,

unda ko'zdan kechirish haqida ma'lumotlarni, laborator va diagnostik tekshirish natijalarini, har xil talabalik yozuvini va maslahatchi mutaxassislar yozuvining oldingi davolangandagi ma'lumotlarni o'rganish muhim sanaladi. Hamma vaqt ham bemor bilan bir marta muloqot qilib uni ahvolini baholash qiyin, talaba bemorni ahvolini baholashida ilgari olingan ma'lumotlarga hamda boshqa mavjud bo'lgan tibbiy ma'lumotlar asosida baholaydi.

Bemor haqida axborot yig'ishda uni tibbiy yozuvlarni ko'zdan kechirishdan tashqari parvarish jarayonida ishtirok etadigan tibbiyot xodimlari jamoasi boshqa tibbiyot xodimlar bilan maslahatlashishlari lozim bo'ladi. Vaziyatdan keyin kelib chiqib talaba dietolog-vrach, fizioterapevt yoki boshqa mutaxassislar bilan birgalikda bemorga tegishli ma'lumotlarni o'rganadilar.

Nafas tizimi xastaliklarida bemorlarni instrumental tekshirish usullari.

Rentgenologik tekshirish. Rentgenologik tekshirish rentgenoskopiya (obyekt tasvirini ekranda hosil qilish) va rentgenografiya (tekshirilayotgan obyekt tasvirini yorug'lik sezadigan materialga tushirib, rasmini olish)ni o'z ichiga oladi. Rentgen apparati rentgen trubkasi, shtativ, kuchlanish transformatori va yuqori voltli transformatoridan iborat bo'ladi. Shishadan tayyorlanadigan va ballon shaklida bo'ladigan rentgen trubkasiga ikkita elektrod: katod va anod kavsharlangan. Katodda volfram spiraldan iborat bo'lib u transformator yordamida 2500°C ga qadar qizdiriladi. Qizdirish natijasida katoddan elektronlar uchib chiqadi, bular katod bilan anod o'rtasidagi kuchlanish katta bo'lganligidan harakati kuchayib, juda katta tezlik oladi. Elektronlar anod moddasiga urilib, keskin tormozlanadi, shuning natijasida qisqa to'lqinli elektromagnit nur — rentgen nurlari hosil bo'ladi. Rentgen apparati shifokorni shu nurlar ta'siridan saqlash uchun himoyalovchi sistema bilan ta'minlangan.

Nemis olimi Konrad Rentgen tomonidan 1896 yilda kashf etilgan shu nurlarning uchta xossasi mavjud: ular ko'zga ko'rinadigan nurlar mutlaqo o'ta olmaydigan jismlar orqali o'tib ketaveradi va ularga qisman yutilib qoladi; ba'zi moddalarning porlashiga (shu'la sochishi, flyuorestsentsiyaga) sabab bo'ladi; fotografik plyonka va plastinkalaridagi kumush bromidini parchalaydi. Bu nurlarning shu xossalari rentgenoskopiya bilan rentgenografiyaga asos bo'ladi. Tananing nurga solib ko'rilishi kerak bo'lgan qismlari nur manbai bilan ek-ran orasida turishi kerak. Ekran shu'lalanuvchi (flyuores-tsentsiyalanadigan) modda bilan qoplangan kartondir.

Odam organizmidagi turli organlar va sistemalarni rentgenologik yo'l bilan tekshirish rentgen nurlarining har xil zichlikdagi muhitlar orqali har xil darajada o'tish xossasiga asoslangan. Qanday bo'lmasin biror organning zichligi nechog'li yuqori bo'lsa, rentgenoskopiya mahalida ekranga tushadigan yoki rentgenografiya mahalida rentgenogramмага tushadigan soyasi shuncha quyuqroq bo'ladi.

Odamning to'qima va organlari har xil zichlikda bo'lib, rentgen nurlarini har xil darajada yutadi. Zich jismlar, tanalar hammadan ko'ra katta, yumshoq to'qima va havo hammadan kam zichlikka ega bo'ladi. Shu munosabat bilan suyaklar nurga solinganda ekranga ancha qora bo'lib tushsa, tomirlar dastasi, jigar quyuq soya beradi.

Havo rentgen nurlarini juda kam yutadi. Shuning uchun ichida havo bo'ladigan organlar nurga solinganida yorug' joylar hosil bo'ladi. Ularning nechog'li yorug' bo'lishi havo miqdoriga bog'liqdir. Suyuqlik ham rentgen nurlarini ko'p yutadi: suyuqlikdan tushadigan soya quyuqligi uning miqdoriga to'g'ri proporsionaldir.

Odam tanasining qaysi bo'limlarida qo'yishni organlar har xil zichlikda bo'lib, shu tufayli bu organlarni oson ajratib olishga imkon ochadigan tabiiy kontrastlik yuzaga keladigan bo'lsa, o'sha bo'limlarni rentgenologik yo'l bilan tekshirish hammadan ko'ra ko'proq ma'lumot beradi. Ko'krak qafasi rentgenoskopiya qilinganida ana shunday tabiiy rentgenologik kontrast ko'riladi, bunda zich bo'ladigan yurak va yurak tomirlar to'qimasi ichida havosi bor, ya'ni zichligi kam

bo'ladigan o'pka bilan o'ralib turadi, shuningdek skelet rentgenoskopiyasi qilinganida ham shunday hodisa kuzatiladi, tarkibida mineral tuzlar bo'ladigan zich skelet suyaklari zichligi kamroq bo'ladigan muskullar bilan o'ralib turadi. Shunday qilib, yurak bilan o'pkani to'g'ridan to'g'ri ekranda yoki rentgenogrammada tekshiraverish mumkin ekan. Zichligi jihatidan atrofidagi organ va to'qimalardan farq qilmaydigan organ va sistemalarni rentgenologik tekshirishga kelganda ish qiyinroq bo'ladi. Bu gap qorin bo'shlig'i a'zolari bilan qizilo'ngachni, bosh miyani tekshirishga ta'luqlidir. Bunday hollarda sun'iy kontrastlash usulidan foydalaniladi.

Rentgenokontrast moddalar rentgen nurlari kashf qilinganidan keyin ko'p o'tmay taklif etilgan. Bu usul - bilan avval hazm organlari tekshiriladigan bo'ldi, keyin boshqa a'zo va tizimlar ham tekshirila boshladi. Rentgenodiagnostikada ishlatiladigan rentgeno-kontrast moddalar ikki guruhga bo'linadi.

1. Nisbiy zichligi yuqori bo'ladigan rentgenokontrast moddalar, bular rentgen nurlarini tutib qolib, tekshirilayotgan a'zoning atrofidagi to'qimalardan ancha quyuqroq bo'ladigan soyasini tushiradi. Hozirgi vaqtda asosan yod va bariy birikmalari qo'llaniladi.

2. Nisbiy zichligi tekshirilayotgan organdan kam bo'ladigan va rentgen nurlarini oson o'tqazib yuboradigan rentgenokontrast moddalar, bu moddalarning rentgen nurlarini shu tariqa oson o'tqazib yuborishi ularning fonidagi boyagi organni ko'rishga imkon beradi.

Bularga kislorod, geliy, azot (II)-oksid, karbonat anhidrid gazi kiradi. Amalda kisloroddan hammadan ko'ra ko'proq foydalaniladi.

Kontrastlash usullari rentgenokontrast moddaning qay tariqa yuborilishiga qarab 3 guruhga bo'linadi:

1) rentgeno-kontrast modda odam tanasining tabiiy yo'llari (teshiklari) dan yuboriladi;

2) rentgenokontrast modda qon oqimiga yuboriladi;

3) rentgenokontrast modda to'g'ridan to'g'ri to'qimalarga, a'zolariga va tutash bo'shliqlarga yuboriladi. Kontrastlash usuli hazm a'zolarini (qizilo'ngach, me'da, ingichka va yo'g'on ichakni) tekshirish uchun qo'llaniladi, buning uchun bariy sulfatning suvdagi emulsiyasidan foydalaniladi, bemorga shu emulsiya ichiriladi yoki klizma qilib yuboriladi. Traxeya bilan bronxlar (bronxografiya), qovuq, (tsistografiya), ko'ks oraliq'i (mediastinografiya), burun bo'shliqlari (rinografiya), burun oldi bo'shliqlari (qo'shimcha bo'shliqlar) ham shu usul bilan tekshiriladi.

Organizmdagi ko'pgina qo'shni a'zolar bir xil zichlikka ega bo'ladi. Odatdagi rentgenoskopiyada bularning soyalari bir-biriga qo'shilib ketadi, bu tekshirishning foydasini kamaytirib yuboradi. Lekin shunday hollarda ham tekshirilayotgan a'zoga rentgenokontrast modda yuborish yo'li bilan shu a'zo va atrofidagi a'zolar hamda to'qimalar o'rtasida rentgen ekрани yoki rentgenogrammada keskin tafovutni aniqlash mumkin. Ichi bo'sh, kovak bo'ladigan a'zolariga — me'da, ichak, qorin bo'shlig'iga ba'zan havo yuboriladi, bu - havoli a'zo bilan qo'shni a'zolar o'rtasida kontrast hosil qilishga imkon beradi.

A'zolar ko'pincha har xil sathlarda qavat-qavat bo'lib joy oladi yoki bir-biriga zich taqalib turadi. Bunday hollarda nur beriladigan bo'lsa, barcha organlarning ko'lankasi tushaveradi. Mana shu ko'lanka bir-biriga zich taqalib turgan a'zolar soyalarining qo'shilib ketishi natijasidir. Masalan, o'pka nurga solib ko'rilganda pastki bo'limlari uchlaridan ko'ra yorug'roq bo'lib ko'zga tashlanadi, lekin bunda yorishishning sababi ikkala holda ham bitta, ya'ni havodir. O'pka uchlarining kamroq yorishib ko'rinishi havo miqdoriga bog'liq bo'lmasdan, balki yelka mushaklarining qalininga qavat bo'lib turishiga ham bog'liqdir.

Soyalarning ustma-ust tushishiga yo'l qo'ymaslik uchun rentgenologik tekshirish qiyshiq yoki yonlama proyeksialar (yo'nalishlar)da olib boriladi. Qiyshiq proyeksiyada tekshirishda nurga solinayotgan joyning katta-kichikligini, shuningdek undagi patologik o'zgarishlarni aniqlab olsa bo'ladi. Bu shunga asoslanganki, tasvirlanayotgan a'zo kattaligi undan ekrangacha bo'lgan

masofaga bog'liq, nurga solinayotgan obyekt ekrandan nechog'li uzoqda turadigan bo'lsa, a'zo soyasi shuncha katta bo'lib tushadi. Nurga solinayotgan a'zolarining olgan joylarini aniqlash uchun ham turli proyeksiyalarda tekshirish usullari qo'llaniladi.

Rentgenografiya tekshirilayotgan obyektning yorug'lik sezuvchi materialga (kumush bromidi bilan qoplangan plenkaga) tushirilgan tasvirini olishdan iborat. Rentgen nurlari kumush bromidini parchalaydi. Tananing qanday bo'lmasin biror qismini rentgenografiya qilish uchun rentgen nuri manbai bilan ko'rinadigan nurlardan himoyalangan fotomaterial o'rtasiga surati olinadigan obyekt qo'yiladi; surati olinayotgan obyektning turli muhitlari (havosi, to'qimalari) orqali o'tib, har xil darajada susaygan rentgen nurlari kumush bromidiga har xil ta'sir o'tkazadi, shunga ko'ra fotomaterialda bu birikma har xil tarzda parchalanadi. Surat olingandan keyin fotoplenka yoki plastinka o'chirilib, fiksatsiya qilinadi. Rentgenogrammada zich to'qimalar yorug', yumshoq to'qimalar bilan havo esa qora bo'lib ko'rinadi. Rentgenogramma arziyas patologik o'zgarishlarning ancha batafsil tasvirini olish kerak bo'lgan mahallarda qilinadi. Bunday o'zgarishlar nurga solib ko'rish vaqtida vrach nazardan chetda qolishi, lekin rentgenogrammada aks etadigan bo'lishi mumkin. Turli vaqtlarda olingan rentgenogrammalar protsessning dinamikasini o'rganishga imkon beradi.

Rentgen nurlari fazoda sochiladi, shunga ko'ra nurga solinayotgan joy tasvirining o'lchamlari tekshirilayotgan obyektning chin o'lchamidan katta bo'ladi. Tasvir o'lchamlarini tekshirilayotgan a'zoning tabiiy kattaligiga yaqinlashtirish uchun rentgenologik tekshirish paytida a'zoni ekranga yoki plastinkaga yaqinroq qilib qo'yish zarur. Shunday qilinganda soya kontrasti ham aniqroq bo'lib chiqadi. Tekshirilayotgan a'zoning katta-kichikligi to'g'risida ancha aniq ma'lumotlar olish maqsadida maxsuslashtirilgan rentgenologik usuldan foydalaniladi. Tasvirga olish uchun nurning sochilib tarqalmaydigan, markaziy dastasidan foydalanish kerak. Shu maqsadda tekshirilayotgan a'zo shaklini tushirib olishga imkon beradigan moslama maxsus ekranlardan foydalaniladi.

Flyuorografiya qisqa muddatda ommaviy rentgenologik tekshirish olib borishga imkon beradi. Flyuorografiya uskunasi yordamida olingan tasvir flyuorografiya deb ataladi. O'pkada zimdan o'tayotgan sil jarayonini aniqlash uchun flyuorografiya keng qo'llaniladi. Flyuorografiya mohiyat e'tibori bilan shundan iboratki, o'pkaning ekrandagi rentgen tasviri «FED» apparati bilan rasmga olinadi, keyin esa bu rasm flyuroskopga qo'yilib, tekshirib o'rganiladi. Bir soat mobaynida 100 dona atrofida suratga olish mumkin bo'lai. O'pkaning sil bilan kasallangani topilganida «aniqlashtirib beradigan» rentgeno-gram-malar olinadi.

Harakat qilib turadigan a'zolar — yurak, me'da, yirik to-mirlar, qovurg'alar, diafragma funksiyasi so'nggi yillarda rent-genokimografiya yordamida o'rganilmoqda.

Ko'krak qafasi a'zolarini rentgenologik yo'l bilan tekshirish.

Rentgenoskopiya ko'pchilik hollarda ko'krak qafasi a'zolarini rentgenologik yo'l bilan tekshirishning dastlabki bosqichi bo'lib hisoblanadi. Nafas tizimi kasalliklarini samarali davolash maqsadida to'g'ri va aniq tashxislarga ega bo'lish uchun rentgenografiyadan keng foydalaniladi.

Nurga solib ko'rishning asosiy va hammadan ko'ra ko'p-roq rasm bo'lgan usuli bevosita rentgenoskopiya (ortos-kopiya)dir. Ortoskopiya deganda tik holatda turgan bemorni nurga solib ko'rishni tushunish mumkin. Bemor har xil yo'nalishda nurga solib ko'riladi, ya'ni har xil proyeksiyadan—to'g'ri, yonlama va qiyshiq proyeksiyalardan foydalaniladi. Zarur bo'lsa, bemorlar yuz tuban, chalqancha, yonboshlab yota oladigan mahallarda ularni yotiq, gorizontol holatga qo'yib tekshiriladi.

Ko'krak qafasi nurga solib qaralganida o'pka normada yorug' maydon ko'rinishida bo'ladi, bularda tomirlar, bron-xlarning soyalaridan iborat shakllar ko'zga tashlanadi. Yorug' o'pka maydonlarini qovurg'alardan tushadigan qora soyalar kesib o'tgan bo'ladi. Normal o'pkaning

rentgen tasvirida o'pkaning chetki tomonlari (periferiyasi) o'pka ildizidan ko'ra yorug'roq, uchlari esa ulardagi havo qatlami yupqa hamda qo'l kamari (elka kamari) ustki qismi muskullarining soyasi ustiga tushib turadigan bo'lganidan, qoraroq bo'lib ko'rinadi. Odam chuqur nafas olganida o'pkaning pastki bo'limlari, ulardagi havo qatlami qalinlashuvi hisobiga yanada yorug'roq bo'lib qoladi. Bronxlarning kesmalari qora xossali yorug' to'ga-rakchalar ko'rinishida bo'ladi. O'pkani rentgenologik yo'l bilan o'rganish ba'zi kasalliklarda o'pka maydonlari tiniqligining o'zgarib qolishiga asoslangan. O'pkada havo miqdori ko'payib qolgan mahallarda o'pka maydoni tiniqligi ortadi. Yorug' bo'lib turadigan joylar emfizema, pnevmosklerozda keng, tarqoq bo'lsa, kaverna, abstsessda cheklangan bo'ladi. O'pkadan havo siqib chiqarilgan va o'sma, suyuqlik bilan almashinib qolgan hollarda o'pka naqshi tiniqligi tarqoq yoki chekli ravishda kamayadi yoki yorug' bo'ladigan maydonlar qorayib ko'rinadi. Bronx orqali atrofdagi havoga tutashib turadigan abstsesslar va sil kavernalari bor mahallarda o'pkada suyuqlik hosil bo'ladi: bu abstsess va kavernalar hoshiyali qora kosachalarga o'xshab ko'zga tashlanadi, shu kosachalar ichida suyuqlik miqdoriga qarab har xil balandlikda bo'ladigan gorizontol sath va buning ustida havo pufagiga to'g'ri keladigan yorug' joy bo'ladi.

Rentgenografiya ko'krak qafasi organlarining ahvoliga taalluqli bir qancha muhim tafsilotlarni aniqlab olishga imkon ochadi, chunki rentgenografiya rentgenoskopiyaga qaraganda ahvolni ko'proq oydinlashtirib bera oladi. Rentgenoskopiyada mayda o'choqli soyalar, o'pka naqshining ba'zi o'zgarishlari va boshqalarni ko'z ilg'amay qolishi mumkin. Ko'krak qafasi a'zolarining to'la rentgenologik tekshiruv rentgenoskopiyani ham, rentgenografiyani ham o'z ichiga oladi. Ko'krak qafasi rentgenogrammalari to'g'ri, yonlanma va qiyshiq proyeksiya-larda olinadi

Ko'krak qafasi rentgenoskopiyasi bilan rentgenografiyasi o'pkadagi zichlashib qolgan joylarni (masalan, o'pka raki yoki silida, zotiljam va boshqalar vaqtida) topib olishga, emfizemadan o'pkada ortiqcha havo bo'lib qolganini, ichida havo bor tuzilmalarni (abstsess, kavernani), o'pkada birikti-ruvchi to'qima rivojlanganligi (pnevmoskleroz), plevra bo'sh-lig'ida suyuqlik yoki gaz borligini aniqlab olishga imkon bera-di.

Nafas a'zolarini rentgenologik yo'l bilan tekshirish bronxografiya yordamida olib boriladi. Bronxografiya bronxial daraxtni uning yo'liga rentgenokonstrast modda yuborilganidan keyin tekshirishdir. Bronxografiya usuli qo'llash texnikasi: Halqum anesteziya qilinganidan keyin tekshirilayotgan bronxga kateter orqali rentgenokonstrast modda—yodolipol yuboriladi, keyin esa o'pka surati olinadi.

Bronxografiya bronxoektazlar, o'pkada o'sma bor yoki yo'qligini aniqlab beradi. Bronxoektazlarda rentgenokonstrast modda bo'shliqni to'ldirib, suratda bronxlarning tasvirini ko'rsatib beradi. Bronx yo'lini berkitib turgan o'sma bo'lsa, bronx tasviri to'liq bo'lib chiqmaydi. Bronx «amputatsiyasi» yoki «chultori» deb shunday hollarni aytiladi. Bronxografiyada yuborilgan rentgenokonstrast modda 1-2 kundan keyin so'rilib ketadi, balg'am bilan tashqariga chiqarib yuboriladi.

Tomografiya. Tomografiya rentgenodiagnostikada so'ngi paytlarda juda katta ahamiyatni kasb etdi. Tomografiyada rentgenogrammada butun obyektning tasviri hosil bo'lmay, balki ma'lum bir qavati, shunda ham vrachni qiziqtirayotgan chuqurlikdagi qavatning tasviri hosil bo'ladi. Tomografiya, rentgenstrafiyadan ancha farq qiladi.

Rentgen trubkasi bilan obyekt o'rtasidagi masofani o'zgartirib va har xil sathlardan bir nechta rentgenogramma olib, ketma-ket tushirilgan bir qancha tasvirlar hosil qilish mumkin-ki, bularda obyekt uzunasiga yoki ko'ndalangiga qarab go'yo ayrim bo'laklarga kesib qo'yilgandek bo'lib chiqadi. Tomografiya uchun hozir-bir yo'la 4-5 ta plyonka joylashgan kassetalar qo'llaniladi, bu-bir nechta qavatlar tasvirini bir yo'la tushirib olishga imkon beradi.

Tomografiya asosan o'pkani tekshirishda qo'llaniladi. Interstitsial fibroz o'zgarishlar tagida yoki plevradagi katta-katta tuzilmalar orqasida yashirilib turgan o'pka raki, ko'ks oralig'i o'smasi, kaverna, abstsess, sil, silikoz, bronxoektazlar uning yordamida topib olinadi. Tomografiya ko'zga ko'rinmaydigan bo'shliqlar topografiyasini aniq bilib olishga imkon beradi. Uning yordamida kasallangan joylarga emas, balki ularning qanday chuqurlikda joylashgani ham aniqlanadi.

Bemorlarni bronxografiyaga tayyorlash. Bronxografiya — traxeya va bronxlarning ichki yuzasini kontrast modda bilan to'ldirib, rentgenologik tekshirish usulidir.

Bronxografiyaga ko'rsatmalar: turli bronx va o'pka kasalliklarida patologik jarayonning joylashuvini aniqlash, bronxoskopiyada ko'rishning imkoniyati bo'lmagan bronxlar yuzasini tekshirish, o'pkada o'tkaziladigan jarrohlik muolajasi hajmini aniqlash va boshqalar.

Bemorni tayyorlashda quyidagilarga amal qilinadi:

1. Bemor organizmining tarkibida yod tutgan vositalarga javob reaksiyasini aniqlash uchun oldindan sinama qo'yiladi (bemorga 2—3 kun davomida 1 osh qoshiqdan kaliy yodidning 3% li eritmasidan beriladi).

2. Bemorga tekshiruvning maqsadi va mohiyatini tushuntiriladi.

3. Yiringli balg'am bo'lganda bronxlarni 3-4 kun tekshiruvdan oldin tozalanadi.

4. Tekshiruvdan 30-60 daqiqa oldin teri ostiga fenobarbital (0,1 g), atropin sulfat (0,1 %li-1ml), pipolfen (0,025 g) yuborish buyuriladi.

Kerakli anjomlar: Bronxoskop, steril stol, spirt, salftka, sovun, infeksiyon ignalar, kateter, paxta ushlagich, qisqichlap, 0,1%li tremaikain, dikain, 10% li novokain.

Tekshirishning maqsadiga qarab narkoz yoki mahalliy og'riqsizlantirishdan foydalaniladi. Mahalliy og'riqsizlantirish-ga 2% li dikain, 3-5%li novokain eritmalaridan foydalaniladi.

Bronxlarni kontrast modda bilan to'ldirish maqsadida egiluvchan zondlardan, boshqariladigan kateterlardan foydalaniladi. Tekshiruvni shifokor o'tkazadi.

Tekshirish usullarining sezgirligi spetifitligi va informativligi

Tekshirish usullining sezgirligi ma'lum bir klinik belgining qancha miqdor bemorda borligini aniqlaydi. Masalan, miokard ishemiyasining aniqlash uchun veloergometriyadan oldin va so'ng EKG natijasi 50 dan 80 foizgacha bo'ladi, ya'ni jismoniy zo'riqishdan keyin ishemiya holati haqiqattan 100 ta bemorda qayd qiladiga bo'lsa, veloergometrik probadan so'ng 50-80 nafar bemorda musbat, qolgan bemorlarda psebdo-manfiy natija beradi.

Tekshirish usulining spetsifikligi (sog'lom kontingentni tekshirish asosidahisoblanadi). Spetsifiklik tekshirish usulining xatolar sonini ko'rsatadi. Masalan, mutloq sog'lom kishilar, haqiqatan ham miokard ishemiyasi bo'lmagan holda veloergometrik sinama 100ta tekshirish o'tadigan sog'lom kishilardan 80-95 nafarida manfiy natija beradi, qolgan 5-20 nafarda psebdo musbat bo'ladi.

Tekshirish usulining informativligi miqdoriy jihatdan ushbu metodning hajmi emas, balki shu patologiyada zarurligi inobatga olinadi. Masalan, ko'krak qafasining umumiy rentgenografiyasi "zo'riqish stenokardiyasi tashxisi uchun zaruriy ma'lumot bera olmaydi". Ushbu tashxis uchun EKG veloergometriya sinamasi informativligi yuqori hisoblanadi.

Baholash mezonlari №6

Mavzuning nomi	Ball	Baho	Talabning bilim darajasi
O'pka auskultatsiyasi: qo'shimcha nafas shovqinlari (quruq va nam xirillashlar, krepitatsiya va plevra ishqalanish shovqini). Diagnostik	86-100	A'lo	Xulosa va qaror qabul qila oladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, amalda qo'llay oladi, mohiyatini tushuntiradi, biladi, aytib bera oladi,

ahamiyati. Bronxofoniya. Nafas organlari bilan kasallangan bemor-larni funktsional-instrumental tekshirish usullari: spirometriya, pnevmotaxometriya, oksigemoterapiya. O'pkalarni rentgenologik tekshirish metodlari, bronxoskopiya, bronxografiya, tomografiya. Diagnostik ahamiyati.			tasavvurga ega.
	71-85	Yaxshi	Mustaqil mushohada yuritadi, amalda qo'llay oladi, mohiyatini tushuntiradi, biladi, aytib bera oladi, tasavvurga ega.
	55-70	Qoni qarli	Mohiyatini tushuntiradi, biladi, aytib bera oladi, tasavvurga ega.
	0-54	Qoni qarsiz	Tasavvurga ega emas, bilmaydi.

Mustaqil ish. Asosiy va qoshimcha nafas shovqinlari qiyosiy diagnostikasi. Pnevmoniyalar Uyga vazifa. №7

Amaliy mashg'ulot №7

O'pka to'qimasini zichlashish sindromi (Krupoz va o'choqli pnevmoniya misolida). O'pkada bo'shliq sindromi (O'pka abstsessi va bronxoektaz kasalligi misolida). Diagnostika, etiologiyasi va patogenezi. Asosiy davolash prinsiplari

1. Amaliy mashg'ulot o'qitish moduli.

Mashg'ulot vaqti – 4 soat	Studentlar soni: 10 dan 12 gacha
Mashg'ulot formasi	Amaliy mashg'ulot
Amaliy mashg'ulot rejasi	Laborator tekshiruv: balg'am va plevra suyuqligini tekshi-rish. Bronxlar o'tkazuvchanligini buzilishi sindromi. O'tkir va surunkali bronxitlar diagnostikasi. Chekishni nafas organlariga manfiy ta'siri.
Amaliy mashg'ulot maqsadi:	Talabalarni laborator tekshiruv: balg'am va plevra suyuqligini tekshirish usullari bilan tanishtirish. O'tkir va surunkali bronxitlarni o'rganish.
O'qitish uslubi	So'rov. Bemorlarni dmonstratsiya qilish, interaktiv o'qitish uslubi, amaliy ko'nikma.
O'qitish formasi	Kichik podgruppalarida.
O'qitish jihozlari	O'quv qo'llanma, amaliy mashg'ulotlar mundariyasi, proektor, kompyuter.
O'qitish holati	Metodik jihozlangan auditoriya.
Monitoring va baholash	Og'zaki kontrol: savol-javob, testlar, muammoli masala.

1.2. Amaliy mashg'ulot texnologik kartasi

Ish bosqichlari va vaqti.	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorlov bosqichi	1. Auditoriya tozaligini nazorat qiladi 2. Talabalarni mashg'ulotga tayyorgarligini tekshiradi 3. Davomatni nazorat qiladi	
1.O'quv mashhulotiga kirish	1.Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash. 2.Kirish ma'ruzasi uchun taqdimot silaydalarini tayyorlash	

bosqichi (10 daqiqa)	3. Fanni ʻrganishda foydalaniladigan adabiyotlar roʻyxatini ishlab chiqish	
2 – asosiy bosqich (160 daqiqa)	1. Talabalarni kichik guruhlariga boʻlib, mavzu boʻyicha savollarni beradi. 2. Koʻrgazmali plakatlardan foydalanadi 3. Slaydalar, multimedialardan foydalanadi 4. Davolash ishlarini olib boradi 5. Mavzular asosida berilgan maʼlumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi, faol ishtirokchi talabalarni rahbatlantiradi va umumiy baholaydi	Kichik guruhlariga bʻlinadilar Tomosha qiladilar qatnashadilar Tinglaydilar va savollarga javob beradilar
1-yakuniy bosqich (10 daqiqa)	1. Yakunlovchi xulosa qiladi 2. Mustaqil ish beradi 3. Uyga vazifa beradi	Tinglaydi Yozib oladi Yozib oladi

3. Talabalarning nazariy bilimlarini baholash:

A) Frontal usuli:

1. Amaliy tibbiyotning asosiy vazifasi nima?
2. Kasallik nima?
3. Kasallikning qanday sabablarini bilasiz?
4. Diagnostika va diagnoz nima?
5. Dientologiya nima?
6. Qanday tibbiyot hujjatlarini bilasiz va ular qachon toʻldiriladi?
7. Simptom nima?
8. qanday simptomlarni bilasiz?
9. Qaysi shikoyatlar asosiy va qaysi shikoyatlar qoʻshimcha shikoyatlarga kiradi?
10. Kasallikning rivojlanishi soʻrab-surishtirishda nimani aniqlash kerak?
11. Bemorning hayot tarixi qaysi punktlari oʻz ichiga oladi?
12. Allergologik anamnez qaysi maqsadda olinadi?
13. Palpatsiya usuli nima?
14. Palpatsiya usulining diagnostik ahamiyati?
15. Perkussiya usuli nima?
16. Perkussiya usulining diagnostik ahamiyati?
17. Auskultatsiya usuliga tushuncha berish?
18. Auskultatsiyaning diagnostik ahamiyati?

“Akademik polemika” usuli

Gruppa ikki guruhga boʻlinadi, har biriga vaziyatli masala topshiriladi, masalan, “konsultatsiya shifokor-bemor”. Har bir guruhda 1-2 talabalar konsultatsiya yaxshi tomonlarini yozib oladilar – “advokatlar”, boshqa 2 ta talaba konsultatsiyaning manfiy tomonlarini yozib oladi – “prokurorlar”. Advokatlar va prokurorlar xulosalari butun guruh bilan tahlil qilinadi.

Oʻtkir bronxit — bronxidlarning oʻtkir yalligʻlanishi — nafas organlarining eng koʻp uchraydigan kasalliklaridan biridir. Oʻtkir bronxit bilan kasallanish yuqori nafas yoʻllarining yalligʻlanishi va gripp epidemiyasi vaqtida ayniqsa koʻp uchraydi.

Kasallikning keltirib chiqaruvchi sabablarning talaygina qismini bakterial agentlar tashkil qiladi. Bularga pnevmokokklar, gemolitik streptokokklar, tillarang streptokokklar, gripp virusi, Fridlender va shu kabilar kiradi.

Kasallik rivojlanishiga moyillik ko'rsatadigan sabablarga sovuq qotish, spirtli ichimliklarni suiiste'mol qilish, tamaki chekish, ba'zi kimyoviy moddalardan surunkali zaharlanish kiradi. YUqori nafas yo'llarda infeksiya o'chog'ining borligi (sinusit, gaymorit) ham o'ttkir bronxit rivojlanishiga sharoit yaratuvchi omillardan hisoblanadi.

O'tkir bronxit tarkibida yuqori miqdorda azot oqsidi, oltingugurt anhidridi, xlor, brom, ammiak bug'lari tutgan havodan nafas olish, kimyoviy zaharli moddalar (xlor, fosgen, difosgen, iprit, lyuizit, fosfororganik birikmalari) dan nafas olish natijasida rivojlanadi. Tarkibida juda ko'p miqdorda chang-g'uborlar bo'lgan havo bilan uzoq vaqt nafas olish natijasida xam o'tkir bronxit rivojlanishi mumkin.

Patogenezi. Bakterial agent yuqori nafas yo'llari va bronxlar shilliq qavatini, simpatik nerv tolalari tugunlarini zarartiradi, bu zararlanish o'z navbatida bronxlar trofikasining buzilishiga olib keladi. Bakterial agentlar va ular ishlab chiqargan zararli moddalar nafas yo'llarining himoya xususiyatlarini, spetsifik va nospesifik chidamlilik qobiliyatini keskin kamaytiradi va natijasida bronxlar yallig'lanadi.

Patologik anatomiyasi. O'tkir bronxit bronxlar devorida qizarish, shuish, shishliq, moddaning ko'p ajralishi, leykositlar diapedezi bilan kechadi. Keyinchalik eroziyalar hosil qiluvchi epiteliy deskvamasiyasi kuzatiladi. Bronxlar devorining ayrim joylarida esa yallig'lanish shishliq osti va to'qimalariga, peribronxial interstisial to'qimaga o'tishi mumkin.

Klinik manzarasi. Kasalik quruq iztirobli yo'tal, to'sh suyagi atrofida og'riq, yuqori nafas yo'llarining o'tkir yallig'lanishiga xos o'zgarishlar bilan boshlanib, yallig'lanish bronxlarga tarqalgach, hansirash va ketma-ket yo'talish paydo bo'ladi, bemorlar yo'talish vaqtida ko'krak qafasining pastki qismida og'riq sezadilar. Behollik terlash, tana haroratining 37,5 – 38°C ga ko'tarilishi, gripp bilan og'rigan bemorlarda esa lablariga uchuq toshishi (herpes labialis) kuzatiladi.

Perkussiya qilinganda o'zgarmagan o'pka tovushi eshitiladi. Auskultatsiya vaqtida o'pkada tarqalgan quruq hushtaksimom yoki g'ung'illovchi xirillash eshitiladi, yo'taldan so'ng xirillashning kamayishi kuzatiladi. Kasallikning 2 — 3- kuni nam xirillash paydo bo'lishi mumkin.

O'tkir bronxit kasalligida o'pka rentgenogrammasida o'zgarish bo'lmaydi. Tashqi nafas funksiyasi tekshirilganda o'pkaning tiriklik sig'imi va maksimal ventilyasiya 15 — 20 foizga kamayadi. Qonning kislorod bilan tiyinishi daqiqali (minutli) nafas sig'imining ortishi hisobiga buzilmaydi. Qonda leykositlarning neytrofillar hisobiga ortishi 8 — 12* 10.9/l, eritrositlar cho'kish tezligi (ECHT) ortishi kuzatiladi. O'tkir bronxidlarning yengil formasi qisqa muddatli bo'lib (2-3kun) bemor o'zini yomon his qiladi, u subfebril harorat, yo'tal, to'sh suyagi ayrofida og'riq bilan o'tadi. Og'ir formasi tana haroratining baland bo'lishi, yo'tal, balg'am ko'chishi, qonda leykositlar va ECHT ortib ketishi bilan kechadi.

Diagnozi (tashxisi). O'tkir bronxit tashxisi kasallikning o'tkir boshlanishi, yo'tal vaqtida balg'am ko'chishi, zaharlanish belgilari, auskultatsiya qilganda avval quruq, keyin nam xirillashlar eshitilishiga asoslanadi.

Differensial tashxisi. O'tkir bronxitni o'choqli zotiljamdan farqlashda ko'krak qafasini rentgenologik yo'l bilan tekshirish muhim rol o'ynaydi. O'ykir bronxitda rentgenogrammada o'zgarish bo'lmaydi. O'tkir o'choqli zotiljamda esa, o'pkaning shamollagan qismida qorayish ko'rinadi.

Davolash. O'tkir bronxitning yengil turi bilan og'rigan bemorlar ko'pincha uyda davolanadilar. Bemorni sovuq qotishdan, qattiq isib ketishdan asrash kerak bo'ladi. SHamollashga qarshi va og'riq qoldiruvchi dorilllar — analgin 0.5 dan 3 mahal, amidopirin 0.5 dan 3 mahal, vitaminlar, ko'proq C vitaminlari buyuriladi. Balg'am ko'chishi yengillashtirish uchun termopsis, altey damlaasi, mukaltin tabletkasi kuniga 3 marta, sodali ingalyasiya buyuriladi. Nafas qisiyishi to'xtatish uchun teofedrin 0,025 dan kuniga 2 marta buyuriladi. Eufullin 0,15 dan 2-3 mahal, agar bu tabletkalar nafas qisishini to'xtatmasa, unda

qisqa muddat — 6 — 8 kunga 20 — 30 mg dan qortikosteroidlar buyriladi. Chalg'ituvchi vositalardan ko'krak qafasiga banka, gorchichniklar qo'yish, oyoqqa vannalar tavsiya qilinadi.

Kasallikning og'ir kechadigan turida bemorlar shifoxonaga yotqazilib, ularga antibiotic va sulfanilamidlar buyuriladi. O'tkir bronxit surunkali bronxitga o'tmasligi uchun kasallikni to'la davolash, fizioterapevtik davolash usullaridan foydalanish tavsiya qilinadi.

Kasallikning oldini olish. Buning uchun atrof muhitni toza saqash, qattiq sovuq qotishdan saqlanish, tamaki chekmaslik, spirtli ichimliklarni suiistemol qilmaslik kerak. Doimiy badantarbiya va sport bilan shug'ullanish, organizmni chiniqtirish o'tkir bronxitning oldini olishda muhim omillarda hisoblanadi.

Baholash mezonlari №7

Mavzuning nomi	Ball	Baho	Talabning bilim darajasi
Laborator tekshiruv: balg'am va plevra suyuqligini tekshirish. Bronxlar o'tkazuvchanligini buzilishi sindromi. O'tkir va surunkali bronxitlar diagnostikasi. Chekishni nafas organlariga manfiy ta'siri	86-100	A'lo	Xulosa va qaror qabul qila oladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, amalda qo'llay oladi, mohiyatini tushuntiradi, biladi, aytib bera oladi, tasavvurga ega.
	71-85	Yaxshi	Mustaqil mushohada yuritadi, amalda qo'llay oladi, mohiyatini tushuntiradi, biladi, aytib bera oladi, tasavvurga ega.
	55-70	Qoni qarli	Mohiyatini tushuntiradi, biladi, aytib bera oladi, tasavvurga ega.
	0-54	Qoni qarsiz	Tasavvurga ega emas, bilmaydi.

Mustaqil ish. Bronxial astma
Uyga vazifa 8

Amaliy mashg'ulot №8

Bronxlar o'tkazuvchanligining buzilish sindromi. (o'tkir va surunkali bronxitlar, obstruktiv va noobstruktiv bronxit misolida). O'pka to'qimasida havo ortib ketish sindromi (bronxial astma, o'pka emfizemasi misolida). O'pkani obstruktiv kasalliklarini tekshirish. Diagnostika, etiologiya va patogenezi. Asosiy davolash prinsiplari

1. Amaliy mashg'ulot o'qitish moduli.

Mashg'ulot vaqti – 4 soat	Studentlar soni: 10 dan 12 gacha
Mashg'ulot formasi	Amaliy mashg'ulot
Amaliy mashg'ulot rejasi	O'pka to'qimasida havo ortishi sindromi. Obstruktiv o'pka kasalliklari, bronxial astma, o'pka emfizemasi bilan kasallangan bemorlarni tekshirish. O'pka to'qimasi zichlashish sindromi. O'pka to'qimasi yallig'lanish kasalligi (krupoz va o'choqli pnevmoniya).
Amaliy mashg'ulot maqsadi:	Talabalarni o'pka to'qimasida havo ortishi va o'pka to'qimasi zichlashish sindromlari bilan kechadigan kasalliklar bilan tanishtirish.
O'qitish uslubi	So'rov. Bemorlarni dmonstratsiya qilish, interaktiv o'qitish uslubi, amaliy ko'nikma.
O'qitish formasi	Kichik podgruppalarida.
O'qitish jihozlari	O'quv qo'llanma, amaliy mashg'ulotlar mundarijasi, proektor, kompyuter.

O'qitish holati	Metodik jihozlangan auditoriya.
Monitoring va baholash	Og'zaki kontrol: savol-javob, testlar, muammoli masala.

1.2. Amaliy mashg'ulot texnologik kartasi

Ish bosqichlari va vaqti.	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorlov bosqichi	16. Auditoriya tozaligini nazorat qiladi 17. Talabalarni mashg'ulotga tayyorgarligini tekshiradi 18. Davomatni nazorat qiladi	
1. O'quv mashg'ulotiga kirish bosqichi (10 daqiqa)	1. Mavzu b'yyicha o'quv mazmunini tayyorlash. 2. Kirish ma'ruzasi uchun taqdimot silaydalarini tayyorlash 3. Fanni o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini ishlab chiqish	
2 –asosiy bosqich (160 daqiqa)	1. Talabalarni kichik guruhlarga bo'lib, mavzu bo'yicha savollarni beradi. 2. Ko'rgazmali plakatlardan foydalanadi 3. Slaydalar, multimedialardan foydalanadi 4. Davolash ishlarini olib boradi 5. Mavzular asosida berilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi, faol ishtirokchi talabalarni rahbatlantiradi va umumiy baholaydi	Kichik guruhlarga bo'linadilar Tomosha qiladilar qatnashadilar Tinglaydilar va savollarga javob beradilar
1-yakuniy bosqich (10 daqiqa)	1. Yakunlovchi xulosa qiladi 2. Mustaqil ish beradi 3. Uyga vazifa beradi	Tinglaydi Yozib oladi Yozib oladi

3. Talabalarning nazariy bilimlarini baholash:

A) Frontal usuli:

- O'pka to'qimasida havo ortishi sindromi sabablarini aytib bering
- Bronxial astmaga bering.
- Bronxial astmani keltirib chiqaruvchi asosiy etiologik faktorlar
- Bronxial astma patogenezi
- Bronxial astma klinikasi, kechishi va diagnostikasi
- O'pka emfizemasining sabablari
- O'pka emfizemasining klinik kechishi va diagnostikasi
- O'pka to'qimasining zichlashish sindromining (UTZS) sabablarini aytib bering
- O'TZSda palpatsiyaning ahamiyati
- O'TZSda perkussiyaning ahamiyati
- O'TZSda auskultatsiyaning ahamiyati
- O'chog'li zotiljamga tasnif bering.
- O'chog'li zotiljamni keltirib chiqaruvchi asosiy faktorlar
- O'chog'li zotiljamni patogenezi va klinik ko'rinishi
- Krupoz zotiljam Plevra bo'shlig'ida siydik yig'ilish sindromi
- Krupoz zotiljam o'pka to'qimasining patologik g'anatomik o'zgarishlari
- Krupoz zotiljamning klinik kechishi stadiyalari
- Srepitatio indux nima
- Srepitatio redux nima
- Krupoz zotiljam diagnostikasi

“Uch pog'onali intervyu” usuli

Har bir gruppada uchta talaba tanlab olinib, ular orasida “vrach”, “bemor” va “ekspert-UASh” rollari bo'linib beriladi. Bemor rolini tanlagan talabaga anonimno diagnozi aytiladi, va u shu diagnozga taaluqli shikoyatlar bildiradi, vrach diagnoz qo'yadi, ekspert UASh shiloyatlar va diagnoz mutanosubligini tekshiradi. Har bir guruh 10-15 daqiqa davomida konsultatsiya qilinadi, ekspert vrach faoliyatini 3 punk bo'yicha tekshiradi:

7. Nima to'g'ri qilindi
8. Nima noto'g'ri qilindi
9. Qanday qilish kerak

Guruh konsultatsiyasi xulosasini ekspert xulosasi bilan taqqoslaydilar.

Boshqa xil turi: talabalar ekspert rovida poliklinikada, haqiqiy konsultatsiyada ishtirok etib, butun guruh bilan analiz qilinadi.

Krupoz zotiljam.

Krupoz zotiljamda o'pkaning bitta yoki nechta bo'lagi yoki segmenti yallig'lanadi. O'pkadagi patomorfologik o'zgarishlar uzluksiz davom etadigan 4 bosqichda o'tadi.

I qonga to'lish (giperemiya) bosqichida o'pka to'qimasida giperemiya paydo bo'lib, kapillyarlarning o'tkazuvchanligi oshishi natijasida alveolalar ichida yallig'lanish ekssudati to'planadi. Bu bosqich 12 soatdan 3 kungacha davom etadi.

II qizil jigarlanish bosqichida alveolalar va kichik bronxlardagi ekssudatga qon tomirlardan eritrositlar va oqsil (fibrinogen) o'tadi. Alveolalardan havo siqib chiqarilib, fibrin bilan to'ladi. Bu bosqich 1 — 3 kun davom etadi.

III kulrang jigarlanish bosqichida ekssudatda leykositlar ko'payib, kesib ko'rilganda kulrang jigarni eslatadi. Mikroskop orqali tekshirilganda pnevmokokklarni fagositoz qilgan neytrofillarni ko'rish mumkin. III bosqich — 3 — 6 kun davom etadi.

IV tuzalish bosqichi kasallikning 7 — 10- kunlarida boshlanadi. Bu bosqichda alveola bo'shlig'idagi fibrinlar asta erib, alveoladagi epiteliy to'kimasi ko'chib, ichida pnevmokokklari bor neytrofillarni fagositoz qilgan makrofaglar bilan birgalikda Bronx orqali chiqa boshlaydi, ekssudat asta so'riladi. O'pka to'kimasi yumshaydi, ammo elastik holatiga tezda qaytmaydi. Bu bosqichning davom etish muddati yallig'langan sathning kattaligiga, kasallik qo'zg'atgan mikrobnining virulentlik xususiyatiga bog'liq.

Hozirgi vaqtda ko'pinchalik bemorlarda yuqorida keltirgan patomorfologik bosqichlarning o'tish muddati juda qisqarishi mumkin. Hatto ko'rsatilgan bosqichlarning ayrimlari bo'lmasligi ham mumkin. Qari, holsizlangan bemorlarda esa yallig'lanish jarayoni sust o'tib, uzoq muddatga cho'zilishi mumkin.

Klinik belgilari. Kasallik to'satdan boshlanib bemorning tana harorati 39 — 40° C ga ko'tariladi. Eti qattiq junnikib kaltiraydi, darmoni ko'rib, boshi og'riydi, terlaydi. Avval quruq, so'ngra shilliq rangli qizg'ish balg'amli yo'tal, ko'krak qafasida sanchiqli og'riq, havo yetishmasligi paydo bo'ladi. Og'riq yo'talganda, chuqur nafas olganda kuchayadi. Bemorning nafas olishi (ayniqsa o'pkaning katta qismi yallig'langanda) tezlashadi va yuzaki bo'ladi, labi, burni, qulog'i bir oz ko'karadi, labiga, og'iz burun atrofiga uchuqlar chiqadi. Kasallikning klinik manzasisini patomorfologik o'zgarishlar davri bilan taqoslaganda I bosqichga to'g'ri keladi.

Qonga to'lish davri kasallikning boshlang'ich, dastlabki kunlarida to'g'ri keladi. Bunda bemorning ahvoli og'ir, tana harorati yuqori darajada (39-40°C) bo'lib, eti jnnikadi. Ko'krak qafasining sanchib og'rishi va havo yetishmovchiligidan shikoyat qiladi. Bemorda avvalo quruq, so'ngra shilimshiq balg'am ajraladigan yo'tal paydo bo'ladi. Nafas olishi tez va nafas olishda ko'krakdagi sanchiq kuchaygani sababli sayoz bo'ladi, yo'taladi. Shilliq qon aralash balg'am ajraladi. Perkussiya qilishganda o'pkaning yallig'langan qismi sohasida qisqargan perkurator yoki bo'g'iq timpanik tovush eshitiladi. Auskultatsiya qilinganda o'pkaning yalliag'langan qismi sohasida

vezikulyar nafasning susaygani, bundan tashqari, qisqa muddatli erta paydo bo'ladigan krepatasiya eshitaladi. Ayrim vaqtlarda plevra ishqalanishi shovqini eshitaladi.

Kasallikning II bosqichida bemor yo'talganda temir zangi rangidagi balgam ajraladi. (o'zgargan gemoglobin borligi sababli). Bemorning umumiy holati anchagina ogir bo'lib, o'pkani yalliglangan tomonida paypaslab ko'rilganda ko'krak qafasi elastikligi kamayligi, og'riq borligi, tovush dirillashi kuchayganligi aniqlanadi. Perkussiya qilinganda esa o'ta bo'g'iq tovush eshitaladi. Auskultatsiya qilinganda esa bronxlar nafas shovqini eshitaladi.

III bosqichda shilliqli va yiringli balg'am ajrala boshlaydi, paypaslanganda, perkussiyada va auskultatsiyada bu o'zgarishlar II bosqichdagiga o'xshash bo'ladi.

Kasallikning IV bosqichida esa tana harorati krizis yoki lizis yo'li bilan pasayib, shilliqli balg'am ko'proq ajrala boshlaydi. Bemorning umumiy holati yaxshilana boshlaydi. Paypaslanganda og'riqning kamayginini yoki yo'qolganini, tovush dirillashi pasayganligini, ko'krak qafasi rezistentligining tiklanayotganini aniqlash mumkin. Perkussiya qilinganda bir oz bo'g'iq tovush, auskultatsiya qilinganda, bromxovezikulyar nafas shovqini, dag'al krepatasiya va ho'l xirillash eshitalishi mumkin.

Krupoz zotiljamda nafas olish a'zolaridan boshqa a'zolarida ham sezirarli o'zgarishlar o'zgarishlar sodir bo'lishi mumkin.

Yurak- tomirlar sistemasida yurak urishi tezlanishi, arterial qon bosimining pasayishi mumkin. Yurak tonlari susatadi. Bu o'zgarishlar qari, holsizlangan bemorlarda ko'proq jiddiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Markaziy nerv sistemasida bo'ladigan patologik o'zgarishlar ko'proq spirtli ichimliklarni istemol qiladigan bemorlarda yuz beradi.

Buyrak sistemasidagi o'zgarishlar: kasalning siydagi kamayadi, uning solishtirma og'irligi oshadi. Ayrim hollarda siydik bilan oksil ajralib chiqadi.

Kasallikning to'liq aniqlash uchun bemorning qonini, balg'amini, siydigi, qon oqsilini laboratoriyada tekshirish kerak. Bemorning qonini umumiy aqnaliz qilinganda qonda leykositlar soni neytrofillar hisobiga ko'payadi (leykositoz). Leykositlar formulasi chap tomonga siljiydi, eritrositlar soni ko'payadi. Eritrositlarning cho'kishi tezlashadi. Qonda yirik dispers oqsillarning nisbiy miqdori ortadi. Bemorning balg'amidagi o'zgarishlar kasallikning kechish bosqichlari bog'liq ravishta I bosqichda shilliqli, II bosqichda qon aralash (temir zangiga o'xshash), III-IV bosqichlarda shilliqli va yiring aralash bo'ladi.

Krupoz zotiljam kasallikni aniqlashda rengen usuli bilan tekshirish muhim rol o'ynaydi. Oldingi va tomondan tushirilgan rentgen tasvirlarda kasallangan o'pka bo'lagi soyasining zichlashganligini ko'rish mumkin. Rentgenogrammada yallig'lanish o'pkaning qaysi bo'lagidaligini, hajmini aniqlash mumkin.

Krupoz zotiljam kasaligining asoratlari o'pkada va o'pkadan tashqarida bo'lishi mumkin.

- I. O'pkadagi asoratlari: o'pkada absyess, plevranning yallig'lanishi, nafas qisish belgilarining paydo bo'lishi, o'pkaning surunkali yallig'lanishga o'tishi hisoblanadi.
- II. O'pkadan tashqarida bo'ladigan asoratlarga infeksiyon toksik shok, o'tkir yurak – qon tomirlarlar sistemasi yetishmovchiligi, buyrak yetishmovchiligi, oshqozon- ichak shilliq qavatida yaralar vujudga kelishi, DVS sindrom, infeksiyon-allergik miokardit, endokardit, perikardit, meningit, nefrit, gepatit kiradi.

Davolash. Krupoz zotiljam bilan og'riqan bemor albatta kasalxona sharoitida davolanishi kerak.

Davolash tadbirlari har xil usullar bilan olib boriladi.

- I. Bemorni kasalxona rejimiga rioya qilishini taminlash va uni to'g'ri ovqatlantirish.
- II. Dorilar yordamiga davolash: 1) etiologik, 2) patogenetik, 3) simptomatik davolash.
- III. Fizioterapevtik davolash.
- IV. Dispanser ko'rigidan vaqti- vaqtida o'tkazilib turish va ambulatoriya davolash.

Bemor asosan kasalxonada davolanishi yoki uyda kasalxona sharoiti yaratilishi kerak. Ayniqsa tana harorati yuqori ko'tarilgan bemor Orinda yotishi, ko'p suyuqlik ichishi, vitamin va oqsillarga boy ovqatlarni istemol qilishi lozim.

Baholash mezonlari №8

Mavzuning nomi	Ball	Baho	Talabning bilim darajasi
O'pka to'qimasida havo ortishi sindromi. Obstruktiv o'pka kasalliklari, bronxial astma, o'pka emfizemasi bilan kasallangan bemorlarni tekshirish. O'pka to'qimasi zichlashish sindromi. O'pka to'qimasi yallig'lanish kasalligi (krupoz va o'choqli pnevmoniya).	86-100	A'lo	Xulosa va qaror qabul qila oladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, amalda qo'llay oladi, mohiyatini tushuntiradi, biladi, aytib bera oladi, tasavvurga ega.
	71-85	Yaxshi	Mustaqil mushohada yuritadi, amalda qo'llay oladi, mohiyatini tushuntiradi, biladi, aytib bera oladi, tasavvurga ega.
	55-70	Qoni qarli	Mohiyatini tushuntiradi, biladi, aytib bera oladi, tasavvurga ega.
	0-54	Qoni qarsiz	Tasavvurga ega emas, bilmaydi.

Uyga vazifa 9, mustaqil ish

Amaliy mashg'ulot №9

Plevra bo'shlig'ida havo va suyuqlik to'planish sindromi (Plevrit, gidrotoraks, pnevmotoraks). Nafas yetishmovchiligi, etiologiya, patogenez, diagnostika va asosiy davolash prinsiplari.

1. Amaliy mashg'ulot o'qitish moduli.

Mashg'ulot vaqti – 4 soat	Studentlar soni: 10 dan 12 gacha
Mashg'ulot formasi	Amaliy mashg'ulot
Amaliy mashg'ulot rejasi	Plevra bo'shlig'ida havo va suyuqlik to'planish sindromi. Quruq va ekssudativ plevrit bilan bemorlarni tekshirish. Hidrotoraks, pnevmotoraks simptomatologiyasi. Pnevmo-raks turlari (ochiq, berk, qopqoqli). O'pkada bo'shliq sindromi. O'pka abstsessi, bronxoektaz kasalligi bilan bemorlarni tekshirish. Bemorlar kuratsiyasi. Tibbiy bayonnoma yozish.
Amaliy mashg'ulot maqsadi:	Talabalarni plevra bo'shlig'ida havo va suyuqlik to'planish sindromi bilan kechadigan kasalliklar bilan tanishtirish. O'pkada bo'shliq sindromi haqida tushuncha.
O'qitish uslubi	So'rov. Bemorlarni dmonstratsiya qilish, interaktiv o'qitish uslubi, amaliy ko'nikma.
O'qitish formasi	Kichik podgruppalarida.
O'qitish jihozlari	O'quv qo'llanma, amaliy mashg'ulotlar mundarijasi, proektor, kompyuter.
O'qitish holati	Metodik jihozlangan auditoriya.
Monitoring va baholash	Og'zaki kontrol: savol-javob, testlar, muammoli masala.

1.2. Amaliy mashg'ulot texnologik kartasi

Ish bosqichlari va vaqti.	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorlov bosqichi	19. Auditoriya tozaligini nazorat qiladi 20. Talabalarni mashg'ulotga tayyorgarligini tekshiradi 21. Davomatni nazorat qiladi	
1.O'quv mashg'ulotiga kirish bosqichi (10 daqiqa)	1.Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash. 2.Kirish ma'ruzasi uchun taqdimot silaydalarini tayyorlash 3. Fanni o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini ishlab chiqish	
2– asosiy bosqich (160daqiqa)	1. Talabalarni kichik guruhlariga bo'lib, mavzu bo'yicha savollarni beradi. 2. Ko'rgazmali plakatlardan foydalanadi 3. Slaydalar, multimedialardan foydalanadi 4. Davolash ishlarini olib boradi 5. Mavzular asosida berilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi, faol ishtirokchi talabalarni rahbatlantiradi va umumiy baholaydi	Kichik guruhlariga bo'linadilar Tomosha qiladilar qatnashadilar Tinglaydilar va savollarga javob beradilar
1-yakuniy bosqich (10 daqiqa)	1. Yakunlovchi xulosa qiladi 2. Mustaqil ish beradi 3. Uyga vazifa beradi	Tinglaydi Yozib oladi Yozib oladi

3.Talabalarning nazariy bilimlarini baholash:

A)Frontal usuli:

1. Plevra bo'shlig'ida siydik yig'ilish sindromi qaysi kasalliklarda uchraydi
2. Plevra bo'shlig'ida siydik yig'ilish sindromida asosiy klinik simptomlar va ular nimaga asoslanadi
3. Plevritlarga xarakteristika bering
4. Plevritlarning turlari
5. Plevritlarning etiopatogenezi
6. Quruq pleuritlar klinikasi va diagnostikasi
7. ekssudativ pleuritlarning klinikasi va diagnostikasi
8. Ekssudativ pleuritning perkutor va auskultativ xususiyatlari
9. Garlend va rauhfun-gronno uchburchaklarining chegaralari
10. pnevmotoraks turlariga xarakteristika bering
11. O'pka bo'shliq hosil bo'lishi sindromini gapirib bering
12. Bronxoektaz kasalligi etiologiyasi patogenezi aytib bering
13. Bronxoektaz kasalligi klinikasi,palpatsiyasi
14. Perkussiya,auskultatsiyaning ahamiyati nimadan iborat
15. Bronxoektaz kasalligi diagnostikasini aytib bering
16. O'pka abtsesi,etiologiyasi, klinikasini aytib bering
17. O'pka abtsesida ob'ektiv tekshirish usullarining ahamiyati nimada
18. O'pka abtsesida rengenologik tekshirish usullarini ahamiyati nimada
19. Bronxial lovaj nima
20. Nafas sistemasi kasalliklarida tibbiy bayonnoma yozish tarti

Intsident usuli

Klinik kafedralarida, talabalarga ekstremal holatlardagi faoliyatni o'rgatish maqsadida intsident usulidan foydalaniladi. Talabalarga biron xil vaziyatli masala haqida informatsiya beriladi. Bu masalaga tez yechim topilishi zarur (0,5-1,5 daqiqa).

Bu usul talabalar fikrlashini tezlashtiradi va ekstremal holatlarda faoliyatini aktivlashtiradi. Talabalar harakati xatosizligi 1,0 ga teng bo'lishi zarur.

PLEVRIT

Mashg'ulot maqsadi. Talaba quyidagilarni bilmog'i kerak:

- 1.Xastalikni sodir qiluvchi sabablarni aniqlash.
- 2.Plevra bo'shlig'ida suyuqlik borligini fizikal va asbob uskunalar ma'lumotlari asosida tasdiqlash.
- 3.Ekssudatni tasdiqlovchi va trassudatdan farqlovchi laboratoriya ko'rsatkichlarini aniqlash.
- 4.Plavrani punktsiya qilish va tarkibini aniqlash.
- 5.Davolashda patologik jarayoni vujudga keltiruvchi kasalliklarga faol ta'sir qiluvchi omillarni bilish va baholash.

Mavzu mazmuni

1. Ta'rifi. Plevrit – plevra varaqalarining yallig'lanishi bo'lib,plevra sathida fibrinsimon nalet sodir bo'ladi yoki uning bo'shlig'ida ekssudat yig'iladi. U odatda ikkilamchi kasallik – o'pkadagi ko'pgina patologik jarayonlarning yoki kam hollarda plevra bo'shlig'iga yaqin turuvchi boshqa organ va to'qimalar (ko'krak qafasi,ko'ks oralig'i,diafragma, diafragma osti maydoni) kasalliklarning sindromi yoki asorati hisoblanadi. Birlamchi plevrit juda kam uchraydi va shikastlanish yoki plevra mezoteliomasi oqibati hisoblanadi. Quruq (fibrinsimon) va ekssudatli (nam) plevritlar farqlanadi.

2. Tarqalishi. Plevritlar umum o'pka kasalliklarni 3,8 – 6,5 foizini tashkil qiladi, shundan 1,2-3,0 foizi pnevmotik va metapnevmonikli plevritlar.

3. Etiologoyasi. Plevritlar yuqumli va yuqumsiz (aseptik) bo'ladilar.

a. Yuqumli plevritlar spetsifik (sil mikobakteriyalari, zahm spiroxetalari) va nospetsifik qo'zg'atuvchilar (pnevkokokklar, staflokokklar, ochak tayoqchalari, viruslar, zamburug'lar va boshqa mikroblar) ta'sirida vujudga keladi.

b. Aseptik plevritlar ko'krak qavatining yopiq shikastlanishida, plevra varaqalari orasiga qon quyilganda, o'pka infarktida, me'da osti bezi fermentlarining ta'sirida (pankreatit), plevranning xavfli o'smasi bilan jarohatlanishi (kartsinomatozida), biriktiruvchi to'qimasining sistemali kasalliklarida (revmatizm, kollagenozlarda), buyrak va jigar xastaliklarida kuzatiladi.

4. Patognezi.

(1) Kontakt yo'li. Yuqumli plevritlarda kasallik qo'zg'atuvchi omillarning plevruga bevosita kirishi subplevral joylashgan o'pka to'qimasi o'choqlari (zotiljam, abstsess, bronxoektazlari, o'pka sili) orqali rivojlanadi.

(2) Limfa yo'li orqali infeksiyaning tarqalishi – to'qima suyuqligining retrogradli oqimi katta ahamiyatga ega.

(3) Qon yo'li bilan infeksiyani plevruga tarqalishi deyarli ahamiyatga ega emas.

(4) Ko'krak qafasining ochiq shikastlanishida va operatsiyalarda mikroorganizmlar tashqi muhitdan plevruga bevosita tushishi mumkin.

Plevritning ba'zi bir turlari patogenezida, shaxsan sil kassaligida, patologik jarayon ta'sirida organizmning sensibilizatsiyalashishi natijasida oz miqdordagi infect tezlikda tarqalgan ekssudatni vujudga keltiradi (infektion – allergik plevrit).

Blastomatozli plevrit rivojlanishida limfa tugunlari va tomirlarining o'sma metastazlari bilan amal qilinishi ahamiyatli. Yalig'lanish doimo zararlangan plevra kapillyarlari devorining

o'tkazuvchanligini oshishi bilan kuzatiladi.

Fibrinsimon (quruq) plevritda ozgina ekssudat yig'ilishi va uning qoniqlik oqishi kuzatiladi, natijada ekssudatning suyuq qismi qayta to'la so'rilib, plevra pardalari sathida faqat ekssudatli cho'kkan fibrin qoladi. Ekssudatli plevritda parietal plevraning yalig'lanish infiltratsiyasi, uning sathidagi fibrinsimon surtmalicho'kmalar hamda plevra ichidagi yuqori bosim plevra lyuklari orqali ko'krak qafasidagi limfa sistemasiga suyuqlik oqishini keskin buzadi va ekssudat yig'ilishini vujudga keltiradi. Sog'ayish davrida ekssudatning suyuq qismi so'riladi, fibrinsimon cho'kmalar esa plevra shvartlari ni va chandiqlarini vujudga keltiradi.

5. Patologik anatomiyasi. Quruq plevritda plevra qalinlashgan, qizarinqiragan ko'rinadi. Plevraning o'zgargan sathiga fibrin yig'iladi va g'adir – budur bo'lib qoladi, qaytadan so'rilishi natijasida chandiqlar hosil bo'ladi. Ekssudatli plevrit plevra bo'shlig'iga suyuqlik yig'ilishi bilan ifodalanadi.

6. Tasnifi. 1984 yilda qabul qilingan Putov ishchi tasnifi patologik jarayon etiologiyasini, xarakterini (tabiatini), suyuqlik borligini, joylashishini, kechishini hisobga oladi.

(1) Etiologiyasi bo'yicha yuqumli va yuqumsiz (aseptik) plevritlar farqlanadi. Yuqumlilari qo'zg'atuvchi omil turiga, aseptiklari esa kasallik xarakteriga qarab (shikastli, kartsinomatozli, revmatikli va hokazo) bo'linadilar.

(2) Yalig'lanish ekssudati tabiatiga ko'ra: fibrinsimon (quruq), serozli, qonli (gemorragik), yiringli, eozinofilli, xilezli turlarga ajraladi.

(3) Kasallikning kechishi bo'yicha o'tkir, surunkali turlari tafovut qilinadi.

(4) Joylashuviga ko'ra diffuzli (total) va chegaralangan (xaltachasimon) bo'ladi.

Zotiljam bilan birgalikda rivojlangan plevritga parapnevmoniyali va zotiljamning tuzalish davrida vujudga kelganiga – metapnevmoniyali plevrit deb nom berilgan.

QURUQ PLEVRIT

1. Klinik ko'rinishi. Kasallik to'satdan boshlanadi.

a. Shikoyati.

(1) **Asosiy belgisi og'riq.** Ko'krak qafasining shikastlangan tarafining oldingi va yon bosh sohalarida joylashadi. Ko'pincha bo'yinga va yelkaga qarab tarqaladi. Chuqur nafas olganda kuchayadi, jarohatlangan tomonga yon boshni bosib yotganda kamayadi.

(2) **Yo'tal** quruq yoki juda kam miqdorda balg'am ajralishi bilan kuzatiladi.

(3) Yana et junjikishi, tana haroratining ko'tarilishi, behollik, lohaslik, ishtaxa pasayishi bezovta qiladi.

b. Ko'zdan kechirganda teri qoplamlari bo'zarganligi, lab ko'karishi, nafas olishning tezlashganligi, yuzakiligi, ko'krak qafasining nafas harakatidan orqada qolishi qayd qilinadi.

v. Paypaslaganda zararlangan tomonda mushaklar og'rishi va tarangligi aniqlanadi.

g. Perkussiyada o'pka to'qimasida infiltratsiya bo'lmasa o'zgarish kuzatilmaydi.

d. Auskultatsiyada xastalikning asosiy belgisi - plevraning ishqalanish shovqini aniqlanadi. Vezikulyar nafas yalig'lanish sohasida susaygan.

e. Rentgent tekshirishida diafragmaning yuqori turishi va nafasdagi harakatining chegaralanganligi aniqlanadi.

j. Qon sinamasida odatda o'zgarishlar kuzatilmaydi, kam hollarda neytrofilli leykotsitoz, ECHT ortadi.

2. Kechishi. Quruq plevrit yoshlarda yengil kechadi, odatda 1-3 haftada sog'ayish bilan tugaydi. Gohida o'pkada sil jarayonining faolligini tasdiqlovchi retsidivlar kuzatilishi mumkin. Plevra bo'shlig'iga suyuqlik yig'ilsa, quruq plevrit ekssudatli turiga o'tadi.

3. Tashxisi. Ko'krak qafasida chuqur nafas olganda va yo'talganda kuchayadigan og'riqqa, plevraning ishqalanish shovqiniga asoslanib qo'yiladi.

4. Qiyosiy tashxisi. Quruq pleurit krupozli zotiljam, spontanli pnevmotoraks, qovurg'alar aro nevralgriya, neyromioztlar, perikardit, qorin bo'shlig'ining o'tkir kasalliklari (o'tkir xoletsistit, appenditsit) bilan farqlanadi. Quruq pleurit chap tomonda bo'lganda uni stenokardiya va miokard infarktidan ajratish kerak. Tashxis Kasallikning klinik manzarasiga, EKG va laboratoriya belgilariga qarab qo'yiladi. Quruq pleurit diafragmaning usti sohasiga joylashganida diafragma osti abstsessi yoki appenditsitdan farqlash kerak. Taqqoslaganda og'riqning nafas olish bilan bog'liqligi, tana haroratining va qon sinamasining deyarli o'zgarmaganligi, plevranning ishqalanish shovqinining eshutilishi quruq pleuritni tasdiqlaydi. Ko'ks oralig'i plevrasing yallig'lanishida plevra ishqalanish shovqinidan farqlash kerak. Perikard shovqini yurakning maromli qisqarishi bilan bog'liq bo'lsa, plevranning ishqalanish shovqini esa nafas olish bilan bog'liqdir.

Qovurg'alararo nevralgriyadan va miozitdan farqi quruq pleuritda sog' tomonga engashganda, yallig'langan plevranning cho'zilishi hisobiga og'riq kuchayadi. Qovurg'alar orasini paypaslaganda miozitda va nevralgriyada og'riq kuchli, quruq pleuritda esa o'rtacha.

5. Oqibati. Asosiy kasallikning davolash samaradorligiga bog'liq, yakuni asosan ijobiy.

6. Davosi. Quruq pleurit ikkilamchi jarayon bo'lganligidan muolajalar asosiy xastalik (o'pka sili, o'tkir zotiljam, o'pka abstsessi, revmatizm va boshqalar)ni tugatishga qaratilgan bo'lishi kerak. Davolash vositalari og'riqni va yo'talni yo'qotishga yo'naltiriladi. Buning uchun analgin yoki amidopirin kuniga 2g, butadion 0,45g, aspirin 2-3g, pirazon qatoridagi preparatlar (indometatsin 0,025g 3-4 marta), glauvent (0,05g 2-3 marta), tusupreks (0,01-0,02g 3-4 marta).

Fizioterapiya vositalari- Ko'krak qafasidada qon va limfa aylanishini yaxshilash va og'riqni kamaytirish maqsadida zararlangan taraf terisini "sollyuks", Minin lampalarida nurlantiriladi, ultrabinafsha (UB) nurlari kuchsiz eritmali dozada ta'sir qildiradi. Tana harorati pasaygandan keyin kalsiy, yod, novakain, salitsilat elektroforezi beriladi. Yallig'lanish sohasida EP-UVCH, induktotermiya, detsimetr va santimetrli diapazonda elektromagnit to'lqinlari, hamda plevra chandiqlari sodir bo'lishining oldini olish maqsadida davolash nafas mashqlari va ko'krak qafasini uqalash buyuriladi. Sanatoriya davolari quruq iqlimli mahalliy cho'l tumanlarida o'tkaziladi.

EKSSUDATLI PLEVRIT

1. Klinik ko'rinishi. Ekssudatli pleurit rivojlanishida 3 davr farqlanadi: Suyuqlik yig'ilishi (ekssudatsiya), barqarorlashishi va suyuqlik so'rilishi (rezorbtsiya). Kasallik ko'p hollarda o'tkir, ba'zida sekin-asta boshlanadi.

a. Shikoyati. Plevra bo'shlig'iga suyuqlik yig'ilishining boshlang'ich davrida yonboshda sanchiqli og'riq, quruq yo'tal, harorat ko'tarilishi bezovta qiladi.

Suyuqlik to'planishi ortib brogan sari og'riq va yo'tal kamayib borib, xastalikning barqarorlashish davrida mutloq yo'qoladi. Bu vaqtda bemor yonboshda og'irlik hissi seziladi, xansirash kuchayib boradi, ba'zi bemorlarda umumiy zaharlanishning ifodalangan belgilari (bosh og'rig'I, ko'ngil aynishi, qayt qilish behollik loqaydlik ishtahaning pasayishi) kuzatiladi.

b. Ko'zdan kechirish Ko'krak qafasi asemetik suyuqlik yig'ilgan tomon hajmi pastki yonbosh sohada birmuncha kattalashgan nafas olganda orqada qoladi. Qovurg'alararo bo'shliq kengaygan va tekislashgan.

v. Palpatsiyada tovush titrashi suyuqlik yig'ilgan joyda juda susaygan, gohida umuman aniqlanmaydi.

g. Perkussiya.

(1) Ekssudat ustida bo'g'iq tovush aniqlanadi. U hamma vaqt orqa va qo'ltiq ostida joylashadi. Bo'g'iq tovushning yuqori chegarasi umurtqa pog'onasi bo'ylab yuqoriga ko'tariladi. Bo'g'iq tovushning yuqori chegarasi Damuazo egari chizig'ida hosil bo'ladi. suyuqlik plevra bo'shlig'ining yon qismida to'planadi. Keyinchalik u plevra yorig'idan yuqori va yon tomonga yoysimon qiyshiq chiziq hosil qilib tarqaladi.

(2) Sog'lom tomonda umurtqa pog'onasi bo'yalab ko'ks oralig'i a'zolarining siljishi hisobiga bo'g'iq tovush maydoni – Rauxfus – Grokk uchburchagi kuzatiladi.

(3) Shikastlangan tomonda umurtqa pog'onasi va ekssudat (Damuazo chizig'i) orasida ekssudat bilan siqilgan o'pka sohasida bo'g'iqlashgan timpanik tovush (Gorlyand uchburchagi) aniqlanadi.

d. Auskultatsiya

(1) Ekssudat o'rnida nafas shovqinlari susaygan, agar suyuqlik ko'p bo'lsa mutlaqo eshitilmaydi.

(2) Ekssudat chegarasidan yuqori siqilgan o'pka o'rniga bronx nafas eshitiladi.

(3) Sog'lom tomonda siljigan ko'ks a'zolari sohasida nafas shovqinlari eshitilmaydi.

e. Rentgentekshirishlari (7-rasm) o'pkaning quyi sohalarida ustki chegarasi qiyshiq joylashgan va ko'ks oralig'ining Sog'lom tomonda siljishi bilan kuzatiladigan katta qora dog'ni aniqlaydi; bemor holatini o'zgarishi soya konfiguratsiyasini o'zgartiradi. Kichik hajmda (300 ml dan kam) suyuqlikda rentgenogramma patologiyani aniqlay olmasligi mumkin.

j. Ultratovush (UT) tekshiruv suyuqlik joylanishini aniq ko'rsatadi.

z. Qonda deyarli ko'p bo'lmagan leykotsitoz, ba'zida eozinofiliya, ECHT oshishi kuzatiladi.

i. Maxsus diagnostika muolajalari.

(1) Plevra bo'shlig'ida suyuqlik borligi aniqlangach plevraga igna sanchish (punktsiya)tavsiya qilinadi.

(a) Suyuqlikni chiqarish va hajmini o'lchash lozim va bir qismini laboratoriya tekshiruviga yuboriladi.

(b) Laboratoriya tekshiruv: umumiy oqsil miqdorini, laktatdegitrogenaza (LDG) faolligini, tsentrofuglangandan so'ng cho'kmani tsitologik va bakteriologik tekshirish, glyukoza va amilazani miqdorini aniqlash.

(2) Plevra punktsiyasini boshlang'ich davrida biopsiya tekshiruvini o'tkazish.

2. Tashxisi. Bemor shikoyati (yonboshdagi sanchiqli og'riq, yo'tal, harorat ko'tarilishi, hansirash), fizikal belgilar (tovush titrashining pasayishi yoki yo'qolishi, perkutor tovushning bo'g'iqlashgani, nafas shovqinlarining eshitilmasligi), rengen ma'lumotlari (yuqori chegarasi qiya bo'lgan qora dog') asosida aniqlanadi.

3. Qiyosiy tashxisi. Laboratoriya ma'lumotlari plevra suyuqligining etiologiyasini aniqlash yordam beradi.

a. Laboratoriya tekshiruvlari ekssudat va transsudatni farqlashda ahamiyatli.

Ekssudatni tasdiqlovchi laboratoriya ma'lumotlari quyidagilar:

(1) Plevra ni nisbiy zichligi 1018 dan baland.

(2) Oqsil miqdori 3g/ foizdan (2 foiz) ko'p.

(3) LDG faolligi yuqori.

(4) Revolt sinamasi musbat.

b. Plevra suyuqlikgi tarkibida ko'p miqdorda qon bo'lsa o'sma, o'pka infarkti yoki ko'krak qafasining shikastlanishidan darag beradi.

v. Suyuqlikda amilaza fermentining faolligi baland bo'lsa, me'da osti bezi kasalligida kuzatiladi.

g. Limfotsitlar soni haddan ziyod bo'lsa – sil yoki o'sma, neytrofillar ko'pligi zotiljam, absces rivojlanishidan dalolat beradi.

d. Atipik hujayralar topilsa – o'sma borligini ko'rsatadi.

4. Kechishi asosiy kasallikka bog'liq holda o'tkir, yarim o'tkir surunkali bo'ladi.

Infektsion – allerik, shu jumladan, sil pleuritida ekssudat 2-4 hafta davomida so'rilib ketishi mumkin. Ba'zi hollarda ekssudatli pleuritdan keyin plevra bo'shlig'ida chandiqlar rivojlanishi, plevra varaqalarining bir-biriga yopishishi natijasida ko'krak qafasi shaklini buzuvchi va harakatini

chegaralovchi plevropnevmonsirrozi vujudga kelishi aniqlanadi. Kasallikning eng og'ir kechishi qo'shni a'zolariga yorilib, oqma hosil qiladigan yiringli plevritlarda kuzatiladi. Bo'laklar aro xaltalangan plevrit odatda og'riqsiz kechadi, chunki bunda pariental varaqa jarayonga qo'shilmagan bo'ladi.

5. Davosi. Mazkur patologik jarayoni vujudga keltiruvchi kasalliklarga faol ta'sir qiluvchi omillarni o'z ichiga oladi.

(1) Parhez taomlar vitaminlarga va oqsillarga boy bo'lishi kerak.

(2) Chekishni keskin cheklash kerak.

(3) Infekcion – allergiyali plevritda antibakterial (antibiotiklar, sulfanilamidlar), desensibilizatsiyalovchi (suprastin, tavegil, tiosulfat - natriy).

(4) Saraton etiologiyali plevritda kimyoterapiya.

(5) Sil etiologiyali plevritda silga qarshi vositalar tavsiya qilinadi.

(6) Plevra bo'shlig'iga ko'p suyuqlik yig'ilsa va u ko'ks oralig'i a'zolarini sog'lom tomonga siljitib, nafas va qon aylanishi buzilishini vujudga keltirsa, hamda ekssudat so'rilishi kuzatilmasa plevra punksiya qilinadi, ekssudat olib tashlanadi, so'ngra bo'shliq antiseptik aralashma bilan yuvilib tozalangach,plevralar orasiga antibiotik yuborildi.

(7) Zaharlanishda (intoksikatsiyada), ifodalangan hansirashda,yurak faoliyati buzilishida tomir ichiga plazma o'rinbosari eritmalari (reopoliglyukin), kislorid (oksigen) ingalyatsiyasi, yurak glikozitlari qo'llaniladi.

(8) Og'riqni kamaytirish maqsadida ko'krak qafasiga banka, xantal varaqasi, isituvchi kompresslar, yod to'ridan foydalaniladi.

(9) Fizioterapiya vositalari – sollyuks, mahaliy isitgich lampalar vannasi, UVCH, ultratovush, hamda kalsiy, yod, pankreatin elektrofarezi, induktotermiya.

(10)Sanatoriya va kurort davolari mahalliy moslashgan sanatoriyalarda yilning issiq oylarida qo'llaniladi.

6. Prognozi (oqibati) xastalikni vujudga keltirgan asosiy patologik jarayonga, hamda nafas va qon aylanish tizimiga holatiga bog'liq.

7. Profilaktikasi – plevritni sodir qiluvchi kasalliklarni oldini olish, o'z vaqtida tashxis qo'yish va sifatli davolashdan iborat.

O'PKA ABSSESI VA GANGRENASI

O'pka abssezi va gangrenasi og'ir yiringlash, o'pka to'qimasida nekroz va yemirilish, bo'shliqlar hosil bo'lishi bilan kechadi. O'pka abssezi o'pka gangrenasidan yiringlash o'chog'ini chegaralanganligi bilan farq qilinadi. Kasallik ko'pincha o'rta yoshdagi erkaklar orasida uchraydi. Kasallik keltirib chiqaruvchi sabablar (etiologiyasi). O'pka abssezi va gangrenasining kelib chiqishida keyinga o'n yillikda antibiotic dorilar ta'siriga chidamli bo'lgan floraning paydo bo'lishi muhim o'rin tutadi. Ko'pincha o'pka abssezi streptokokklar, stafilokokklar. Fridlender tayoqchasi, ichak tayoqchasi,viruslar va bakteriyalar assotsiatsiyasi keltirib chiqargan o'choqli zotiljamdan keyin rivojlanadi. O'pka gangrenasi esa, anaerob flora: spirallar, anaerob streptokokklar tufayli rivojlanadi.

Sovuq qotish, tamaki chekish, spirtli ichimliklarni iste'mol qilish kasallik rivojlanishiga moyil qilib qo'yadi.

Patogenezi. O'pkada yiringlash jarayonining rivojlanishi, bronxlar drenaj funksiyasining buzilishi, o'pka to'qimalarida qon aylanishi yomonlashuvi va nekroz, organizmning kasalliklarga qarshilik ko'rsatish kuchi kamayganligi, reinfeksiya, o'tkir zotiljamdan so'ng o'pka abssezi keltirib chiqaradi. Ko'pincha o'pka abssezi chuqur venalar tromboflebiti, osteomielit, bakterial endokardit kasalliklarida o'pkaga gematogen yoki emboliya yo'li bilan infeksiya tushishidan ham kelib chiqadi.

O'pkaga o'tkir yiringlash jarayonining surunkali bo'lib qolishiga, bemor yo'taldan paytda op'kada absstes natijasida paydo bo'lgan bo'shliqda bosim ortishi tufayli bronxlar drenaj faoliyatining buzilishi sabab bo'ladi.

O'pkada yiringlash jarayonining rivojlanish yo'llarini quyidagi jadvaldan ko'rish mumkin (6-jadval).

O'pka abssezi va gangrenasining tasnifi

Patogenezi bo'yicha	Klinik va anatomik ta'rifi	Kechishi	Asoratlari
1. Zotiljam keyingi 2. Qon aylanishi va emboliya yo'li bilan 3. Aspiratsiya yo'li bilan 4. Shikastlanish oqibatida 5. Surunkali zotiljam oqibatida	1. Periferik a) ko'plab empiyema bilan asoratlangan b) chegaralangan empiyema v) asoratlarsiz 2. Markaziy a) yakka holda b) ko'plab 3. Gangrena a) empiyemali b) empiyemasiz	1. O'tkir 2. Surunkali	1. O'pkadan qon oqishi 2. Klapanli pnevmotoraks (zo'riqqan) 3. Septikoliyemiya 4. Septikoliyemiya 5. Ikkilamchi bronxo ektazlar 6. Amiloidoz

Patologik anatomiyasi. O'pkada yiringlash o'choqlari yakka holda yoki ko'plab bo'lishi mumkin. Absstes natijasida o'pkada paydo bo'lgan bo'shliq to'la yiring bo'ladi, bu yiring ko'pincha absstesda o'pkada paydo bo'lgan bo'shliqda granulyatsiya va atrofdagi o'pka beta-qimasining sklerozi kuzatiladi. O'pka gangrenasida chegaralanmagan to'q yashil rangdagi chirik qism ko'rinadi. Mikroskopda tekshirishda leykotsitar infiltratsiya va alveolalar to'siqlari shishiganligi va tuzilishi yo'qolganligini ko'rish mumkin.

O'pka o'tkir abssezi va gangrenasining klinik ko'rinishi. Kasallikning kechishini 2ta bosqichga ajratish mumkin: 1. Infiltratsiya. 2. Yiringlash o'chog'ining Bronx yo'liga yo'rilishi.

1. Infiltratsiya fazasi. O'pka abssezi zotiljamdan keyin rivojlanganda infiltratsiya bosqichida bemor ahvolining to'satdan yomonlashuvi, tana haroratining ikkinshi marta juda baland – 40⁰ S bo'lishi, bemor og'zidan yoqimsiz hid kelishi, kulrang – yashil rangdagi balg'am ko'chishi (200-300 ml yoki 1-1,5 stakan), qattiq terlash, sovuq qotish, azobli yo'tal, ko'krak qafasi og'riq, adinamiya, artralgiya, taxikardiya kuzatiladi. O'tkir nafas olish yetishmovchiligi va qattiq zaharlanish belgilari esa o'pka gangrenasida kuzatiladi.

Infiltratsiya fazasida ko'krak qafasi perkussiya qilinganda o'pka tovushining bo'g'iqlashganligi, paypaslab ko'rilganda tovush tebratishining susayishi, auskultatsiyada vronxial nafas, quruq va mayday pufakchali nam xirrilashlar eshitiladi.

Qon tekshirilganda neytrofillarning metamielotsitlarga qadar surilishi natijasida leykotsitlar soni 15-10⁹/l gacha ortadi, ECHT ortishi kuzatiladi. Qon bioximik laboratoriyada tekshirilganda alpha₂- va beta-globulinlar, fibrinogen normadan ortiqcha bo'ladi. Peshob (siydik)da oz miqdorda proteinuriya kuzatiladi.

Balg'am ko'chishining birdan ko'payishi (500-700-1000 ml gacha), tana haroratining normaga yaqinlashuvi, ko'krak qafasida og'riq,xarsillashning, qonda leykotsitlar miqdorining kamayishi yiringlash o'chog'ining bronx yo'liga yorilganligidan va bronxlar drenaj funksiyasining tiklanganligidan, kasallik II bosqichga o'tkanligidan darak beradi.

Bemor ajratayotgan balg'amning miqdoriga qarab patologik jarayonning xarakteri, hajmi, bronxlar drenaj funksiyasining holati haqida fikr yuritish mumkin.

Balg'am 2 yoki 3 qavatli bo'lib, 1-qavati ko'pikli, 2-qavati sariq yiringli, 3-qavati har xil mayday elementlardan iborat bo'ladi.

O'pka gangrenasida esa, bemor ajratgan balg'am kulrang, ko'pincha tarkibida qon va o'pka to'qimasining mayday bo'lakchalari bo'ladi.

Davolash. O'pkadagi yiringli kasalliklarni davolash bronxlar drenaj xossasini tiklash va o'pkadagi yiringlash o'chog'ining yo'qotish, kasallik qo'zg'atgan mikroorganizmlarga ta'sir qilish, zaharlanish simptomlariga qarshi kurash, bemorning kasallikka chidamini oshirish tadbirlarini o'z ichiga oladi.

O'pkadagi yiringlash o'chog'i bronxlarni Karlens naychasi bilan yuvish, davolash bronxoskopiyasi, ko'krak qafasining punksiya qilish, bemorni balg'am ko'chishini yengillashtiradigan hollatda yotqizib qo'yish, aerezollar bilan davolash, davolash gimnastikasi kabi omillardan foydalanish yo'li bilan yo'qotiladi.

Yuqori dozada (1 sutka 4-8 mln TB) antibiotiklar: penitsillin, ampitsilin, klaforan, separin, dalatsin, kabilarni bemorga ichirish, mushak orasiga, vena qon tomiriga, traxeyaga yuborish tavsiya qilinadi. Antibiotiklar bilan davolash kasallik qo'zg'atgan mikrofloraning antibiotiklarga ta'sirchanligi aniqlangandan keyin boshlanib, yuqori dozalarda bir yoki bir necha xil antibiotiklar bilan olib boriladi.

Zaharlanish belgilariga qarshi kurashish uchun glyukoza, gemodez 400ml vena qon tomiriga yuboriladi.

Agar absstesni staflokkoklar keltirib chiqargan bo'lsa bu holda staflokkoka qarshi anatoksin, gamma-globulin va staflokkoka qarshi plazma bilan davolash zarur bo'ladi. Bemor organizmning kasallikka qarshiligini ishirish uchun tarkibida oqsil bo'lgan dori-darmonlar: retabolil, perobollar qo'llaniladi. O'tkir absstesning pionevmotoraks, o'pka empiyemasi va o'pkadan qon ketishi kabi asoratlari xirurgik yo'l bilan davolanadi.

Kasallikning oldini olish uchun o'tkir va surunkali zotiljam kasalliklarini o'z vaqtida aniqlash, to'g'ri va to'liq davolash kerak.

BRONXOEKTAZIYA

Bronxoektaziya (bronchoectasia) bronxlarning patologik kengayishidir, bronxoektaziya surunkali kasallik bo'lib, uning o'ziga xos belgilaridan biri bronxoektazlar paydo bo'lishidir.

Bronxoektaziyaning etiologiyasi va patogenezi sabablaridan biri og'ir bronxitdir. Bronxlarning kengayishiga yana bir sabab shuki, yallig'lanish natijasida ularda chandiqlar paydo bo'ladi, ular tortilib, egilib qoladi, shaklini o'zgartiradi. Bronxoektaziya ko'pincha uzoq davom etgan yallig'lanish protsessining natijasi sifatida ham yuz beradi. Kasallikning kelib chiqishiga qattiq chandiqlar paydo qiladigan plevritlar ham yordam beradi. Bronxoektazning kuchayishida bronxlar devori tuzilishidagi tug'ma anomaliyalar, xususan, bronxlarning ikki tomondan kengayishiga olib keladigan muskul va elastik elementlarning zaifligi ham rol o'ynaydi, degan fikr bor. Ikki tomonlama bronxoektaziyaning paydo bo'lishiga bronxlar, o'pka yoki plevrada infeksiya – yallig'lanish protsesslari sabab bo'ladi, deb qarash kerak; bronxlarning isbot etilmagan tug'ma "zaifligi" bu kasallikning kuchayishiga sabab bo'ladi, degan fikrga ishonishning hojati ham yo'q.

Bronxoektazlar patologik – anatomik jihatdan silindrik va xaltasimon xillarga bo'linadi; silindrik tipda bronxlar ma'lum uzunlikda bir tekisda kengayadi, xaltasimon tipda esa bronxning bir qismigina bo'rtib chiqadi. Kengaygan bronxning kattaligi turlicha – no'xat kattaligida va undan ham kichikroq bo'ladi, ba'zan esa tuxum va olma kattaligidek bronxoektazlar ham bo'lishi mumkin. Bronx devorining kengaygan qismida biriktiruvchi to'qima paydo bo'ladi; muskul qavati atrofiga uchraydi; shilliq pardasi yallig'lanib, unda ba'zan yara-chaqalar paydo bo'ladi.

Kasallikning klinik ko'rinishi, avvalo, balg'amli yo'tal bilan xarakterlanadi. Balg'am ancha ko'p miqdorda ajraladi; u yiringli, suyuq bo'ladi va oson ko'chadi, "og'iz to'lib" chiqadi. Ba'zan balg'am bemor yomboshlab yotganda ayniqsa ko'proq ajraladi. Bunda bronxoektaz o'pkaning qaysi tomonida ekanligini aniqlash osonlashadi; agar bemor chap yoni bilan yotganida yo'tal tutishi va balg'am ko'p ajralishidan shikoyat qilsa, bu narsa bo'shliq uning o'ng tomonida ekanini ko'rsatadi. Balg'am o'z og'irligiga ko'ra tashqariga olib chiquvchi bronxlarga oqadi. Ikki tomonlama, ko'psonli bronxoektazlarda bu hodisa kuzatilmaydi. Bemorlar juda ko'p, ayniqsa qo'llansa hidli balg'am ajratganlari sababli, og'zi bekiladigan mazsus idish olib yuvishga majbur bo'ladilar. Kengaygan bronxlarda yaralar paydo bo'lishligi tufayli vaqt-vaqti bilan balg'amda qon aralashgan bo'ladi. Ba'zan qon tanlash kasallikning bunday turini ba'zan o'pka sili kasalligi deb o'ylaydilar.

O'pka perkussiya usulida tekshirilganda o'pkaning kengaygan bronxlar joylashgan qismi ustida timpanik tovush eshitiladi. Qopsimon va silliq devorli katta bo'shliqlar ustida jaranglama tovush eshitiladi. Ba'zi hollarda bo'shliqga xos gavda holatini o'zgartirish, og'izni ochish yoki yopish vaqtida paydo bo'ladigan boshqacha tovush fenomenlarni, shuningdek darz tuvak tovushini hosil qilish mumkin. Bronxoektazga uchragan joy auskultatsiya qilinsa, bronxial nafas yoki uning amforik nafas tipiga kiruvchi xili eshitiladi, odatda yirik va jarangli xirillashlar ham eshitiladi (tovushning balandligi katta bo'shliqdan chiqqan rezonans hamda bronx devorining qalinlashib zichlanganligiga bog'liq). Bronxoektaziya sohasi, tovush dirilashi va bronxofoniya kuchayadi. O'pka va plevrada chandiqli o'zgarishlar paydo bo'lishi tufayli, bronxlar kengaygan bo'lsa, bemor ko'zdan kechirilganda ko'krak qafasining kasallangan tomoni kichiklashgani seziladi, ko'krakning shu qismi bir oz cho'kkan bo'ladi, nafas olganda esa shu tomon yetarli ko'tarilmaydi. Perkussiya qilinganda o'pkaning shu tomondagi cheti kam siljiydi.

Shuni ham aytib o'tish kerakki, yuqorida korsatib o'tilgan fizik alomatlar sodir bo'lmasligi va kasallik faqat yo'tal hamda balg'am ajralish bilangina kelishi mumkin. Bunday hollarda rentgenologik tekshirish muhim diagnostic ahamiyatga ega.

Rentgenologik tekshirishda bronxoektatik kengaygan bo'shliqlar tuxumsimon yorug' joylar shaklida ko'rinadi: bular odatda yakka- yakka, yoki to'p-to'p bo'lib, o'pka ildiziga yaqin joyda, o'pkaning pastki qismida joylashadi; yorug' joy atrofida chandiqli va infiltratli, tasmasimon qorong'I tortmalar ko'zga tashlanadi, ular bronxlar bo'ylab tarqaladi, bo'shliqlarning o'ziga secret yig'ilib qolgan bo'ladi, ularning kattalarida gorizontallik joylashgan suyuqlik ko'rinadi, gavda holatining o'zgarishi bilan bu suyuqlik sathi ham o'zgaradi.

Xaltasimon bronxoektazlar paytidagi manzara ana shunday. Silindrik bronxoektazlarda tortmalar dag'alroq, ular ko'proq o'pkaning pastki qismida joylashgan bo'lib, o'pka ildizidan chiqadi. Silindrik bronxoektazlar kengaygan va devorlari qalinlashgan bronxlarda paydo bo'ladi (bronxlar atrofiyaga uchrab devori yupqalashganda ular ko'rinmaydi: ular secret bilan to'lgandagina ko'rinishi mumkin). Biroq bronxlar kengaygan bo'lishiga qaramay, ba'zan ularni rentgenoskopiyada aniqlab bo'lmaydi (juda mayda bronxoektazlar ko'p bo'lganligi sababli). Bunday hollarda bronxografiya qo'llaniladi. Tekshiriladigan Bronx tarmoqlarining tegishli bo'limiga kontrast modda kiritilgandan keyin uning rasmi olinsa 46-rasmda tasvirlanganda o'xshash aniq va chiroyli manzara hosil bo'ladi (yopishtirilgan rasmga qarang): kontrast qorishma bilan to'lgan bronxoektazlar uzum boshi yoki mevali daraxt shoxida o'xshash shakllar hosil qiladi.

Bronxoektaziyada uchraydigan boshqa alomatlardan biri bemor barmoqlarning uchlari nog'ora cho'plariga o'xshab to'mtoqlanib qolishidir. Bunday o'zgarishning sodir bo'lishi sababli hozirgacha aniqlangan emas. Bunda trofik buzilishlar rol o'ynasa kerak (ba'zi suyaklar, ayniqsa naysimon suyaklar to'qimalarining siyraklashib qolishi-ya'ni osteoporozning sababi ham shunda). Bemor yuzining kerkishi ham kishi diqqatini o'ziga jalb qiladi, bu hol bemorning doimiy yo'talishga bog'liq. Bemorning umumiy ahvoli uzoq vaqtlar davomida o'zgarmaydi. Tana harorati odatda

normal bo'ladi, biroq harorat vaqti – vaqti bilan (balg'am ajralmay qolganda) qisqa vaqtda ko'tarilishi mumkin.

Kasallik surunkali kechadi, u goh zo'rayib, goh pasayib turadi. Bemor tamomila sog'ayib ketmaydi. Bemorlar o'zlari uchun ham, boshqalar uchun ham ortiqcha yuk bo'lib qoladilar (ayniqsa balg'am badbo'y hidli bo'lganda).

Davolash yaxshi natija bermaydi. balg'ani kamaytirish va uning hidini yo'qotish uchun bemorga terpingidrat va natriy benzoate ichiriladi. Sulfanilamidlar (sulfazol, sulfatiazol, sulfadiazin) bilan davolash bir oz foyda beradi, bular kuniga 6-8 g dan 3-5 kunlik kurs bilan tavsiya etiladi. Katta dozalarda antibiotic ham qo'llaniladi. O'pkaning har ikki bo'lagidagi bronxoektazni xirurgik usul bilan davolash mumkin emas. Bu kasallikning oldini olishda bronxit va uzoqqa cho'zilgan o'pka yallig'lanishini o'z vaqtida to'g'ri davolash muhim ahamiyatga egadir.

Baholash mezonlari №9

Mavzuning nomi	Ball	Baho	Talabning bilim darajasi
Plevra bo'shlig'ida havo va suyuqlik to'planish sindromi. Quruq va eksudativ plevrit bilan bemorlarni tekshirish.	86-100	A'lo	Xulosa va qaror qabul qila oladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, amalda qo'llay oladi, mohiyatini tushuntiradi, biladi, aytib bera oladi, tasavvurga ega.
Gidrotoraks, pnevmotoraks simptomatologiyasi.	71-85	Yaxshi	Mustaqil mushohada yuritadi, amalda qo'llay oladi, mohiyatini tushuntiradi, biladi, aytib bera oladi, tasavvurga ega.
Pnevmotoraks turlari (ochiq, berk, qopqoqli). O'pkada bo'shliq sindromi. O'pka abstsessi, bronxoektaz kasalligi bilan bemorlarni tekshirish. Bemorlar kuratsiyasi. Tibbiy bayonnoma yozish.	55-70	Qoni qarli	Mohiyatini tushuntiradi, biladi, aytib bera oladi, tasavvurga ega.
	0-54	Qoni qarsiz	Tasavvurga ega emas, bilmaydi.

Mustaqil ish. Plevritlar

Amaliy mashg'ulot №10

Oraliq nazorat №1 nafas tizimi kasalliklari bo'yicha.

Yurak-qon tomir tizimi. Tekshirish usullari. So'rab- surishtirish. Ko'zdan kechirish (umumit holati, teri qoplamlarini rangi, shishlar, bo'yinni ko'zdan kechirish). Diagnostik ahamiyati. Yurak sohasi va periferik tomirlar sohasini ko'zdan kechirish. Yurak sohasi palpatsiyasi va diagnostic ahamiyati.

1. Amaliy mashg'ulot o'qitish moduli.

Mashg'ulot vaqti – 4 soat	Studentlar soni: 10 dan 12 gacha
Mashg'ulot formasi	Amaliy mashg'ulot
Amaliy mashg'ulot rejasi	Yurak, qon-tomir kasalligi bilan bemorlarni tekshirish usullari. So'rab-surishtirish, ko'zdan kechirish. Yurak soxasini, periferik tomirlarni ko'zdan kechirish. Yurak soxasini palpatsiya qilish.
Amaliy mashg'ulot maqsadi:	Talabalarni yurak, qon-tomir kasalligi bo'lgan bemorlarni tekshirish usullari bilan tanishtirish. Yurak soxasini, periferik

	tomirlarni ko'zdan kechirish, yurak soxasini palpatsiya qilishni o'rganish
O'qitish uslubi	So'rov. Bemorlarni dmonstratsiya qilish, interaktiv o'qitish uslubi, amaliy ko'nikma.
O'qitish formasi	Kichik podgruppalarida.
O'qitish jihozlari	O'quv qo'llanma, amaliy mashg'ulotlar mundarijasi, proektor, kompyuter.
O'qitish holati	Metodik jihozlangan auditoriya.
Monitoring va baholash	Og'zaki kontrol: savol-javob, testlar, muammoli masala.

1.2. Amaliy mashg'ulot texnologik kartasi

Ish bosqichlari va vaqti.	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorlov bosqichi	22. Auditoriya tozaligini nazorat qiladi 23. Talabalarni mashg'ulotga tayyorgarligini tekshiradi 24. Davomatni nazorat qiladi	
1.O'quv mashg'ulotiga kirish bosqichi (10 daqiqa)	1.Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash. 2.Kirish ma'ruzasi uchun taqdimot silaydalarini tayyorlash 3. Fanni o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini ishlab chiqish	
2 –asosiy bosqich (160 daqiqa)	1. Talabalarni kichik guruhlariga bo'lib, mavzu bo'yicha savollarni beradi. 2. Ko'rgazmali plakatlardan foydalanadi 3. Slaydalar, multimedialardan foydalanadi 4. Davolash ishlarini olib boradi 5. Mavzular asosida berilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi, faol ishtirokchi talabalarni rahbatlantiradi va umumiy baholaydi	Kichik guruhlariga bo'linadilar Tomosha qiladilar qatnashadilar Tinglaydilar va savollarga javob beradilar
1-yakuniy bosqich (10 daqiqa)	1. Yakunlovchi xulosa qiladi 2. Mustaqil ish beradi 3. Uyga vazifa beradi	Tinglaydi Yozib oladi Yozib oladi

3.Talabalarining nazariy bilimlarini baholash:

A)Frontal usuli:

1. YUrak kasalligi bilan kasallangan bemorlarning asosiy shikoyatlari va ular nimaga bog'liq
2. Anamnesis morbi va anamnesis vitaeda qanaqa ma'lumotlarga e'tibor berish kerak
3. YUrak kasalligi bilan kasallangan bemorlarni ko'zdan kechirishda ko'proq nimalarga e'tibor beriladi
4. Qon aylanish organlari kasalligi bilan kasallangan bemorlarni kurak sohasi va tomirlar tutashni ko'zdan kechirish
5. YUrak kasalliklarida teri rangining diagnostik ahamiyati
6. YUrak sohasini palpatsiya qilib qanaqa o'zgarishlarni ko'rish mumkin
7. YUrak sohasini palpatsiya qilish texnikasi
8. YUrak uchi turkisini aniqlash
9. "Mushuk xirillashi" simtomiga izoh bering

10. Qanday hollarda Yurak ichki turtkisi o'zgaradi
11. Tomirlarni chegarasini aniqlash
12. pulsatsiyasini palpatsiya yordamida aniqlash mumkin

“Stol o'rtasida ruchka” usuli

Butun gruppaga savol beriladi (masalan, qandli diabet simptomlari, beta-blokator gruppasiga mansub dori darmonlar, YuIK moyillik omillari). Har bir talaba o'z javobini varaqqa yozib oladi va hamsoyasiga yuboradi, ruchkani esa stol o'rtasiga qo'yadi.

O'qituvchi gruppaga ishini kontrol qiladi va umumiy variantni daftariga yozib oladi.

So'rab – surishtirish. Shikoyatlar: Yurak qon – tomir tizimi kasalliklarida bemorlar hansirash, yurak sohasida va to'sh ortida og'riq, yurak o'ynashi, qon tupurish, shishlarni paydo bo'lishi o'ng qovurg'a ostida og'riq, dispeptik o'zgarishlariga shikoyat qiladi .

Hansirash (dyspnoe). Bu grekcha so'zdan kelib chiqqan bo'lib dys – buzilgan va pnein – nafas olish , ya'ni nafasni og'ir buzilishi hisoblanadi.

Hansirash – yurak yetishmovchiligining eng ko'p uchraydigan belgisi bo'lib, har xil darajalari tafovut qilinadi. Uning paydo bo'lish vaqtini (doimiy, xuruji) jismoniy zo'riqish bilan bog'liqligi, tinch holatda paydo bo'lishi kuzatiladi. Bemor hansirashni yengillashtirish uchun majburiy holatni egallashi kuzatiladi.

Yurak kasalliklarida hansirash dastlab jismoniy zo'riqishda, yurganda, zinadan ko'tarilganda nomoyon bo'lib, biroz vaqtdan keyin o'tib ketadi.

Yurak nuqsonlarining dekompensatsiya davrida hansirash paydo bo'ladi. Xususan mitral stenozda, aterosklerozli kardio-sklerozda eksudatli plevritda va yurakni boshqa kasalliklarida uchraydi. Yurak kasalliklarida chap qorincha yetish-movchi-ligida bo'g'ilish xuruji ko'pincha tunda paydo bo'ladi. Bu xuruji o'ta iztiroblidir. Bemor tunni uyqusiz o'tkazadi, kresloda ertalabgacha o'tirib chiqadi, xuruji uzoq davom etadi. Yurakning bunday xuruji yurak astmasi (astma cardiale) deyiladi. U yurak klapanlari nuqsonida dekompensatsiya davrida xususan mitral stenozi, aortal nuqsoni, miokard infarkti, chap qorincha anevrizmasi, kardiosklerozda va katta qon aylanish doirasining yaqqol ifodalangan gipertoniya rivojlanadi. Klapan nuqsonlarida dekompensatsiya davrida, miyada mahalliy qon aylanishini ateroskleroz tufayli mahalliy buzilishida nafasni Cheyn – Stoks tipida buzilishi aniqlanadi.

Yurak sohasida og'riqga shikoyat qiladigan bemorlarni so'rab surishtirishda quyidagilarni aniqlashtirish lozim:

- 1) og'riqlar qaysi sharoitda paydo bo'ladi (jismoniy zo'riqishda, hayajonganlarda va b.)
- 2) og'riqni aniq joyi (yurak cho'qqisi, to'sh orti)
- 3) uni xarakteri (siquvchi o'tkir, og'irlik sezish, to'sh ortini bosilishi va b.)
- 4) ular doimiy yoki xurujsimon bo'lishi
- 5) uning davomiyligi
- 6) og'riqning qayerga tarqalishi
- 7) nimadan pasayadi, yoki o'tib ketadi.

Yuqoridagilarni aniqlashtirish diagnostik katta aha-miyatga egadir.

Stenokardiyada og'riq xuruji yurak mushaklarini vaqtinchalik ishimiyasini koronar tomirlar spazmi va unda qon aylanishini buzilishidan kelib chiqadi.

Miokard infarktida og'riq stenokardiya bilan farq qilib boshqa xarakterda bo'ladi. Uning jadalligi yuqori bo'ladi, uzoq muddat davom etadi, bir necha soatgacha, xatto kunlarga cho'zilishi

mumkin. Og'riqlar jismoniy zo'riqish yoki hayajonlanish natijasida kelib chiqadi va xuruj paytida, qon tomirlarni kengaytiruvchi dorilar yordam bermaydi.

Perikarditlarda og'riq perikardial varaqlarda fibrinni o'tishi oqibatida hosil bo'lib, og'riq xarakteri doimiy, jadalligi turli xil bo'ladi. U validol va nitroglitserin tabletkasidan keyin bartaraf bo'lmaydi. Og'riqlar endokarditlarda va o'tkir mio-karditda ham bo'ladi, biroq miokard infarktidadagi kabi o'tkir bo'lmaydi. Yurak nevrozlarida og'riq to'sh orti emas balki, yurak cho'qqisida tarqaladi, doimo bemorni bezovta qiladi, xar xil emotsiyalar bilan bog'liq bo'ladi.

Aortaning har xil kasalliklarda, shu jumladan sifilitik mezoaortit, aorta anevrizmasi va gipertoniya da bemorlar to'sh orti soxada og'riqqa shikoyat qiladilar. Qon aylanishining buzilishida, yurak nuqsonlarida va boshqa yurak kasalliklarida bemorlar jigarda qonni keskin dimlanishi va Glisson kapsulasini cho'zi-lishi natijasida o'ng qovurg'a ostida og'riq sezadilar.

Yurakni tez qisqarishlarini, bemor yurak o'ynashi sifatida his qiladi. U normada sog'lom kishilarda jismoniy zo'riqishlarda uchrashi mumkin (yugurganda, zina-dan tez ko'tarilganda, og'ir yukni ko'targanda va x.). Yurak o'ynashi harorat ko'tarilganda, infeksiya xastaliklarda, xar xil nuqsonlari (yurak klapanlari nuqsoning dekompensatsiya davrida, o'tkir miokarditlar, miokard infarkti, tireotoksik zararlanishida va x.)da kuzatiladi. Yurak o'ynashining o'tkir xuruj ko'rinishida hosil bo'lishi paroksizmal taxikardiya uchun xarakterli bo'ladi.

Qon tupurish (haemoptoe). Yurakni mitral nuqsonida, xususan mitral stenozda, shuningdek miokard infarktida va boshqa yurak-qon-tomir kasalliklarini chap qorincha yetishmovchiligi bilan birgalikda kelganda kichik qon aylanish doirasida dimlanishi oqibatida bemorlar balg'am bilan qon kelishidan shikoyat qiladilar.

Qon tupurish mitral stenoz, miokard infarkti, chanoq yoki oyog'larning venalarini tromboflebiti bilan og'rikan bemorlarda o'pka tomirlarini emboliya yoki mahalliy trombozga uchrashi natijasida o'pka infarkti rivojlanganda kuzatiladi. Qon tupurishning bunday hollarda oz miqdorda balg'am bilan qon chiqishi yoki o'pkadan qon ketish ko'rinishida bo'ladi.

Yurak astmasi uchun ko'pikli pushti rangdagi balg'am ajralishi xos bo'g'ilib, dimlanish va tomirlar o'tkazuvchanligining ortishi bilan bog'liq bo'ladi.

Shishlar. Yurak kasalligiga chalingan bemorlar oyoqlari-dagi shishlarga shikoyat qiladi. Shishlar kechqurun paydo bo'ladi, keyinchalik ko'payadi. Ba'zida oyoqda shishlar doimiy bo'ladi. So'rab – surishtirilganda shishlarni jismoniy zo'riqish-lar va qabul qilingan suyuqlik bilan bog'liqligini aniqlash muhim.

Yurak-qon tomir tizimi kasalliklarida bemorni umumiy ko'zdan kechirish

Yurak kasalliklari bilan og'rikan bemorlarni tashqi tomon-dan ko'zdan kechirish bir qator belgilarni ilg'ab olishga imkon beradi, bu bemorlarni ahvolini baholash va tashxis qo'yish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Ko'zdan kechirish bemorning egallagan vaziyatini baho-lashdan boshlanadi, keyin teri qoplamini, shilliq qavatlarni rangiga, shishlarga, yurak sohasiga, qo'l va oyoqlardagi periferik qon tomirlarga qaraladi.

Bemorning vaziyati. Yurak kasalliklari bilan og'rikan bemorlar qon aylanishi yengil darajasida kompensatsiya davrida, shikoyatlar bo'lmasligi mumkin. Yurak yetishmovchiligining yaqqol keskin rivojlanishlarida bemorlar yotoqda bosh tomonini yuqori qilib, boshni ostiga ko'plab yostiqlar qo'yib yotadilar yoki ularga maxsus bosh ostiga qo'yiladigan moslama beriladi, yarim o'tirgan holatni egallaydi va ahvolini biroz yengillashtiriladi. Bemorlar chalqancha yoki o'ng yonbosh tomonga yotqiziladi, yurakdagi noxush sezgilardan qutulish maqsadida chap yonboshga yotqizilmaydi.

Yurak yetishmovchiligi yaqqol ifodalangan hollarda, ayniqsa chap qorincha yetishmovchiligida uni yurak astmasi xurujiga olib kelishida bemorlar xarakterli majburiy holatni

egallaydi. Ular kresloda yoki to'shakda o'tiradi, oyoqlarini pastga osiltirib, boshini yostiqa qo'ygan holatda bo'ladi. To'shakda yotishga urinish ularda bo'g'ilish xurujiga sabab bo'ladi. Ba'zan ular haftalab o'tirishadi, tunda uxlamaydi, toki yurak va siydik ayiruv faoliyatini yaxshilaydigan vositalarni samara bergunga qadar kutadi.

Bemor majburiy vaziyatni egallaganda hansirashni kamayishi oyoqlarni pastga tushirilganda qonning tananing pastki qismga harakati tufayli kichik qon aylanish doirasida dimlanishni kamayishi, diafragmani ekskursiyasi ortishi bilan bog'liq bo'ladi. Bunday holat yurak klapanlari nuqsonlarida, kardiosklerozda chap qorincha anevrizmalarida va miokard infarkti yoki boshqa kasalliklar fonida paydo bo'lib yurak faoliyatining pasayishi bilan kechishida kuzatiladi.

Eksudatli perikarditlarda bemor tizza – bilak vaziyatini egallaydi yoki yarim egilgan holatda o'tiradi, majburiy holatni egallab o'ziga biroz yengillik yaratadi. Stenokardiya xuruji paytida bemor o'tirishni ma'qul ko'radi. O'tkir yurak yetishmovchiligi (shok, kollaps)da bemorlar gorizontol holatda yotadilar. Bemorning turish uchun intilishi obmorokka sabab bo'lishi mumkin.

Teri va shilliq qavatlarni ko'zdan kechirish. Yurak kasalliklari bilan og'rikan bemorlarni ko'zdan kechirishda teri va shilliq qavatlarning rangiga e'tibor qaratiladi, yurak kasalliklarida keskin ifodalangan oqarish yoki ko'karish kuzatilishi mumkin. Teri va shilliq qavatlarda gemorragik toshmalarning uchrashi diagnostik ahamiyat kasb etadi.

Tsianoz (cyanosis)- yurak kasalligiga chalingan bemorlarda qon aylanishining yetishmovchiligida teri va shilliq qavatlarning tsianotik (ko'karish) belgisi kuzatiladi.

Ko'karishning jadalligi har xil bo'ladi. Yengil sianotik rangdan to qora ko'k ranggacha bo'lishi kuzatiladi. Kasallikning boshlanishida tsianoz lablarda, burun uchida, yonoqlarda, qo'l barmoqlarida terisi yupqa bo'lgan sohalarda bo'ladi, keyinchalik uni rangi jadallanib, qo'l terisini ko'k rangga kiritadi (akrotsianoz), hattoki tana rangi ko'k tusga kiradi. Tsianoz mitral nuqsonlarda, asosan mitral stenozda uchraydi. Bunda yonoqni o'ziga xos ko'k rangga kirishi **facies mitralis** (mitral nuqsonli bemorning yuzi) deb nom olgan.

Tsianozning keskin yuqori darajasi tug'ma yurak nuqsonlarida (o'pka arteriyasini torayishi va b. yurak nuqsonlarida) uchraydi. Shuningdek o'pka arteriyasining sklerozi (Aerza kasalligi)da kuzatilishi mumkin. Bunday holatda tsianoz keskin darajada ortadi, bu kasallik **morbys coeruleus** (ko'k kasallik) nomini oladi.

Tsianoz o'pka yurak yetishmovchiligi, o'pkaning surunkali kasalliklari (pnevmoskleroz va b.) bronxoektaz kasalligi va o'pka enfizemasida uchraydi. Ba'zan sianoz o'pka arteriyasi emboliyasi, pnevmotoraksda to'satdan rivojlanadi. Tsianoz qonda qaytarilgan gemoglobinning miqdorini ortishi bilan ifodalanadi, uni rangi oksigemoglobinga nisbatan to'q rangda bo'ladi. Tsianotik rangni shakllanishida venoz dimlanish, venalarni kengayishi kuzatilib, u yurak o'ng qismining yetish-movchiligi tufayli kelib chiqadi.

Markaziy tsianozda o'pkaning xar xil kasalliklari tufayli qonning normal arterializatsiya jarayoni buziladi, shundan so'-ng o'pkadan oqib boradigan qon kislorod bilan to'yinmaydi. Boshqa turdagi tsianozlar periferik bo'lib qon harakatining sekinlashuvi va kislorodning atrofidagi to'qimalarga ko'plab sarflanishi tufayli kuzatiladi. Bunday holatlarda qon tarkibida normaga nisbatan yuqori darajada qaytarilgan gemoglobin aniqlanadi. Periferik tsianozning sabablari yurakning xar xil kasalliklari oqibatida qon aylanishining buzilishi bo'lishi mumkin. Aralash turdagi tsianozda ikkita sababchi kasalliklar bir vaqtda uchraydi. Yurak kasalliklarida tsianoz ko'pincha aralash xarakterli bo'lada.

Shuningdek, tsianoz mahalliy ham bo'lishi mumkin. U qo'l va oyoqlarning tromboflebitlarida kuzatilib bu tomirlarda venoz oqimning qiyinlashuvi bilan bog'liq bo'ladi. Mahalliy tsianoz kattalashgan limfa tugunlari yoki chandiqlar tufayli venalarning bosilishidan

paydo bo'lishi mumkin. Ba'zida mahalliy sianoz alohida ko'k dog'larni qorin devorida ko'rinishi holda o'tkir pankreatitlarda kuzatiladi.

Oqarish. Mitral nuqsonlarda tsianoz(ko'karish) kuzatilsa teri qoplamlari va shilliq qavatlarining oqarishi odatda aortal yurak nuqsonlarida uchraydi. Asosan ifodalangan oqarish aorta og'zi stenozida, qorincha sistolasi paytida tomirlarni qonga kam to'lishida hamda diastola payti ularni reflektor spazmida kuzatiladi.

Teri qoplamlarining oqarishi aorta klapanlarining yetishmovchiligida diastola paytida prekapilyarning yetarlicha bo'lmagan holda qonga tushishi natijasida yuzaga kelishi oqibatida kuzatiladi.

Yaqqol oqarish endokarditlarda og'ir qaytalama va cho'ziluvchan septik endokardit natijasida eritrotsitlarning gemolizga uchrashi tufayli anemiya yuzaga keladi. Terining oqarishiga yana bir sabab kollapsdir.

Teri qoplamlarining va shilliq qavatlarining sarg'ish rang-ga kirishi mitral paroklarning yaqqol ifodalangan dekompen-satsiya davrida, hamda yurakning o'ng qorincha yetishmovchiligi bilan kelgan boshqa kasalliklarida ko'z shox pardasining va teri qoplamlarining yengil sarg'ayishi (ikterikligi) aniqlanadi. Bunday hollarda yengil sarg'ayishlarning paydo bo'lishi jigardagi dimlanishining mavjudligi bilan bog'liq bo'lib, rivojlanayotgan sirrotik jarayonlar (kardial jigar serrozi) dan darak beradi.

Cho'ziluvchan septik endokarditlarda teri qoplamlarining oqarishi bilan ularning yengil darajada sarg'ayishi kuzatiladi. Terining bunday tusga kirishi "kofe bilan sut" ("caffé au lait") deyiladi. Yurak kasalliklarida teri va shilliq qavatlar rangining o'zgarishi bilan birgalikda petixial, gemorragik toshmalarni bemorning terisi va shohpardada kuzatish (Lukin simptomi) mumkin. Bu simptom cho'ziluvchan septik endokarditlar uchun xarakterli bo'ladi.

Teri osti qavati. Uzoq muddat qon aylanishining buzilishida, asosan klapan nuqsoni bor bemorlarda birdaniga ozish bilan birgalikda shishlar kuzatiladi. Ushbu holatdagi qon aylanishining buzilishini bunday ko'rinishi yurak nuqsonining kaxektik bosqichi deyiladi. Bunga qarama – qarshi bo'lgan ho-lat yurakni yog' bosishi qon aylanishini buzilishiga olib keladi .

Shishlar (oedema). Yurak kasalligiga chalingan bemor-larda shishlar yurak yetishmovchiligining belgisi sanaladi, eng asosiysi o'ng qorinchalar yetishmovchiligida unda venoz bosimni ortishi tufayli qonni harakati sekinlashishi va kapilyarlar o'tkazuvchanligining ortishi oqibatida to'qimaga suyuqlikni transudatsiyasi kuchayadi. Yurak shishlarining rivojlanishini asosiy sababi kapilyarlardagi gidrostatik va onkotik bosimning o'zaro muvofiqligini buzilishi hisoblanadi. Ma'lumki gidrostatik bosim onkotik bosimdan yuqori bo'lsa, qonning suyuq qismini atrof to'qimalarga transudatsiyasi va buni teskarisi ro'y beradi. Bu quyidagilarda ko'rinadi. Me'yorda kapilyarning arterial oyoqchasida gidrostatik bosim 400 – 450 mm suv ustun bo'lib plazmaning onkotik bosimidan oshadi, u yerda bosim 350 mm suv ustuniga teng bo'ladi. Bu me'yorda qondagi suyuqlikni to'qimaga o'tishiga imkon beradi. Kapilyarning venoz oyoqchasida gidrostatik bosim normada yuqoridagiga teskaricha, plazmadagi onkotik bosim taxminan 170 mm suv ustuni bo'lib, suyuqlikni to'qimadan qayta qonga transudatsiyasiga o'tishiga olib keladi. Bu sharoit normada suyuqlikni qondan to'qimaga transudatsiyasini muvofiqlashtiradi va to'qimadan qayta qonga o'tishiga olib keladi. O'ng qorincha yetishmovchiligida asosan mitral nuqsonlarda, uch tabaqali klapan yetishmovchiligida, o'pka yurak yetishmovchiligida aterosklerotik kardiosklerozda va yurakning boshqa kasalliklarida katta qon aylanish doirasi venalaridan o'ng qorinchaga qonni kelishi qiyinlashadi, venalarda va kapilyarlarda gidrostatik bosimni oshishiga olib keladi. Buning oqibatida kapilyarlarning arterial oyoqchalaridan to'qimalarga suyuqlikni kelishi ortadi va to'qimadan venoz kapilyarga qaytadigan suyuqlikni oqishi sekinlashadi. Bu to'qimada suyuqlikning to'planishiga, shish hosil bo'lishiga olib keladi. Kapilyar venoz oyoqchasining kengayishi, undagi

qon harakatining sekinlashuvi, uni devorini oziqlanishini buzilishiga, uni o'tkazuvchanligini ortishiga va shishni rivojlanishiga olib keladi.

Shishlarning paydo bo'lishiga buyrakka qon kelishining pasayishi tufayli ayiruv funksiyasining buzilishi ham zamin hoziraydi. To'qimada almashinuvni buzilishi chala oksidlangan mahsulotlarning va natriy xloridning to'qimalarda suyuqlikni saqlab qolinishiga olib keladi. Oqibatda, qon onkotik bosimni pasayishi yurak nuqsonlarini kaxektik bosqichida uchraydi va shishlarning rivojlanishida ma'lum rol o'ynaydi. Yurak kasalliklarida bemorlarda shishlarning paydo bo'lishi gidrostatika qonunlariga bo'ysunadi, buyrak shishlaridan farq qilib uzoq va pastga joylashgan bo'ladi, boshida tovonda asosan kechqurun ko'p yurganda paydo bo'ladi, dam olgandan so'ng ertalab ketadi. Keyinchalik shishlar ko'payadi va tizza, son, bel, jinsiy a'zolar, qorinda(ascites) plevra bo'shlig'ida (hydrothorax), perikardda (hydrothorax) kuzatiladi. Tarqoq, ko'p miqdordagi shishlar anasarka (anasarca) deb nomlanadi.

Ta'kidlash lozimki, yurak shishlari og'irlik kuchi ta'siri natijasida o'rnini o'zgartirishi mumkin – chalqancha yotganda ular dumg'aza sohaga yo'naladi, yonbosh yotganda yotqizilgan tomonga yo'naladi. Yurak shishlari buyrak shishlaridan farqli bo'lib, unda teri qoplamlari ko'kimtir rangda bo'ladi. Teri osti qavatlariga suyuqlik to'planishi bilan parenximatov a'zolarda, jigarda, buyrakda, oshqozon – ichaklarda sezilarli shish paydo bo'ladi.

Ba'zi bir kasalliklarda – qo'l va oyoqlarning trombo-flebitlarida, tomirlarni kattalashgan limfa tugunlari bilan siqili-shida, mahalliy qon aylanishini buzilishi rivojlanadi va mahalliy chegaralangan shishni paydo qiladi. Eksudativ va yopi-shuvchan perikarditda yuqori kovak venani ko'ks oralig'idagi o'smasi bilan siqilishida yuzda va bo'yinda keskin ifodalangan shishlar rivojlanadi bu stoks yoqasi deyiladi.

Shishlarni ko'zdan kechirib, keyin palpatsiya yordamida katta barmoq bilan tovon sohaga os tibiani ichki yuzasiga, dumg'azaga va tananing boshqa qismlariga bosib aniqlanadi. Bosilganda chuqurcha hosil bo'ladi, keyinchalik sekinlik bilan silliqiladi. Shishlar bo'lsa teri yaltirab ko'rinadi, boshida yumshoq, uzoq muddatdagi shishlarda qattiqlashadi, qiyinchilik bilan bosiladi. Katta shishlarda ba'zan pufaklar paydo bo'ladi, yorilib ichidan suyuqlik chiqadi. Qorinning teri osti kletkachasini keskin shishlari yorilib undan chandiqlik hosil bo'ladi, xuddi homiladorlikdan keyingi chandiqlik (striae gra-vidarum) ga o'xshaydi.

Shishning kamayishi yoki ko'payishini aniqlash uchun diurezni aniqlash va bemorni tarozida o'lchash tizimli ravishda bajariladi. "Nog'ora tayoqchalari" belgilarini topilishi tug'ma yurak nuqsonlari va cho'ziluvchan septik endokarditdan darak beradi.

Yurak sohasini va periferik tomirlarni ko'zdan kechirish.

Tug'ma va orttirilgan yurak nuqsonlariga chalingan bemorlarni ko'zdan kechirganda ko'krak qafasini yurak sohasini bo'rtib chiqqanligini yurak bukriligi aniqlanadi. Bunday bo'rtib chiqqish perikarditda ko'p miqdorda eksudat to'planishi natijasida ham paydo bo'ladi (eksudativ perikarditda) ko'krak qafasining deformatsiyasi aortani anevrizmida uni to'shni birikkan qismiga va qovurg'ani to'qay qismiga doimiy bosim ta'siri natijasida rivojlanadi. Bunda ko'krak qafasining mahalliy bo'rtishi uni bu sohada bir vaqtda pulsatsiyasi bilan birgalikda ko'rinadi. Ko'krak qafasining kifoskoliozi va uning deformatsiyaga uchrashi kichik qon aylanish doirasida qon aylanishi uchun normal bo'lmagan sharoitni hosil qiladi, kifoskolyotik yurakni rivojlanishiga olib keladi. Sog'lom kishilarda yurak sohani ko'zdan kechirish o'rtacha rivojlangan teri osti qavati bo'lganda, yurak cho'qqisi sohada ko'krakni oldingi devorida aniq ritmik pulsatsiyasi ko'rinadi, bu yurak turtkisi deb nomlanadi. Yurak uchi turtkisi normada V qovurg'a oraliqida chap o'rta o'mrov chizig'idan 1-2 sm ichkarida joylashadi, ba'zan ko'zga tashlanadi.

Ozg'in kishilarda qovurg'alar aro oraliq keng bo'lganda yurak uchi turtkisi yaqqol ko'rinadi. Semiz kishilarda, qovurg'alararo oraliq tor bo'lganda u ko'zga tashlanmaydi. Tashxis qo'yishda

asosan cho'qqi turtkisini tashqi tomonga siljishi muhim. U chap qorinchaning dilyatatsiyasida, asosan aortal nuqsonlarda va gipertoniya kasalligida uchraydi. Cho'qqi turtkisini tashqi tomonga siljishi mitral klapan yetishmovchiligida, kardiosklerozda va o'ng qorinchani kengayishida chap qorinchani chapga siljitadi. Cho'qqi turtkisi eksudativ plevrit, pnevmotoraks va gidrotoraksda ham siljiydi.

Yurak sohasini ko'zdan kechirishda ba'zan aniq ifodalangan tarqoq pulsatsiya ko'rinadi. U ko'pchilik holatlarda yurakni sezilarli kengayishlarida o'ng qorinchani katta yuzasi ko'krak devoriga bevosita yotganida (yurak turtkisi) kuza-tiladi. Bunday tarqoq yurak sohadagi pulsatsiya orqa ko'ks oralig'i o'smasida va boshqa kasalliklarda yurakni biror sabab bilan oldinga siljishida kuzatiladi.

Yurak xastaliklariga chalingan bemorlarni tashqi tomondan ko'zdan kechirishda diqqatni bo'yin, qo'l – oyoqlar va periferik tomirlarga qaratiladi, bunda tashxis uchun ahamiyatga ega simptomlar topiladi. Qalqonsimon bezni o'lchamini kattalashishi bo'yinni ko'zdan kechirishda aniq-lanadi, bu usul bemorlarda taxikardiya, aritmiya va yurakni kengayishidan darak beradi. Bo'yin sohani ko'zdan kechirishda uyqu arteriyasini yaqqol pulsatsiyasi aniqlanadi. Bu simptom "korotid o'yini" nomini olgan bo'lib, aortal klapan yetishmovchiligidan darak beradi, u maksimal va minimal arterial bosim o'rtasida keskin tebranishni bildiradi. Bu simptom ba'zan Bazedov kasalligida keskin ifodalangan taxikardiya va gipertoniya uchraydi.

Aorta klapani yetishmovchiligida o'ziga xos fenomen belgini boshni chayqalishi (Myusse simptomi) ni ko'rinadi u uyqu arteriyasini keskin pulsatsiyasi va maksimal va minimal bosimni keskin pasayishi natijasida yuzaga keladi.

«Karotid o'yini» simptomi klapan yetishmovchiligida odatda periferik tomirlarni (art. Subclavia, brachialis, radialis va boshqalar) pulsatsiyasi bilan birgalikda keladi. Hamma tomirlarni bunday keskin pulsatsiyasi Homopulsan deb nom-lanadi. Bo'yinda uyqu venalarining pulsatsiyasi va bo'rtib chiqishi o'ng bo'lmachaga venoz qonni quyilishini qiyinlashishi oqibatida yuzaga keladi.

Normada sog'lom kishilarda yotgan vaziyatda venalarning bo'rtib chiqishi ko'rinishi mumkin, lekin bu vertikal (tik) vaziyatda to'liq bartaraf bo'ladi. Agarda bunday vaziyatda venani bo'rtib chiqishi kuzatilsa unda o'ng qorincha yetishmovchiligini shubha qilish mumkin, asosan eksudativ plevrit o'pka emfizemasi, pnevmotoraks va b. xastaliklar natijasida rivojlanadi. Bo'yin va qo'l venalarining keskin kengayishi bilan bir vaqtda bo'yinda va qo'lda shish bo'lishi (Stoks yoqasi) yuqori kovak venani o'sma yoki aorta anevrizmasi bilan bosilishi, yoki yuqori kovak vena trombozi tufayli yuz beradi.

To'shni pastki qismida va qorin oldingi devorida venalar-ning kengayishi ko'ks oralig'i o'smalari natijasida chuqur venalarning bosilishi oqibatida yuzaga keladi. Uyqu venalarining pulsatsiyasini qorinchalar sistolasi bilan birga kelishi (musbat vena pulsi deb nomlanadi) uch tabaqali klapani yetishmovchiligini xarakterli belgisi hisoblanadi. Bunday hollarda venani barmoq bilan bosilganda uni pastida pulsatsiya aniqlanadi. To'liq yopilmagan o'ng atrioventrikulyar teshikni qorinchalar sistolasi davrida qonni retrograd harakati natijasida yuzaga keladi. Ko'krak qafasini ko'zdan kechirganda qovurg'alararo arteriyani kengayishini va pulsatsiyasini aorta bo'yining torayishi oqibatida (stenosis ustus aortae) yuzaga keladi.

Epigastral sohada pulsatsiya bo'lishi kengaygan va gipertrofiyalangan o'ng qorincha yoki qorin aortasini pulsatsiyasi tufayli yuzaga keladi. Qo'l venalarining kengayishi sog'lom kishilarda uchraydi, biro qo'lni yuqoriga ko'tarilganda u ketadi, venoz qonni o'ng bo'lmachaga kelishi qiyinlashgan holda (o'ng qorincha yetishmovchiligida) venaning bunday bo'shshishi kuzatilmaydi.

Bu katta qon aylanish doirasida venoz bosimning oshganidan dalolat beradi. Oyoqlarda ba'zan venalarning varikoz kegayishi asosan ko'p tug'gan ayollarda ko'pincha aniqlanadi. Tromboflebit ko'p holda mahalliy shish ba'zan esa pig-mentatsiya va trofik yara bilan birga keladi.

Qo'l – oyoqlarni ko'zdan kechirganda yurak xastaliklarida barmoqlarni “nog'ora tayoqchalari ” ko'rinishida o'zgarishi aniqlanadi . Bu belgi qo'l barmoqlarida yaxshi aniqlanadi , biroq buni oyoq barmoqlarida ham aniqlash mumkin. U tug'ma yurak nuqsonlarida uchraydi, shuningdek septik endo-karditda, o'pka yurak yetishmovchiligida (agar uni sabablari bronxoektaz kasalligi yoki o'pkani yiringli kasalligi bo'lsa) uchraydi .

Yurakni fizikal baholash

Klinika sharoitida bemorni chalqancha yotganda yurakni eshitish qiyinlashganda chap yonboshga aylantirib, o'tirgan holatda esa oldinga biroz egiltirib eshitish lozim. Ikkala holda yurak tonlari yaxshi eshitiladi, chunki yurak ko'krak devoriga yaqin kelib yaxshi eshitiladi. Yurak tonlari qiyin eshitilsa “distant” (alohida) ton deyiladi, yengil eshitiladigan yurak tonlari “aniq” ton deyiladi. Ko'pincha yog' bosgan yoki ko'krak qafasi enfizematoz bo'lgan bemorlarda yurak tonlarini eshitish qiyinlashadi. Birinchi navbatda yurak chastotasi, ritmi va yurak qisqarishini jadalligini baholanadi. Ko'pchilik tibbiyot muassasalarida hamma yurak glikozidlari qabul qilgan bemorlarda dorini qabul qilgunga qadar apikal puls aniqlanadi, yurak qisqarishlar sonini aniq belgilashda buni doriga bo'ladigan javob reaksiyasini tahlil qilishda muhim .

Istalgan yurak qisqarishini ritmini maromini buzilishini (regulyar vaqt oralig'ida bo'ladigan M: yurak urishini har 3 - qisqarishi) aniqlash lozim..

Shuningdek xohlagan regulyar bo'lmagan yurak ritmining buzilishi (m: o'tkazib yuborilgan yoki ba'zan o'tqazilgan yoki navbatdan oldingi yurak urishi) baholanadi. Yurak qisqarishlarini belgilanadi. Hamshira I va II ton (S1 , S2) ni farqlay olishi lozim. Buni bajarish normal va sekin yurak ritmida muhim. Yurak tonlari yurak klapanlarini yopilishida hosil bo'ladi. Sistola I va II ton o'rtasida , diastola II va I ton o'rtasida hosil bo'ladi. I ton 5 – qovurg'a oralig'ida o'rta o'mrov chizig'idan ichkarida (yurak cho'qqisida), II ton 2 – qovurg'a oralig'ida to'shdan o'ng tomonda (yurak asosida) eshitiladi. Yurak cho'qqisida tonlarni stetoskopni boshcha qismi yordamida, yurak asosida esa tonlar fonendoskopni diafragmasi yordamida aniq eshitiladi. Ikkala variantni ham bajarish lozim, chunki aniq hollarda tonlarni yaxshi eshitilishi lozim. Agar siz yurak tonlarini farqlay olmasangiz, uyqu arteriyasida pulsni aniqlang, uyqu arteriyasidagi puls I ton bilan mos keladi .

Yurakni fizikal baholashning muolajasi .

1. Yurakni fizikal baholash yurak patologiyasini aniqlashda pulsni tez – tez yoki maromini buzilishida muhim.

2. Baholash uchun stetoskopni tayyorlanadi. Eshitish u-chun quloqqa qo'yiladigan qismlarini spirt bilan artiladi, chun-ki gigiyenik qoidalarga amal qilinishi lozim.

3. Bemorga tushuntiriladi, nima qilinishi to'g'risida aytiladi, muolaja paytida gapirmasligi so'raladi. Tekshirish paytida tinchlikni ta'minlanadi televizorni o'chiriladi, eshikni yopiladi .

4. Bemordan o'tirishini so'raladi (agar iloji bo'lsa) .

5. Bemordan yuza kiyimlarini yoki pijamani yechishini so'raladi.

6. Yurak auskultatsiyasi o'tkaziladi. Yurak tonlarini eshi-tishning aniq tizimiga amal qilinadi. Yurakni auskultatsiya qilishning tarqalgan ketma – ketligiga amal qilinadi:

Stetoskopni diafragmasini qo'lda isitiladi. Diafragmani II qovurg'a oralig'iga to'shning o'ng qirrasiga (aortal klapan proektsiyasiga) qo'yiladi, keyin diafragmani II yoki III qovurg'a oralig'iga to'shni chap qirrasiga siljtiladi (o'pka arteriyasi klapani proektsiyasi). Keyin V–qovurg'a oralig'ida to'shni chap qirrasiga (3 tabaqali klapan proektsiyasi), keyin V – qovurg'a oralg'ida chap o'rta o'mrov chizig'idan ichkari (mitral klapan sohasi)ga qo'yiladi. Yurakni I va II tonlari (S1 , S2) normada bolalar va kattalarda eshitiladi. I ton mitral qopqoq sohasida “Lab” tovushiga o'xshab “lab dab” birgalikda kelgan tovushlarning bir qismi bo'lib, yurak auskultatsiyasida eshitiladi. II ton “dap” aortal klapani sohasida eshitiladi. III va IV ton (S3 va S4)

kattalarda patologik, bolalar va yoshlarda norma hisoblanadi (odatda mitral va aortal qopqoqlar sohasida yaxshi eshitiladi).

Yurakni paypaslash texnikasi (palpatio)

Yurak choʻqqisi sohasi va yurak turtkisini paypaslash. Choʻqqi turtkisini aniqlash uchun chap qorinchani faoliyati toʻgʻrisida ma'lumotga erishishda tekshiruvchi oʻng qoʻlini kaftini shunday joylashtirishi lozimki bunda barmoqlar choʻqqi turtkisi usti sohasini yopishi lozim.

Shundan soʻng choʻqqi turtkisi toʻgʻrisida umumiy tasav-vur hosil qilinib, uning xususiyatlarini chuqur oʻrganish kerak.

Palpatsiya yordamida choʻqqi turtkisini aniq lokalizatsiyasini, kengligini, maydonini, kuchini va kattaligini aniqlash lozim. Buning uchun choʻqqi turtqisini aniqlashda oʻrta barmoqni choʻqqi turtqisi sohasiga qoʻyiladi, uning aniq lokalizatsiyasi belgilanadi. Normada u V – qovurgʻa oraligʻida oʻrta oʻmrov chizigʻidan 1 - 2 sm ichkarida joylashadi. Chap yonboshga yotganda choʻqqi zarbi 2 sm chapga siljiydi, oʻng tomonga yotqizilganda esa sezilarli siljmaydi. Choʻqqi zarbini siljishi yurakka bogʻliq boʻlmagan sabablardan (diafragmaning turish balandligiga, koʻkrak boʻshligʻi bosimining oʻzgarishiga, oʻpkani bujmayish jarayoniga) iborat boʻladi.

Diafragmaning yuqori turishi qorin boʻshligʻini bosimi ortishi (astsit, meteorizm, yogʻ bosishi, homiladorlik va b.) da uchraydi, bunda yurak gorizontol vaziyatni egallaydi, yurak turtkisi yuqoriga va tashqariga (chapga) siljiydi. Diafragmani pastga joylashishi (qorin bosimini pasayishi, oʻpka emfizemasi, astenik tipdagi gavda tuzilishi va b.) yurakni vertikal joylashishiga va choʻqqi turtqisini pastga va ichkariga (oʻngga) siljishiga olib keladi.

Plevra boʻshliqlarida bosimning ortishi (eksudatli plevrit, bir tomonlama gidrotoraks, gematoraks, pnevmotoraks) yurakni qarshi tomonga siljitadi, oqibatda choʻqqi turtqisi ham siljiydi.

Oʻpkada biriktiruvchi toʻgʻima oʻsib bujmayganida obturatsion atelektaz rivojlanib (bronxogen oʻpka raki, yot jism) choʻqqi turtqisi zararlangan tomonga qarab siljiydi.

Yurak kasalliklarida chap qorinchani kengayishi va gipertrofiyasida (aortal qopqoq nuqsonlarda, mitral qopqoq nuqson-larida, aterosklerotik kardiosklerozda katta qon aylanish doirasida bosim ortganda va b.) turtki zarbi chapga siljiydi, aorta qopqoq yetishmovchiligida esa turtki zarbi chapga va pastga siljiydi.

Tugʻma anomaliyalarda – ichki a'zolarining teskari joylash-ishida (situs viscerum inversis) yurak koʻkrakni koʻproq oʻng qismida joylashadi, choʻqqi turtkisi ham shu tomonga siljiydi.

Shuni alohida ta'kidlash mumkinki, yaqqol ifodalangan eksudatli perikarditda choʻqqi turtkisi koʻpincha paypaslanmaydi yoki yurakni chap nisbiy chegarasiga mos kelmaydi va undan ichkarida paypaslanadi. Choʻqqi turtkisi chap plevra boʻshligʻida koʻp suyuqlik toʻplanganida (eksudativ plevritda, chap tomonlama gidrotoraks, gemotoraksda) paypaslanmaydi. Normada choʻqqi turtkisini kengligi (maydoni) 2 sm kvadratni tashkil qiladi. Agar maydon kengligi kichraysa, turtki chegaralangan, katta boʻlsa – tarqoq deyiladi. Chegaralangan turtki boʻlishida yurak koʻkrak devoriga normaga nisbatan kichik yuzasi bilan yotadi. Patologik holatlarda bu koʻpincha oʻpka emfizemasida, oʻpka yurakni koʻp qismini qoplaganida va uni koʻkrak devoridan siljitganida kuzatiladi. Tarqoq turtki buning teskarisi, yurakni katta yuzasi bilan koʻkrak devoriga yotganida, yurakni kengayishlarida, agar yurak kasalliklari inkor qilinsa yurakdan tashqari sabablar (oʻpkani bujmayishi, diafragmaning baland turishi, orqa koʻks oraliqini oʻsmasi) tufayli aniqlanadi.

Choʻqqi turtqisini kattaligi va balandligi choʻqqi terisini sohasidagi tebranish amplitudasi bilan xarakterlanadi. Baland va past choʻqqi zarbi farqlanadi. Qoidaga binoan yurakni katta sathini koʻkrak qafasini devoriga tegib turishida (sabablari yuqorida koʻrsatilgan) shuningdek yurakni tez qisqarishlarida choʻqqi turtqisi yuqorida joylashadi, agar yurak orqa tomonga siljigan boʻlsa, shuningdek boshqa sharoitlar (yogʻ bosish, mushaklar yaxshi taraqqiy qilgan paytda) choʻqqi turtqisini balandligi pasayadi. Bundan kelib chiqadiki, tarqoq va yuqori choʻqqi turtqisi yurakni

kengayishi (yurakdan tashqari sabablar inkor qilinishi)dan dalolat beradi. Kuchli yurak turtqisi natijasida yurak sohasi bo'rtib chiqadi, cho'qqi turtqisining kuchayishi odatda chap qorincha gipertrofiyasi va uni qisqarish kuchini ortishi bilan bog'liq.

Aorta qopqoqlari yetishmovchiligida chap qorinchaning gipertrofiyasi va kuchli "ko'tarilgan" "gumbazsimon" cho'qqi turtqisi aniqlanadi.

Perikardni ko'krak qafasini old devori bilan bitishib ketishida qorinchalar sistolasi paytida ko'krak devorini ko'taril-masdan, ichkariga tortilishini ko'rinadi. Cho'qqi turtqisini bun-day ko'rinishi manfiy cho'qqi turtqisi deb nomlanadi.

Cho'qqi turtkisidan tashqari yurakni o'ng qorinchasini faoliyatini belgilovchi yurak turtkisiga ahamiyat berish lozim. Sog'lom kishilarda u ko'zga tashlanmaydi. O'ng qorinchani gipertrofiyasi va dilyatatsiyasida yurakni absolyut to'mtoqlik chegarasi sohasida yaqqol ifodalangan pulsatsiyani ko'z bilan ko'rish yoki paypaslab sezish mumkin.

"Mushuk xirillashi" simptomini aniqlash. Palpatsiya yordamida "mushuk xirillashi" (fremissement cataire) simp-tomini aniqlash muhim diagnostik ahamiyat kasb etadi. Bu simptom frantsuz klinitstlari tomonidan yozilgan. Nom berilishida xirillayotgan mushukni paypaslaganda paydo bo'ladigan sezgiga o'xshash sezgi his qilinganligiga asoslangan. Bu simptom kam sistola, kam diastola davrida sezilishi mumkin, bunda yurakda past tovushlar (sekundiga 16 tebranish atrofida) hosil bo'ladi. Uni aniqlash uchun qo'lni yurakni qamma eshitish nuqtalari soqasiga qo'yiladi. Bu simp-tomni yurak cho'qqisida diastola davrida, ko'pincha uni oxirida aniqlansa "presistolik mushuk xirillashi" deyiladi, u mitral stenoz uchun xos bo'ladi, aorta ustida sistola paytida bo'lsa – aorta og'zi stenoz, o'pka arteriyasi ustida bo'lsa – o'pka arteriyasi stenoz yoki Botallov yo'lining bitmasligidan bo'ladi.

Baholash mezonlari №10

Mavzuning nomi	Ball	Baho	Talabning bilim darajasi
Plevra bo'shlig'ida havo va suyuqlik to'planish sindromi. Quruq va ekssudativ plevrit bilan bemorlarni tekshirish.	86-100	A'lo	Xulosa va qaror qabul qila oladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, amalda qo'llay oladi, mohiyatini tushuntiradi, biladi, aytib bera oladi, tasavvurga ega.
Gidrotoraks, pnevmotoraks simptomatologiyasi.	71-85	Yaxshi	Mustaqil mushohada yuritadi, amalda qo'llay oladi, mohiyatini tushuntiradi, biladi, aytib bera oladi, tasavvurga ega.
Pnevmtoraks turlari (ochiq, berk, qopqoqli). O'pkada bo'shliq sindromi. O'pka abstsessi, bronxoektaz kasalligi bilan bemorlarni tekshirish. Bemorlar kuratsiyasi. Tibbiy bayonnoma yozish.	55-70	Qoni qarli	Mohiyatini tushuntiradi, biladi, aytib bera oladi, tasavvurga ega.
	0-54	Qoni qarsiz	Tasavvurga ega emas, bilmaydi.

Uyga vazifa 11, mustaqil ish

Amaliy mashg'ulot №11

Yurak perkussiyasi. Sog'lom odamda va patologiyada yurakni nisbiy bo'g'qlik chegarasini aniqlash. Sog'lom odamda va nafas organlari, yurak, qon-tomir patologiyasida yurak mut-loq bo'g'qlik chegarasini aniqlash. Yurak konfiguratsiyasi, rentgenogramma taxlil qilish. Diagnostik ahamiyati.

1. Amaliy mashg'ulot o'qitish moduli.

Mashg'ulot vaqti – 4 soat	Studentlar soni: 10 dan 12 gacha
Mashg'ulot formasi	Amaliy mashg'ulot
Amaliy mashg'ulot rejasi	Yurak perkussiyasi. Sog'lom odamda va patologiyada yurak-ni nisbiy bo'g'qlik chegarasini aniqlash. Sog'lom odamda va nafas organlari, yurak, qon-tomir patologiyasida yurak mut-loq bo'g'qlik chegarasini aniqlash. Yurak konfiguratsiyasi, rentgenogramma taxlil qilish. Diagnostik ahamiyati.
Amaliy mashg'ulot maqsadi:	Sog'lom odamda va nafas organlari, yurak, qon-tomir patologiyasida yurak nisbiy va mutloq bo'g'qlik chegarasini aniqlash
O'qitish uslubi	So'rov. Bemorlarni dmonstratsiya qilish, interaktiv o'qitish uslubi, amaliy ko'nikma.
O'qitish formasi	Kichik podgruppalrida.
O'qitish jihozlari	O'quv qo'llanma, amaliy mashg'ulotlar mundariyasi, proektor, kompyuter.
O'qitish holati	Metodik jihozlangan auditoriya.
Monitoring va baholash	Og'zaki kontrol: savol-javob, testlar, muammoli masala.

1.2. Amaliy mashg'ulot texnologik kartasi

Ish bosqichlari va vaqti.	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorlov bosqichi	25. Auditoriya tozaligini nazorat qiladi 26. Talabalarni mashg'ulotga tayyorgarligini tekshiradi 27. Davomatni nazorat qiladi	
1.O'quv mashg'ulotiga kirish bosqichi (10 daqiqa)	1.Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash. 2.Kirish ma'ruzasi uchun taqdimot silaydalarini tayyorlash 3. Fanni o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini ishlab chiqish	
2– asosiy bosqich (160 daqiqa)	1. Talabalarni kichik guruhlariga bo'lib, mavzu bo'yicha savollarni beradi. 2. Ko'rgazmali plakatlardan foydalanadi 3. Slaydalar, multimedialardan foydalanadi 4. Davolash ishlarini olib boradi 5. Mavzular asosida berilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi, faol ishtirokchi	Kichik guruhlariga bo'linadilar Tomosha qiladilar qatnashadilar Tinglaydilar va savollarga javob

	talabalarni rag'batlantiradi va umumiy baholaydi	beradilar
1-yakuniy bosqich (10 daqiqa)	1. Yakunlovchi xulosa qiladi 2. Mustaqil ish beradi 3. Uyga vazifa beradi	Tinglaydi Yozib oladi Yozib oladi

3. Talabalarning nazariy bilimlarini baholash:

A) Frontal usuli:

1. YUrak perkussiyasining metodikasini aytib bering
2. Nisbiy to'mtoqlik chegaralarini aniqlashni aytib bering
3. Absolyut to'mtoqlik chegaralarini aniqlash texnikasi
4. Qaysi hollarda Yurak chegarasi chapga siljiydi
5. Qaysi hollarda Yurak chegarasi o'nga siljiydi
6. Qaysi patologiyada Yurak chegarasi Yuqoriga va chapga siljiydi
7. "Socha BOVIN"ning qaysi patologi hollarda kuzatiladi
8. YUrak konfiguratsiyasini aniqlab bering
9. YUrak konfiguratsiyasini aniqlashning diagnostik ahamiyati va patologiyada o'zgarishi
10. Tomir tutami dastasini aniqlab bering
11. Tomir tutami dastasini aniqlashning diagnostik ahamiyati
12. YUrak rengenogrammasida nimalar tahlil qilinadi
13. Rentgenogrammada chap qorincha gipertrofiyasi belgilari
14. Mitral va aortal konfiguratsiyaning rentgenogramma belgilari

"Qor parchalari" usuli

Talabalar ikki guruhi bir muammo yoki vaziyatli masala yechimi ustida, ko'proq to'g'ri javob topish maqsadida, bahs olib boradilar. Masalan, o'tkir xolesistit belgilari, yoki qorinda og'riq sindromi bilan kechuvchi kasalliklar differensial diagnostikasi. Har bir to'g'ri javob, bir ball bilan baholanadi va shu guruhga bitta qor parchasi beriladi. Eng ko'p qor parchalar yig'gan guruh a'zolari a'lo baholar bilan baholanadi.

Yurak perkussiyasi (percussion)

Yurak perkussiyasi uning kattaligini, konfiguratsiyasini, vaziyatini va tomir tutamini o'lchamini aniqlash uchun o'tkaziladi.

Perkussiyani printsipi. Yurakni atrofidagi to'qima o'pka perkussiyasida baland tovush berishiga, yurak zich mushakli a'zo bo'lganligi uchun - past to'mtoq tovush berishiga asoslanadi. Tovushlarning bunday farqlanishi yurak chegara-larini perkussiya yordamida aniqlashga imkon beradi.

Ma'lumki yurakni old yuzasi qisman o'pka bilan qoplangan, faqat katta bo'lmagan qismigina ko'krak devoriga bevosita tegib turadi. Tabiiyki yurakning o'pka bilan qoplanmagan qismigina perkussiya qilinganda absolyut to'mtoq tovushni beradi. Uni chegarasini aniqlash "yurak absolyut chegarasini" aniqlash nomini olgan. Yurakni o'pkaning to'mtoqlik qirralari bilan qoplangan qismini perkussiya qilinganda to'mtoq tovush emas, to'mtoqlashgan perkutor tovush yoki "yurakni nisbiy to'mtoq" tovushi aniqlanadi.

Yurakning nisbiy to'mtoqlik chegarasini perkussiya yordamida aniqlash, uning haqiqiy o'lchamini va ko'krak qafasidagi proektsiyasini belgilaydi. Absolyut to'mtoqlik chegarasini aniqlash esa faqat yurakni o'pka bilan qoplanmagan qismi va o'ng qorinchani holati to'grisida tasavvur qilishga imkon beradi.

Yurak perkussiyasida quyidagi qoidalarga amal qilish lozim:

- Bemorning vaziyatiga; Yurak perkussiyasini o'tkazi-layotgan paytda bemor vertikal holatda qo'lini pastga tushirgan holatda bo'lishi kerak, og'ir ahvoldagi bemorlarda gorizontol vaziyatda bajariladi. Bunda ta'kidlash lozimki, vertikal vaziyatda yurakning o'lchamlari gorizontol

vazi-yatdagiga nisbatan biroz kichik (taxminan 15 – 20 % ga) aniqlanadi. Chunki, bunda diafragma ko'tarilgan bo'ladi. Yurak to'mtoq-ligining o'lchamlariga yurakka tegib turgan o'pkaning qirralarini holati ta'sir qilishi mumkin, shuning uchun yurak perkussiyasini o'tkazishda bemordan odatdagidek yuzaki nafas olish so'raladi. Hamshira yurak perkussiyasini o'tkazayotgan paytda ko'krak qafasiga plessimetr barmoqni qo'yish hamda perkutor zarbni berish uchun qulay vaziyatda turishi lozim.

Bevosita va vositali perkussiya. Yurakni perkussiya qilish-da perkutor zarba barmoq orqali barmoqqa uriladi. Yurak chegaralarini Obrastsov, Yanovskiy usullarida qam aniqlash mumkin.

Plessimetr barmoqning vaziyati. Yurak perkussiyasida plessimetr barmoqni ko'krak qafasi devoriga zich qo'yiladi. Bunda kutilayotgan chegaraga barmokni parallel qo'yish lozim.

Perkutor zarbaning kuchi. Perkutor zarbaning kuchi tekshiruvchining o'z oldiga qo'ygan maqsadiga qarab belgilanadi. Yurakni nisbiy to'mtoqlik chegarasini aniqlash uchun o'rtacha kuch bilan zarb beriladi.

Yurak absolyut to'mtoqlik chegarasini aniqlash uchun tinch perkussiya qilinadi. Ayrim klinitsistlarni ta'kidlashicha tinch perkussiyani Pleh-Goldshayder usulida o'tkazib yurak absolyut chegarasini aniqlanadi.

Perkussiyaning yo'nalishini aniq perkutor tovushdan to'mtoq tovush hosil qilinishi tomon ya'ni o'pkadan yurakka tomon perkussiya qilinadi. Biroq ayrimlarning belgilashicha bunda perkussiyani teskari holda - absolyut to'mtoqlikdan aniq perkutor tovush tomonga, ya'ni yurakdan o'pka tomonga boriladi.

Yurak chegarasini belgilash. Yurak chegarasini belgilash o'pkaniki singari plessimetr barmoqni tashqi tarafidan belgilanadi.

Yurakni va tomir tutamini perkussiya qilish tartibi.

Yurak perkussiyasi quyidagi tartibda amalga oshiriladi: oldin yurakni o'ng, keyin chap va yuqori nisbiy chegarasi topiladi. Shundan so'ng qo'shimcha perkussiya yordamida yurak konfiguratsiyasi va o'lchamlari (sm) aniqlanadi.

Nisbiy to'mtoqlik chegari aniqlangandan so'ngra yurakni absolyut, to'mtoqlik chegarasi va tomir tutamining o'lchamlari aniqlanadi.

Yurakning nisbiy to'mtoqlik chegarasini belgilash yurak nisbiy to'mtoqlik chegarasini aniqlashdan ilgari diafragmaning turish balandligi to'g'risida tasavvurga ega bo'lish lozim. Diafragmaning baland joylashuvida yurak gorizontal vaziyatni (yotuvchi yurak deb nomlanadi) egallaydi, bunda yurakni absolyut to'mtoqlik chegarasining o'lchamlari normaga nisbatan katta bo'ladi. Diafragmaning past joylashuvida esa yurak vertikal joylashib o'lchamlari kichik bo'ladi.

Diafragmaning turish balandligini ulkani pastki chegarasiga qarab belgilash mumkin. Buning uchun plessimetr bemorning o'ng tomonidan III qovurg'a oralig'iga qovurg'aga parallel holda o'rta o'mrov chizig'idan qo'yilib pastga tomon perkussiya qilinadi, o'pkaning pastki chegarasi aniqlanadi, u qovurg'ani to'g'risida joylashadi.

Yurakning o'ng nisbiy chegarasini aniqlash o'pkani pastki chegarasini aniqlangandan so'ng plessimetr barmoqni birga qovurg'a yuqoriga (taxminan IV-qovurg'a oralig'iga) qo'yiladi, yurakni o'ng chegarasiga parallel holda qo'yilib, perkutor zarbni o'rtacha kuch bilan berilib yurak tomonga yo'naltiriladi, to perkutor tovushning o'zgarganicha boriladi, ya'ni aniq tovushdan to'mtoqlikkacha boriladi.

Qon bosimini o'lchash, uning normal kattaliklarini har xil ishdagi bemorlarda bilish qon aylanish tizimining holati to'g'risida axborot beradi.

Baholash mezonlari №11

Mavzuning nomi	Ball	Baho	Talabning bilim darajasi
Plevra bo'shlig'ida havo va suyuqlik to'planish sindromi. Quruq va eksudativ plevrit bilan bemorlarni tekshirish.	86-100	A'lo	Xulosa va qaror qabul qila oladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, amalda qo'llay oladi, mohiyatini tushuntiradi, biladi, aytib bera oladi, tasavvurga ega.
Gidrotoraks, pnevmotoraks simptomatologiyasi.	71-85	Yaxshi	Mustaqil mushohada yuritadi, amalda qo'llay oladi, mohiyatini tushuntiradi, biladi, aytib bera oladi, tasavvurga ega.
Pnevmotoraks turlari (ochiq, berk, qopqoqli). O'pkada bo'shliq sindromi. O'pka abstsessi, bronxoektaz	55-70	Qoni qarli	Mohiyatini tushuntiradi, biladi, aytib bera oladi, tasavvurga ega.
kasalligi bilan bemorlarni tekshirish. Bemorlar kuratsiyasi. Tibbiy bayonnoma yozish.	0-54	Qoni qarsiz	Tasavvurga ega emas, bilmaydi.

Uyga vazifa 12, mustaqil ish

Amaliy mashg'ulot №12

Yurak auskultatsiyasi qoidalari va eshitish nuqtalari. Yurak tonlari. Yurak qon tomir patologiyasida tonlarni o'zgarishi (kuchayishi va susayishi). Tonlarning ikkilanishi va bo'linishi. Diagnostik ahamiyati. Yurak qon tomir patologiyasida qo'shimcha tonlar.

1. Amaliy mashg'ulot o'qitish moduli.

Mashg'ulot vaqti – 4 soat	Studentlar soni: 10 dan 12 gacha
Mashg'ulot formasi	Amaliy mashg'ulot
Amaliy mashg'ulot rejasi	Yurak auskultatsiyasi: sog'lom odamda yurak tovushlarini xarakteristikasi. Yurak tonlarini eshitish nuqtalari. Tovush-larni asosiy xossalari: tembri, kuchi. Asosiy tovushlarni kuchayishi va susayishi. Yurak, qon-tomir kasalligida tovushlarni o'zgarishi: ot dupuri ritmi, bedana sayrashi ritmi, mayatniksimon ritmi, embriokardiya. Taxikardiya, bradikardiya, aritmiya.
Amaliy mashg'ulot maqsadi:	Sog'lom odamda yurak tovushlarini xarakteristikasini o'rganish Yurak tonlarini eshitish nuqtalari, asosiy tovushlarni kuchayishi va susayishi, yurak, qon-tomir kasalligida tovushlarni o'zgarishi: ot dupuri ritmi, bedana sayrashi ritmi, mayatniksimon ritmi, embriokardiya, taxikardiya, bradikardiya, aritmiya kabi terminlarga tushuncha berish.
O'qitish uslubi	So'rov. Bemorlarni dmonstratsiya qilish, interaktiv o'qitish uslubi, amaliy ko'nikma.
O'qitish formasi	Kichik podgruppalrida.
O'qitish jihozlari	O'quv qo'llanma, amaliy mashg'ulotlar mundarijasi, proektor, kompyuter.
O'qitish holati	Metodik jihozlangan auditoriya.
Monitoring va baholash	Og'zaki kontrol: savol-javob, testlar, muammoli masala.

1.2. Amaliy mashg'ulot texnologik kartasi

Ish bosqichlari va vaqti.	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorlov bosqichi	28. Auditoriya tozaligini nazorat qiladi 29. Talabalarni mashg'ulotga tayyorgarligini tekshiradi 30. Davomatni nazorat qiladi	
1.O'quv mashg'ulotiga kirish bosqichi (10 daqiqa)	1.Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash. 2.Kirish ma'ruzasi uchun taqdimot silaydalarini tayyorlash 3. Fanni o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini ishlab chiqish	
2 – asosiy bosqich (160 daqiqa)	1. Talabalarni kichik guruhlariga bo'lib, mavzu bo'yicha savollarni beradi. 2. Ko'rgazmali plakatlardan foydalanadi 3. Slaydalar, multimedialardan foydalanadi 4. Davolash ishlarini olib boradi 5. Mavzular asosida berilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi, faol ishtirokchi talabalarni rag'batlantiradi va umumiy baholaydi	Kichik guruhlariga bo'linadilar Tomosha qiladilar qatnashadilar Tinglaydilar va savollarga javob beradilar
1-yakuniy bosqich (10 daqiqa)	1. Yakunlovchi xulosa qiladi 2. Mustaqil ish beradi 3. Uyga vazifa beradi	Tinglaydi Yozib oladi Yozib oladi

3.Talabalarning nazariy bilimlarini baholash:

A)Frontal usuli:

1. YUrak auskultatsiyasi qilish qoidalari
2. YUrakning eshitish nuqtalarini ko'rsating
3. 1 ton hosil bo'lish mexanizmi
4. 2 ton hosil bo'lish mexanizmi
5. 1 tonni 2 tondan farqi
6. 3 va 3 ton hosil bo'lish mexanizmi
7. 1 ton susayishi qaysi hollarda kuzatiladi
8. Qaysi patalogiyada 1 ton kuchayadi
9. 2ton susayishi qaysi hollarda kuzatiladi
10. Qaysi patalogiyada 2 ton kuchayadi
11. nima
12. 1 va 2 ton ikkilanishi qachon kuzatiladi
13. Ekstrakardial porshenlarning hosil bo'lishi mexanizmi,diagnostik ahamiyati
14. “ot dupuri” ritmi hosil bo'lishi
15. “Bedana ritmi” hosil bo'lishi
16. Embriokardiya haqida tushuncha
17. Taxikardiya va uning turlari
18. Bradikardiya nima,qaysi hollarda kuzatiladi
19. Ekstrasistoliya nima hosil bo'lish mexanizmi
20. paroksizmal taxikardiya,turlari,hosil bo'lish mexanizmi

Muammo yechimini topish usuli

Guruhga muammoli vaziyat topshiriladi. Masalan, qorinda og'riq sindromi, davolash taktikasi yoki differensial tashxislash. Har bir talaba o'z javobini yozib oladi (5daq), va partadoshi bilan muxokama qiladi. Keyin butun guruh bilan tahlil qilinadi. Oxirida umumiy variant daftarga yozib olinadi.

Yurak auskultatsiyasi (auskultasio).

Yurak auskultatsiyasi yurakning faoliyati davomida paydo bo'ladigan murakkab tovushlarni simptomatikasi to'g'risida tasavvur hosil qilishga imkon beradi.

Yurakni eshitib ko'rishda quyidagi koidalarga amal qilish lozim.

Bemorning vaziyatiga. Talabada yurak qon tomir tizimi kasalliklariga duchor bo'lgan bemorlarni har xil vaziyatlarda – vertikal, gorizontol va yotgan, chap yonboshga yotgan holatlarida eshitishga ko'nikmalar bo'lishi lozim. Buni har xil yurak klapanlarini nuqsonlarida hosil bo'lgan tovushlarni bemorning qaysi vaziyati, holatlarida qanday bajarilishini bilish lozim. M: Aortal klapan nuqsonida hosil bo'ladigan proto-diastolik shovqin bemorni vertikal holatida yaxshi eshitiladi, mitrla klapan nuqsonida yotgan vaziyatda sistolik shovqin yaxshi eshitiladi. Mitral stenozda shovqin bemorni chap yonboshga yotqizilganda yaxshi eshitiladi yurak asosidan eshitiladigan perikardni ishqalanish shovqini gavdani biroz oldinga engashtirilganda nisbatan aniqroq eshitiladi.

Talabaning vaziyati. Talaba yurakni auskultatsiya qilish jarayonida bemorni o'ng tomonidan yondoshadi. Bunda talaba shunday holatda turishi kerakki, bunda yurakni eshitish nuqtalariga stetoskopni to'g'ri va erkin qo'yish uchun imkoniyat bo'lishi kerak.

Yurakni stetoskop va bevosita quloq yordamida eshitish. Odatda yurakni stetoskop yoki fonendoskop yordamida eshitiladi, chunki bu yurakni har xil nuqtasidagi shovqinlarni alohida eshitiladi. Shunga qaramasdan V.P.Obratsov va M.V.Yanovskiy yurakda hosil bo'ladigan shovqinlarni bevosita quloq bilan eshitishga e'tiborni qaratganlar. V.P.Obratsov yurakni bevosita quloq bilan auskultatsiya qilganda sog'lom kishilarda 2ta emas, balki 3ta tonni eshitilishini aytgan, bu keyinchalik fonokardiografiya usulida tasdiqlangan.

Yurakning og'ir zararlanishlarida yuzaga keladigan galop ritmini V.P.Obratsovning ta'kidlashicha quloq yordamida bevosita auskultatsiya qilinganda yaxshi eshitiladi.

Shulardan kelib chikib yurakni eshitishda bevosita va bilvosita auskultatsiya qilish muhim.

Nafas aktining har xil fazalarida yurakni eshitish. Yurakni nafasni to'xtatilgan holda eshitiladi, buni o'pkadagi tovushlarni bartaraf qilish, yurakdagi auskultatsiya ma'lumotlarini baholashni qiyinlashtirmaslik uchun bajariladi. Buning uchun bemordan nafas olish va keyin chiqarish so'raladi va bundan keyin nafasni to'xtatiladi. Nafasni to'xtatilgan paytda yurakni eshitiladi. Chunki nafasni to'xtatish uzoq muddat davom etmaydi, shuning uchun muolajani takror bajariladi.

Yurakning eshitish joylari va yurak qopqoqlarining ko'krak qafasidagi haqiqiy proyeksiyasi. Mitral qopqoqning proyeksiyasi III qovurg'ani tashqi chap tomoniga birikadigan qismiga, aorta qopqog'ini proyeksiyasi to'sh ortida III qovurg'ani to'qay qismida, o'pka arteriyasi qopqog'i II qovurg'a oralig'ida tushning chap qirrasida, 3 tabaqali klapan to'sh ortida o'rta chiziqda III chap qovurg'a to'qayini va V o'ng qovurg'ani to'shga birikish joyida joylashadi. Tabiiyki qopqoqlarning teshiklarini bir-biriga yaqin joylashishi u yerda hosil bo'ladigan tovushlarni alohida ajratishga qiyinchilik tug'diradi. Shuning uchun uzoq muddatda klinik kuzatuvlarga asoslanib, klapanlarning alohida tovushlarni yaxshi eshiti-ladigan nuqtalari joyi – yurak cho'qqi turtkisi, aorta qopqog'i uchun – II qovurg'a oralig'i to'shning o'ng qirrasida o'pka arteriyasi uchun – II qovurg'a oralig'ida to'shni chap qirrasida, 3 tabaqali klapan – to'shning pastki qismi, qilichsimon o'simtaning asosida.

S.P.Botkin tomonidan aortada hosil bo'ladigan qo'shimcha tovushlarni eshitishni qo'shimcha nuqtasini taklif qildi, u III-IV qovurg'ani tashqi chap qirrasiga birikish joyiga to'g'ri keladi. Bu 5-eshitish nuqtasi S.P.Botkin nuqtasi deyiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, yurakni I klapanini haqiqiy proyeksiyasi biroz chetroqda bo'lib, mitral klapani eshitish sohasiga to'g'ri keladi.

Undagi paydo bo'ladigan tovushlar yurak cho'qqisining zichlashgan, sistola davrida ko'krak devoriga zich tegib hosil bo'ladigan mitral klapani bu soxaja tovushlarni yaxshi o'tqazilishini ta'minlaydi. Aorta qopqoqlarida hosil bo'ladigan tovushlarni II qovurg'a oralig'ida to'sh suyagining o'ng qirrasida haqiqiy proyeksiyasidan biroz chetroqda eshinishi qon oqimi bilan tovushlarni yaxshi o'tqazilishi bilan bog'liq.

Yurakni eshitish tartibi. Yurak auskultatsiya quyidagi tartibda o'tkaziladi. Oldin yurak cho'qqisi, mitral klapan tovushlarini o'tkazilish joyi (birinchi nuqta), keyin aortal klapan II qovurg'a oralig'ida to'shning o'ng tomonidan (ikkinchi nuqta), o'pka arteriyasining klapani II qovurg'a oralig'ida chap tomonda (uchinchi nuqta), uch tabaqali klapan tashqi pastki qismida (to'rtinchi) nuqta va oxiri stetoskop yoki fonendoskop Botkin nuqtasiga (beshinchi nuqta) aorta klapanlaridagi tovushlarni qo'shimcha eshinish joyiga qo'yiladi.

Orttirilgan yurak nuqsonlarida ko'pincha mitral va aortal klapanlar zararlanadi.

Yurakni jismoniy zo'riqishdan keyin eshitish. Aniq bo'lmagan holatlarda bemorni ahvoli ko'tarsa, yengil jismoniy zo'riqishdan keyin yurakni eshitiladi, masalan bemorni bir necha marta o'tirib turishidan, jismoniy mashq bajarishi so'raladi. Bu yurakdagi tovushlarni aniqlashtirishga imkon beradi (masalan, mitral stenozda presistolik shovqin) yurakni qisqarishini oshishi va qoni harakatini tezlashishi tufayli aniq eshitiladi.

Sog'lom kishilarda yurakda eshitiladigan auskultativ ma'lumotlar. Normada sog'lom odamlarda 5ta eshinish nuqtalarida 2 ta eshitiladi: I, qorinchalar sistolasi paytida hosil bo'ladigan sistolik deb nom olgan, va II qorinchalar diastolasi fazasida hosil bo'luvchi diastolik ton eshitiladi. I tondan so'ng kichik pauza, qorinchalardan qonning haydali davriga to'g'ri keladi (davomiyligi Q_2c ga teng). Yurakni auskultatsiyasi davrida qonning qorinchadan aortaga va o'pka arteriyasiga oqishi bizga eshitilmaydi, chunki qopqoqlarning teshiklari shunchalik kattaki bunda qon aylanma harakat qilolmaydi va u yerda shovqin hosil bo'lishiga imkon tuzilmaydi.

I ton kichik pauza bilan qorinchalar sistolasini tashkil qiladi. II tondan so'ng katta pauza boshlanadi, bu paytda qon bo'lmachadan qorinchaga o'tadi. Bunday holatda ham qon harakatlanib atrioventrikulyar teshik orqali o'tayotganda tovush hosil qilmasdan o'tadi, chunki teshik yetarlga kattalikda bo'ladi. Ikkinchi ton katta pauza bilan birgalikda qorincha diastolasini tashkil qiladi, u 0,43 s ga teng.

Ba'zan I va II tondan tashqari III va IV tonlarni diastola davrida eshitiladi.

Uchinchi ton birinchi bo'lib V.P. Obratsov tomonidan auskultatsiyada aniqlanib, yozilgan. Uni hosil bo'lishini qorinchalar devorining diastolani boshida tezda qoncha to'lishi paytidagi tebranishlaridan hosil bo'ladi. III tonning davomiyligi 0,03-0,06 s ga teng. Bu ton yoshlarda va o'smirlarda uchraydi.

To'rtinchi ton I tondan keyin keladi, bo'lmachalar qisqarishi paytida ularning tebranishidan hosil bo'ladi. Uning bolalar va o'smirlarda fiziologik, kattalarda uchrashi esa patologik hisoblanadi.

Tonlarning hosil bo'lishi mexanizmi. Quloqqa I ton bo'lib qabul qilinadigan tovush fenomeni sistolaning boshida yurakda hosil bo'ladigan tovushlarning qo'shilishi natijasida kelib chiqadi. Uning hosil bo'lishida qorinchalar mushaklarini taranglashib izometrik qisqarish fazasida tebranishi (mushak komponenti), atrioventrikulyar qopqoqlarni bir vaqtda yopilish davrida tebranishidan va qopqoqlarga mahkamlangan papilyar mushaklar va paylarning tebranishlaridan (qopqoq komponenti) hosil bo'ladi.

Bundan tashqari I tonning hosil bo'lishida bo'lmachalar mushaklarining qisqarishi (bo'lmachalar komponenti) va aorta bilan o'pka arteriyasiga qorinchalardan qon kelayotgan davrda tomirlar devorining tebranishi (tomir komponenti) ishtirok etadi. Bundan kelib chiqadiki I ton qorinchalar mushaklarining izometrik taranglashish fazasida qonni tomirga haydalinini boshlang'ich bosqichida hosil bo'ladi. Uni davomiyligi 0,08-0,12s.

II tonning hosil bo'lish mexanizmi ixcham. U aorta va o'pka arteriyasining yarimoysimon qopqoqlarini yopilishidan va tebranishidan hosil bo'ladi. II tonning davomiyligi 0,05-0,08s.

Yurakni eshitishda quyidagilar hisobga olinadi:

Yurak cho'qqisi, asosi, sistola, diastola va yurak tonalrining grafik ko'rinishi FKG, EKGlarda.

Auskultatsiyada qorinchalar sistolasini diastolasidan qanday farqlash mumkin? Yurak auskultatsiyasida qorinchalar sistolasini diastolasidan farqlash kerak bu har xil yurak kasalliklarining diagnostikasida juda muhim hisoblanadi. Har xil ortirilgan yurak nuqsonlarida (mitral, uch tabaqali qopqoq yetishmovchiligida va aorta og'zi torayishida), shuningdek tug'ma yurak nuqsonlarida (o'pka arteriyasini og'zini tora-yishida, Botallov stulini va qorinchalararo to'siqni ochiq qolishida) yurakda sistolik shovqin eshitiladi, boshqa yurak nuqsonlarida (chap va o'ng atrioventrikulyar teshikni torayi-shida, aorta va o'pka arteriyasini qopqog'ini yetishmovchiligida) shovqin diastola paytida eshitiladi. Shuning uchun yurakning har xil nuqsonlarini farqlashda qaysi fazada shovqin hosil bo'lishini bilish muhim bo'ladi.

Sistolani diastoladan farqlash uchun I tonni II dan farqlash lozim, chunki I ton kichik pauza qorinchalar sistolasiga to'g'ri keladi, II ton katta pauza – qorinchalar diastolasini tashkil qiladi. Ikkala tonlarni bir-biridan farqi quyidagi belgilar orqali bo'ladi: birinchidan I ton yurak cho'qqisida II Tonga nisbatan kuchli baland va davomiy bo'ladi, ikkinchidan u katta pauzadan so'ng eshitiladi.

Bu yurak cho'qqisida mitral qopqoqni tovushlarni yaxshi o'tkazilishini; I tonni hosil bo'lishida mitral qopqoqni tebra-nishi, qorinchalarni qisqarishini ishtirok etishi, II tonni hosil bo'lishi yurak cho'qqisidan uzoqroq joyda bo'lib va bu sohaga sust o'tqaziladi.

Bundan tashqari I ton yurak turtkisiga va uyqu arte-riyasini pulsiga mos keladi. Ikkinchi qovurg'a oralig'ida tushni o'ng tomonida (aorta) va tashqi chap qirrasida (o'pka arteriyasi) II ton I tonga nisbatan kuchli eshitiladi, chunki bu joyda ya-rimoysimon qopqoqlarni yopilishidan hosil bo'lgan tovush yaxshi eshitiladi.

Baholash mezonlari №12

Mavzuning nomi	Ball	Baho	Talabning bilim darajasi
Yurak auskultatsiyasi: sog'lom odamda yurak tovushlarini xarakteristikasi. Yurak tonlarini eshitish nuqtalari. Tovushlarni asosiy xossalari: tembri, kuchi. Asosiy tovushlarni kuchayishi va susayishi. Yurak, qon-tomir kasalligida tovushlarni o'zgarishi: ot dupuri ritmi, bedana sayrashi ritmi, mayatniksimon ritm, embriokardiya. Taxikardiya, bradikardiya, aritmiya.	86-100	A'lo	Xulosa va qaror qabul qila oladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, amalda qo'llay oladi, mohiyatini tushuntiradi, biladi, aytib bera oladi, tasavvurga ega.
	71-85	Yaxshi	Mustaqil mushohada yuritadi, amalda qo'llay oladi, mohiyatini tushuntiradi, biladi, aytib bera oladi, tasavvurga ega.
	55-70	Qoni qarli	Mohiyatini tushuntiradi, biladi, aytib bera oladi, tasavvurga ega.
	0-54	Qoni qarsiz	Tasavvurga ega emas, bilmaydi.

Uyga vazifa 13, mustaqil ish

Amaliy mashg'ulot №13

Yurak shovqinlari. Pulsni tekshirish. Pulsni xususiyatlari. Arterial bosim va uni o'lchash qoidalari. Gipertoniya va gipotoniya haqida tushuncha. Diagnostik ahamiyati va tekshirish usullari.

1. Amaliy mashg'ulot o'qitish moduli.

Mashg'ulot vaqti – 4 soat	Studentlar soni: 10 dan 12 gacha
Mashg'ulot formasi	Amaliy mashg'ulot
Amaliy mashg'ulot rejasi	Yurak auskultatsiyasi. Yurak shovqinlarini hosil bo'lish mexanizmi, ularni tasnifi. Yurak, qon-tomir patologiyasida yurak shovqinlarini xarakteristikasi. FKG yozish tizimi. Nor-mal FKG, EXOKG haqida tushuncha. Diagnostic ahamiyati.
Amaliy mashg'ulot maqsadi:	Yurak shovqinlarini hosil bo'lish mexanizmi, ularni tasnifi va xarakterikasini o'rganish. Nor-mal FKG, EXOKG haqida tushuncha hosil qilish.
O'qitish uslubi	So'rov. Bemorlarni dmonstratsiya qilish, interaktiv o'qitish uslubi, amaliy ko'nikma.
O'qitish formasi	Kichik podgruppalarida.
O'qitish jihozlari	O'quv qo'llanma, amaliy mashg'ulotlar mundariyasi, proektor, kompyuter.
O'qitish holati	Metodik jihozlangan auditoriya.
Monitoring va baholash	Og'zaki kontrol: savol-javob, testlar, muammoli masala.

1.2. Amaliy mashg'ulot texnologik kartasi

Ish bosqichlari va vaqti.	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorlov bosqichi	31. Auditoriya tozaligini nazorat qiladi 32. Talabalarni mashg'ulotga tayyorgarligini tekshiradi 33. Davomatni nazorat qiladi	
1. O'quv mashg'ulotiga kirish bosqichi (10 daqiqa)	1.Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash. 2.Kirish ma'ruzasi uchun taqdimot silaydalarini tayyorlash 3. Fanni o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini ishlab chiqish	
2– asosiy bosqich (160 daqiqa)	1. Talabalarni kichik guruhlariga bo'lib, mavzu bo'yicha savollarni beradi. 2. Ko'rgazmali plakatlardan foydalanadi 3. Slaydalar, multimedialardan foydalanadi 4. Davolash ishlarini olib boradi 5. Mavzular asosida berilgan ma'lumotlarni	Kichik guruhlariga bo'linadilar Tomosha qiladilar qatnashadilar Tinglaydilar va

	umumlashtiradi va xulosalaydi, faol ishtirokchi talabalarni rag'batlantiradi va umumiy baholaydi	savollarga javob beradilar
1-yakuniy bosqich (10 daqiqa)	1. Yakunlovchi xulosa qiladi 2. Mustaqil ish beradi 3. Uyga vazifa beradi	Tinglaydi Yozib oladi Yozib oladi

3. Talabalarning nazariy bilimlarini baholash:

A) Frontal usuli:

1. 1 SHovqinlar turlari, hosil bo'lish mexanizmi
2. Sistolik shovqin hosil bo'lish mexanizmi, eshitish joyi
3. Diastolik shovqin hosil bo'lish mexanizmi, eshitish joyi
4. shovqin turlarini aytib bering
5. SHovqinlarni xususiyatlarini izohlab bering
6. Sistolik va Diastolik shovqinlarning farqi
7. Organik va funktsional shovqinlarning farqi
8. Asinxron qisqarish nima
9. Izometrik qisqarish nima
10. Diastola fazalarini aytib bering
11. perikard ishqalanish shovqini hosil bo'lish mexanizmi, eshitish joyi
12. Plevra perikardial tovushlar nima
13. Normal FKG yozib olish texnikasi
14. 1 tonni grafik bo'yicha tasvirlash
15. 2 tonni grafik bo'yicha tasvirlash
16. Sistolik shovqinni FKGdagi izohni aytib bering
17. Diastolik shovqinni FKGdagi izohni aytib bering
18. Mitral klapan ochilish tonini 3 tondan farqi
19. ENOKG tug'rsida tushuncha bering

“Ari uyasi” usuli

Bu usulda muammo butun guruh bilan yoki ikkita kichik guruhla bilan tahlil qilinadi. Beriladigan vazifa butun guruh uhun bir, yoki ikkita guruhga har xil vazifalar berilishi mumkin. 10 -15 daqiqa ichida guruh ishtirokchilari vazifa yechimini tahlil qilib, bir birlariga doklad qiladilar. Ular ichidan eng yaxshi variant tanlab olinadi.

Yurak-tomir tizimini tekshirish. Yurak-tomir tizimini tekshirishda, masalan, yurak mitral poroklarining diagnos-tikasida ham tomografiyadan foydalaniladi. Tomografiya mitral poroklarda yurak kameralarining katta-kichikligi to'g'rsida fikr yuritishga, klapanlarda ohak to'planib qolgan joylar va boshqa bir qancha patologik o'zgarishlar bor yoki yo'qligi to'g'rsida aniqlab olishga imkon beradi.

Tomografiyada faqat o'rganilayotgan qavatning rentge-nologik tasvirini olish mumkin. Qolgan hamma joylar, ular xoh tekshirilayotgan qavat atrofida joylashgan bo'lsin, xoh uning oldi yoki orqasida bo'lsin, rentgen nurlari sochilib tushadigan bo'lganidan, tasvirda ko'rinmaydi.

Elektrokardiografiya. Tekshirishning bu usuli yurak qisqarganida vujudga keladigan biopotentsiallarni qayd qi-lishga asoslangan. Yurakning qo'zg'alish holatida har qanday kishi tinchlik holatida turgan bo'limiga nisbatan elektr qutublanishi manfiy bo'ladi. Shunga ko'ra yurak ayrim kishilarining elektr potentsiallarida farq yuzaga keladi.

Harakat toklari tananing har qanday qismidan olinishi mumkin. Yurak biopotentsiallarini qayd qiluvchi apparat elektrokardiograf deb ataladi. Bu apparat yurak biopoten-tsiallarini elektrodlar yordamida o'ziga qabul qilib oladi, shu bilan birga tana yuzasining elektrodlar tagida

turgan qismlaridagi 3 mV (millivolt) gacha bo'ladigan kichik potentsiallar farqi necha ming baravar kuchaytiriladi va yuzaga keladigan juda ham arziyas potentsiallar farqini seza oladigan qayd qiluvchi asbob — galvanometrqa beriladi. Galvanometr ustiga kichik ko'zgu yopishtirilib, kuchli magnit maydoniga tortib qo'yilgan kichkina po'lat plastinkadan iborat. Ko'zqusining oldiga fiksatsiyalovchi linza o'rnatilgan. Harakat toklari ta'siri ostida magnit moydonining o'zgarishlari plastinka va unga yopishtirib qo'yilgan ko'zguning aylanishiga hamda ko'zgudan aks etgan nurning u yoki bu tomonga og'ishiga sabab bo'ladi. Bu tebranishlar egri chiziqlar ko'rinishida fotografik yo'l bilan yozib olinadi. Sekundiga 20 marta tebranishga rostlanib, sozlangan kamerton vaqtini belgilovchi moslama bo'lib xizmat qiladi, bir bir idan 0,05 sekundli masofada bo'ladigan tik yo'llar tushirib beradi.

Apparatning yozuvchi qismi lenta beradigan kasseta va uni tortib o'tqazib turadigan mexanizmdan iborat.

Keyinchalik 5-T oralig'i izochiziqqa yaqinlashib keladi, T tishcha esa manfiy («koronar») bo'lib qoladi.

Koronar T tishcha evolyutsiyasi bir necha haftaga boradi. Infarkt bo'lib o'tgandan keyin boshlangan turg'un chandiq fazasi EKG da juda ham xilma-xil tarzda aks etadi. Infarktdan keyingi iokardiofibrozning kichikrok intramural o'choqlari EKG da aks etmasligi ham mumkin. Chandiqli maydonlar keng bo'lganida OK kompleksinpng shakli ancha o'zgaradi (chuqur tushgan 0 tishcha saqlanib qoladi, K tishcha yo bo'lmaydi yoki pasayib qolgan, 5- tishcha kengayib turgan bo'ladi).

Dinamik holda, ya'ni ma'lum vaqt oralab olib turilgan EKG reparativ protsesslarning oxiri qachon va nima bilan tugashini oldindan bilib olishga, takroriy miokard infarktini aniqlab olishga, yurak faoliyati ritmi buzilishi yoki yirik o'choqli kardioskleroz paydo bo'lishi natijasida yurak yetishmovchiligi boshlanishini oldindan aytib berishga imkon beradi.

EKG da yurak ritmining buzilishlari aniq ko'rinib turadi, aritmiyaning sababi (innervatsiyaning izdan chiqqanligi, yallig'lanish, muskulning shishgani yoki chandiq, bo'lib qolgani, distrofik o'zgarishlar, dori-darmonlar ta'sir ko'rsatgani) va shakli aniq ma'lum bo'ladiki, bu davr usulini belgilab beradi.

Yurak va tomirlarni rentgenologik yo'l bilan tekshirish.

Yurak va yirik tomirlarni rentgenologik yo'l bilan tekshirishning ham morfologik, ham funksional holatni aniqlab olishga imkon beradigan asosiy metodi rentgenoskopiyadir. Yurak atrofidagi a'zolar (o'pka)ga qaraganda zichligi katta bo'lganligi tufayli uni rentgenologik yo'l bilan tekshirish mumkin. Butun yurak va har bir bo'limining ishi rentgenokimografiya yordamida o'rganiladi.

Rentgenokimografiya — turli a'zolar harakatlarining rentgenografik yo'l bilan qayd qilishning shunday bir usuli, bunda a'zoning konturlari (shakl-shamoyili) rentgenogram-maga tishli bo'lib tushadi, shu bilan birga shu tishlarning kat-taligi harakatlar amplitudasini aks ettiradi, nur dastasiga ko'ndalang bo'lib qo'yilgan panjara bilan plyonkali kassetaning bir-biriga nisbatan surilib turishi tufayli natijaga erishiladi.

Rentgenokimografiyaning muhim sharti tekshirilayotgan oby'ekt bilan unga chegaradosh joylar o'rtasida katta soya kontrasti hosil qilishdir. Yurak va yirik tomirlarning soyasi yuqori darajada kontrast bo'lib, yorug' bo'lib ko'zga tashlanadigan o'pka maydonlari fonida keskin ajralib turadi. Rentgenoskopiyada yurak tomirlarining soyasi ekranda noto'g'ri tuxum shaklida bo'lib, o'rta holatni egallab turadi. Bu soya diafragma ustida qiyshiq joy oladi, shu bilan birga uning 3 qismi ko'krak qafasining chap yarmida yotsa, 3 qismi o'ng yarmida yotadi. Yurak va tomirlar oldingi orqa holatda, birinchi qiyshiq (gavdani 45° o'ngga burib turiladigan) va ikkinchi qiyshiq (gav-dani 45° chapga burib turiladigan) holatlarda rentgenologik yo'l bilan tekshiriladi.

Oldingi-orqa yo'nalishdagi rentgenoskopiyada olingan o'ng kontur ikkita byurtmasi bo'ladigan noto'g'ri yoydir. Ustki yoy I qovurg'adan II qovurg'agacha bo'lgan masofani egallaydi va ustki qavat vena soyasi bilan aortaning yuqori ko'tariluvchi qismi soyasidan hosil bo'ladi, pastki yo o'ng yurak bo'lmasi, ba'zida, yurak tik holatda turgan paytda esa yana yurakning o'ng qorinchasi soyasi va pastki kovak vena soyasidan yuzaga keladi.

Yurakning chap konturi 4 ta yoydan: birinchi qovurg'alar oralig'ida turadigan ustki yoy (bu aorta yoyiga to'g'ri keladi), o'pka arteriyasi bilan chap bo'lma quloqchasiga to'g'ri kela-digan 2- va 3- yoy, yurakning chap qorinchasiga to'g'ri keladi-gan 4- yoydan iborat. Chap bo'lma shari kattalashuvi hisobiga chap tomonda 2-va 3-yoylarning kattalashib qolishi yurak beli bilinmay ketadigan mitral yurak shakli (konfiguratsiyasi)ni hosil qiladi, bu mitral porok uchun juda xarakterlidir.

Aorta klapani yetishmovchiligida tomirlar dastasi bilan yurak o'rtasidagi burchak saqlanib qolgani holda chapdagi 1- va 4-yoy kattalashadi. Yurak soyasi chap va past tomonga kattalashib, o'tirgan o'rdak soyasiga qiyos qilinadigan aortal konfiguratsiyani kasb etadi.

Rentgenoskopiya yurak uchi shaklini aniqlab olishga ham imkon beradi. Chap qorincha gipertrofiyasida yurak uchi dumaloqlanib qolgan bo'ladi. Bemor astenik konstitutsiyada bo'lib, diafragma past turganida yurak tik holatda joylashadi, yurak soyasi katta bo'lmaydi va kichraygan bo'lib ko'zga tashlanadi. Diafragma yuqori turganida (qorin dam bo'lib turgan mahalda, semizlik, homiladorlik va boshqalarda) yurak ko'ndalang holatni egallaydi, bunda uning diafragma ancha taqalib turganini ko'rish mumkin. Rentgenologik yo'l bilan tomchisimon yurakni ham aniqlab olsa bo'ladi, bu — tomirlar dastasiga osilib, o'zining kichik bir qismi bilan diafragma tegib turgan ko'rinishini beradi. Bunday bemorlar ko'pincha astenik konstitutsiyali bo'ladi.

Rentgenologik yo'l bilan tekshirishda yurakning o'rnidan siljib, surilib qolmaganini aniqlab olsa bo'ladi. Chap tomonlama ekssudativ plevrit, pnevmotoraksda yurak ko'krak bo'shlig'ining o'ng yarmiga so'rilib turadi.

Perikard (yurak xaltasi)ga ekssudat suzib cho'qqisida yurak soyasi uch burchak shakliga kirib qoladi. Rentgenologik tekshirishda aorta o'zgarishlari ham topiladi; aorta sklerozida soyasi kattalashgan va ancha «quyuq» bo'ladi. Aorta anev-rizmasida yuqori ko'tariluvchi yoy pastga tushuvchi qismida yoki aorta ravog'i (yoyi)da bir tekis yoki qisman kengaygan bo'ladi. Anevriomatik kengaymalar o'smalardan shu bilan farq qiladiki, o'smada pulsatsiya (aorta devorining urib turishi) bo'lmaydi yoki susaygan bo'ladi.

Ikkala yon tomondan rentgenoskopiya qilib ko'rilganida yurak soyasining oldi va orqasida yorug' maydon ko'rinib turadi. 1- holatda bir tomonda yurak bilan tomirlar soyasi o'rtasida, ikkinchi tomondan, umurtqa pog'onasi soyasi o'rtasida joy olib turadigan yorug' maydon retrokardial bo'shliq deb ataladi. Yurak oldida joylashgan yorug' maydon to'sh orqasi bo'shlig'i (retrosternal bo'shliq) deyiladi. 1- holatda chap bo'lmadagi o'zgarishlar ancha ravshan bo'lib to'shadi, uning kattalashib ketishi retrokardial bo'shliqning torayib qolishiga olib keladi. 2- holatda aorta ravog'idagi o'zgarishlar, shuningdek o'ng va chap qorinchalarning kattalashib qolgani ro'y-rost ko'rinadi.

Kasallikning qanchalik tez va to'g'ri davolanishi labo-ratoriya va instrumental tekshiruvlarning to'g'ri va tez o'tqazi-lishiga bog'liq. Bu tekshiruvlarning o'tqazilishida tibbiyot talabasining o'rni muhim hisoblanadi.

Baholash mezonlari №13

Mavzuning nomi	Ball	Ba ho	Talabanning bilim darajasi
----------------	------	----------	----------------------------

Yurak auskultatsiyasi. Yurak shovqinlarini hosil bo'lish mexanizmi, ularni tasnifi. Yurak, qon-tomir patologiyasida yurak shovqinlarini xarakteristikasi. FKG yozish tizimi. Normal FKG, EXOKG haqida tushuncha. Diagnostik ahamiyati	86-100	A'l o	Xulosa va qaror qabul qila oladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, amalda qo'llay oladi, mohiyatini tushuntiradi, biladi, aytib bera oladi, tasavvurga ega.
	71-85	Yaxshi	Mustaqil mushohada yuritadi, amalda qo'llay oladi, mohiyatini tushuntiradi, biladi, aytib bera oladi, tasavvurga ega.
	55-70	Qoniqarli	Mohiyatini tushuntiradi, biladi, aytib bera oladi, tasavvurga ega.
	0-54	Qoniqsiz	Tasavvurga ega emas, bilmaydi.

Mustaqil ish. Organic va funksional shovqinlarni qiyosiy diagnostikasi
Uyga vazifa. 14

Amaliy mashg'ulot №14

Elektrokardiografiya. Yozib olish qoidalari. Normal elektrokardiogramma. EKG tahlili. Bo'lmachalar va qorinchalar gipertrofiyasidagi EKG o'zgarishlari. Koronar tomir yetishmovchiligidagi EKG belgilari.

1. Amaliy mashg'ulot o'qitish moduli.

Mashg'ulot vaqti – 4 soat	Studentlar soni: 10 dan 12 gacha
Mashg'ulot formasi	Amaliy mashg'ulot
Amaliy mashg'ulot rejasi	Tomirlarni tekshirish. Sog'lom damda va yurak, qon-tomir tizimi patologiyasida pulsni xarakteristikasi. Arterial qon bosim. Gipertoniya va gipotoniya haqida tushuncha. Arterial qon bosimini o'lchash usuli. EKG ni yozib olish.
Amaliy mashg'ulot maqsadi:	Tomirlarni tekshirish va puls xarakteristikasi. Arterial qon bosim. Gipertoniya va gipotoniya haqida tushuncha hosil qilish.
O'qitish uslubi	So'rov. Bemorlarni dmonstratsiya qilish, interaktiv o'qitish uslubi, amaliy ko'nikma.
O'qitish formasi	Kichik podgruppalarida.
O'qitish jihozlari	O'quv qo'llanma, amaliy mashg'ulotlar mundarijasi, proektor, kompyuter.
O'qitish holati	Metodik jihozlangan auditoriya.
Monitoring va baholash	Og'zaki kontrol: savol-javob, testlar, muammoli masala.

1.2. Amaliy mashg'ulot texnologik kartasi

Ish bosqichlari va	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
--------------------	-----------------	-------------------

vaqti.		
Tayyorlov bosqichi	34. Auditoriya tozaligini nazorat qiladi 35. Talabalarni mashg'ulotga tayyorgarligini tekshiradi 36. Davomatni nazorat qiladi	
1. o'quv mashg'ulotiga kirish bosqichi (10 daqiqa)	1. Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash. 2. Kirish ma'ruzasi uchun taqdimot silaydalarini tayyorlash 3. Fanni o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini ishlab chiqish	
2 –asosiy bosqich (160 daqiqa)	1. Talabalarni kichik guruhlariga bo'lib, mavzu bo'yicha savollarni beradi. 2. Ko'rgazmali plakatlardan foydalanadi 3. Slaydalar, multimedialardan foydalanadi 4. Davolash ishlarini olib boradi 5. Mavzular asosida berilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi, faol ishtirokchi talabalarni rag'batlantiradi va umumiy baholaydi	Kichik guruhlariga bo'linadilar Tomoshqa qiladilar qatnashadilar Tinglaydilar va savollarga javob beradilar
1-yakuniy bosqich (10 daqiqa)	1. Yakunlovchi xulosa qiladi 2. Mustaqil ish beradi 3. Uyga vazifa beradi	Tinglaydi Yozib oladi Yozib oladi

3. Talabalarning nazariy bilimlarini baholash:

A) Frontal usuli:

1. 1. puls nima
2. Pulsni aniqlash nuqtalari
3. Qon bosimi birinchi marta kim tomonidan o'lchalgan
4. Puls va uning xususiyatlarini sanab bering
5. Puls ritmi deganda nimani tushunasiz
6. Puls chastotasi nima
7. Puls tarangligi nima
8. Puls tuliqligi nima
9. Puls kattaligi deganda nimani tushunasiz
10. Puls formasi va turlari
11. stigmografiya nima chizib bering
12. Flebografiya nima chiizib bering
13. Tomirlarni auskultatsiyasi qilish texnikasi
14. Nima uchun qon bosimi individual ko'rsatkichga ega
15. Normada qon bosimi qanday o'zgarib turadi va chegaradagi qon bosimi deganda nimani tushunasiz
16. Minutlik va sistolik hajm nima
17. Qon bosimi o'lchashdagi fazalarni hisoblang
18. O'rtacha yoki dinamik bosim nima
19. Asosiy yoki badal bosim nima
20. Arterial gipertenziya va arterial gipotoniya to'g'risida tushuncha bering

“Akademik polemika” usuli

Gruppa ikki guruhga bo'linadi, har biriga vaziyatli masala topshiriladi, masalan, “konsultatsiya shifokor-bemor”. Har bir guruhda 1-2 talabalar konsultatsiya yaxshi tomonlarini yozib oladilar – “advokatlar”, boshqa 2 ta talaba konsultatsiyaning manfiy tomonlarini yozib oladi – “prokurorlar”.

Advokatlar va prokurorlar xulosalari butun guruh bilan tahlil qilinadi.

Arterial pulsni aniqlash texnikasi

1. Bemor yotgan holda yoki stulda tinch holatda o'tirganida pulsni aniqlash mumkin bo'ladi.
2. Bemorning bir qo'li tanasi bo'ylab cho'zilgan holatda bo'ladi.
3. Bemor bilagining kaft yuzasi tomoniga o'ng qo'lingizning 2- 4- barmoqlaringiz uchini qo'yasiz
4. O'ng qo'lingizning 1- barmog'ini esa bemor bilagi ostiga qo'yasiz
5. Siz bunda bemorning bilak arteriyasidagi tomir devor urishini (Pulsatsiya) 2- 3- 4- barmoqlaringiz uchida sezasiz.
6. Sekundomerni chap qo'lda ushlab tomir urishini 1 daqiqa ichida sanaladi.
7. Arterial puls soni 003, 004 shakldagi tibbiy hujjatlarga yozib qo'yiladi.
8. Kerakli anjomlar ; sekundomer, 003,004 tibbiy hujjatlar.

Arterial bosimni o'lchash texnikasi

1. Arterial bosimni o'lchash uchun bemor yotgan holda yoki stulda tinch holatda o'tirgan bo'lishi kerak.
2. Bemorning o'ng yoki chap qo'li yelkasigacha kiyimdan holi qilinadi
3. Bemor krovatga yoki stulga o'tiradi, bilagi yuqoriga qo'yiladi.
4. Tanometr manjeti havo yuborgich naychasi pastga qaratib olinadi.
5. Bemorning qo'lga tirsak bo'g'imidan 2-3sm yuqoridan manjet sal bo'shroq qilib ulanadi.
6. Bemorning qo'lga tirsak bo'g'imidan yelka arteriyasining urishi 2- 3- barmoqlar yordamida topiladi.
7. Tomir urgan joyga fonendoskop bosmasdan qo'yilib, eshituv naychasi esa quloqqa ulanadi.
8. Vintni berkitib ballon yordamida manjetkaga havo yubo-riladi.
9. Vint sekinlik bilan ochilib, havo chiqariladi.
10. Havo chiqishi bilan fonendoskopdan arteriya devori urishlari eshitiladi (sistolik bosim)
11. Keyinchalik havo chiqishi davomida tovushlar yo'qoladi (diastolik bosim)
12. Tovushlarning eshitilgan va eshitilmasdan qolgan joy-laridagi sonlar (manometrdan) yozib olinadi.
13. Vint to'liq ochilib, manjet ichiga havo chiqariladi
14. Manjetka manometr ulangan rezina naychadan ajra-tiladi.
15. Manjetka bemor bilagidan olinadi.

Kerakli anjomlar; termometr, Apparat Riva-Rochi, Fonen-doskop, 003- 004 shakldagi tibbiy hujjatlari.

Arterial qon tomiri urshini tekshirish

Odatda bemorning tomir urushini aniqlash bilan kasallikni tekshirish boshlanadi, bu vrachga yurak ishi to'g'risida kerakli bo'lgan ma'lumotni beradi. Tomir urishini (pulsni) o'rganish qadim zamondan vrachlar diqqatini o'ziga tortib kelgan. Qadimgi zamon sharq tibbiyotida tomir urishining xususiyatiga qarab kasallikni aniqlaganlar, tomir urish to'liqini faqat yurak – qon tomir sistemasining holati to'g'risida ma'lumot bermasdan, balki boshqa a'zo va sistemalar to'g'risida ham ma'lumot beradi deb hisoblaganlar (oshqozon – ichak yo'li, nafas sistemasi, siydik ajratish sistemasi). Qadim zamonda Xitoy vrachlari tomir urishining 600 xil xususiyatini farqlaganlar, uni u yoki bu kasallik bilan bog'laganlar. Odatda puls nur arteriyasida aniqlanadi, aniqlash joyi katta barmoqning asosiga to'g'ri keladi. Arteriyasida ko'rsatkich, o'rta va nomsiz barmoq qo'yiladi. Vrachning bosh barmog'I kaftning orqa tomonida turadi. Bemorni qo'llari yengil bukilgan holda yurak to'g'risida erkin turishi kerak. Tomir urishini tekshirishni bir vaqtning o'zida ikkala qo'lda bajarish kerak, agar tomir urishi ikkala qo'lda bir xil bo'lsa, u holda tekshirishlar bir qo'lda davom ettiriladi.

Tomir urishining quyidagi xususiyatlari aniqlanadi: tezligi, maromi, tarangligi, kattaligi, shakli, devorining holati. Tomir urish tezligi bir daqiqada 60 dan 80 gacha, ayollarda u erkaklarga

nisbatan birmuncha ko'p. Tomir urishining tezlashishi (pulsus frequens) yangi bir daqiqada 90 tadan ortiq tomir urishi taxikardiya, turli tashqi va ichki ta'surotlar natijasida kuzatiladi.

Tana harorati 1⁰ ko'tarilganda tomir urishi bir daqiqada 8 – 10 tagacha tezlashadi. Harorat ko'tarilganda tomir urishi tezligining orqada qolishi ayrim yuqumli kasalliklar uchun xos (qorin terlamasi, sariq kasalligi), sil, qizilchada tomir urishi harorat ko'tarilganda yuqori bo'ladi. Harorat ko'tarilishiga mos kelmaydigan tomir urishi yurak yetishmovchiligi rivojlanganda kuzatiladi.

Dori preparatlari ta'sirida taxikardiya paydo bo'ladi (atropine, platifillin, kofein va boshqalar). Tomir urishining tezlashishi (pulsus rarus) (1 daqiqada 60 tadan kam) bradikardiya kuzatiladi, u fiziologik va patologik bo'lishi mumkin. Fiziologik siyraklashish uyqu vaqtida, sovuq ta'sirida, qo'rqqanda, cho'chiganda va jismoniy mashg'lot paytida kuzatiladi. Patologik bradikardiya miksedema, uremiya, sariq kasalligida, kalla suyagi uchi bosimi ortganda, miyaga qon quyilganda, kuchli og'riq hurujida, yurak muskuli shikastlanganda, ko'ndalang blokada rivojlanganda hamda yurak glikozidlari miqdori ortib ketganda kuzatiladi.

Tomir urish maromi. Odatda tomir urish to'lqinlari bir xil vaqt oralig'ida davom etadi - tomir urish to'lqini maromli (p. regularis). Qator patologik holatlarda bu marom buziladi (p. irregularis). Tomir urishini paypaslab quyidagi aritmiyalarni aniqlash mumkin:

1. Sinus aritmiyasi, bunda nafas olganda tomir urishining tezlashishi va nafas chiqarganda sekinlashishi, bolalarda esa fiziologik holat sifatida nafas aritmiyasi kuzatiladi.

2. Ekstrasistoliya. Bunda ritmik tomir urish fonida navbatdan tashqari to'lqin hosil bo'lib, u davomli pauza (to'xtalish) bilan kuzatiladi.

3. Paroksizmal taxikardiya. Bunda yomir urishining keskin tezlashish huruji vujudga keladi (daqiqasiga 160-200 marta urish).

4. Miltillovchi aritmiya. Bunda tomir urish to'lqini har xil kuch va balandlikda, xilma – xil bo'ladi, tartibsiz uradi.

5. Yurak blokadasi. To'liq ko'ndalang, bunda tomir urishi siyrak, 1 daqiqada 40 tadan kam, to'g'ri, jismoniy yuklamada tezligi o'zgarmaydi. Kam hollarda oqsoqlanuvchi tomir urishi kuzatiladi (p. alternans), bunda bir tekis kuchli va kuchsiz tomir urish to'lqinlari almashinib turadi. Tomir urishining alohida ko'rinishlaridan biri paradoksial tomir urishi hisoblanadi, bunda nafas olish vaqtida tomir urishi juda kuchsiz bo'lib qoladi yoki yo'qoladi, bunday tomir urishi yopishqoq mediastinoperikarditda va yurak sistolasini qiyinlashtiruvchi diafragma bilan perikard yopishib qolganda kuzatiladi.

Tomir urish tarangligi quyidagicha aniqlanadi: arteriya uchta barmoq bilan tekshiriladi, bunda proksimal qo'yilgan barmoq bilan shunday bosim kerakki, distal qo'yilgan barmoq tomir urish tebranishini sezmasligi kerak. Tarangligiga qarab tomir urishi qattiq (p. durus), yumshoq (p. mollis) yoki o'rtacha taranglikda bo'lishi mumkin. Tomir urishning to'laligi arteriya hajmining maksimal va minimal tebranishi o'rtasidagi farq bilan aniqlanadi. Tomir urishi to'liq (p. plenus) yoki bo'sh (p. vacuus) bo'lishi mumkin.

Tomir urishning to'la emasligi ko'pincha arterial bosimning pastligini aks ettiradi va o'tkir tomir yetishmovchiligi belgisi hisoblanadi.

Tomir tarangligi va to'laligidan tomir urishining kattaligi kelib chiqadi, bundan yurak – tomir sistemasining qanday ishlashi aniqlanadi.

Og'ir kechadigan yurak – qon tomir yetishmovchiligida tomir urishining o'zgarishi kuzatiladi. Bu vaqtda yurak qisqarishi tezlashib tomir tarangligi vato'laligi buziladi, u zo'rg'a qo'lga unmaydi, bunga tomirning bilinar – bilinmas ipsimon urishi (p. filiformis) deyiladi.

Tomir urishning holati tomir urish to'lqinlarining ko'tarilishi va pasayish tezligiga bog'liq bo'ladi. Tomir urishi tez (p. celer) va sekin (v. tardus) bo'lishi, bir vaqtning o'zida ham tez, ham baland bo'lishi mumkin (p. celer et altus).

Bu aorta qopqoqlarining yetishmovchiligiga xos bo'ladi, chunki bu vaqtda qonning chap qorinchaga qaytib tushishi natijasida diastola bosimi keskin pasayadi va sistolik bosim ortib qonning otilish hajmi ko'payadi.

Tomirning sekin urishi bir vaqtning o'zida kichik bo'lishi ham mumkin (p. tardus et parvus). Bunday tomir urishi aorta chiqish joyining torayishiga xos. Bunda qonning chap qorinchadan aortaga otib chiqarilishi qiyinlashadi, natijada aortada bosim pasayadi.

Uncha to'liq bo'lmagan va to'liq tomir urishida asosiy tomir urish to'lqinidan so'ng ikkilamchi to'lqin vujudga keladi, bunday tomir urishi dikrotik (p. dicroticus) tomir urishi deb ataladi. Ular yuqumli kasalliklarda chekka arteriyalarning tarangligi pasayib ketganda va yurak muskullari yallig'lanishida kuzatiladi.

Arteriya devorining holatini aniqlash uchun tomir yoniga sirg'anib tushadigan paypaslab o'tkaziladi. Arteriyada qo'shuvchi to'qima rivojlanib chandiq hosil bo'lganda yoki uning devoriga kalsiy tuzlari yig'ilganda uning ayrim qismlari qattiqlashib qoladi va paypaslaganda ezilmaydi.

Ba'zi hollarda tomir urishi ikki qo'lida ikki xil bo'lishi mumkin (p. differens). Tomir urishining har xilligi uning kattaligi bilan aniqlanadi. Bu holat tug'ma yoki tomirlarning tashqaridan ezilishi natijasida kelib chiqishi mumkin (chandiq, shish, limfa va boshqalar). Ikki tavaqali teshik torayganda chap bo'lmacha kattalashadi, natijada chap o'mrov osti arteriyasini ezib chap qo'ldagi tomir urishi sustlashishiga sabab bo'ladi.

Tomir urishini yelka, uyqu, son, tizza osti, tovon va boshqa arteriyalarda ham tekshirish mumkin. Tizza osti va tovon arteriyalari urishini aniqlash oyoq arteriyalarining ichki devori yallig'lanib bitib qolganda katta ahamiyatga ega (endoarteriit).

Yurak – qon tomir sistemasining ba'zi bir kasalliklari qo'l va oyoqdagi tomir urishining kattaligi har xil bo'ladi. Aorta bo'ynining torayishida "koarktatsiya" oyoqlarida tomir urishi keskin susayadi, qulay va uyqu arteriyalarida odatdagidek bo'ladi.

Takayasi kassaligida tomir urishining aniqlanmasligi, yirir arteriyalarning yallig'lanib, bitib qolishi natijasida tomir urishining susayishi yoki yo'qolishi kuzatiladi.

Baholash mezonlari №14

Mavzuning nomi	Ball	Bah o	Talabning bilim darajasi
Tomirlarni tekshirish. Sog'lom damda va yurak, qon-tomir tizimi patologiyasida pulsni xarakteristikasi. Arterial qon bosim. Gipertoniya va gipotoniya haqida tushuncha. Arterial qon bosimini o'lchash usuli. EKG ni yozib olish.	86-100	A'lo	Xulosa va qaror qabul qila oladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, amalda qo'llay oladi, mohiyatini tushuntiradi, biladi, aytib bera oladi, tasavvurga ega.
	71-85	Yaxshi	Mustaqil mushohada yuritadi, amalda qo'llay oladi, mohiyatini tushuntiradi, biladi, aytib bera oladi, tasavvurga ega.
	55-70	Qoni qarli	Mohiyatini tushuntiradi, biladi, aytib bera oladi, tasavvurga ega.
	0-54	Qoni qarsi z	Tasavvurga ega emas, bilmaydi.

Mustaqil ish. Yurak nuqsonlari .Yurak tonlari normasi va patologiyada o'zgarishi
Uyga vazifa. 15

Amaliy mashg'ulot №15

Aritmiyalari EKG o'zgarishlari. Yurak avtomatizm va qo'zg'aluvchanligi buzilishida EKG belgilari.

1. Amaliy mashg'ulot o'qitish moduli.

Mashg'ulot vaqti – 4 soat	Studentlar soni: 10 dan 12 gacha
Mashg'ulot formasi	Amaliy mashg'ulot
Amaliy mashg'ulot rejasi	Normal EKG. Tishlar, interval, segmentlar haqida tushuncha va ularning hosil bo'lish mexanizmi. Avtomotizm qo'zg'aluvchanlik vazifalari buzilganda EKG. Yurak funksiyasini buzilishi: avtomotizm, qisqarish, qo'zg'alish, o'tkazish.
Amaliy mashg'ulot maqsadi:	Talabalarga normal EKG va avtomotizm qo'zg'aluvchanlik va o'tkazuvchanlik vazifalari buzilganda EKG ko'rinishi bilan tanishtirish.
O'qitish uslubi	So'rov. Bemorlarni dmonstratsiya qilish, interaktiv o'qitish uslubi, amaliy ko'nikma.
O'qitish formasi	Kichik podgruppalarida.
O'qitish jihozlari	O'quv qo'llanma, amaliy mashg'ulotlar mundariyasi, proektor, kompyuter.
O'qitish holati	Metodik jihozlangan auditoriya.
Monitoring va baholash	Og'zaki kontrol: savol-javob, testlar, muammoli masala.

1.2. Amaliy mashg'ulot texnologik kartasi

Ish bosqichlari va vaqti.	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorlov bosqichi	37. Auditoriya tozaligini nazorat qiladi 38. Talabalarni mashg'ulotga tayyorgarligini tekshiradi 39. Davomatni nazorat qiladi	
1. O'quv mashg'ulotiga kirish bosqichi (10 daqiqa)	1. Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash. 2. Kirish ma'ruzasi uchun taqdimot silaydalarini tayyorlash 3. Fanni o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini ishlab chiqish	
2 –asosiy bosqich (160 daqiqa)	1. Talabalarni kichik guruhlariga bo'lib, mavzu bo'yicha savollarni beradi. 2. Ko'rgazmali plakatlardan foydalanadi 3. Slaydalar, multimedialardan foydalanadi 4. Davolash ishlarini olib boradi 5. Mavzular asosida berilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi, faol ishtirokchi talabalarni rag'batlantiradi va umumiy baholaydi	Kichik guruhlariga bo'linadilar Tomosha qiladilar qatnashadilar Tinglaydilar va savollarga javob beradilar
1-yakuniy bosqich (10 daqiqa)	1. Yakunlovchi xulosa qiladi 2. Mustaqil ish beradi 3. Uyga vazifa beradi	Tinglaydi Yozib oladi Yozib oladi

3. Talabalarining nazariy bilimlarini baholash:

A) Frontal usuli:

1. Elektrokardiografiya nima
2. EKG yozib olish asoslarini izohlang
3. EKG apparatini tuzilishini aytib bering
4. Apparatni ishlash printsiplarini aytib bering
5. EKGni registratsiya qilish: standart tarmoqlarini aytib bering
6. Ko'krak tarmoqlarini izohlab bering
7. Bir polYusli tarmoqlarni izohlang
8. Normal EKGni izohlang
9. EKGni analiz qilish qoidalarini aytib bering
10. EKGni klinik ahamiyatini aytib bering
11. EKGni tushirishda qanaqa sinamalarni bilasiz
12. Vektor kardiografiya nima
13. Ballistokardiografiya nima
14. Veloergometriya nima
15. Atropinli sinama o'tkazish texnikasi
16. EKG tishlar to'g'risida tavsif bering
17. Interval va segmentlar to'g'risida tushuncha
18. YUrak avtomatizmi buzilish turlari. EKG diagnostikasi
19. YUrak qisqaruvchanlik buzilishi EKG diagnostikasi
20. YUrak qo'zg'aluvchanligining buzilishi EKG diagnostikasi
21. YUrak o'tkazuvchanligining buzilishi EKG diagnostikasi

“Uch pog'onali intervyu” usuli

Har bir gruppada uchta talaba tanlab olinib, ular orasida “vrach”, “bemor” va “ekspert-UASH” rollari bo'linib beriladi. Bemor rolini tanlagan talabaga anonimno diagnozi aytiladi, va u shu diagnozga taaluqli shikoyatlar bildiradi, vrach diagnoz qo'yadi, ekspert UASH shiloyatlar va diagnoz mutanosubligini tekshiradi. Har bir guruh 10-15 daqiqa davomida konsultatsiya qilinadi, ekspert vrach faoliyatini 3 punkt bo'yicha tekshiradi:

10. Nima to'g'ri qilindi
11. Nima noto'g'ri qilindi
12. Qanday qilish kerak

Guruh konsultatsiyasi xulosasini ekspert xulosasi bilan taqqoslaydilar.

Boshqa xil turi: talabalar ekspert rovida poliklinikada, haqiqiy konsultatsiyada ishtirok etib, butun guruh bilan analiz qilinadi.

Qon aylanish sistemasini asboblarda yordamida tekshirish usullari

Elektrokardiografiya (EKG) – yurak biotoklarini yozib olish. Muskul to'qimasining qo'zg'alishi fizik – kimyoviy o'zgarishlar bilan ifodalanadi. Bularning eng muhimi muskulning qo'zg'algan qismida manfiy elektr oqimi paydo bo'lishi bo'lib, u natriy (Na^+) va kaliy (K^+) ionlarining hujayra pardasi orqali harakatlanib turishiga bog'liq. Bunda hujayralarning manfiy va musbat qismlari yuzasida potentsiallar farqi vujudga keladi yoki depolyarizatsiya jarayoni hosil bo'ladi. Agar shu vaqtda elektrodning bir uchini muskul tolasi qismiga qo'zg'algan qismiga, ikkinchi uchini tinch holatdagi qismiga qo'ysak, tashqi zanjirga tok hosil bo'ladi. Bu tok musbat qismdan manfiyga qarab yo'naladi. Tok hosil bo'lishi grafik shaklda yozib olinsa, to'g'ri elektr chizig'idan chetga og'ish sodir bo'ladi. Hujayraning tashqi yuzasi manfiy elektr oqimiga ega bo'lib, ichki yuzasi musbat bo'lsa, teskari polyarizatsiya vujudga keladi. Qo'zg'alish davrining oxirida repolyarizatsiya sodir bo'ladi va egri chiziq boshqa tomonga og'adi.

Agar hujayraning tashqi yuzasi musbat bo'lib, ichki yuzasi manfiy bo'lsa, egri chiziq yana to'g'ri chiziqqa aylanadi. Xuddi shunday holat yurakda ham kuzatiladi. Yurak juda ko'p muskul tolalaridan iborat bo'lib, depolyarizatsiya vaqtida qo'zg'alish hosil bo'ladi. Natijada qo'shni muskul tolalari ham qo'zg'aladi. Qo'zg'alish sinus tugunidan boshlanadi. U o'ng bo'lmachada yuqori kovak venaning quyilish joyida kuzatiladi, bu yerdan impuls o'tkazuvchi yo'llar orqali bo'lmachalarga tarqaladi. Oldin o'ng, so'ngra chap bo'lmachani egallaydi. Keyin qo'zg'alish atrioventrikulyar tugunga o'tadi, u yerda qo'zg'alish bir oz ushlanib, so'ngra Gis tutamlariga o'tadi, uning chap va o'ng oyoqchalariga hamda ular bo'linib Purkine to'r tolalarini qamrab oladi, bu tolalar bir-biri bilan keng miqyosda bog'langan bo'ladi. Yuqorida ko'rsatilgan o'tkazish elementlaridan tashqari, qo'shimcha yo'llar bo'lib, impulslar shu aylanma yo'llar orqali qorinchalarga yetib borishi mumkin: keng tutamli bu bo'lmacha muskullarni chap va o'ng qorincha muskullari bilan bog'lab turadi. Djeyms tutami bo'lmachani atrioventrikulyar tugunning pastki qismi va Gis tutamlari bilan muskullarga tarqaladi, bu qo'zg'alish jarayoni ichki subendokardial qismdan tashqi subendokardial qismga qarab yo'nalgan.

EKG ni yozib olish elektrodlar yordamida amalgam oshiriladi. Elektrodlar tananing turli qismlariga qo'yiladi. Bunda har xil elektr potentsiallari vujudga keladi. Yurak biotoklari faqat yurakning o'zida bo'lmasdan, butun tana bo'ylab tarqaladi, shuning uchun uni tananing hamma qismida yozib olish mumkin. Klinika amaliyotida asosan 12 ta ulanish bo'lib, ulardan 6 tasi qo'l – oyoqlarga, 6 tasi ko'krakka ulanadi. I ulanish o'ng qo'l (-) va chap qo'lga (+), II ulanish o'ng qo'l (-) va chap oyoqqa (+), III ulanish o'ng qo'l (-) va oyoqqa (+). Ko'krak qafasida bu ulanishlarning o'qi to'g'ri yassilikda Eyntxoven uchburchagini hosil qiladi. Eyntxoven gollandiyalik olim bo'lib, u 1903 yilda torli galvanometr yordamida birinchi marta yurak biotoklarini yozib olgan. III – ulanishda ikki marta, ya'ni nafas olib uni ushlab turilgan holatini yozib olgan.

Qo'l - oyoqlarda kuchaytiruvchi ulanishlar ham qayd qilinadi. QVR - o'ng qo'lda, QVZ - chap qo'lda va QVF - chap oyoqda (inglizcha so'zning birinchi harfi bilan belgilanadi): a – kuchaytirilgan. R - o'ng, Z – chap, F – oyoq.

Asbobning musbat qutbiga qo'l - oyoqdan yozib olinishi kerak bo'lgan elektrod simi ulanadi, manfiy qutbiga esa qolgan qo'l - oyoqlardan kelgan elektrod simlarining yig'indisi ulanadi. Ko'krak ulanishlari quyidagicha belgilanadi: V₁, V₂, V₃, V₄, V₅, va V₆. asbobning musbat qutbidagi elektrod quyidagi ko'krak nuqtalariga o'rnatiladi:

IV qovurg'a oralig'idagi to'sh suyagining o'ng qirg'og'iga.

IV qovurg'a oralig'idagi to'sh suyagining chap qirg'og'iga.

IV – V qovurg'a oralig'idagi to'sh suyagiga yaqin chiziqqa.

V qovurg'a oralig'idagi o'mrov suyagining o'rta chizig'iga.

V qovurg'a oralig'idagi oldingi qo'ltiq osti chizig'iga.

V qovurg'a oralig'idagi o'rta qo'ltiq osti chizig'iga.

Asbobning manfiy qutbiga chap oyoq, o'ng va chap qo'llarning potensialini birlashtiruvchi Vilson elektrodi ulanadi. Ayrim hollarda qo'shimcha ko'krak ulanishlari – NEB bo'yicha II qutbli, Gurevich bo'yicha, qizilo'ngach ulanishlari, yurak bo'shliqlarini zond bilan tekshirilgandagi ulanishlar va boshqalar yozib olinadi.

Me'yordagi EKG da quyidagi tishlar yozib olinadi: P, Q, R, S, T, ba'zan U va ularning PO oraliqlari ORST qayd qilinadi. Tishlarning kengligi va og'irligi sekundlar bilan o'lchanadi.

Elektrokardiogrammani o'qish. EKG ni o'qish (shifrini topish) yurak maromini tahlil qilishdan boshlanadi. Avvallo yurak faoliyatini hamma davrida P – P oralig'ining muntazamliligini baholash kerak (III nafas olishdagi ulanishdan tashqari). So'ngra qorinchalar ritmining tezligi aniqlanadi, buning uchun sekundlar soni P – P oralig'I kattaligiga bo'linadi.

Agar marom noto'g'ri bo'lsa va P – P masofasi har xil bo'lsa, lekin farqi kam bo'lsa (0,01 sek gacha), bu holda marom tezligini aniqlash uchun P – P masofasining bir qanchasini o'rtacha davomlilik olinadi. P – P masofasi har xilligi yurak urish maromi buzilganligidan dalolat beradi. Marom manbaini aniqlash uchun P – tishning qorinchalar kompleksiga bog'liqligini bilish kerak. Agar P – tishi me'yordagi shaklga ega bo'lsa va ORS kompleksidan oldin kelsa, marom manbai sinus tuguni deb hisoblanadi.

P – tishning tahlili. P – tishi bo'lmachalar qo'zg'alishini ifodalaydi. Me'yorda P – tishi hamma ulanishlarda musbat bo'ladi, ba'zan 2 davrli yoki manfiy bo'lishi mumkin. I va II ulanishlarda uning kattaligi 0.250mv dan oshmaydi. Kengligi 0.1 sek. Yuqoriga ko'tarilish bo'g'imi o'ng bo'lmachaning, pastga tushishi chap bo'lmachaning qo'zg'alishini ifodalaydi.

P – tishi me'yorda II ulanishda eng katta balandlikka ega bo'ladi. P – Q oralig'i bo'lmacha depolyarizatsiyasi bo'lib, qo'zg'alishning atrioventrikulyar tugundan o'tishiga ketgan vaqtni ifodalaydi. P – Q oralig'ining davomiyligi yurak qisqarishining tezligiga bog'liq bo'lib, me'yorda 0.12 dan 0.18, 0.20 sek gacha o'zgarib turadi. P – tishining kengligini va P – Q oralig'i davomlilikini o'lchash ulanishlarning eng katta tishida bajariladi, u II ulanish bo'lib hisoblanadi.

Q tishi qorinchalararo to'siqning depolyarizatsiyasini ifodalaydi, u doimo manfiy bo'ladi va odatda P – tishning $\frac{1}{4}$ qismidan oshmaydi, kengligi 0.03 sek gacha bo'ladi. Q tishi ko'rsatilgan parametrlardan chiqadigan bo'lsa, u muskullarda patologik o'zgarishlar belgisi bo'lib hisoblanadi.

R – tishi yurak qorinchalarining oldingi, orqa, yon tomoni hamda yurak uchi depolyarizatsiyasini ifodalaydi. R – tishning kattaligini baholashda uning har xil ulanishlardagi balandligini, bir – biriga bog'liqligini ko'zda tutish, R va S tishlarning o'zaro munosabatiga ahamiyat berish kerak. R – tishning kattaligi me'yorda 0,5-1,5 mv ga teng bo'ladi. Agar R – tishning kattaligi standart ulanishda 0,5 (5mm) yoki bu tishlar kattaligining yig'indisi uchala standart ulanishda 1,5 mv (151mm) dan oshmasa, bunda EKG voltaji past hisoblanadi. S – tishi manfiy, R – tishdan keyin keladi va yurak asosining qo'zg'alish jarayonini ifodalaydi. Kattaligi yurak elektr o'qining holatiga, ulanishga va boshqa sabablarga ko'ra o'zgaradi.

QRS – kompleksi yurak qorinchalari depolyarizatsiyasi jarayonini ifodalaydi. Uning kengligi Q – T tishning boshlanishidan S – tishning oxirigacha o'lchanadi. S – T oralig'I qorinchalarda qo'zg'alishning so'nish vaqtiga va asta – sekin repolyarizatsiyasining boshlanishiga to'g'ri keladi. Me'yorda S – T oralig'I izoelektr chizig'ida bo'lib, u 1mm gacha tebranishi mumkin. T – tishi qorinchalarning tez repolyarizatsiyalanish jarayonini ifodalaydi, u hamma ulanishlarda musbat bo'ladi, faqat AVR – ulanishda hamma vaqt manfiy bo'ladi. T – tishning balandligi R tishning balandligi $\frac{1}{4} - \frac{2}{3}$ qismi teng bo'ladi. T – tishni baholashda uning yo'nalishiga, shakliga va kattaligiga ahamiyat berish kerak. T – tishning o'zgarishi aniqlanganda uni albatta QRS – kompleksi va S – bo'g'imi bilan solishtirish kerak. Q – T oralig'I (QRST) T – tishning oxirigacha o'lchanadi, u qorinchalarning elektrik qisqarishiga mos keladi. T – tishning davomlilikigi yurak qisqarishining tezligiga va boshqa sabablarga bog'liq bo'ladi.

Q – T oralig'ini aniqlash uchun turli formulalar belgilangan. Bazetta formulasi eng ko'p qo'llaniladi. $Q - T = K \cdot R - R$; K – koeffitsent. U erkaklar uchun 0.37 ga va ayollar uchun 0.39 ga teng.

U – tishi hamma vaqt ham aniqlanavermaydi. T – P oralig'i yurakning elektrik diastolasini ifodalaydi.

AVR da P va T tishlari manfiy, P – tishi zo'rg'a ko'rinadi yoki ko'rinmaydi. Q – tishi odatdagidek, S – T oralig'I izoelektrik chiziqdan ko'tarilgan bo'lishi mumkin. Ko'krak ulanishlari yurak muskullari holatini aniqlashda ancha aniq ma'lumot olish imkomimi beradi.

Oldingi uchta ko'krak ulanishida ($V_1 - 3$) o'ng qorincha biotoklari yozib olinadi. Bunda qorinchalararo to'siqning oldingi va chap qismi yozib olinadi. V_{4-5} – chap qorinchaning old, yon va orqa yurak uchi qismlari elektr faolligini yozib oladi. V_6 – asosan orqa yon tomonlarni ifoda etadi.

Ba'zan V_{2-5} ko'krak ulanishlari o'ng va V_{v-6} ko'krak ulanishlari chap ulanish deb ataladi. Ko'krak ulanishlarida R va T tishning voltajlari katta bo'ladi. Standart ulanishlarga qaraganda V_1 ulanishda R va T tishi past va ikki davrli yoki manfiy, V_2 da R tishi o'sib boradi, lekin hali katta bo'ladi. T – tishi musbat (V_3). R – tishining voltaji yuqori, R – tishi S – tishga teng bo'lib qoladi, shuning uchun bu ulanish oldingi doira deyiladi. V_{4-6} ulanishda EKG kompleksi II standart ulanishga o'xshab ketadi.

Yurakning elektr o'qi holatini aniqlash. Yurakning elektr o'qi (Yu EO') holatini aniqlash muhim tashxisiy ahamiyatga ega. Odatda yurakning elektr o'qining yo'nalishi uning yo'nalishi uning anatomic yo'nalishiga mos keladi. Yu EO' ni Eynxoven uchburchagi bo'yicha aniqlash mumkin, uning tomonlari oyoq qo'llardagi ulanishni ifodalaydi.

Elektr harakat kuchining kattaligi va yo'nalishi AV o'qi bilan belgilanadi. Ana shu o'qlarning oxiridan uchburchak tomonlariga tik chiziq (perpendikulyar) o'tkazilsa, har bir ulanishlardagi yozib olinadigan potentsiallar ayirmasining kattaligi to'g'risida tushuncha hosil qilish mumkin. Yu EO' ning normal vaziyatiga eng yuqori potentsiallar ayirmasi II standart ulanishda yozib olinadi, chunki bu ulanish Yu EO' bilan yonma – yon (parallel) ketadi. Bu ulanishda eng katta kuchlanish voltaji qorinchalar kompleksida, ayniqsa R – tishida bo'ladi. Kichik potentsiallar ayirmasi I ulanishda, juda kichigi III standart ulanishda bo'ladi.

Eynxoven jadvaliga asosan II ulanishdagi R – tishining kattaligi I va III ulanishlardagi R – tishlarining algebraik yig'indisiga teng, ya'ni $R_{II} = R_I + R_{III}$. R – tishining o'rtacha kattaligidagi o'zaro nisbati EO' normal vaziyatda shunday ifoda qilinadi. $R_{II} > R_I > R_{III}$. Yurakning gorizontaal vaziyatida (gipersteniklarda) ko'krak – qorin to'sig'i yuqori turganda Yu EO' I ulanish bilan yonma – yon yotadi, shuning uchun eng katta R tishi I ulanishda yozib olinadi, uni shunday izohlash mumkin: $R_{II} > R_I > R_{III}$. Yurakning tik (vertikal) vaziyatida (asteniklarda) ko'krak – qorin to'sig'i past turganda eng katta potentsiallar ayirmasi III ulanishda bo'ladi, chunki u yurakning elektr o'qiga yondosh (parallel) yotadi. Eng katta "R" tishi III ulanishda bo'ladi, bu shunday ifodalanadi $R_3 R_2 R_1$. Yu EO' ligini gradusda ham ifodalash mumkin II va I ulanishdagi o'qdan hosil bo'lgan burchak 0° ga teng.

Agar odam tanasini sharsimon (sferik) o'tkazgich deb tasavvur qilsak va sharni 360° ga bo'lsak, yuqori qismida $0^\circ - 180^\circ$ manfiy zaryad va pastki qismida $0^\circ + 180^\circ$ musbat zaryad bo'ladi, shuning uchun Yu EO' sog'lom yurakda $0 - 90^\circ$ gacha hisoblashadi.

Baholash mezonlari №15

Mustaqil ish. Bakterial endokardit simptomatologiyasi

Mavzuning nomi	Ball	Ba ho	Talabning bilim darajasi
Normal EKG. Tishlar, interval, segmentlar haqida tushuncha va ularning hosil bo'lish mexanizmi. Avtomotizm qo'zg'aluvchanlik vazifalari buzilganda EKG. Yurak funksiyasini buzilishi: avtomotizm, qisqarish, qo'zg'alish, o'tkazish	86-100	A'lo	Xulosa va qaror qabul qila oladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, amalda qo'llay oladi, mohiyatini tushuntiradi, biladi, aytib bera oladi, tasavvurga ega.
	71-85	Yaxshi	Mustaqil mushohada yuritadi, amalda qo'llay oladi, mohiyatini tushuntiradi, biladi, aytib bera oladi, tasavvurga ega.
	55-70	Qoniqli	Mohiyatini tushuntiradi, biladi, aytib bera oladi, tasavvurga ega.
	0-54	Qoniqsiz	Tasavvurga ega emas, bilmaydi.

Uyga vazifa. 16

Amaliy mashg'ulot №16

Asosiy klinik sindromlar. Koronar tomir yetishmovchiligi sindromi. Qon aylanish yetishmovchiligi sindromi. Yurak astmasi, o'pka shishisi. Tomir yetishmovchilik sindromi. Kardiomegaliya. Kichik qon aylanish doirasida gipertenziya sindromi.

1. Amaliy mashg'ulot o'qitish moduli.

Mashg'ulot vaqti – 4 soat	Studentlar soni: 10 dan 12 gacha
Mashg'ulot formasi	Amaliy mashg'ulot
Amaliy mashg'ulot rejasi	Revmatizm va birlamchi revmokardit simptomatologiyasi. Revmatizm etiologiyasi va patogenezi. Revmatizm bilan bemorlarni tekshirish. Revmatizm va birlamchi revmokardit simptomatologiyasi. Yurak mitral illati simptomatologiyasi (mitral qopqoq yetishmovchiligi va mitral stenoz).
Amaliy mashg'ulot maqsadi:	Talabalarni revmatizm, birlamchi revmokardit, yurak mitral illati kabi patologik holatlar bilan tanishirish.
O'qitish uslubi	So'rov. Bemorlarni dmonstratsiya qilish, interaktiv o'qitish uslubi, amaliy ko'nikma.
O'qitish formasi	Kichik podgruppalarida.
O'qitish jihozlari	O'quv qo'llanma, amaliy mashg'ulotlar mundariyasi, proektor, kompyuter.

O'qitish holati	Metodik jihozlangan auditoriya.
Monitoring va baholash	Og'zaki kontrol: savol-javob, testlar, muammoli masala.

1.2. Amaliy mashg'ulot texnologik kartasi

Ish bosqichlari va vaqti.	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorlov bosqichi	40. Auditoriya tozaligini nazorat qiladi 41. Talabalarni mashg'ulotga tayyorgarligini tekshiradi 42. Davomatni nazorat qiladi	
1.O'quv mashg'ulotiga kirish bosqichi (10 daqiqa)	1.Mavzu b'yyicha o'quv mazmunini tayyorlash. 2.Kirish ma'ruzasi uchun taqdimot silaydalarini tayyorlash 3. Fanni o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini ishlab chiqish	
2 – asosiy bosqich (160 daqiqa)	1. Talabalarni kichik guruhlariga bo'lib, mavzu bo'yicha savollarni beradi. 2. Ko'rgazmali plakatlardan foydalanadi 3. Slaydalar, multimedialardan foydalanadi 4. Davolash ishlarini olib boradi 5. Mavzular asosida berilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi, faol ishtirokchi talabalarni rag'batlantiradi va umumiy baholaydi	Kichik guruhlariga bo'linadilar Tomosha qiladilar qatnashadilar Tinglaydilar va savollarga javob beradilar
1-yakuniy bosqich (10 daqiqa)	1. Yakunlovchi xulosa qiladi 2. Mustaqil ish beradi 3. Uyga vazifa beradi	Tinglaydi Yozib oladi Yozib oladi

3. Talabalarning nazariy bilimlarini baholash:

A)Frontal usuli:

1. 1. Revmatizmga tavsif bering
2. Revmatizm etiopatogenezi
3. Revmatizmning patomorfologik o'zgarishlar va ularning kasalligi klinikasi bilan bog'liqligi
4. Revmatizm klassifikatsiyasi
5. Revmatizm klinikasi
6. Asosiy va qo'shimcha diagnostika belgilari
7. Revmatizm bilan og'riq bemorlarni umumiy ko'zdan kechirish
8. Birlamchi revmokardit to'g'risida tushuncha bering
9. Qaytalama revmokardit to'g'risida tushuncha bering
10. Revmatizmning asosiy laborator ko'rsatkichlar
11. Revmatizmning EKG va EHOKG o'zgarishlari
12. Revmatizm asoratlari
13. Mitral nuqsonlarga tavsif bering
14. Mitral klapan etishmovchiligida gemodinamik o'zgarishlar
15. Mitral nuqson etiologiyasi
16. Mitral klapan etishmovchiligining klinikasi
17. Mitral klapan etishmovchiligida fizikal tekshirishni natijalari
18. Mitral teshik stenozida gemodinamik o'zgarishlar
19. Mitralstenoz klinikasi diagnostikasi
20. Mitral stenozda rengenologik tekshirishdagi o'zgarishlar.EKG EHOKG,FKG

“Stol o’rtasida ruchka” usuli

Butun gruppaga savol beriladi (masalan, qandli diabet simptomlari, beta-blokator gruppasiga mansub dori darmonlar, YuIK moyillik omillari). Har bir talaba o’z javobini varaqqqa yozib oladi va hamsoyasiga yuboradi, ruchkani esa stol o’rtasiga qo’yadi.

O’qituvchi gruppaga ishini kontrol qiladi va umumiy variantni daftariga yozib oladi.

Revmatizm—biriktiruvchi to’qimaning sistem yallig’lanishi bo’lib, asosan, yurak va qon tomirlar sistemasida, kasallikka moyil kishilarda, A guruhiga kiruvchi V—gemolitik streptokokk bilan bog’liq holda rivojlanadi. Bu kasallikda, shuningdek, bo’g’im seroz pardalari, asab sistemasi va boshqa ichki a’zolarning biriktiruvchi to’qimalari yallig’lanishi mumkin. Kasallikka keltirilgan bu ta’rif (V.A.Nosonova, I.A.Bronzov, 1978) uning rivojlanishida: 1) asosan yurak va qon tomirlar sistemasi shikastlanishini; 2) kasallik rivojlanishiga moyil irsiyatning o’rnini; 3) streptokokk infeksiyasining rolini ta’kidlaydi.

Kasallikning mohiyati yurakning hamma qavatlari, shu jumladan, asosan, miokard va endokard shikastlanib, yurak yetishmovchiligini kel-tirib chiqaradigan qopqoqlar shaklining buzilishi va yurak teshiklarining torayishi—yurak illati rivojlanishidadir. Boshqa ichki a’zolar va a’zolar yig’indisining revmatizm bilan shikastlanishi 2- darajali ahamiyatga ega va kasallikning og’ir-yengilligini hamda oqibatini aniqlashga yordam bermaydi. Revmatizm hamma yoshdagi kishilarni, lekin ko’pincha bolalarni, yoshlarni shikastlantiradi. Revmatizm yer yuzining turli iqlimiy-geografik mintaqalarida uchraydi. Revmatizm bilan shikastlanish va mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi o’rtasida uzviy bog’liqlik borligi ma’lum. Revmatizm bilan shikastlanishda uy-joy va maktab sharoitlarining taqchilligi, sifatsiz ovqatlanish, tibbiy yordam ko’rsatishning past darajadali alohida o’rin tutadi. Sabablari. Revmatizmning asosiy sababi streptokokk infeksiyasi bo’lib, uning kelib chiqishi va rivojlanishining 2- asosiy omili organizm reaktivligining o’zgarishidir. Revmatizm bilan shikastlangan kasallarning kasallik boshlanishidan oldin angina yoki surunkali tonzillit bilan og’riganlari aniqlanadi. Streptokokk infeksiyasi bilan bog’liqlik bemorlar qonida streptokokk antigenlari va streptokokk antigenlariga qarshi antitanalar (ASL-O, ASG, antidezoksiribonukleaza B) katta miqdorda topilishi bilan tasdiqlanadi. Streptokokk virulentligi streptokokk hujayra devoridagi M- oqsilning miokardni shikastlantiruvchi xili, uni revmatizm keltirib chiqaradigan xillaridagina uchraydigan C-oqsil, streptokokk tashqi qovug’ida joylashgan va neytrofillarning fagotsitar faolligini yo’qotuvchi gialuron kislotasi, endotoksik ta’sir ko’rsatuvchi mukopeptid bo’lishi bilan bog’liqdir. O’tkir streptokokk infeksiyani o’tkazgan bemorlarning 0,3—3 foizigina revmatizm bilan shikastlanadi.

Tanaga streptokokk infeksiyasi kirishiga javoban unda qonda aylanib yurib, o’ta kichik qon aylanish yo’nalishlarida (mikrosirkulatsiyada) cho’kib, o’tirib qo-luvchi streptokokk antigenlariga qarshi antitanalar ishlab chiqariladi va immunologik birikmalar paydo bo’ladi. Miokard va biriktiruvchi to’qimani yana streptokokk zaharlari va fermentlari zararlantiradi. Revmatizm bilan kasallanganlarda immunolo-gik sistemaning genetik kamchiligi bo’lgani uchun streptokokk antigeni va immunologik birikmalar tanadan tezgina yo’qol-maydi.

Revmatizmida har xil a’zolar va a’zolar guruhining shikastlanishi, biroq, asosan, yurak shikastlanishi, kamroq hollarda bo’g’im shikastlanishi yuz beradi. Revmatik jarayon o’ziga xos kechish xususiyatlari, klinik belgilariga ko’ra 5 xil ko’rinishda bo’ladi:

- o’tkir kechish - birdan boshlanib, kasallikning bir qancha klinik belgilari yaqqol namoyon bo’lganda patologik jarayonning yuqori darajada faolligi bilan o’tadi, davolash tez va yaxshi natijali bo’ladi;

- oʻrtacha oʻtkir kechish- xuruji 3-6 oy davom etadi, klinik belgilari kasallikning oʻtkir kechishiga qaraganda biroz sustroq boʻladi; patologik jarayon ham oʻrtacha faollikda kechadi. Davo-lanish natijasi ham oʻrtacha boʻladi;

-choʻzilgan kechish - xuruji 6 oydan koʻproq davom etadi, kasallik belgilari kam, bir maromda boʻlib, patologik jarayon oʻrta darajadagi faollik bilan kechadi, uzluksiz qaytalaydigan, kechishi toʻlqinsimon va notoʻliq sogʻayish bilan oʻtadi, shikastlangan aʼzolar soni har xurujda koʻpayib boradi;

— yashirin kechish — revmatizm bilan shikastlanganlik koʻpincha klinik, laboratoriya hamda asboblardan tekshirishda aniqlanmasligi mumkin. Bemorda revmatizmning yashirin kechganini, kasallikning asorati — yurak illati paydo boʻlganidan bilish mumkin.

Klinikasi. Maʼlumki, revmatizm yurak va qon tomirlar sistemasi jarohatlanadi. Shu sababli revmatizmning hamma belgilarini yurak va yurakdan tashqari belgilarga boʻlish maqsadga muvofiq boʻlib, kasallikning klinik manzarasini shu nuqtayi nazar-dan oʻrganish kerak. Revmatizmning klinik manzarasi kasallik davri, yalligʻlanish jarayonining faollik darajasi, kasallikning kechish xususiyati, tabiati, yurak illatlari va yetishmovchiligi mavjudligi va boshqalarga bogʻliq. A.I.Nesterov fikricha, kasallikning rivojlanishi va klinik manzarasi shakllanishida uchta asosiy davrni farq qilish mumkin.

Yurak illati shakllangan, bundan tashqari yurak yetishmovchiligi paydo boʻlgan bemorlarda revmatizm qaytalansa, uning faollik belgilarini topish ancha qiyin. Revmatizmning birinchi xuruji koʻpincha oʻtkazilgan infeksiya bilan bogʻliq boʻladi. Angina yoki yuqori nafas yoʻllarining shamollashidan 1-2 hafta oʻtgach tana harorati baʼzida 38-40°C gacha koʻtariladi, bir kunlik oʻzgarish 1-2°C ni tashkil qiladi va koʻp terlash kuzatiladi. Revmatizm qaytalanib, navbatdagi yangi yalligʻlanish faqat oʻtkazilgan infeksiya bilan bogʻliq boʻlmay, balki boshqa sabablar: sovuq qotish, jismoniy zoʻriqish, jarrohlik muolajalaridan keyin boʻlishi mumkin.

Kasallikning eng koʻp uchraydigan belgisi- yurak shikastlanishi - revmokarditdir. Revmokardit deganda, bir vaqtning oʻzida yurakning miokard va endokardit (80-100% bemorlarda) shikastlanishi nazarda tutiladi.

Revmokarditda koʻpincha miokardit (80-100%), 15-10% bemorlarda pankardit kuzatiladi. Miokardning klinik belgilari eksudatli yalligʻlanishning miokardga tarqalish darajasiga bogʻliq boʻladi. Shunga koʻra yaqqol, oʻrtacha va sust ifodalangan karditlar farqlanadi. Katta yoshdagi odamlarda revmokardit yengilroq, oʻrtacha va sust ifodalangan koʻrinishda oʻtadi. Bemorlar yurak sohasidagi kuchsiz ogʻriq va noxush sezgilardan, harakat qilganda hansirashdan, baʼzi hollarda yurak urishi yoki yurakning notekis urushidan shikoyat qiladilar. Bu belgilar yurakning revmatizm bilan shikastlanganligiga xos belgilar boʻlmay, balki uning boshqa kasalliklarida ham uchraydi.

Perikardit hozirgi davrda revmatizmning yurakdan tashqari belgilariga oʻxshab kam, asosan, yoshlar va bolalarda, revmatizm oʻtkir kechganda uchraydi. Quraq perikardit rivojlanganda bemorlar yurak sohasida paydo boʻlgan doimiy ogʻriqdan shikoyat qiladilar. Yalligʻlanish suyuqligi yigʻilishi bilan ekssudatli perikardit yurak qopchasida seroz-fibrinoz yalligʻlanish suyuqligi-ekssudat paydo boʻlishiga olib keladi; bu holda suyuqlik perikard varaqalarni bir-biridan ajratib yuborganligi tufayli yurak sohasidagi ogʻriq yoʻq boʻlib ketadi. Bemorning gorizontol holatida kuchayadigan hansirash paydo boʻladi. Quraq perikarditda perikard ishqalanishi shovqini, yurak chegaralarining hamma tomonga kengayganligi, yurak qopchasiga suyuqlik yigʻilganda esa tonlarning pastligi, katta qon aylanish doirasida qon dimlanishi belgilari paydo boʻlganligi aniqlanadi. Revmatik poliartit revmatizm oʻtkir kechganda 50% bemorlarda uchraydi. Bemorning katta boʻgʻimlarida ogʻriq paydo boʻlganligi, faol harakat qilish qiyinlashganligi va cheklanganligi, boʻgʻimlarning qizargani va hajmi kattalashganligi qayd etiladi.

Davolash. Hozirgi davrda revmatizmni davolash uch bosqichda olib boriladi. 1. Kasallikni faol davrida kasalxonada davolash. 2. Kasalxonadan chiqqandan keyin davolashni poliklinikani kardiorevmatologik xonasida davom ettirish. 3. Bemorni ko'p yillar davomida poliklinikada kasallik qaytalanishining oldini olish maqsadida davolash va nazorat qilib borish. Davolash muolajalari quyidagilardan iborat: a) streptokokk infeksiyasiga qarshi kurashish; b) faol revmatik jarayonni davolash; d) immunologik o'zgarishlarni bartaraf qilish. Revmatizmning faol davrida streptokokk infeksiyasini yo'qotish uchun antibiotiklar, asosan, penitsillin va yarim sun'iy penitsillinlar qo'llaniladi. Davolash ikki hafta davomida olib boriladi. Sulfanilamidlar va tetratsiklin guruhidagi antibiotiklarni qo'llash maqsadga muvofiq emas, chunki bu dorilar bakteriostatik ta'sir ko'rsatib, streptokokklarning chidamli turlari paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin. Faol revmatizmni davolashda yallig'lanishga qarshi har xil nosteroid dorilar ham qo'llaniladi. Bulardan asetilsalitsilat kislotasi 1 g dan 3—4 marta (bir kunda 3—4 g) beriladi. Bu dori bemorga foyda bermasa yoki yoqmasa, 0,4 g dan bir kunda 3 marta brufen yoki 0,15 g dan butadion buyuriladi. Qo'shimcha salbiy ta'siri kamroq bo'lgan voltoren yoki indo-metatsin (0,05 g dan bir kunda 3 marta) ham berilishi mumkin. Bu dorilarni ovqat yoki sut bilan bir vaqtda ichish kerak. Bemor shifoxonadan chiqqandan keyin asetilsalitsilat kislotani bir kunda 1,5—2 g, brufenni 0,6 g, indometatsin va voltorenni 0,02—0,05 g ichish buyuriladi, bu dorilarni poliklinika shifokori nazorati ostida qabul qilish kerak. Ambulatoriya sharoitida davolanish muddati revmatik jarayonning kechish xususiyatlariga: o'tkir, o'rtacha o'tkir kechganda, 1—2 oyga cho'zilib va uzluksiz qaytalab kechganda, 2—4 oy bo'lib, laboratoriya ko'rsatkichlarining asli holiga qaytishiga bog'liq. Kasallik qaytalanishining oldini olish tadbirlari bemorlarga yil bo'yi har oyda 1500000 TB dan bitsillin-5 qo'llab, streptokokk infeksiyasiga qarshi kurashish, infeksiya o'choqlarini davolashni o'z ichiga oladi. Revmatizm bilan kasallanganlar, albatta, dispanser hisobiga olinadi va kasallik qaytalanishini o'z vaqtida aniqlash, uni davolash, yurak illatlari og'irlashib borganda jarrohlik usuli bilan davolash zarurligi masalalari hal qilib boriladi.

Baholash mezonlari №16

Mavzuning nomi	Ball	Bah o	Talabning bilim darajasi
Revmatizm va birlamchi revmokardit simptomatologiyasi. Revmatizm etiologiyasi va patogenezi. Revmatizm bilan bemorlarni tekshi-rish.	86-100	A'lo	Xulosa va qaror qabul qila oladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, amalda qo'llay oladi, mohiyatini tushuntiradi, biladi, aytib bera oladi, tasavvurga ega.
Revmatizm va birlamchi revmokardit simptomatologiyasi. Yurak mitral illati simptomatologiyasi (mitral qopqoq yetishmovchi-ligi va mitral stenoz).	71-85	Yaxshi	Mustaqil mushohada yuritadi, amalda qo'llay oladi, mohiyatini tushuntiradi, biladi, aytib bera oladi, tasavvurga ega.
	55-70	Qoniqarli	Mohiyatini tushuntiradi, biladi, aytib bera oladi, tasavvurga ega.
	0-54	Qoniqsiz	Tasavvurga ega emas, bilmaydi.

Amaliy mashg'ulot №17

Revmatik isitma va birlamchi revmakardit simptomatologiyasi. Mitral teshik torayishi va mitral qopqoqchalar yetishmovchiligi. Diagnostika va asosiy davolash prinsiplari. Aortal nuqsonlar. Aorta ravog'i stenozi. Aorta qopqoqchalar yetishmovchiligi. Diagnostika va asosiy davolash prinsiplari.

1. Amaliy mashg'ulot o'qitish moduli.

Mashg'ulot vaqti – 4 soat	Studentlar soni: 10 dan 12 gacha
Mashg'ulot formasi	Amaliy mashg'ulot
Amaliy mashg'ulot rejasi	Aortal illatlar simptomatologiyasi (aortal qopqoq yetishmovchiligi va aortal teshik torayishi). Qon aylanish yetishmovchiligi (kompensatsiyalangan va dekompensatsiyalangan holat). Tomir yetishmovchiligi.
Amaliy mashg'ulot maqsadi:	Talabalarni aortal illatlar va qon-tomir yetishmovchiligi kabi patologik holatlar bilan tanishtirish.
O'qitish uslubi	So'rov. Bemorlarni dmonstratsiya qilish, interaktiv o'qitish uslubi, amaliy ko'nikma.
O'qitish formasi	Kichik podgruppalarida.
O'qitish jihozlari	O'quv qo'llanma, amaliy mashg'ulotlar mundarijasi, proektor, kompyuter.
O'qitish holati	Metodik jihozlangan auditoriya.
Monitoring va baholash	Og'zaki kontrol: savol-javob, testlar, muammoli masala.

1.2. Amaliy mashg'ulot texnologik kartasi

Ish bosqichlari va vaqti.	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorlov bosqichi	43. Auditoriya tozaligini nazorat qiladi 44. Talabalarni mashg'ulotga tayyorgarligini tekshiradi 45. Davomatni nazorat qiladi	
1. O'quv mashg'ulotiga kirish bosqichi (10 daqiqa)	1.Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash. 2.Kirish ma'ruzasi uchun taqdimot silaydalarini tayyorlash 3. Fanni o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini ishlab chiqish	
2 – asosiy bosqich (160 daqiqa)	1. Talabalarni kichik guruhlariga bo'lib, mavzu bo'yicha savollarni beradi. 2. Ko'rgazmali plakatlardan foydalanadi 3. Slaydalar, multimedialardan foydalanadi 4. Davolash ishlarini olib boradi 5. Mavzular asosida berilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi, faol ishtirokchi	Kichik guruhlariga bo'linadilar Tomosha qiladilar qatnashadilar Tinglaydilar va savollarga javob

	talabalarni rag'batlantiradi va umumiy baholaydi	beradilar
1-yakuniy bosqich (10 daqiqa)	1. Yakunlovchi xulosa qiladi 2. Mustaqil ish beradi 3. Uyga vazifa beradi	Tinglaydi Yozib oladi Yozib oladi

3. Talabalarning nazariy bilimlarini baholash:

A) Frontal usuli:

1. 1 Aortal nuqsonlarga tavsif bering
2. Aortal klapan etishmovchiligi etiologiyasi
3. Aortal klapan etishmovchiligini gemodinamik o'zgarishlari
4. Aortal klapan etishmovchiligini klinik ko'rinishi
5. Aortal klapan etishmovchiligida bemorlarni umumiy ko'zdan kechirish
6. Karotid raqsi nima
7. MYusse simptomi nima
8. Traube ikkilangan shoqini va Vinogradov-DYuroz'ning ikkilangan shovqini nima
9. Aortal klapan etishmovchiligini rengenologik EKG va FKG o'zgarishlari
10. Aortal stenoz etiologiyasi
11. Aortal stenoz gemodinamikaning o'zgarishi
12. Aortal stenoz klinikasi
13. Aortal stenoz ob'ektiv va sub'ektiv ma'lumotlar
14. EKG, FKG va rengenografiya o'zgarishlar
15. Qon aylanish etishmovchiligining etiopatogenezi
16. Qon aylanish etishmovchiligining klinik ko'rinishi
17. Qon aylanish etishmovchiligining klassifikatsiyasi
18. Qon aylanish etishmovchiligining ob'ektiv va sub'ektiv o'zgarishlari
19. Tomir etishmovchiligi etiologiyasi
20. Tomir etishmovchiligi klinikasi, ob'ektiv va sub'ektiv ma'lumotlar

“Uch pog'onali intervyu” usuli

Har bir gruppada uchta talaba tanlab olinib, ular orasida “vrach”, “bemor” va “ekspert-UASH” rollari bo'linib beriladi. Bemor rolini tanlagan talabaga anonimno diagnozi aytiladi, va u shu diagnozga taaluqli shikoyatlar bildiradi, vrach diagnoz qo'yadi, ekspert UASH shiloyatlar va diagnoz mutanosubligini tekshiradi. Har bir guruh 10-15 daqiqa davomida konsultatsiya qilinadi, ekspert vrach faoliyatini 3 punk bo'yicha tekshiradi:

13. Nima to'g'ri qilindi
14. Nima noto'g'ri qilindi
15. Qanday qilish kerak

Guruh konsultatsiyasi xulosasini ekspert xulosasi bilan taqqoslaydilar.

Boshqa xil turi: talabalar ekspert rolida poliklinikada, haqiqiy konsultatsiyada ishtirok etib, butun guruh bilan analiz qilinadi.

AORTA KLAPANLARINING YETISHMOVCHILIGI

Aorta klapanlarining etishmasligi (insufficiencia valvularum aortae) har xil sabablarga ko'ra yuzaga keladi, bulardan revmatik endokarditdan tashqari septik endokardit va aortaning zaxm bilan zararlanishi muhim o'rinda turadi Aortaga zaxm tekkanda aorta klapanlarining yetishmasligi shu darajada ko'p uchraydiki, bu bordiyu katta yoshli odamda bunday porok borligi aniqlanib, anamnezida revmatizmga dalolat topilmasa, u kishida zaxm bo'lishi ehtimolini nazarda tutmoq lozim. Aorta klapanlarining revmatizm natijasida yuzaga kelgan yetishmasligi ko'pincha aorta

stenozisi yoki mitral porok bilan birga uchraydi, zaxm natijasida yuzaga kelgani esa uzi alohida uchraydi. Revmatik va septik aorta yetishmovchiligidan anatomik o'zgarishlar endokarditdagi o'zgarishlarni eslatadi; zaxm tekandan paydo bo'lgan yetishmovchilikda klapan tavaqalari kichrayib qoladi. Aorta klapanlarida yetishmovchiligi bor bemorlarning badani qoni qochib bo'zgan bo'ladi. Bo'zganlik kamqonlikka bog'liq emas balki yurakning diastolasi davrida teridagi arterial qon tomirlari ham to'lishi natijasidir, chunki bu davrda aortaning yarimoysimon klapanlarining yetishmasligi (nuqsoni) natijasida qonning bir qismi (demak katta qon aylanish doirasining bo'tun arterial sistemasining kam qonidan ma'lum miqdorda) chap qorinchaga qaytib keladi. Xuddi shu sababli aorta klapanlari yetishmasligida ko'rinib turga, arteriyalar kam pulsatsiyalanadi (quyiga qaralsin).

Yurak sohasini ko'zdan kechirishda yurakning cho'qqi turtkisi kuchli ekanligi va tarqoqligi bilinadi. Turtkining bu xususiyatlari sohani paypaslab ko'rilganda yaxshi aniqlanadi. Turtki paypaslovchi barmoqni ko'taradi («gumbazsimon turtki»), u faqat chap tomonga emas, balki o'ng tomonga ham — oltinchi qovurg'a oralig'iga siljiydi. Turtkining kuchayishi chap qorinchaning gipertrofiyasiga bog'liq bo'ladi; uning tarqoq xarakterda bo'lishi esa chap qorinchaning lilyatatsiyasiga bog'liq. Perkussiyada yurakning bo'g'iq tovushi sohasi chap tomonga kattalashganligi aniqlandi (128- rasm), bu gipertrofiya shuningdek chap qorinchaning kompensator (tonogen) dilyatatsiyasi hisob. Chap yurak dilyatatsiyaga bog'liq; holda yurak cho'vdisida ko'pincha sistolik shovqin) ham eshitiladi — bu nisbiy mitral yetishmovchilik natijasidirga yuzaga chiqadi. Aorta yetishmovchiligida qo'zg'aluvchi chap qorinchaning dilyatatsiyasi uning bo'shligi qon bilan tulishtirish natijasidir (chap bo'lmasdan chap qorinchaga kiruvchi odatdagi miqdor qondan tashqari, o'nga aorta klapanlari yetarli yopilmaganidan aortadan yana bir miqdor qon kirishi). Gipertrofiya —chap qorinchada qon miqdori ko'p bo'lishi tufayli uning nagruzkasi oshishi natijasidir (129-rasm). Aorta yetishmovchiligining o'ziga xos auskultativ simptom —yurak asosida eshitiluvchi diastolik shovqindir. Bu shovqin odatda o'ng tomonda ikkinchi qovurg'a oralig'ida yaxshi eshitiladi, bundan tashqari, to'sh suyagiga uchinchi qovurg'a kemirchagi birikadigan joyda (chapda), ya'ni Botkin Erb nuqtasida yaxshi eshitiladi. Diastola vaqtidagi shovqin paydo bo'lishining sababi shundaki, yaxshi yopilmagan klapanlar orasida hosil bo'lgan yorig' orqali aortadan keluvchi qon qisman yana chap qorinchaga qaytib kiradi. Aortadan chiqqan qon qorinchaga teskari yo'nalishda oqib qaytib kelishi natijasida Shovqin ba'zida beshinchi nuqta — Botkin Erb nuqtasida yaxshi (ilgariroq) eshitiladi (Botkin Erb nuqtasi esa aorta klapanlarni proektsiyasiga to'g'ri keladi). Aorta yetishmovchiligida diastolik shovqin odatda qattiq bo'lmaydi, astasekin sustlashadi (decrtsctndo). Auskultatsiyada ikkala ton odatda sustlashgan bo'ladi: birinchisi—yurak cho'qqisida eshitiladi, chunki aorta klapanlari yetishmasligida yopiq klapanlar davri bo'lmaydi, ikkinchisi — yurak asosida eshitiladi, klapanlar nuqsonli bo'lganidan ular to'la yopilmaydi. Ba'zida aorta klapanlari yetishmasligida yurak cho'qqisida presistolik shovqin eshitiladi (Flint shovqini). Uning sababi shundaki, aortadan qorinchaga keluvchi kuchli qon oqimi Mitral klapaning yaqin joylashgan tavakasini ko'taradi, buning natijasida diastola oxirida bo'lmas bilan qorincha o'rtasidagi teshik torayadi (vaqtincha). Rentgenda tekshirishda aorta yetishmovchiligida yurakni «beli ya'ni qon tomirlar to'tami bilan yurak ko'lankasining chap konturi o'rtasidagi burchak juda aniq ko'rinadi, shuningdek uning chap tomonga kattalanishi va cho'qqining gipertrofiya tufayli yumaloqlanishi bilinadi. Bunday konfiguratsiya aortal konfiguratsiya deb ataladi. Chap qorincha ko'lankasining konturlaridatda sistoladan diastolaga o'tishda chuqur pulsator harakatlar beradi. Ko'zga ko'rinadigan arteriyalarning hammasi aorta (bu ko'krak orqasidagi pulsatsiyaga qarab bilinadi), uyqu arteriyalari («karotidlar raqsi»), yelka arteriyalari va boshqalar keskin pulsator tebranib turadi. Bilak arteriyasining pulsi tez va baland ko'tarilishi va xuddi shunday tez va chuqur

tushishi bilan harakterlanadi (pulsus keler uni yana sakrovchi — r. saliens deb ham ataydilar). Pulsus keler— bu porokning juda muhim belgisidir, o'nga qarab aorta klapanlari yetishmovchiligi darajasi haqida fikr yuritiladi, Arterial bosimning puls amplitudasi kattalashgan bo'ladi: sistolik bosim odatda bir oz ko'tarilgan (yoki normal), diastolik bosim esa keskin darajada pasaygan bo'ladi; natijada, puls bosimi kattalashadi; maksimal bosimning pasayish darajasi va puls bosimi oshishi darajasiga qarab klapanlarning nuqsonning kattaligi haqida xulosa chiqarish mumkin. Buni quyidagicha tushuntirish mumkin, aorta klapanlari yetishmovchidigida gipertrofiyalashib normadagidan ko'proq miqdorda qon sig'adigan bo'lgan qorincha sistola vaqtida u qonni kuch bilan aortaga haydab chiqaradi, bu arterial sistemada bosimning tezda ko'tarilishiga olib keladi; diastola vaqtida esa qonning bir qismi aortadan chap qorinchaga qayta oqib chiqadi, bu esa diastolik bosim tushishiga olib keladi Aorta klapanlari yetishmovchiligi darajasi katta bo'lganda xuddi shu sabablar tufayli boshning pulsator chayqalishi kuzatiladi (Myusse simptomi, bu porok bilan og'rikan franiuz yozuvchisi ismiga nisbat berilib qo'yilgan nom). Bundan tashqari, k'yz qorachig'i kattaligi ritmik ravishda o'zgarib, bu dam torayadi, dam kengayadi (chunki ko'zning rangdor pardasiga qon ko'p oqib kelib, ko'p oqib ketadi). Katta arteriyalarni fonendoskop bilan eshitib ko'rilganda Dyurozening to'sh shovqini eshitiladi; uning birinchi qismi sistolik bo'lib, normada qon tomirlarini eshitish asbobi bilan bosganda eshitiladi, ikkinchi qismi, diastolik faqat aorta klapanlari yetishmasligida aniqlanadi va klapanlar yaxshi yopilmaganligi tufayli diastola vaqtida qon chap qorinchaga qaytib kelishi natijasida vujudga keladi Dyuroze fenomeni uyqu arteriyalarini eshitib ko'rishda yaxshi eshitiladi Boshqa arteriyalarda (masalan, son arteriyasida) Traubening to'sh shovqini eshitiladi qon tomirlaridagi tonlar—arteriyalarning diastolik kam to'lishi tufayli ular devorining tonusi pasayishi natijasidir; aorta klapanlari etishmasligida aorta sistemasida qon ikki taraflama harakatlanishi tufayli (oldinga va orqaga, bu haqda yuqorida aytilgan edi) shovqin ham qo'shaloq bo'ladi

Aorta klapanlari yetishmasligida ko'p uchraydigan kapillyar puls (Kvinke fenomeni) yuqorida aytilganlar tufayli yuzaga keladi; u bemorning peshona terisini ishqalashda (har bir puls to'lqinida teri qizarib-bo'zarib turadi) yoki tirnoqni bosishda paydo bo'ladi tirnoq dam kizarib, dam okaradi Bu fenomenning asosida kapillyarlarning emas, balki mayda arteryalar — arteriolalarning qon bilan to'lib bo'shishi yotadi desa to'g'rirok bo'ladi (kapillyarlarda sistola bilan diastola vaqtida bosim uncha katta farq qilmaydi). Aorta klapanlari yetishmasligi chap qorinchaning moslashish va gipertrofiyaga qobiliyatini bo'lishi tufayli uzoq vaqtgacha yurak dekompensatsiyasiga olib kelmaydi, agar dekompensatsiya boshlansa, bemorning ahvoli birdaniga og'irlashadi Yurak astmasi xurujlari, ya'ni nafas qisish avj oladi, chunki chap yurakning qonni kichik kon aylanish doirasidan katta qon aylanish doirasiga o'tkazish qobiliyati pasayishi tufayli o'pka qon tomirlarida qon vaqti-vaqti bilan dimlanib qoladi . Astma xuriji davrida o'pka dimlanish xirillashi eshitiladi, o'pkaning chegaralari bir oz kengayadi o'pka shishi ham kuzatiladi—nafas qisishi boshlanib ko'p miqdorda ko'pkli pushti rang balg'am ajraladi, yirik pufakchali xirillash eshitiladi bemor xirillab nafas oladi. Katta qon aylanish sistemasida qon dimlanishi belgilari (kattalashgan jigar astsit shish) yuzaga kelmaydi yoki ayrim bemorlarda aorta yetishmovchiligi (mitrallangan) ya'ni kichik qon aylanish doiraasida surun kali dimlanish paydo bo'ladi rivojlanadi bunga chap qorincha dilyatatsiyasi natijasida yuzaga kelgan mitrat etishmovchilik qo'shiladi natijada dimlanishn katta qon aylanish doirasining yirik venalariga tarkaladi.

AORTA OG'ZI STENOZI

Bu porok (stenosis ostii aortae) ilgari tasvirlangan paroklarga ko'ra ko'proq uchraydi U xuddi mitral stenoz kabi revmatikendokardit natijasida yoki bir vaqtning uzida aortani va klapanlarni zararlovchi ateroskleroz natijasida yuzaga keladi (klapanlarning ohaklanib qolgani ham ma'lum).

Teshik klapanlari stenozidan asla aortaning stenozini ajratish lozim. Stenozdan aorta devori (ichi)da ko'p uchraydigan boshqa o'zgarishlarni ham ajratish lozim, bu o'zgarishlarda aortaning ichi kengayadi klapan, orqali o'zicha normal saqlanib kengaygan aortaga nisbatan tortilib qoladi. Aorta og'zi torayishida qonning aortaga chikishi qiyinlashgani sababli chap qorincha zo'r berib qisqaradi va gipertirofiyaga uchraydi kompensator dilyatatsiya bo'lmaydi (kontsentirik gipertrofiyaga qaralsin) 130 rasm. Chap qorinchaning gipertrofiyasi natijasida cho'qqi turtkisi kuchayadi ammo u aorta klapanlari egishmasligidagi kabi tarqalgan xarakterga ega emas. Gipertrofiyalashgan chap korincha kuchsizlashgan so'ng kengayadi va sistola vaqtida undagi qon batamom chiqib ketmaydi. Sof stenozda (aorta klapanlari yetishmovchiligi bo'lmagan) yurak ko'p kattalashmaydi. Rentgen suratda yurakning cho'qqisi aniq yumaloqlashgan ko'rinadi (131-rasm). Aorta og'zi torayishida o'ng tomon (ik kinchi qovurg'a oralig'ida to'sh suyagi chetida sistomik shovkin eshititadi u qon oqimi bilan birga (choraklar oralig'i) aortaning pastga yo'nalgan qismi va hatto undan tarqalib ketgan yirik qon tomirlari bo'ylab yaxshi eshititadi qon chap qorinchadan toraygan teshik orqali aorta sistola vaqtida o'tishida shovqin paydo bo'ladi. Shovqin egovlashda chiqadigan tovushni eslatadi. Aortal steponozida puls o'ziga xos bo'ladi — u kichik, puls ko'tarilishi sekinlashgan (pulsus parvus et tardus) qon chan qorinchadan aorta sistemaga sekin va kichiy o'tishi tufayli puls kichik va sekin ko'tariluvchi bo'ladi Arterial bosim pasaygan. Bu xil porokda kompensatsiya uzoq saqlanadi, agar dekomensatsiya rivojlansa ham u chap qorincha tipida kechadi.

Baholash mezonlari №17

Mavzuning nomi	Ball	Baho	Talabaning bilim darajasi
Aortal illatlar simptomatologiyasi (aortal qopqoq yetishmovchiligi va aortal teshik torayishi). Qon aylanish yetishmovchiligi (kompensatsiyalangan va dekomensatsiyalangan	86-100	A'lo	Xulosa va qaror qabul qila oladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, amalda qo'llay oladi, mohiyatini tushuntiradi, biladi, aytib bera oladi, tasavvurga ega.
	71-85	Yaxshi	Mustaqil mushohada yuritadi, amalda qo'llay oladi, mohiyatini tushuntiradi,

holat). Tomir yetishmovchiligi.			biladi, aytib bera oladi, tasavvurga ega.
	55-70	Qoni qarli	Mohiyatini tushuntiradi, biladi, aytib bera oladi, tasavvurga ega.
	0-54	Qoni qarsiz	Tasavvurga ega emas, bilmaydi.

Mustaqil ish. Dilyatatsion kardiomiopatiya simptomatologiyasi
Uyga vazifa. 18

Amaliy mashg'ulot №18

Gipertoniya kasalligi. Simptomatik gipertenziya haqida tushuncha. Diagnostika va asosiy davolash prinsiplari. Yurak ishemik kasalligi. Stenokardiya va miokard infarkti. Diagnostika va asosiy davolash prinsiplari. (Bemorlar kurasiyasi. Kasallik tarixi №1)

1. Amaliy mashg'ulot o'qitish moduli.

Mashg'ulot vaqti – 4 soat	Studentlar soni: 10 dan 12 gacha
Mashg'ulot formasi	Amaliy mashg'ulot
Amaliy mashg'ulot rejasi	Gipertoniya kasalligi simptomatologiyasi. Simptomatik gipertenziya haqida tushuncha (buyrak, endokrin, markaziy, gemodinamik).
Amaliy mashg'ulot maqsadi:	Talabalarni gipertoniya kasalligi va simptomatik gipertenziya kabi patologik holatlar bilan tanishirish.
O'qitish uslubi	So'rov. Bemorlarni dmonstratsiya qilish, interaktiv o'qitish uslubi, amaliy ko'nikma.
O'qitish formasi	Kichik podgruppalarida.
O'qitish jihozlari	O'quv qo'llanma, amaliy mashg'ulotlar mundarijasi, proektor, kompyuter.
O'qitish holati	Metodik jihozlangan auditoriya.
Monitoring va baholash	Og'zaki kontrol: savol-javob, testlar, muammoli masala.

1.2. Amaliy mashg'ulot texnologik kartasi

Ish bosqichlari va vaqti.	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorlov bosqichi	46. Auditoriya tozaligini nazorat qiladi 47. Talabalarni mashg'ulotga tayyorgarligini tekshiradi 48. Davomatni nazorat qiladi	
1.O'quv mashg'ulotiga kirish bosqichi (10 daqiqa)	1.Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash. 2.Kirish ma'ruzasi uchun taqdimot silaydalarini tayyorlash 3. Fanni o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini ishlab chiqish	
2 –asosiy	1. Talabalarni kichik guruhlariga bo'lib, mavzu bo'yicha	Kichik guruhlariga

bosqich (160 daqiqa)	savollarni beradi. 2. Ko'rgazmali plakatlardan foydalanadi 3. Slaydalar, multimedialardan foydalanadi 4. Davolash ishlarini olib boradi 5. Mavzular asosida berilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi, faol ishtirokchi talabalarni rag'batlantiradi va umumiy baholaydi	bo'linadilar Tomosha qiladilar qatnashadilar Tinglaydilar va savollarga javob beradilar
1-yakuniy bosqich (10 daqiqa)	1. Yakunlovchi xulosa qiladi 2. Mustaqil ish beradi 3. Uyga vazifa beradi	Tinglaydi Yozib oladi Yozib oladi

3. Talabalarning nazariy bilimlarini baholash:

A) Frontal usuli:

1. 1. Gipertoniya kasalligini izohlab bering
2. Gipertoniya kasalligini etiologiyasi
3. Gipertoniya kasalligini patogenezi
4. Gipertoniya kasalligini klassifikatsiyasi
5. Klinik ko'rinishi
6. Gipertonik krizga ta'rif bering
7. Gipertoniya kasalligini diagnostikasi
8. EKG ko'rinishlari
9. Gipertoniya kasalligining asoratlari
10. Simptomatik gipertenzis to'g'risida tushuncha
11. Simptomatik gipertenzialarning qiyosiy tashhisoti
12. Gipertoniya kasalligining profilaktikasi

Intsident usuli

Klinik kafedralarida, talabalarga ekstremal holatlardagi faoliyatni o'rgatish maqsadida intsident usulidan foydalaniladi. Talabalarga biron xil vaziyatli masala haqida informatsiya beriladi. Bu masalaga tez yechim topilishi zarur (0,5-1,5 daqiqa).

Bu usul talabalar fikrlashini tezlashtiradi va ekstremal holatlarda faoliyatini aktivlashtiradi.

Talabalar harakati xatosizligi 1,0 ga teng bo'lishi zarur.

Gipertoniya kasalligi

Gipertoniya kasalligi — surunkali kasallik bo'lib, asosiy belgisi arterial gipertoniya. Arterial bosimning ko'tarilishi buyrak kasalligini simptomlaridan biri sifatida ko'p uchraydi; arterial bosimni ko'tarilishi ba'zan boshqa kasalliklarda ham uchraydi (tegishli joilarga qaralsin). Modomiki shunday ekan, simptom sifatidagi gipertoniyani kasallik sifatidagi gipertoniya bilan farq qilish kerak. Gipertoniya kasalligida buyraklar dastlabki vaqtda shikastlanmagan bo'ladi, bu kasallikda ko'riladigan gipertoniya—mustaqil birlamchi kasallik protsessidir (essensial gipertoniya)

Gipertoniya kasalligining etiologiyasi bilan patogenezi to'g'risidagi ma'lumotlar hozirgi vaqtda bu kasallikni tomirlar apparati nerv regulyatsiyasining buzilishi natijasidir, deb ko'rsatmoqda.

Gipertoniya kasalligining asosiy sababi, asablarning ortiqcha zo'riqishi va kuchli hayajonlarni boshdan kechirish, shuningdek turmushda yoki boshqa sharoitlarda bot-bot yoki zo'r nerv travmalari bo'lib turishidir. Gipertoniya kasalligi, ba'zan bevosita ruhiy travmadan bosh kommotsiyasi va kontuziyasidan keyin avj oladi G.F LANG ta'limotiga ko'ra, gipertoniya tomirlarni harakatlantiruvchi po'stloq va po'stloqosti markaelariga

tushadigan ta'sirotlar natijalar po'stlog'iga ta'sir etadigan tashqi faktorlar ta'siri bilan po'stloqda mo'ttasil o'ta qo'zg'aluvchan «turg'un» ochaglar hosil bo'ladi (I P. Pavlov fikriga muvofiq). Operatsiya va tajriba vaqtlarida gipotalamik sohaning o'rta qismini (oralik miyani) bevosita ta'sirlash arterial bosimning xiyla ko'tarilishiga sabab bo'ladi Gipertoniya kasalligining paydo bo'lishida ichki sekretiya bezlari sistemast faoliyatining buzilishi qo'shimcha faktor bo'ladi Ayni vaqtda tuxumdonlarning roli ayniqsa ajralib turadi, chunki xotinlarda gipertoniya kasalligi odatda klimaks davrida topiladi klimaks davrida va undan keyin arterial bosim umuman ko'tarilishga moyil bo'ladi Gipertoniya patogeneza boshqa endokrin bezlaridan og'iz bilan buyrak usti bezlarining po'stlog'i ahamiyatga ega. Gipomiyoma tomirlar spazmaga va arteria bosimning ko'tarilishiga sabab bo'ladigan gormon (vazopressin) ishlab chiqaradi Bu gormon, aftidan, miyaning uchinchi qorinchasiga tushadi va unda joylashgan tomirlarni harakatlantiruvchi markazga ta'sir qiladi. Buyrak usti bezlari arterial bosimni ko'taradigan bir qancha moddalarni ishlab chiqaradi (adrenalin-arterenol, kortin). Gipertoniya kasalligiga pressor agentlarning haddan tashqari aktiv bo'lishi emas, balki depressor sistemaning zaif bo'lishi, jumladan aorta bilan uyqu arteriyasidagi depressor apparatning ishlamay qo'yishi sabab bo'ladi, degan nazariya ham bor. Gipertoniya kasalligining rivojlanishida buyrakka aloqador gumoral faktorga ham qo'shimcha ahamiyat berishga to'g'ri keladi. Goldblattning itlarda buyrak arteriyalarini qisman bog'lab qo'yish va buyrakni (yoki buyraklarni) bir qadar holsizlantirish yo'li bilan qilgan tajribalari itlarda arterial bosimning pirovard natijada ko'tarilib ketishini ko'rsatdi; shu itlardan olingan qon (xususan, ishemiyaga uchragan buyrakdan oqib chiqadigan qon) normal itga quyilsa, bu itda ham arterial bosim ko'tarilib ketadi {demak pressor ta'sir gumoral ta'sirga bog'liq bo'ladi}. Qon bilan yaxshi ta'minlanmaydigan buyrak alohida renin moddasini ishlab chiqaradi, degan fikr shu tariqa yuzaga keldi; qondagi muayyan oqsilga ta'sir etadigan shu enzimning a-2 globulin (gipertenzenogen) ekanligi va o'sha oqsilni gipertenzeniga aylantirishi ma'lum bo'ldi; arterial bosimning ko'tarilishiga shu gipertenzenin sabab bo'ladi Reninning kashf etilishi birlamchi buyrak kasalliklarida arterial bosimning ko'tarilib ketish mexanizmini ochiq oydin tushuntirib beradi Gipertoniya kasalligini ham «buyrak» nazariyasi bilan tushuntirsa bo'lmasmikin, buyraklarda, loqal ularning qon bilan ta'minlanishida zimdan yuzaga keladigan o'zgarishlar shu kasallik zaminida ham yotmaganmikin, degan savol tug'ildi Shu munosabat bilan klinikada buyrakdan qon oqishini aniqlashning yangi usullari ishlab chiqildi (keyingi bo'limga qaralsin). Bu usullar gipertoniya kasalligida buyrakdan oqadigan qonning chindan ham ko'pincha ancha kamayishini (biroq ikkilamchi tartibda, ya'ni gipertoniya hamma mayda tomirlar, jumladan buyrak arteriolalarining torayishi bilan ham davom etadigan bo'lganidan, shu gipertoniya natijasida kamayishini) ko'rsatdi. Irsiy konstitutsional moyillik gipertoniya kasalligining avj olyashida bir qadar rol o'ynashini inkor qilib bo'lmaydi Talaygina a'zolari gipertoniya bilan og'rigan oilalar uchraydi, biroq kasal tug'diruvchi tashqi (xususan, nervpsixik) faktorlarning bitta oila a'zolariga bir yo'la ta'sir qilishi mumkinligini hisobga olish kerak albatta. Gipertoniya kasalligining avj olishida, har holda, tashqi ta'sirotlar yetakchi rol o'ynaydi. Gipertoniya kasalligida arterial bosimning ko'tarilish mexanizmi markazga bog'liq; tomirlarni harakatlantiruvchi impulslar orasida tomirlarni toraytiruvchi impulslar ustun turadi, xuddi shu impulslar arteriyalar devori tonusining mudom zo'r bo'lishi va tomirlar, asosan mayda arteriyalar teshigining torayib qolishiga sabab bo'ladi Gipertoniya kasalligida ko'riladigan patologoanatomik o'zgarishlar, avvalo mayda arteriyalarda (arteriolalarda), asosan buyrak arteriolalarida ikkilamchi tartibda yuzaga keladigan o'zgarishlardan iborat {buyrak kasalliklari to'g'risidagi bobga qaralsin} Bir vaqtlar gipertoniya kasalligi buyrak aterosklearzining oqibatidir, deb hisoblanar edi, biroq gipertoniya kasalligining buyraklarda hech qanday morfologik o'zgarishlarsiz ham uzoq davom eta olishi isbot etilgan. Gipertoniya umuman ateroskleroza rivojlanishiga juda qulay sharoit tug'diradigan bo'lganidan, gipertoniya o'lgan kishilar yorib

ko'rilganida, koronar arteriyalar, aorta va miya tomirlari aterosklerozining ko'p uchrashi ham tushunarli bo'lib qoladi. Patologoanatomik davrdagi gipertoniya kasalligiga nisbatan bera oladigan birdan bir belgi — yurak chap qorinchasining gipertrofiyasi, qismini esa tomir devorlaridagi qisqaruvchi elementlarning giperplaziyasidir. Ilk davrdagi gipertoniya kasalligining klinik manzarasi bosh og'rig'i, bosh aylanishi, salga charchash, boshga qon to'lishuvi, uyquning buzilishi, yurak o'ynashi, yurak sohasida simillagan og'riqlar paydo bo'lishi, quloqlarning shangillashi, ba'zan ko'z tinishi singari bir qancha sub'ektiv simptomlardan iborat bo'ladi va hokazo. Gipertoniya kasalligi bilan og'rigan bemorlarning tashqi ko'rinishi har xil bo'ladi: ba'zilarida teri ranggi pushti qizil bo'lib, qonga to'lishgandek bo'lib ko'rinsa (qizil gipertoniya), boshqalarda oqish bo'lib ko'rinadi (okish gipertoniya); bu farqning sababi shuki, birinchi holda faqat arteriolalar toraysa, ikkinchi holda kapillyarlar bilan mayda venalar torayib qolgan bo'ladi.

Arterial bosim o'lchanganda sistolik bosimgina emas, diastolik bosim ham ko'tarilgan bo'lib chiqadi. Sistolik bosim 140 mm dan, diastolik bosim esa 90 mm dan ortiq bo'lsa, sistolik bosimni ko'tarilgan deb xisoblash mumkin. Dastlabki o'lchash vaqtida bosim miqdori birmuncha baland, takror o'lchaganda esa, birmuncha past bo'lib chiqadi (manjetka yelkani qisishiga javoban yuzaga keladigan vazomotor reaksiya munosabati bilan). Gipertoniya bilan og'rigan kasallarda arterial bosim miqdori umuman kun davomida va kun sayin ko'pimcha katta doirada o'zgarib turadi. Arterial bosim miqdorining notayin bo'lishi gipertoniya kasalligining hali uncha vaqtdan o'tmagan hollarida uchraydi, gipertoniyaning og'ir hollarida esa, bosim miqdori o'zgarib bo'lib qoladi (bu—arterial bosimning regulyatsiyasidagi o'zgarishlar qaytmas bo'lib qolganligini, shuningdek xususan, buyraklar arteriolo sklerozi hodisalari qo'shilganligini ko'rsatadigan belgidir). Yurakda oldiniga faqat chap qorincha gipertrofiyalanganini ko'rsatadigan belgilar paydo bo'ladi (yurak uchining zarbi kuchayadi, yurak uchi dumaloq tortadi), aortada ikkinchi ton aktsenti eshitaladi; elektrokardiogrammada chap qorinchaning ustun turganligi ma'lum bo'ladi. Keyinchalik chap qorincha funksiya susayib, yurak astmasi xurujlari ko'rinishidagi belgilar paydo bo'ladi va o'pkada qon damlanishiga alokador xirillashlar yuzaga keladi; yurak kengandi, elektrokardiogrammada — birinchi va ikkinchi usulda tutishsa manfiy bo'lib qoladi, S—T chizig'i esa, xuddi shu usullarda past bo'lib tushadi. Puls zo'riqqan, durus tipida bo'ladi, arteriyalar egribulri (chuzilgan) bo'lib ko'rinadi va urib turadi. Rentgenoskopiyada aorta cho'zilgan bo'ladi; ikkinchi qiyshiq holatda aorta tuynugining kattalashgani ma'lum bo'ladi. Aorta yoyi ko'tarilib turadi, yurak aortal konfiguratsiya beradi — chap qorincha kattalashgan va gipertrofiyalangan bo'ladi. Ko'z to'rt pardasining arteriyalari (ko'z tubini kuzatishga imkon beradigan ko'zgu — oftalmoskop yordami bilan aniqlanadigan arteriyalar) tor, egri-bugri, ikki konturli bo'lib ko'rinadi; venalar kengaygan bo'ladi; kasallikning birmuncha og'ir formalarida qon quyilganligi topiladi.

Gipertoniya tomirlarning vaqtincha birmuncha kuchli qisqarishga moyil bo'lishi xarakterlidir; bu spazmlar: 1) koronar arteriyalarda bo'lishi (bu xol ko'krak kasalligi tushishiga sabab bo'ladi); 2) miya tomirlarida bo'lishi (bu xol qo'l-oyoqlar parheziga, nutqning vaqtincha yo'qolishiga, migrenga o'tadigan bosh aylanishiga sabab bo'ladi); 3) qo'l-oyoqlar tomirlarida bo'lishi (bu — o'qtin-o'qtin cho'loqlanish bilan ifodalanadi) mumkin. Bunday krizlar boshqa tomirlar sohalarida ham ko'riladi. Gipertoniya kasalligining o'tishi yurak yetishmovchiligi avj olishi, miyada qon aylanishining buzilishi yoki buyrak kasalliklarining qo'shilishi tomoniga qarab boradi. Arterial bosim yuqori bo'lishi natijasida yurakning mexanik jixatdan ortiqcha charchashi, shuningdek koronar qon aylanishining buzilishi munosabati bilan yurak yetishmovchiligi avj oladi (xususan, gipertoniya koronar tomirlar aterosklerozi qo'shilgan paytda). Miyada qon aylanishining buzilishi, yuqorida aytib o'tilgan vaqtinchalik o'zgarishlardan tashqari, miyaga qon quyilishiga sabab bo'ladi. Bunday qon quyilishlar ahyon - ahyondagina tomirning yorilishiga bog'liq bo'ladi, ko'pchilik hollarda esa, biror joyda miya tomirlarining uzoq muddat spazm bo'lib turishi natijasida kelib

chiqadi, shu spazm tufayli torayib qolgan tomirlar devorining oziqlanishi buzilib, tomirlar miya moddasiga qonni o'tkaza boshlaydi. Buyraklarning shikastlanishi (buyraklar arterioloskleroz) buyrak yetishmovchiligiga olib keladi. Gipertoniya kasalligi asta sekin, yillab avj olib boradi Biroq tez zo 'rayib boradigan xavfli gipertonnya hollari ham ma'lum (ko'pincha yosh odamlarda uchraydi). Bu hollar arterial bosimning ayniqsa baland bo'lishi, shu bilan birga mudom yuqori turishi, buyraklarning xiyla o'zgarishi, miyaga aloqador o'zgarishlarga odamning ortiq darajada moyil bo'lishi, ko'z tubining ko'p darajada o'zgarib, tez orada ko'zdan qolishi bilan ta'riflanadi. Odatda bunday kasallik formasi 1 — 2 yil cho'ziladi Kasallikning nima sababdan shu tariqa noqulay kechadigan tarzga o'tishi aniq emas. Ba'zilar gap ayni vaqtda odatdagi gipertoniya boshqacharak bo'lgan maxsus kasallik ustida boradi deb o'ylaydilar, biroq bu fikr inkor etilmoqda. Gipertoniya kasalligi oddiy formalarining o'tishida uch davrni tafovut qilish mumkin, bu davrlarni o'z navbatida ikkita fazaga ajratsa bo'ladi. Birinchi davr: A faza — pregipertonik faza (ma'lum bir xil ta'sirotlar"bo'lganida, masalan, emotsional ta'sirotlarda arterial bosimning ko'tarilishiga moyil bo'lish); B faza — o'tib ketadigan yoki tranzitor faza (bosimning vaqtba-vaqt ko'tarilib, remissiyalar bilan gulallanishi). Ikkinchi davr: A faza — labil, turg'un bo'lmagan faza (arterial bosim odatda ko'tarilgan bo'ladi-yu, lekin ko'p darajada o'zgarishi va xiyla pasayishi mumkin); B faza — stabil fazadir (arterial bosim mudom ko'tarilib turadi).

Yurakda, buyraklar va miya tomirlarida xiylagina organik—sklerotik o'zgarishlar vujudga kelishi kuchayadi davrga harakterlidir (A faza — kompensatsiyalangan faza, bunda mehnat qobiliyati pasaygan bo'lsada,saqlanib turadi: B faza—dekompensatsiyalangan faza, mehnat qobiliyati yo'qolgan bo'ladi). Turli kasalliklarda yurak buyraklar va miya bir xilda shikastlanmaydi, shu munosabat bilan kasallikning o'tishida yurak buyrak va miya varianti to'g'risida gapirsa bo'ladi Gipertoniya kasalligining dorilar bilan qilinadigan davosi asosan, nerv sistemasiga ta'sir etadigan moddalar yordami bilan amalga oshiriladi Shu jihatdan eng yaxshi moddalarning biri bromdir. bromning 5 protsentli eritmasi bosim 3—4 hafta davomida kuniga 3—4 osh qoshiqdan buyuriladi; keyinchalik davo takrorlanadi Brom o'rniga lyumnnal yoki xloralgidrat buyurish ham foydalidir. Gipertoniya bilan og'rigan ba'zi kasallar kichik dozalardagi xloralgidratga (kurs holidi kuniga 3 marta 0,1 g dan) yaxshi bardosh beradi boshqalar uni singdirolmaydi, lekin lyuminal bilan davolanganda (0, 05 g dan kuniga 3 marta) o'zini yaxshi his qiladi. Aftidan, bu farq shunga bog'liqliki, ba'zi kasallarda asosan po'stloq ortiqcha qo'zg'algan bo'lsa, boshqalarda po'stloq osti ortiqcha qo'zg'algan bo'ladi. So'nggi vaqtlarda uyqu bilan davolash usuli qo'llanilmoqda. Uyqu bilan davolashning ikki xili bor: yo tabiiy uyqu 12 - 14 soatgacha uzaytiriladi (buning uchun kasallar 3—4 marta 0,1 g dan nembo'tal yoki barbamil ichadi) yoki ovqat yeyish va tabiiy ehtiyojlarni qondirish uchun 2—3 soatli ikki uch marta tanaffuslari bilan uch haftalik muddatga doimiy uyqu yuzaga keltiriladi. So'nggi variantni yuzaga chiqarish uchun uxlatuvchi dorilarning katta dozalarini bo'lib-bo'lib (masalan 2 g gacha barbamil) ishlatish talab qilinadi Shunday bo'lsada, faqat odatdagi uyquni cho'zishni ma'qul ko'rish kerak chunki dorilar vositasi bilan yuzaga chikariladigan uzoq uyqu ba'zan og'ir o'tadi va shifobaxsh ta'sir ko'rsatishi jihatidan yaxshi natija bermaydi. Uyqu bilan davolash Pavlovning saqlovchi tormozlanish haqidagi ta'limotiga asoslangan. Gipertoniya kasalligiga davo qilishning boshqa vositalaridan magneziy sulfatni ko'rsatib o'tish kerak; uning 25 protsentli eritmasi 10—15 kun davomida har kuni 10 ml dan muskul orasiga yoki venaga yuboriladi Magneziy bilan davo qilinganida arterial bosim pasayib, kasalning ahvoli yaxshilanadi; miyada qon aylanishi uncha buzilmagan bo'lsa, magneziy bilan davolash gipertoniya bilan og'rigan kasallarga ayniqsa yaxshi ta'sir kiladi (ko'z tubida o'zgarishlar endi paydo bo'lib kelayotganda). Talaygina hollarda rodanli birikmalar (tiotsianatlar) yordam beradi va arterial bosimni pasaytiradi Xususan gipertoniya krizlarida yaxshi kor qiladigan moddalarning biri yaqinda sintez qilingan dibazol preparatidir, bu preparat angiospazmlarga moyillikni kamaytirib, arterial

bosimni pasaytiradi va odatda krizlar avj olishini to'xtatadi. Dibazol ichish uchun kuniga 3 marta 0,02 g dan buyuriladi yoki, yaxshisi, muskullar orasiga yuboriladi (1 protsentli eritmasi 3 sm³dan kuniga birikki marta). Gangliyalarni blokada qiluvchi deb ataladigan preparatlar, ya'ni simpatik - preparatlar: juda yaxshi ta'sir ko'rsatadi; geksametony va pentamin shular jumlasiga kiradi. Bular muskul orasiga yuborish uchun kuniga 40—150 mg dan buyuriladi, davolash kursi uzoq (1—2 oy) davom etishi, keyin yana takrorlanishi kerak. Simptomatik dorilar B fazaning G`G` davrida yoki A fazaning G`G`G` davrida hammadan yaxshi kor qiladi Ba'zan ular noma'qul ta'sir ko'rsatadi Shunga ko'ra, ularni kasalxona sharoitida buyurish talab qilinadn. 3—4 hafta davomida parenteral yo'l bilan kuniga 1—3 ampuladan beriladigan redergak degan adrenolitik preparat ham ta'sir ko'rsatadi. Rauwolbia seppentina degan hind o'simligidan olinadigan yangi preparat ayniqsa qimmatlidir (3—4 hafta davomida kuniga 1—2 marta 0,25 mg dan beriladigan sernazin yoki rezerpin).

Ma'lum hollarda, chunonchi klimaks munosabati bilan xotinlarda azj oladigan gipertoniya, gormonal preparatlar — tuxumdon gormonlari yaxshi natija beradi, ayni vaqtda ikkita forma yoki fazani tafovut qilishga to'g'ri keladi:—biri qonda follikulin miqdorining ortishi bilan boradigan faza, bunda sariq jism gormoni (progesteron preparati) qo'llaniladi va ikkinchisi qonda follikulin miqdorining kamayishi bilan davom etadigan fazadir, bunda follikulin yoki sinestrol (ikki hafta mobaynida har kuni teri ostiga 10.000 birlikdan) ishlatiladi

Xirurgik davosi (qorin nervlarini ikkala tomondan kesib qo'yish) simpatik nerv aktivligini kamaytirish, shuningdek buyraklarga boradigan tomir toraytiruvchi nerv yo'llarinn kesib qo'yishga mo'ljallangan. Operatsiya gipertoniya bilan og'rikan bemorlarda arterial bosimning ro'yrost kamayishiga olib boradi, shu bilan birga bosim necha oylar, ba'zan necha yillargacha past bo'lib turadi Gipertoniya kasalligining profilaktikasi—sovt sog'liqni saqlash sistemasining eng muhim vazifalarpdan biridir. Profilaktikaning asosiy shartlari quyidagilardan iborat: aholining ma'lum gruppalarini dispanserizatsiya qilish va gipertoniyani barvaqt aniqlash (arterial bosimni vaqt-vaqti bilak ommaviy ravishda o'lchab turgandagina buni amalga oshirsa bo'ladi).

Profilaktikaning asosiy vazifasi oliy nerv faoliyatining nevroz tipida buzilishiga olib boradigan faktorlar ta'sirini bartaraf qilish yoki kamaytirishdir. Bu o'rinda yetarlicha uyquni ta'minlash, mehnat qilish va dam olish to'g'ri tashkil qilish, nerv sistemasining haddan tashqari ta'sirlanishini bartaraf etish ahamiyatga egadir. Korxonalarda profilaktoriylar (ya'ni sanatoriy tipidagi statsionarlar) barpo etish samarali chora bo'lib hisoblanadi, gipertoniya moyil bo'lgan ishchilar vaqt-vaqti bilan shunday profilaktoriylarga kelib turadi va ishlab chiqarishdan ajralmagan holda maxsus rejimda bo'ladi

YURAK ISHEMIK KASALLIGI

Ko'krak qisish kasalligini (stenokardiya) deb, yurak muskulidagi biror bo'limda qonning birdan kamayib ketishi yoki o'nga vaqtincha qon kelmay qolishi (yurak muskuli ishemiyasi) natijasida ko'krakda og'riq paydo bo'lishiga aytiladi.

Miokardning qon bilan ta'minlanishida shu tariqa yetishmovchilikning yuzaga kelishiga, ko'pincha, shubhasiz, koronar ateroskleroz sabab bo'ladi Biroq, koronar arteriyalardan qon olishning buzilishiga olib keladigan va ko'krak qisish kasalligi tutib qolishi bilan davom etadigan boshqa kasallik protsesslari ham bor: 1) zaxm aortitida koronar arteriyalar og'zining chandiq tortmalari bilan torayib qolishi (quyiga qaralsin); 2) infeksiyaga alokador koronaritlar va miokarditlarda (revmatizm, zaxm va boshqa kasalliklar tufayli) koronar arteriyalar teshigining o'garishi; 3) nerv (masalan, gipertoniya) va zarar (nikotin, qo'rg'oshin) ta'siridan kelib chiqqan koronar tomirlar spazmlari ko'krak qisish kasalligini ateroskleroz xaqidagi bobda tasvir etayotganimizga sabab shuki, ko'pchilik hollarda ateroskleroz ko'krak qisish kasalligiga olib boradi Ko'krak qisish

kasalligi sindromining ancha tipik xususiyatlari bor. Ko'krak qisish kasalligi deyilganda, eng avvalo, nafas qisishini emas (ko'krak qisish kasalligida odam ko'pincha xech hansiramaydi, shunga ko'ra kasallar his qiladigan va hansirash deb ataydigan ko'krak qisilishini va nafas tiqilish hisiyotini hansirash deb o'ylash yaramaydi), balki og'riq tutishinigina tushunamiz. Odatda og'riq zo'riqib jismoniy ish qilganda, xususan ko'chada borib ketayotgan paytda tutib qoladi Kasal bir oz, yurganidan keyin, og'riq tufayli to'xtab qolishga majbur bo'ladi; to'xtab turilganda og'riq bosiladi, kasal yana yura boshlaydi, keyin og'riq yana paydo bo'ladi va xokazo. Shunisi xarakterliki, og'riq faqat ko'chada borib ketayotgan paytda paydo bo'ladi, holbuki bemor issiq binoda bemalol yuraveradi; og'riq qishda, ko'pincha sovuqda, shamolga qarshi yurilganda tutib qotadi Sovuq qotish boshqa sharoitlarda ham og'riq turishiga sabab bo'lishi mumkin (masalan, yechinganda va sovuq o'ringa yotilganda). Og'riq ko'pincha ovqatdan keyin tutadi, bunda diafragmaning yuqori turishi va yurakning ko'ndalang holati, xususan bir qism qonning qorin bo'shlig'iga o'tishi koronar tomirlardan kelayotgan qonning kamayib ketishiga olib keladi, Og'riq to'tishi bilan nerv psixik zo'riqishlar, hayajonlanish, his tuyg'ular orasida maxkam bog'lanish bor. Ko'krak qisish kasalligining eng og'ir xuruji kechasi tutib qoladi: kasal og'riq zo'ridan uyg'onib ketib, o'rniga o'tirib oladi yoki krovat yoxud stolni ushlaganicha, qimirlamay turishga majbur bo'ladi, Ko'krak qisish kasali tipidagi og'riq sezgi aksari to'sh sohasi (tush orqasidagi og'riq), umuman ko'krak qafasining markazida paydo bo'ladi; goxo yurak sohasida uncha karakterli bo'lmadan og'riqlar ham uchraydi Og'riqlar ko'pincha ezidish, qisilish, achishish barakterida, ba'zan sanchib turadigan qattiq og'riq holida bo'ladi Ko'pincha og'riq turganda o'lim va himasi paydo b'yladi Nixoyat, anginoz og'riqlarning diagnostika uchun muhim xossasi ularning tegishli tana jismlariga, odatda chap elkaga, chap ga, ba'zan bo'yin bilan birlashtirishning chap yarmiga o'tishidir (irradiatsiya); bir xil paytda og'riq tananing o'ng tomoniga ham o'tishi mumkin. Anginoz og'riq ahyon - ahyonda qorinning ustki qismiga ham o'tishi mumkin (angina pseudoabdominalis). Ko'krak qisish kasalligida og'riqlarning tegishli tana qismlariga o'tishi ma'lum sohalar — Ged —Zaharin zonalarida terining juda belgi bo'lib qolishiga bog'liqligi bilan ifodalanadi Bu sohalargamiyaning VII bo'yin va I — V ko'krak segmentlaridan nervlar keladi (137 va 138- rasmlar). Shu zonalarning og'riq sezgilariga ortiqcha ta'sirchan bo'lishi hozir aytib o'tilgan segmentlarning markazga intiluvchi nervlari orqali yurakdan keladigan va orqa miyaning markazdan qochuvchi (sezuvchi) nervlariga vistserosenzor refleks oyda o'tadigan ta'siroq oqibatidir. Jismoniy jihatdan zarur ish vaqtida paydo bo'ladigan og'riq bir qadar shunga bo'li?ki, bunday sharoitda yurak o'z ishi uchun koronar yo'ldan ko'proq qon kelishini talab qiladi; ravshanki, koronar yo'l ateroskleroz tufayli torayganda, jismoniy ish vaqtida keladigan krn miokard ehtiyojini qondirolmaydi va buning natijasida birdan etishmay qoladi, bu miokardda o'zgarishlar paydo kilib, og'riq turishiga olib keladi (kislorod etishmaydigan sharoitlardagi ish vaqtida paydo bo'lib, markazga intiluvchi nerv oxirlarinya o'zgatadigan almashikuv moddalarining to'planishi). Kechasi tutgan og'riq, hayajonlanganda tutib oladigan og'riq va shunga" o'xshatllarni nerv sistemasining reaksiyasiga bo'lib deb tushunish kerak

Ko'krak qisilishi kasalligining avj olishi innervatsiya ta'sirlarining buzilishiga, jumladan, tomirlarni toraytiruvchi reaksiyalarning ustun turishiga chambarchas bo'lib ekanligi shubhasizdyar. Shu nuqtai nazardan qaraganda psixik sferasi jihatdan tashqari zo'riqadigan odamlarda anginoz og'riqning nima uchun ko'p tutishi tushunarlidir. Koronar arteriyalarning tomir toraytiruvchi nervi, perifernk tomirlardagiga qarshi o'zaro, adashgan nervdir, shunga ko'ra, bu nervyaing ortiq darajada ta'sirchanligi anginoz og'riqlar paydo bo'lishiga moyillik tutdiradi (aslida kechasi to'tadigan og'riqlar ham shunga bo'lib, chunki katta yarim sharlar p'ystlo?idan parasimpatik sistemaga o'tadigan tormozlovchi ta'sir qiuvchi vaqtida bo'shshib oladi). Sovuq otganda og'riq turishi (teridan keladigan refleks) shundan ravshandir. Tomirlarni harakatlantiruvchi reaksiyalarning

uziyo anatomik o'zgarishlarsiz ham ko'krak qisilishi kasalligining tutib olishiga sabab bo'lishini eslatib o'tish kerak Tajriba shuni krsatadiki, k'krak qisish kasalligi ba'zan shartli reflektor tusga kiradi (ma'lum momentlar birga ta'sir qilgandagina va hamisha bir vaqtning uzida paydo bo'ladi va hokazo — gal og'riqlarning takror to'tishi to'g'risida bormokda). Bu xol shu og'riqlarning paydo by'lishida (va shu o'r nilar zaminida yotgan koronar tomirlar toraya boshlaganda) bosh miya po'stloqdan keladigan impulslarning muxim ahamiyatga ega ekanligini tasdiklaydi

Ko'krak qisish kasalligining bevosita sababi koronar arteriyalarning funktsional tartibda qisqa muddatga torayishi, ya'ni spazmidir. Mana shu sababdan gipertoniya kasalligida ham ko'krak qisish kasalligi juda ko'p uchraydi To'g'ri, vazomotor reakdiyalar tufayli paydo bo'ladigan ko'krak qisish kasalligini (koronar tomirlarda anatomik o'zgarishlar bo'lmaganda) bir zamonlar alohida forma, deb ajratilgan edi (aterosklerotik «chin» ko'krak qisish kasalligigai o'zaro!o' «soxta ko'krak qisish kasalligi» deb atalar edi), lekin bunga hozir xotima berilgan. Ko'krak qisish kasalligining «angionevrotik» formasi to'g'risida gapirsa bo'ladiyu biror aterosklerozda xam koronar arteriyalar torayishi odatda bir qadar rol o'ynaydi Buning ustiga, aterosklerotik yzgarishlarga uchragan koronar arteriyalar spazmatik reaksiyalarga ayniqsa moyil bo'ladi va ko'pincha normal sharoitlarda koronar tomirlarga ta'sir kilmaydigan yoki ta'sir qilsa ham, ularni kengaytiradigan ta'sirotlar ostida torayib bo'ladi, Patologik jihatdan o'zgargan koronar arteriyalarning «paradoksal», «aynigan» xarakteri shundan ko'rinadi (shunisi ham borki, bu — mashxur farmakolog N. P. Kravkov laboratoriyasida tekshirilgan). Aftidan, bunday xususiyat boshlan?ich davrdagi aterosklerotik yzgarishlarga uchragan koronar arteriyalargagina xosdir: bunday arteriyalarda elastik parda ; giperplaziyalangan bo'ladi, tomir devorlari qalin va uzalmas bo'lib qoladigan keyingi davrda, chamasi, nerv ta'sirotlari ularni endi toraytira olmaydi, sh'nga k'ra bu davrda k'krak ?isish kasalligining avj olishida aytilganidek toraygan tomirlar orqali keladigan bilan yurak muskulining ehtiyoji o'rtasida va vaqt nomuvofiklik yuzaga kelishi rol y'naydi. «Turli hollardagi ko'krak qisish kasalligi har xil ko'rinishda birga o'xashilgan anatomik va angionevrotik faktorning birgalashib ta'sir qilishi natijasidir. Angionevrotik faktor rosirost bilinadigan by'lsa, yurakning toj arteriyalari tamomila sol Bo'lganida ham ko'krak qisish kasalligi tutib olishi mumkin. Ikkinchi tomondan, ularda xiylagina anatomik o'zgarish yuzaga kelgan bo'lsa, koronar aylanishini idora etib turadigan nerv asbobining patologik reaksiyalarga bilinarbilinmas moyilligi raed ko'krak qisish kasalligi tutib olishi uchun kifoya qiladi» (G. F. Lang).

Elektrokardiogramma — T chiziqining birinchi va ikkinchi usulda, asosan tutib turgan vaqtning uzida izoelektrik darajadan pastga surilganini k'rsatib beradi Elektrokardiogramma ba'zan og'riq bo'lmagan vaqtlarda ham xuddi shunday o'zgarishlarni xo'rsatadi (139-rasm); bular koronar arteriyalar sklerozi munosabati bilan miokardning bilan ta'minlanishida turli un o'zgarishlar borligiga bog'likdir; og'riq tutgan paytda ular ancha r'ystro bilinib qoladi, xolos. Ba'zan Elektrokardiogramma shunday o'zgarishlarni faqat jismoniy nagruzkadan keyingina ko'rsatib beradi. Ko'krak qisish kasalligining o'tishi va prognozi koronar tomirlarda aterosklerotik o'zgarishlar darajasiga bog'liq. Angionevrotik momentlar asosiy rolni y'naydigan rollarda ko'krak qisish kasalligi ancha engil o'tadi va og'riq tutishi tamomila olib ketishi mumkin. Ateroskleroz koronar tomirlarda bo'lsa, ko'p narsa anatomik o'zgarishlarning xoliga bo'lib, bo'ladi: ba'zan korochar arteriya-larning kich?ina bo'lagidagi bitta yoki bir nechta pilakcha tomir teshigida xiyla chiqib turadigan bo'lsa, qattiq og'riqlarga sabab bo'linish mumkin, boshqa hollarda esa asosan tomir devori qalin tortgan bo'lsa, Irotsess birmuncha ko'proq yoyilgan takdirida kasallik ancha engil ytadi K'krak ?isish kasalligi odatda miokard infarmatidan, shuningdek kardioskleroz avj olishidan (shu tufayli yuzaga keladigan yurak etishmovchiligidan ham) ilgari paydo bo'ladi

Ko'krak qisish kasalligi xuruji o'limga olib- borishi mumkin. Bir klinitsiyarning ta'byricha, ko'krak qisish kasalligi o'z holicha faqat ikkita hodisaga: og'riqa yoki o'limga olib borishi

mumkin, ya'ni odatdagi tekshirish bilan bundan boshqa kasallik ko'rinishlarini aniqlab bo'lmaydi. Ko'krak qisish kasalligining davosi kasal tutgan vaqtda shifobaxsh vositalarni qo'llanish va uning oldini olish choralarini ko'rishdan iborat. Anginoz og'riqlarni to'xtatadigan eng yaxshi dori nitroglitserinning spirtidagi bir protsentli eritmasidir (kasallik xuruji boshlayishi bilan, yaxshisi birniki tomchini to'g'ridan to'g'ri tilga tomizish kerak). Nitroglitserin tez syrilib tomirlarni, jumladan toj tomirlarni kengaytiradi Anginoz og'riqlar takror turadigan, xusuyoan yurib tutayotgan paytda totadigan kasallar nitroglitserin solingan shisha olib yurishi va kuniga bir necha marta tomchilab ichib turishlari kerak. Amilnitrit ham yaxshi ta'sir qiladi, uning ampulasini dastro'molga o'rab sindiriladi va hidlanadi Kasallik xuruj qilib turgan paytda qo'llaniladigan boshqa dorilar, chunonchi: Natrium nitrosum (bir protsentli eritmasn bir osh qoshiqdan kuniga uch marta), eufillin (Eurphyllini 0,2—0,3 g li tabletkalari yoki shamchalari kuniga uch marta ishlatiladi) birmuncha sekinroq ta'sir qiladi Ayrim hollarda kuniga 2—3 marta 0,02—0,05 g nikotin kislota ichilgandan keyin og'riq bosilib qoladi, Og'riq turgan paytda bemorni tinch qo'yish va issiq tutish zarur (kechasi og'riq turganda ko'krakka grelka qo'yiladi yoki yo'l va oyoqni issiq suvga solib turiladi). Nitroglitserindan bosilmaydigan qattik og'riqlarga qarshi morfın yoki pantoponning bir protsentli eritmasidan 1 ml ukol qilish kerak. Kasallik xuruj qilishining oldini olish uchun tarkibida purin asoslari bo'ladigan va koronar tomirlarning kengayishiga imkon beradigan dorilarni doim ichib yurish buyuriladn (xususan, ovkatdan keyin kuniga uch marta 0,5—1 g dan diuritin tabletkalari beriladi); «erv sistemasini tinchlantirish uchun brom preparatlari, lyuminal gavsiya qilinadi. Ko'krak qisishi kasalligining oldini olish uchun turmush sharoitlarini o'zgartirish (avvalo nervsixon jixatdan imkon boricha Ko'proq dam berish), hordiq chiqarish, parhez ovqatlarni buyurish, chekishga va ichimliklar ichishga barham berishni tavsiya etish zarur.

MIOKARD INFARKTI

Miokard infarkti (infarctus myocardii)— yurak toj arteriyalaridan biriningtrombozi natijasidir. Koronar arteriyalar tromboziga, odatda ateroskderoz sabab bo'ladi hozirgi vaqtda koronar arteriyalar trombozi, deb diagnoz kuyishga imkon beradigan klinik sindromni birinchi marta rus klinitsistlari—Peterburgdagi Obuxov kasalxonasining vrachi V. M. Kernig va birmuncha ravshan hamda aniqroq shaklda N. D. Obratsov bilan V. P. Strajeskolar tasvir etgan edi Kasallik mohiyati shundan iboratki, ko'pincha yara bo'lib ketadigan aterosklerotik pilakchalar tomir teshigida ko'tarilib turganligidan uning hammadan ko'p toraygan ma'lum qismida qon oqishi sekinlashib, fibrin cho'ka boshlaydi va tomir teshigini bekitib qo'yadigan tikin hosil bo'ladi Tomirning uzoq torayib turishi ham trombozga imkon tug'diradi. Patologoanatomik jihatdan miokardning tiqilib qolgan arteriyadan oziqlanadigan tegishli qismi tromboz nztijasida birdan holsizlanib, ishemiyaga uchraydi keyinchalik shu qismi nobud bo'ladi—nekrozlanadi Nekrozlangan qismi yurak muskulining sog'lom bo'limlaridan reaktiv yallig'lanish zonasi bilan ajralib turadi Nekrotik massalar parchalanib, ayrim hollarda yurak devorining do'mbayib chiqib turishi hamda yupka torishga (anevrizmaga) ga yorilishiga sabab bo'lishi mumkin. Ko'pincha esa ular borabora astasekin so'rilib ketadi va o'rniga chandiq qo'shuvchi to'qima paydo bo'ladi Miokard infarktida perikard (infarktga to'g'ri keladigan tegishli qismining reaktiv yallig'lanishi natijasida—pericarditis epistenogardica)va endokard ham kasallik protsessiga qo'shiladi, shu muhosabat bilan ba'zan embolkiyalarning manban bo'lib qoladigan devor yoni tromblari hosil bo'ladi

Koronar arteriyalar trombozida miokard infarkti aoj olishiga shunday bir sharoit yordam beradiki, unda o'sha arteriyalar o'zlarining mayda tarmoklari bilangina o'zaro anastomoz xosil qiladi, xolos. Shuning uchun koronar arteriya teshigi tez bekilib qolganida odatda o'sha mayda anaetomozlar orqali qon o'tib turishga ulgurolman qoladi Tomirlar astasekin bekilib boradigan bo'lsa, kollateral yo'l bilan qon aylanishi zo'rayganligi tufayli infarkt yuzaga kelmaydi. Ko'pincha chap koronar arteriya, xususan uning past tushadigan tarmog'i shikastlanadi, shuning natijasida yurak uchi

